Xurramov Sh.R.

OLIY MATEMATIKA

MISOL VA MASALALAR
NAZORAT TOPSHIRIQLARI

1



Chiziqli algebra elementlari

Vektorli algebra elementlari

Analitik geometriya

Matematik analizga kirish

Bir o'zgaruvchi funksiyalarining differensial hisobi

Bir o'zgaruvchi funksiyalarining integral hisobi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SH. R. XURRAMOV

OLIY MATEMATIKA

MASALALAR TO‘PLAMI
NAZORAT TOPSHIRIQLARI

I QISM

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etgan

TOSHKENT – 2015

UO‘K: 517 (075)
KBK 22.1
X-92

X-92 **Sh.R. Xurramov. Oliy matematika (masalalar to‘plami, nazorat topshiriqlari). Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. 1-qism. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 408 bet.**

ISBN 978–9943–983□21□2

Ushbu o‘quv qo‘llanma oily ta’lim muassasalarining texnika va texnologiya yo‘nalishlari bakalavrlari uchun «Oliy matematika» fani dasturi asosida yozilgan bo‘lib, fanning chiziqli algebra elementlari, vektorli algebra elementlari, analitik geometriya, matematik analizga kirish, bir o‘zgaruvchi funksiyasining differensial hisobi va bir o‘zgaruvchi funksiyasining integral hisobi bo‘limlariga oid materiallarni o‘z ichiga oladi.

Qo‘llanmada zarur nazariy tushunchalar, qoidalar, teoremalar va formulalar keltirilgan va ularning mohiyati misol va masalalar yechimlarida tushuntirilgan, mustahkamlash uchun mashqlar, nazorat ishi va talabalarning mustaqil ishlari uchun topshiriqlar berilgan. Har bir mustaqil ish topshirig‘iga oid misol va masala namuna sifatida yechib ko‘rsatilgan.

UO‘K: 517 (075)
KBK 22.1

Taqrizchilar:
A. Narmanov – fizika-matematika fanlari doktori, O‘zMU professori;
A. Abduraximov – fizika-matematika fanlari nomzodi, TAQI dotsenti.

ISBN 978–9943–983□21□2

SO‘Z BOSHI

Qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari texnika va texnoligiya bakalavr ta’lim yo‘nalishlari Davlat ta’lim standartlariga mos keladi va fanning o‘quv dasturlariga to‘la javob beradigan tarzda bayon qilingan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma bakalavr ta’lim yo‘nalishlarining 1-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanning chiziqli algebra elementlari, vektorli algebra elementlari, analitik geometriya, matematik analizga kirish, bir o‘zgaruvchi funksiyasining differensial hisobi va bir o‘zgaruvchi funksiyasining integral hisobi bo‘limlari bo‘yicha materiallarni o‘z ichiga oladi.

Qo‘llanmaning har bir bo‘limi zarur nazariy tushunchalar, ta’riflar, teoremalar va formulalar bilan boshlangan, ularning mohiyati misol va masalalarning yechimlarida tushuntirilgan, shu bo‘limga oid amaliy mashg‘ulot darslarida va mustaqil uy ishlarida bajarishga mo‘ljallangan ko‘p sondagi mustahkamlash uchun masqlar javoblari bilan berilgan.

Har bir bo‘limning oxirida nazorat ishi va talabalarning mustaqil ishlari uchun topshiriiqlar variantlari keltirilgan. Har bir mustaqil ish topshirig‘ining oxirgi varianti namuna sifatida yechib ko‘rsatilgan.

Qo‘llanmani yozishda oily texnika o‘quv yurtlarining bakalavrlari uchun oily matematika fanining amaldagi dasturida tavsiya qilingan adabiyotlardan hamda o‘zbek tilida chop etilgan zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalardan keng foydalanilgan.

Qo‘llanma haqida bildirilgan fikr va mulohazalar mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

Muallif

O‘quv qo‘llanmada *quyidagi belgilashlardan* foydalanilgan:

– muhim ta’riflar;

– «alohida e’tibor bering»;

, – misol yoki masala yechimining boshlanishi va oxiri;

Shuningdek, muhim teorema va formulalar to‘g‘ri to‘rtburchak ichiga olingan.

I bob
CHIZIQLI ALGEBRA ELEMENTLARI

1.1. DETERMINANTLAR

Ikkinchi va uchinchi tartibli determinantlar. Determinantning xossalari. $n-$tartibli determinantlar

1.1.1. $a_{11}a_{22}-a_{12}a_{21}$ ifodaga *ikkinchi tartibli determinant* deyiladi va u

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}-a_{12}a_{21} \qquad (1.1)$$

deb yoziladi, bu yerda a_{ij} $(i=1,2,\ j=1,2)-$ determinantning $i-$satr va $j-$ustunda joylashgan elementi.

a_{11}, a_{22} elementlar determinantning bosh diagonalini, a_{12}, a_{21} elementlar determinantning yordamchi diagonalini tashkil etadi.

Ikkinchi tartibli determinant bosh diagonal elementlari ko‘paytmasi bilan yordamchi diagonal elementlari ko‘paytmasining ayirmasiga teng:



$1-$misol. Determinantlarni hisoblang:

1) $\begin{vmatrix} 1 & -5 \\ 4 & 2 \end{vmatrix}$; 2) $\begin{vmatrix} tg\alpha & \sin\alpha \\ \sin\alpha & ctg\alpha \end{vmatrix}$.

Determinantlarni ta’rif (sxema) asosida topamiz:

1) $\begin{vmatrix} 1 & -5 \\ 4 & 2 \end{vmatrix} = 1\cdot 2-(-5)\cdot 4 = 22;$

2) $\begin{vmatrix} tg\alpha & \sin\alpha \\ \sin\alpha & ctg\alpha \end{vmatrix} = tg\alpha\cdot ctg\alpha-\sin\alpha\sin\alpha = 1-\sin^2\alpha = \cos^2\alpha.$

$a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{13}a_{21}a_{32} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{12}a_{21}a_{33} - a_{11}a_{23}a_{32}$ ifodaga *uchinchi tartibli determinant* deyiladi va u

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{13}a_{21}a_{32} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{12}a_{21}a_{33} - a_{11}a_{23}a_{32}. \quad (1.2)$$

deb yoziladi.

Uchinchi tartibli determinantlarni hisoblashda (1.2) ifodaning o'ng tomonidagi ko'paytmalarini topishning yodda saqlash uchun oson bo'lgan quyidagi sxemalaridan foydalaniladi.

«*Uchburchak qoidasi*» ushbu sxema bilan tasvirlanadi:



Bunda avval (1.2) determinant bosh diagonalidagi va asosi shu diagonalga parallel bo'lgan teng yonli uchburchaklar uchlaridagi elementlar alohida-alohida chiziqlar bilan tutashtirilib, determinantning musbat ishorali ko'paytmalari, keyin determinantning yordamchi diagonalidagi va asosi shu diagonalga parallel bo'lgan teng yonli uchburchaklar uchlaridagi elementlar alohida-alohida chiziqlar bilan tutashtirilib, determinantning manfiy ishorali ko'paytmalari hosil qilinadi.

«*Sarryus qoidalari*» quyidagi sxemalar bilan ifodalanadi:



1-qoidada avval (1.2) determinant tagiga uning birinchi ikkita satri yoziladi, 2-qoidada esa (1.2) determinant o‘ng tomoniga uning birinchi ikkita ustuni yoziladi. Keyin bosh diagonaldagi va bu diagonalga parallel to‘g‘ri chiziqlardagi uch element alohida-alohida chiziqlar bilan tutashtirilib, determinantning musbat ishorali ko‘paytmalari hosil qilinadi hamda yordamchi diagonaldagi va bu diagonalga parallel to‘g‘ri chiziqlardagi uch element alohida-alohida chiziqlar bilan tutashtirilib, determinantning manfiy ishorali ko‘paytmalari hosil qilinadi.

$2-$misol. Determinantlarni hisoblang: 1) Δ_1 ni uchburchak qoidasi bilan; 2) Δ_2 ni Sarryusning 1-qoidasi bilan, Δ_3 ni Sarryusning 2-qoidasi bilan.

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} 2 & -1 & 3 \\ 3 & 2 & -1 \\ 1 & 3 & -2 \end{vmatrix}, \quad \Delta_2 = \begin{vmatrix} 1 & 5 & 3 \\ 3 & 1 & -2 \\ 2 & -4 & 1 \end{vmatrix}, \quad \Delta_3 = \begin{vmatrix} 3 & 4 & -1 \\ 2 & 0 & 3 \\ 3 & -1 & 2 \end{vmatrix}.$$

1) Δ_1 determinantni uchburchak qoidasi asosida topamiz:

$$\begin{matrix} 2 & -1 & 3 \\ 3 & 2 & -1 \\ 1 & 3 & -2 \end{matrix} \Rightarrow -8+1+27=20, \quad \begin{matrix} 2 & -1 & 3 \\ 3 & 2 & -1 \\ 1 & 3 & -2 \end{matrix} \Rightarrow 6-6+6=6, \quad \Delta_1 = 20-6=14.$$

2) Δ_2 va Δ_3 determinantlarni Sarryus qoidalari bilan hisoblaymiz:

$$\begin{matrix} 1 & 5 & 3 \\ 3 & 1 & -2 \\ 2 & -4 & 1 \\ 1 & 5 & 3 \\ 3 & 1 & -2 \end{matrix} \Rightarrow \Delta_2 = 1-36-20-(6+8+15) = -55-29 = -84.$$

$$\begin{matrix} 3 & 4 & -1 & 3 & 4 \\ 2 & 0 & 3 & 2 & 0 \\ 3 & -1 & 2 & 3 & -1 \end{matrix} \Rightarrow \Delta_3 = 0+36+2-(0-9+16) = 31.$$

Determinant a_{ij} *elementining* M_{ij} *minori* deb, shu element joylashgan satr va ustunni o‘chirishdan hosil bo‘lgan determinantga aytiladi.

$A_{ij} = (-1)^{i+j} M_{ij}$ miqdorga determinant a_{ij} *elementining algebraik to‘ldiruvchisi* deyiladi.

1.1.2. Determinant quyidagi xossalarga ega.

1^o. Transponirlash (barcha satrlarni mos ustunlar bilan almashtirish) natijasida determinantning qiymati o‘zgarmaydi.

2^o. Determinantda ikkita satr (ustun) o‘rinlari almashtirilsa, determinant ishorasini qarama-qarshisiga o‘zgartiradi.

3^o. Agar determinant ikkita bir xil satrga (ustunga) ega bo‘lsa, uning qiymati nolga teng.

4^o. Determinantning biror satri (ustuni) elementlarini $\lambda \neq 0$ songa ko‘paytirilsa, determinant shu songa ko‘payadi yoki biror satr (ustun) elelmentlarining umumiy ko‘paytuvchisini determinant belgisidan chiqarish mumkin.

5^o. Agar determinant biror satrining (ustunining) barcha elementlari nolga teng bo‘lsa, uning qiymati nolga teng.

6^o. Agar determinant ikki satrining (ustunining) mos elementlari proporsional bo‘lsa, uning qiymati nolga teng.

7^o. Agar determinant biror satrining (ustunining) har bir elementi ikki qo‘shiluvchi yig‘indisidan iborat bo‘lsa, determinant ikki determinant yig‘indisiga teng bo‘lib, ulardan birinchisining tegishli satri (ustuni) birinchi qo‘shiluvchilardan, ikkinchisining tegishli satri (ustuni) ikkinchi qo‘shiluvchilardan tashkil topadi.

8^o. Agar determinantning biror satri (ustuni) elementlariga boshqa satrining (ustunining) mos elementlarini biror songa ko‘paytirib qo‘shilsa, determinantning qiymati o‘zgarmaydi.

9^o. Determinantning qiymati uning biror satri (ustuni) elementlari bilan shu elementlarga mos algebraik to‘ldiruvchilar ko‘paytmalarining yig‘indisiga teng.

10^o. Determinant biror satri (ustuni) elementlari bilan boshqa satri (ustuni) mos elementlari algebraik to‘ldiruvchilari ko‘paytmalarining yig‘indisi nolga teng.

Uchinchi tartibli determinantni uchburchak va Sarryus qoidalari bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan xossalar orqali soddalashtirib, hisoblash mumkin.

$3-$misol. Determinantni hisoblang:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix}.$$

2 – va 3 – satrlarga (-1) ga ko‘paytirilgan 1 – sartni qo‘shamiz. Bunda 8^o xossaga ko‘ra determinantning qiymati o‘zgarmaydi.

U holda

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 3 & 3 & 3 \\ 6 & 6 & 6 \end{vmatrix}.$$

Bu determinantning 2 – va 3 – satrlarining mos elementlari proporsional. Shu sababli 6^o xossaga ko‘ra determinant nolga teng, ya’ni $\Delta = 0.$

1.2.3. n ta satr va n ta ustundan tashkil topgan ushbu

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

determinantga n – *tartibli determinant* deyiladi.

n – tartibli determinant avval xossalar bilan soddalashtirilib, keyin quyidagi usullardan biri bilan hisoblanishi mumkin:

a) $$\Delta = a_{i1}A_{i1} + a_{i2}A_{i2} + \dots + a_{in}A_{in}, \; i = \overline{1,n}, \qquad (1.3)$$

$$\Delta = a_{1j}A_{1j} + a_{2j}A_{2j} + \dots + a_{nj}A_{nj}, \; j = \overline{1,n}. \qquad (1.4)$$

formulalar bilan biror satr yoki ustun elementlari bo‘yicha *yoyib;*

b) biror satrdagi (ustundagi) bittadan boshqa barcha elementlarni nolga aylantirib, so‘ngra shu satr (ustun) bo‘yicha yoyib, ya’ni *tartibini pasaytirib*;

c) bosh (yordamchi) diagonaldan bir tomonda yotuvchi barcha elementlarni nolga aylantirib, ya’ni *uchburchak ko‘rinishga keltirib*.

4 – misol. Determinantlarni hisoblang: 1) Δ_1 ni biror satr yoki ustun bo‘yicha yoyib; 2) Δ_2 ni tartibini pasaytirib; 3) Δ_3 ni uchburchak ko‘rinishga keltirib.

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} 2 & -1 & 3 & -2 \\ 4 & 3 & 0 & -1 \\ 2 & 1 & -1 & 2 \\ 0 & 3 & -1 & 0 \end{vmatrix}; \quad \Delta_2 = \begin{vmatrix} 2 & 1 & 3 & -5 \\ 1 & 4 & 1 & 2 \\ 3 & 2 & -1 & -2 \\ -1 & 3 & 2 & 3 \end{vmatrix}; \quad \Delta_3 = \begin{vmatrix} 5 & 8 & 3 & 4 \\ 2 & 0 & 5 & 0 \\ 1 & 0 & 4 & 0 \\ 4 & 7 & 2 & 1 \end{vmatrix}.$$

1) Determinantni biror satr yoki ustun bo‘yicha yoyib hisoblash uchun odatda nol soni bor satr yoki ustun tanlanadi, chunki bunda nollar qatnashgan qo‘shiluvchilar nolga teng bo‘ladi. Berilgan determinantni hisoblash uchun ikkita noli bor $4-$satrni tanlaymiz va (1.3) formuladan $i=4$da topamiz:

$$\Delta_1=\begin{vmatrix}2&-1&3&-2\\4&3&0&-1\\2&1&-1&2\\0&3&-1&0\end{vmatrix}=3\cdot(-1)^{4+2}\begin{vmatrix}2&3&-2\\4&0&-1\\2&-1&2\end{vmatrix}+(-1)\cdot(-1)^{4+3}\begin{vmatrix}2&-1&-2\\4&3&-1\\2&1&2\end{vmatrix}=$$

$$=3(-6+8-2-24)+12+2-8+12+2+8=3\cdot(-24)+28=-44.$$

2) Determinantni xossalar yordamida tartibini pasaytirib hisoblaymiz. Bunda $2-$satrning $1-$ustunida joylashgan elementidan boshqa barcha elementlarini nolga keltiramiz. Buning uchun avval $2-$ustunga (-4)ga ko‘paytirilgan $1-$ustunni qo‘shamiz; $3-$ustunga (-1)ga ko‘paytirilgan $1-$ustunni qo‘shamiz; $4-$ustunga (-2)ga ko‘paytirilgan $1-$ustunni qo‘shamiz, keyin hosil bo‘lgan determinantni $2-$satr bo‘yicha yoyamiz:

$$\Delta_2=\begin{vmatrix}2&1&3&-5\\1&4&1&2\\3&2&-1&-2\\-1&3&2&3\end{vmatrix}=\begin{vmatrix}2&-7&1&-9\\1&0&0&0\\3&-10&-4&-8\\-1&7&3&5\end{vmatrix}=(-1)^{2+1}\begin{vmatrix}-7&1&-9\\-10&-4&-8\\7&3&5\end{vmatrix}$$

Hosil bo‘lgan uchinchi tartibli determinantning $2-$satrida (-2)ni determinant belgisidan tashqariga chiqaramiz va $2-$ustunning $1-$satri elementidan pastda joylashgan elementlarini nolga aylantiramiz. Buning uchun $2-$satrga (-2)ga ko‘paytirilgan $1-$satrni qo‘shamiz, $3-$satrga (-3)ga ko‘paytirilgan $1-$satrni qo‘shamiz, $3-$ustunda 4 ni determinant belgisidan tashqariga chiqaramiz, hosil bo‘lgan determinantni $2-$ustun elementlari bo‘yicha yoyamiz va kelib chiqqan ikkinchi tartibli determinantni hisoblaymiz:

$$\Delta_2=2\cdot\begin{vmatrix}-7&1&-9\\5&2&4\\7&3&5\end{vmatrix}=2\cdot\begin{vmatrix}-7&1&-9\\19&0&22\\28&0&32\end{vmatrix}=2\cdot4\cdot\begin{vmatrix}-7&1&-9\\19&0&22\\7&0&8\end{vmatrix}=8\cdot(-1)^{1+2}\begin{vmatrix}19&22\\7&8\end{vmatrix}=16.$$

3) Determinantni uchburchak ko‘rinishga keltirib hisoblaymiz. Buning uchun quyidagi almashtirishlarni bajaramiz:

- $3-$satrni o‘zidan yuqorida joylashgan satrlar bilan ketma-ket o‘rin almashtirib, $1-$satrga joylashtiramiz;

- $1-$ustunning $1-$satridan pastda joylashgan elementlarini nolga aylantiramiz;

- $2-$satrda 8ni va $3-$satrda (-3)ni determinant belgisidan tashqariga chiqaramiz;

- $2-$ustunning $2-$satridan pastda joylashgan elementlarini nolga aylantiramiz;

- $3-$ustunning $4-$satrida joylashgan elementini nolga aylantiramiz;

- hosil bo‘lgan uchburchak ko‘rinishgagi determinantdan tashqaridagi sonni bosh diagonal elementlariga ko‘paytiramiz.

$$\Delta_3=\begin{vmatrix} 5 & 8 & 3 & 4 \\ 2 & 0 & 5 & 0 \\ 1 & 0 & 4 & 0 \\ 4 & 7 & 2 & 1 \end{vmatrix}=\begin{vmatrix} 1 & 0 & 4 & 0 \\ 5 & 8 & 3 & 4 \\ 2 & 0 & 5 & 0 \\ 4 & 7 & 2 & 1 \end{vmatrix}=$$

$$=\begin{vmatrix} 1 & 0 & 4 & 0 \\ 0 & 8 & -17 & 4 \\ 0 & 0 & -3 & 0 \\ 0 & 7 & -14 & 1 \end{vmatrix}=8\cdot(-3)\cdot\begin{vmatrix} 1 & 0 & 4 & 0 \\ 0 & 1 & -\frac{17}{8} & \frac{1}{2} \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 7 & -14 & 1 \end{vmatrix}=$$

$$=-24\cdot\begin{vmatrix} 1 & 0 & 4 & 0 \\ 0 & 1 & -\frac{17}{8} & \frac{1}{2} \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & \frac{7}{8} & -\frac{5}{2} \end{vmatrix}=-24\cdot\begin{vmatrix} 1 & 0 & 4 & 0 \\ 0 & 1 & -\frac{17}{8} & \frac{1}{2} \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -\frac{5}{2} \end{vmatrix},$$

$$\Delta_3=-24\cdot 1\cdot 1\cdot 1\cdot\left(-\frac{5}{2}\right)=60.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

Ikkinchi tartibli determinantlarni hisoblang:

1.1.1. $\begin{vmatrix} 3 & 4 \\ -5 & -2 \end{vmatrix}$.

1.1.2. $\begin{vmatrix} 4 & -6 \\ -3 & 5 \end{vmatrix}$.

1.1.3. $\begin{vmatrix} y & x-y \\ x & -x \end{vmatrix}$.

1.1.4. $\begin{vmatrix} 1 & a+b \\ b+1 & a+b \end{vmatrix}$.

1.1.5. $\begin{vmatrix} \sin^2\alpha & \cos^2\alpha \\ \sin^2\beta & \cos^2\beta \end{vmatrix}$.

1.1.6. $\begin{vmatrix} tg\alpha+1 & ctg\alpha-1 \\ \sin\alpha & \cos\alpha \end{vmatrix}$.

Uchinchi tartibli determinantlarni uchburchak va Sarryus qoidalari bilan hisoblang:

1.1.7. $\begin{vmatrix} 1 & 4 & 3 \\ 2 & 1 & 3 \\ 5 & 3 & 2 \end{vmatrix}$.

1.1.8. $\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & -2 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix}$.

1.1.9. $\begin{vmatrix} 5 & -1 & 1 \\ 4 & 0 & -3 \\ 2 & -3 & 1 \end{vmatrix}$.

1.1.10. $\begin{vmatrix} -2 & 0 & -4 \\ 3 & 1 & 1 \\ -1 & 2 & -3 \end{vmatrix}$.

Uchinchi tartibli determinantlarni biror satr yoki ustun elementlari bo‘yicha yoyib hisoblang:

1.1.11. $\begin{vmatrix} 4 & 0 & -2 \\ 7 & 1 & -3 \\ 3 & 0 & 4 \end{vmatrix}$.

1.1.12. $\begin{vmatrix} 3 & 1 & -1 \\ 2 & -1 & 0 \\ 0 & 0 & 2 \end{vmatrix}$.

1.1.13. $\begin{vmatrix} 1 & b & 1 \\ b & b & 0 \\ b & 0 & -b \end{vmatrix}$.

1.1.14. $\begin{vmatrix} x & -1 & x \\ 1 & x & -1 \\ x & 1 & x \end{vmatrix}$.

1.1.15. $\begin{vmatrix} \sin\alpha & \sin\beta & 0 \\ \sin\alpha & 0 & \sin\gamma \\ 0 & \sin\beta & \sin\gamma \end{vmatrix}$.

1.1.16. $\begin{vmatrix} tg\alpha & ctg\beta & 0 \\ tg\alpha & 0 & tg\beta \\ 0 & ctg\alpha & tg\beta \end{vmatrix}$.

Uchinchi tartibli determinantlarni xossalaridan foydalanib hisoblang:

1.1.17. $\begin{vmatrix} 1 & c & ab \\ 1 & b & ca \\ 1 & a & bc \end{vmatrix}$.

1.1.18. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 \\ ax & ay & az \\ a^2+x^2 & a^2+y^2 & a^2+z^2 \end{vmatrix}$.

1.1.19. $\begin{vmatrix} a+b & b & b \\ b & a+b & b \\ b & b & a+b \end{vmatrix}$.

1.1.20. $\begin{vmatrix} x & x+y & x-y \\ x & x+z & x-2z \\ x & x & x \end{vmatrix}$.

1.1.21. $\begin{vmatrix} a & a^2+1 & (1+a)^2 \\ b & b^2+1 & (1+b)^2 \\ c & c^2+1 & (1+c)^2 \end{vmatrix}$.

1.1.22. $\begin{vmatrix} 1+\cos\alpha & 1 & 1+\sin\alpha \\ 1-\sin\alpha & 1 & 1-\cos\alpha \\ 1 & 1 & 1 \end{vmatrix}$.

Tenglamalarni yeching:

1.1.23. $\begin{vmatrix} x+3 & x+2 \\ 6-2x & x+2 \end{vmatrix} = 0.$

1.1.24. $\begin{vmatrix} 2x-1 & x+1 \\ x+2 & x-1 \end{vmatrix} = -6.$

1.1.25. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 \\ x^2 & 4 & 9 \\ x & 2 & 3 \end{vmatrix} = 0.$

1.1.26. $\begin{vmatrix} 6 & 3 & x-1 \\ 4 & x+2 & 2 \\ 2x & 1 & 0 \end{vmatrix} = 0.$

To‘rtinchi tartibli determinantlarni hisoblang:

1.1.27. $\begin{vmatrix} 1 & -1 & 2 & 2 \\ 3 & -1 & 5 & -2 \\ -2 & -3 & 0 & 2 \\ 0 & -2 & 4 & 1 \end{vmatrix}$.

1.1.28. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 3 & 2 \\ 2 & 0 & 0 & 8 \\ 3 & 0 & 0 & 2 \\ 4 & 4 & 7 & 5 \end{vmatrix}$.

1.1.29. $\begin{vmatrix} 5 & a & 2 & -1 \\ 4 & b & 4 & -3 \\ 2 & c & 3 & -2 \\ 4 & d & 5 & -4 \end{vmatrix}$.

1.1.30. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 2 & 2 \\ 9 & -8 & 5 & 10 \\ 5 & -8 & 5 & 8 \\ 6 & -5 & 4 & 7 \end{vmatrix}$.

1.2. MATRITSALAR

Matritsalar va ular ustida amallar. Teskari matritsa. Matritsaning rangi

1.2.1. Sonlarning m ta satr va n ta ustundan tashkil topgan to‘g‘ri to‘rtburchakli

$$(a_{ij})=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

jadvaliga $m\times n$ *o‘lchamli matritsa* deyiladi, bu yerda
$a_{ij}\left(i=\overline{1,m}, j=\overline{1,n}\right)$ – matritsaning i–satr va j–ustunda joylashgan elementi.

$1\times n$ o‘lchamli matritsa *satr matritsa* yoki *satr-vektor*, $m\times 1$ o‘lchamli matritsa *ustun matritsa* yoki *ustun-vektor* deb ataladi.

$n\times n$ o‘lchamli maritsaga $n-$ *tartibli kvadrat matritsa* deyiladi. Bosh diagonalidan bir tomonda yotuvchi barcha elementlari nolga teng bo‘lgan kvadrat matritsaga *uchburchak matritsa* deyiladi. Bosh diagonali elementlaridan boshqa barcha elementlari nolga teng bo‘lgan kvadrat matritsaga *diagonal matritsa* deyiladi. Barcha elementlari birga teng bo‘lgan diagonal matritsa *birlik matritsa* deb ataladi va E bilan belgilanadi.

Barcha elementlari nolga teng bo‘lgan matritsaga *nol matritsa* deyiladi va Q bilan belgilanadi.

$n-$ tartibli kvadrat matritsaning determinanti $\det A$ yoki $|A|$kabi belgilanadi. Bunda agar $\det A\neq 0$ bo‘lsa, A *maxsusmas* (yoki *xosmas*) *matritsa*, agar $\det A=0$ bo‘lsa, A *maxsus* (yoki *xos*) *matritsa* deb ataladi.

A matritsada barcha satrlarni mos ustunlar bilan almashtirish natijasida hosil qilingan A^* matritsaga A matritsaning *transponirlangan matritsasi* deyiladi. Bunda $A=A^*$ bo‘lsa A *simmetrik matritsa* bo‘ladi.

Bir xil o‘lchamli $A=(a_{ij})$ va $B=(b_{ij})$ matritsalarning barcha mos elementlari teng, ya’ni $a_{ij}=b_{ij}$ bo‘lsa bu matritsalarga *teng matritsalar* deyiladi va $A=B$ deb yoziladi.

Bir xil o‘lchamli $A=(a_{ij})$ va $B=(b_{ij})$ *matritsalarning yig‘indisi* deb, elementlari $c_{ij}=a_{ij}+b_{ij}$ kabi aniqlanadigan shu o‘lchamdagi $C=A+B$ matritsaga aytiladi.

$A=(a_{ij})$ *matritsaning* $\lambda \neq 0$ *songa ko'paytmasi* deb, elementlari $c_{ij}=\lambda a_{ij}$ kabi aniqlanadigan shu o'lchamdagi $C=\lambda A$ matritsaga aytiladi.

$-A=(-1)\cdot A$ matritsa A *matritsaga qarama-qarshi matritsa* deb ataladi.

Bir xil o'lchamli $A=(a_{ij})$ va $B=(b_{ij})$ *matritsalarning ayirmasi* $A-B=A+(-B)$ kabi topiladi.

Matritsalarni qo'shish va ayirish amallari bir xil o'lchamli matritsalar uchun kiritiladi.

$1-$misol. $A=\begin{pmatrix} 1 & 2 & 0 \\ 3 & -2 & 1 \end{pmatrix}$ va $B=\begin{pmatrix} 2 & -1 & 0 \\ 1 & 3 & -1 \end{pmatrix}$ matritsalar berilgan. $3A-2B$ matritsani toping.

Matritsani songa ko'paytirish va matritsalarni qo'shish ta'riflari asosida topamiz:

$$3A=\begin{pmatrix} 3 & 6 & 0 \\ 9 & -6 & 3 \end{pmatrix}, \quad -2B=\begin{pmatrix} -4 & 2 & 0 \\ -2 & -6 & 2 \end{pmatrix},$$

$$3A-2B=\begin{pmatrix} 3+(-4) & 6+2 & 0+0 \\ 9+(-2) & -6+(-6) & 3+2 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} -1 & 8 & 0 \\ 7 & -12 & 5 \end{pmatrix}.$$

$m\times p$ o'lchamli $A=(a_{ij})$ matritsaning $p\times n$ o'lchamli $B=(b_{jk})$ matritsaga *ko'paytmasi* deb, elementlari $c_{ik}=a_{i1}b_{1k}+a_{i2}b_{2k}+\ldots+a_{ip}b_{pk}$ (qo'shiluvchlari quyidagi sxemada keltirilgan) kabi aniqlanadigan $m\times n$ o'lchamli $C=AB$ matritsaga aytiladi.



$(m$ *ta satr*, p *ta ustun*$)$ $(p$ *ta satr*, n *ta ustun*$)$

Ikki matritsani ko'paytirish amali $1-$matritsaning ustunlari soni $2-$matritsaning satrlari soniga teng bo'lgan holda kiritiladi.

2 – misol. AB ko'paytmani toping:

$$A=\begin{pmatrix}4 & -1\\ 2 & 1\\ 0 & -3\end{pmatrix},\qquad B=\begin{pmatrix}1 & 2 & -1 & 3\\ 0 & 4 & 2 & -1\end{pmatrix}.$$

Yuqorida keltirilgan sxema asosida topamiz:

$$AB=\begin{pmatrix}4 & -1\\ 2 & 1\\ 0 & -3\end{pmatrix}\cdot\begin{pmatrix}1 & 2 & -1 & 3\\ 0 & 4 & 2 & -1\end{pmatrix}=$$

$$=\begin{pmatrix}4\cdot1+(-1)\cdot0 & 4\cdot2+(-1)\cdot4 & 4\cdot(-1)+(-1)\cdot2 & 4\cdot3+(-1)\cdot(-1)\\ 2\cdot1+1\cdot0 & 2\cdot2+1\cdot4 & 2\cdot(-1)+1\cdot2 & 2\cdot3+1\cdot(-1)\\ 0\cdot1+(-3)\cdot0 & 0\cdot2+(-3)\cdot4 & 0\cdot(-1)+(-3)\cdot2 & 0\cdot3+(-3)\cdot(-1)\end{pmatrix}=$$

$$=\begin{pmatrix}4 & 4 & -6 & 13\\ 2 & 8 & 0 & 5\\ 0 & -12 & -6 & 3\end{pmatrix}.$$

Bir xil tartibli A va B kvadrat matritsalar uchun AB va BA ko'paytmalarni topish mumkin. Bunda $AB=BA$ bo'lsa A va B *kommutativ matritsalar* deb ataladi.

1.2.2. A kvadrat matritsa uchun $AA^{-1}=A^{-1}A=E$ tenglik bajarilsa, A^{-1} matritsa A matritsaga *teskari matritsa* deyiladi.

Har qanday maxsusmas A matritsa uchun A^{-1} matritsa mavjud va yagona boladi.

A matritsaning teskari matritsasi

$$A^{-1}=\frac{1}{\Delta}\begin{pmatrix}A_{11} & A_{21} & \dots & A_{n1}\\ A_{12} & A_{22} & \dots & A_{n2}\\ \dots & \dots & \dots & \dots\\ A_{1n} & A_{2n} & \dots & A_{nn}\end{pmatrix}. \qquad (1.5)$$

formula bilan aniqlanadi.

$3-$ misol. A matritsaga teskari matritsani toping:

$$A=\begin{pmatrix} 2 & -1 & 0 \\ -1 & 1 & 3 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix}.$$

Matritsaning determinantini hisoblaymiz:

$$\Delta=\begin{vmatrix} 2 & -1 & 0 \\ -1 & 1 & 3 \\ 1 & 2 & -1 \end{vmatrix}=-16\neq 0.$$

Demak, A^{-1} mavjud. Δ ning algebraik to'ldiruvchilarini hisoblaymiz:

$$A_{11}=\begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 2 & -1 \end{vmatrix}=-7; \qquad A_{21}=-\begin{vmatrix} -1 & 0 \\ 2 & -1 \end{vmatrix}=-1; \qquad A_{31}=\begin{vmatrix} -1 & 0 \\ 1 & 3 \end{vmatrix}=-3;$$

$$A_{12}=-\begin{vmatrix} -1 & 3 \\ 1 & -1 \end{vmatrix}=2; \qquad A_{22}=\begin{vmatrix} 2 & 0 \\ 1 & -1 \end{vmatrix}=-2; \qquad A_{32}=-\begin{vmatrix} 2 & 0 \\ -1 & 3 \end{vmatrix}=-6;$$

$$A_{13}=\begin{vmatrix} -1 & 1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix}=-3; \qquad A_{23}=-\begin{vmatrix} 2 & -1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix}=-5; \qquad A_{33}=\begin{vmatrix} 2 & -1 \\ -1 & 1 \end{vmatrix}=1.$$

Teskari matritsani (1.5) formuladan topamiz:

$$A^{-1}=-\frac{1}{16}\begin{pmatrix} -7 & -1 & -3 \\ 2 & -2 & -6 \\ -3 & -5 & 1 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} \frac{7}{16} & \frac{1}{16} & \frac{3}{16} \\ -\frac{1}{8} & \frac{1}{8} & \frac{3}{8} \\ \frac{3}{16} & \frac{5}{16} & -\frac{1}{16} \end{pmatrix}$$

1.2.3. $m\times n$ o'lchamli A matritsadan k $(k\leq \min(m;n))$ ta satr va k ta ustunni ajratib, hosil qilingan $k-$tartibli kvadrat matritsaning determinantiga *A matritsaning $k-$tartibli minori* deyiladi.

A matritsa noldan farqli minorlarining yuqori tartibiga *A matritsaning rangi* deyiladi va $r(A)$ (yoki $rangA$) bilan belgilanadi. Bunda $A\neq Q$ uchun $1\leq r(A)\leq \min(m;n)$, $A=Q$ uchun $r(A)=0$.

$r(A)$ ni ta'rif asosida topish usuli *minorlar ajratish usuli* deb ataladi.

Matritsalar ustida bajariladigan quyidagi almashtirishlarga *elementar almashtirishlar* deyiladi:

a) faqat nollardan iborat satrni (ustunni) o'chirish;

b) ikkita satrning (ustunning) o'rinlarini almashtirish;

c) biror satrning (ustunning) barcha elementlarini noldan farqli songa ko'paytirish;

d) biror satrning (ustunning) barcha elementlarini noldan farqli songa ko'paytirib, boshqa satrning (ustunning) mos elementlariga qo'shish.

Elementar almashtirishlar natijasida matritsaning rangi o'zgarmaydi.

Biri ikkinchisidan elementar almashtirishlar natijasida hosil qilingan A va B matritsalarga *ekvivalent matritsalar* deyiladi va $A \sim B$ deb yoziladi.

Diagonal elementlarining ayrimlari (yuqori satrlardagi) birga va ayrimlari nolga teng bo'lgan matritsaga *kanonik matritsa* deyiladi. Kanonik matritsaning rangi uning diagonalida joylashgan birlar soniga teng bo'ladi.

$r(A)$ ni A matritsani elementar almashtirishlar orqali kanonik matritsaga keltirib topish usuliga *elementar almashtirishlar usuli* deyiladi.

$4-$ misol. Matritsaning rangini minorlar ajratish usuli bilan toping:

$$A = \begin{pmatrix} 2 & -1 & 3 & -2 & 4 \\ 4 & -2 & 5 & 1 & 7 \\ 2 & -1 & 1 & 8 & 2 \end{pmatrix}.$$

$1 \le r(A) \le \min(3;5) = 3.$

Ikkinchi tartibli minorlardan biri

$$\begin{vmatrix} -1 & 3 \\ -2 & 5 \end{vmatrix} = -5 + 6 = 1 \ne 0.$$

Uchinchi tartibli minorlarni hisoblaymiz:

$$M_1^{(3)} = \begin{vmatrix} 2 & -1 & 3 \\ 4 & -2 & 5 \\ 2 & -1 & 1 \end{vmatrix} = 0; \qquad M_2^{(3)} = \begin{vmatrix} 2 & -1 & -2 \\ 4 & -2 & 1 \\ 2 & -1 & 8 \end{vmatrix} = 0;$$

$$M_3^{(3)}=\begin{vmatrix}2&-1&4\\4&-2&7\\2&-1&2\end{vmatrix}=0; \qquad M_4^{(3)}=\begin{vmatrix}-1&3&-2\\-2&5&1\\-1&1&8\end{vmatrix}=0;$$

$$M_5^{(3)}=\begin{vmatrix}-1&3&4\\-2&5&7\\-1&1&2\end{vmatrix}=0; \qquad M_6^{(3)}=\begin{vmatrix}3&-2&4\\5&1&7\\1&8&2\end{vmatrix}=0;$$

$$M_7^{(3)}=\begin{vmatrix}-1&-2&4\\-2&1&7\\-1&8&2\end{vmatrix}=0; \qquad M_8^{(3)}=\begin{vmatrix}2&3&4\\4&5&7\\2&1&2\end{vmatrix}=0;$$

$$M_9^{(3)}=\begin{vmatrix}2&3&-2\\4&5&1\\2&1&8\end{vmatrix}=0; \qquad M_{10}^{(3)}=\begin{vmatrix}2&-2&4\\4&1&7\\2&8&2\end{vmatrix}=0.$$

Barcha uchinchi tartibli minorlar nolga teng. Demak $r(A)=2$.

$5-$ misol. Matritsaning rangini elementar almashtirishlar usuli bilan toping:

$$A=\begin{pmatrix}0&5&-10&0\\-1&-4&5&-3\\3&1&7&9\\1&-7&17&3\end{pmatrix}.$$

Matritsani kanonik ko‘rinishga keltiramiz.

Buning uchun elementar almashtirishlarni bajaramiz:

– avval matritsaning $1-$va $4-$satrlarining o‘rinlarini almashtiramiz, keyin $2-$satr elementlariga $1-$satrning mos elementlarini qo‘shamiz va $3-$satr elementlariga (-3)ga ko‘paytirilgan $1-$satrning mos elementlarini qo‘shamiz;

– hosil bo‘lgan matrisaning $2, 3$ va $4-$ satr elementlarini mos ravishda (-11), 22 va 5 ga bo‘lamiz, keyin (-1)ga ko‘paytirilgan $2-$satr elementlarini 3 va $4-$satrning mos elementlariga qo‘shamiz;

– hosil bo‘lgan matritsaning $2, 3$ va $4-$ ustun elementlariga mos ravishda 7, (-17) va (-3) ga ko‘paytirilgan $1-$ustun elementlarini qo‘shamiz, keyin $3-$ ustun elementlariga 2 ga ko‘paytirilgan $2-$ustun elementlarini qo‘shamiz.

Bajarilgan elementar almashtirishlarni sxema tarzida keltiramiz:

$$A=\begin{pmatrix} 0 & 5 & -10 & 0 \\ -1 & -4 & 5 & -3 \\ 3 & 1 & 7 & 9 \\ 1 & -7 & 17 & 3 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & -7 & 17 & 3 \\ -1 & -4 & 5 & -3 \\ 3 & 1 & 7 & 9 \\ 0 & 5 & -10 & 0 \end{pmatrix} \sim$$

$$\sim \begin{matrix} \\ :(-11) \\ :22 \\ :5 \end{matrix} \begin{pmatrix} 1 & -7 & 17 & 3 \\ 0 & -11 & 22 & 0 \\ 0 & 22 & -44 & 0 \\ 0 & 5 & -10 & 0 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & -7 & 17 & 3 \\ 0 & 1 & -2 & 0 \\ 0 & 1 & -2 & 0 \\ 0 & 1 & -2 & 0 \end{pmatrix} \sim$$

$$\sim \begin{pmatrix} 1 & -7 & 17 & 3 \\ 0 & 1 & -2 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -2 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}.$$

Demak, $r(A)=2.$

Mustahkamlash uchun mashqlar

$A,\ B$ matritsalar va $\lambda,\ \mu$ sonlar berilgan. $\lambda A+\mu B$ matritsani toping:

1.2.1. $A=\begin{pmatrix} 1 & -1 & -1 \\ 2 & -3 & 0 \end{pmatrix},\ B=\begin{pmatrix} 2 & 3 & -1 \\ -1 & 0 & 2 \end{pmatrix},\ \lambda=-1,\ \mu=2.$

1.2.2. $A=\begin{pmatrix} 0 & -3 \\ -2 & 1 \\ 1 & 4 \end{pmatrix},\ B=\begin{pmatrix} -1 & 2 \\ 3 & -1 \\ 2 & -5 \end{pmatrix},\ \lambda=2,\ \mu=-3.$

1.2.3. $A=\begin{pmatrix} 2 & -1 & 0 \\ -1 & 3 & -2 \\ 2 & 3 & 1 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} -3 & 1 & 1 \\ 0 & -1 & 0 \\ -4 & -3 & 2 \end{pmatrix}$, $\lambda=-3$, $\mu=-2$.

1.2.4. $A=\begin{pmatrix} 2 & -1 & 2 \\ 5 & -3 & 3 \\ -1 & 0 & -2 \end{pmatrix}$, $B=E$, $\lambda=1$, $\mu=-\nu$.

A va B matritsalar berilgan. AB matritsani toping:

1.2.5. $A=\begin{pmatrix} 2 & 0 \\ -1 & 3 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} 1 & -1 & -2 \\ 3 & 2 & 0 \end{pmatrix}$. **1.2.6.** $A=\begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 0 & -1 \\ 3 & 2 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} 4 & -2 \\ 2 & 3 \end{pmatrix}$.

1.2.7. $A=\begin{pmatrix} 1 & 1 & 4 \\ 3 & 0 & 1 \\ 2 & 1 & 0 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} -1 & 3 \\ 0 & -1 \\ 2 & 1 \end{pmatrix}$. **1.2.8.** $A=\begin{pmatrix} 1 & -1 & 2 \\ -2 & 0 & 3 \\ 1 & -1 & 0 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} 4 & 0 & -2 \\ 2 & -1 & 0 \\ 0 & -1 & 3 \end{pmatrix}$.

A,B va C matritsalar berilgan. $(AB)C$ matritsani toping:

1.2.9. $A=\begin{pmatrix} 2 & -2 \\ 2 & 3 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} 1 & 4 \\ -2 & 5 \end{pmatrix}$, $C=B-3E$.

A,B va C matritsalar berilgan. $A(BC)$ matritsalarni toping:

1.2.10. $A=\begin{pmatrix} 3 & -1 \\ 2 & 4 \end{pmatrix}$, $B=\begin{pmatrix} 4 & 5 \\ 2 & 6 \end{pmatrix}$, $C=\begin{pmatrix} -1 & 4 \\ 5 & 3 \end{pmatrix}$.

1.2.11. $A=\begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 0 \end{pmatrix}$, $f(x)=-2x^2+5x+9$ bo‘lsa, $f(A)$ ni toping.

1.2.12. $A=\begin{pmatrix} 1 & 2 & 0 \\ 0 & 2 & -1 \\ -2 & 1 & 4 \end{pmatrix}$, $f(x)=3x^2-5x+2$ bo‘lsa, $f(A)$ ni toping.

A matritsa berilgan. $r(A)$ ni minorlar ajratish usuli bilan toping:

1.2.13. $A=\begin{pmatrix} 1 & -1 & 2 & 3 \\ -1 & 3 & 0 & 1 \\ 3 & 4 & 1 & 1 \end{pmatrix}$. **1.2.14.** $A=\begin{pmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -1 & 4 & -2 \\ 2 & -2 & 7 \end{pmatrix}$.

A matritsa berilgan. $r(A)$ni elementar almashtirishlar usuli bilan toping:

1.2.15. $A=\begin{pmatrix} 1 & -3 & 2 & -1 \\ 2 & -1 & 4 & -6 \\ -3 & -1 & -6 & 11 \end{pmatrix}$. **1.2.16.** $A=\begin{pmatrix} 1 & -1 & 3 & 4 \\ 2 & -1 & 3 & -2 \\ 1 & -4 & 3 & 1 \\ 1 & -3 & 0 & -9 \end{pmatrix}$.

A matritsa berilgan. A^{-1} matritsani toping:

1.2.17. $A=\begin{pmatrix} -3 & 6 \\ 2 & -5 \end{pmatrix}$. **1.2.18.** $A=\begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & -1 \\ 2 & 2 & 4 \end{pmatrix}$.

1.2.19. $A=\begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 6 & 4 \\ 3 & 10 & 8 \end{pmatrix}$. **1.2.20.** $A=\begin{pmatrix} 1 & 0 & 1 & 2 \\ 2 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 2 & 1 \\ -1 & 1 & 2 & 1 \end{pmatrix}$.

1.3. CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI

Chiziqli tenglamalar sistemasi. Maxsusmas tenglamalar sistemasini yechish. Chiziqli tenglamalar sistemasini Gauss usuli bilan yechish. Bir jinsli tenglamalar sistemasi

1.3.1. Ushbu

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \ldots + a_{1n}x_n = b_1, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \ldots + a_{2n}x_n = b_2, \\ \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \ldots + a_{mn}x_n = b_m \end{cases} \qquad (1.6)$$

ko‘rinishdagi sistemaga n *noma’lumli* m *ta chiqziqli algebraik tenglamalar sistemasi* deyiladi, bu yerda $a_{11}, a_{12}, \ldots, a_{mn}$ *–sistema koeffitsiyentlari,* $x_1, x_2, \ldots, x_n$ – *noma’lumlar,* $b_1, b_2, \ldots, b_m$ *–ozod hadlar*.

(1.6) sistema koeffitsiyentlaridan tuzilgan A matritsaga (1.6) sistemaning *matritsasi* (*asosiy matritsasi*) deyiladi.

(1.6) *sistemani matritsalar orqali* $AX = B$ ko‘rinishda yozish mumkin, bu yerda X, $B -$mos ravishda noma’lumlar va ozod hadlardan tuzilgan ustun matritsalar.

Noma’lumlarning (1.6) sistema tenglamalarini ayniyatga aylantiradigan qiymatlariga (1.6) *sistemaning yechimi* deyiladi.

Kamida bitta yechimga ega bo‘lgan sistemaga *birgalikda bo‘lgan sistema*, bitta ham yechimga ega bo‘lmagan sistemaga *birgalikda bo‘lmagan sistema* deyiladi.

Birgalikda bo‘lgan va yagona yechimga ega sistemaga *aniq sistema*, cheksiz ko‘p yechimga ega sistemaga *aniqmas sistema* deyiladi. Aniqmas sistemaning har bir yechimiga *xususiy yechim*, barcha xususiy yechimlar to‘plamiga *umumiy yechim* deyiladi. Sistemaning umumiy yechimini topishga sistemani yechish deyiladi.

(1.6) sistema matritsasiga ozod hadlarni qo‘shish orqali hosil qilingan C matritsaga (1.6) sistemaning kengaytirilgan matritsasi deyiladi.

Kroneker-Kapelli teoremasi. (1.6) tenglamalar sistemasi birgalikda bo‘lishi uchun sistema asosiy va kengaytirilgan matritsalarining ranglari teng, ya’ni $r(A) = r(C)$ bo‘lishi zarur va yetarli.

⇨ (1.6) sistemani tekshirish va yechish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Tekshirish: sistema asosiy va kengaytirilgan matritsalarining ranglari topiladi. Bunda:

– agar $r(A) \neq r(C)$ bo‘lsa, sistema birgalikda bo‘lmaydi;

– agar $r(A) = r(C) = n$, ya’ni sistemaning rangi uning noma’lumlari soniga teng bo‘lsa, sistema birgalikda va aniq bo‘ladi;

– agar $r(A) = r(C) < n$ bo‘lsa, sistema birgalikda va aniqmas bo‘ladi.

Yechish: 1. $r(A) = r(C) = n$ bo‘lganda sistemaning umumiy yechimi topiladi.

2. $r(A) = r(C) = r < n$ bo‘lganda:

– sistema matritsasining biror $r -$tartibli bazis minori aniqlanadi;

– sistemada koeffitsiyentlari bazis minor elementlaridan iborat bo‘lgan r ta tenglama qoldiriladi (qolgan tenglamalar tashlab yuboriladi), bu yerda koeffitsiyentlari bazis minorga kiruvchi r ta noma'lumga *asosiy noma'lumlar*, qolgan $n-r$ ta noma'lumga *erkin noma'lumlar* deyiladi;

– asosiy noma'lumlar hosil bo'lgan sistemaning chap tomonida qoldiriladi, erkin noma'lumlar sistemaning o'ng tomoniga o'tkaziladi;

– asosiy noma'lumlarning erkin noma'lumlar orqali ifodasi aniqlanadi, ya'ni sistemaning umumiy yechimi topiladi;

– erkin noma'lumlarga istalgan qiymatlar berib, berilgan sistemaning xususiy yechimlari (zarur bo'lganda) topiladi.

$1-$misol. Tenglamalar sistemasini tekshiring:

$$1)\begin{cases} x_1+2x_2-4x_3=0, \\ 5x_1+3x_2-7x_3=8, \\ 5x_1-4x_2+6x_3=-1 \end{cases}; \qquad 2)\begin{cases} x_1+x_2-5x_3=-3, \\ 3x_1+x_2+x_3=5, \\ 5x_1+2x_2-x_3=6 \end{cases}.$$

1) Sistemaning kengaytirilgan matritsasi ustida elementar almashtirishlar bajaramiz:

$$C=\left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 2 & -4 & 0 \\ 5 & 3 & -7 & 8 \\ 5 & -4 & 6 & -1 \end{array}\right)\begin{matrix} \\ \leftarrow -5 \\ \leftarrow -5 \end{matrix} \sim \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 2 & -4 & 0 \\ 0 & -7 & 13 & 8 \\ 0 & -14 & 26 & -1 \end{array}\right)\begin{matrix} \\ -2 \\ \leftarrow \end{matrix} \sim \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 2 & -4 & 0 \\ 0 & -7 & 13 & 8 \\ 0 & 0 & 0 & -17 \end{array}\right).$$

$r(A)=2\neq 3=r(C)$.

Demak, sistema birgalikda emas.

2) Sistemaning kengaytirilgan matritsasi ustida elementar almashtirishlar bajaramiz:

$$C=\left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -5 & -3 \\ 3 & 1 & 1 & 5 \\ 5 & 2 & -1 & 6 \end{array}\right)\begin{matrix} \\ \leftarrow -3 \\ \leftarrow -5 \end{matrix} \sim \begin{matrix} \\ :(-2) \\ :(-3) \end{matrix}\left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -5 & -3 \\ 0 & -2 & 16 & 14 \\ 0 & -3 & 24 & 21 \end{array}\right) \sim$$

$$\sim \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -5 & -3 \\ 0 & 1 & -8 & -7 \\ 0 & 1 & -8 & -7 \end{array}\right)\begin{matrix} \\ -1 \\ \leftarrow \end{matrix} \sim \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -5 & -3 \\ 0 & 1 & -8 & -7 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{array}\right).$$

$r(A)=2=2=r(C)<3$.

Demak, sistema birgalikda va aniqmas.

1.3.2. $n = m$ bo‘lsin. Bunda (1.6) sistemaning A matritsasi kvadrat matritsa bo‘ladi. A matritsaning Δ determinantiga (1.6) *sistemaning determinanti* deyiladi.

Agar $\Delta \neq 0$ bo‘lsa, (1.6) *maxsusmas* (yoki *xosmas*) *sistema*, agar $\Delta = 0$ bo‘lsa, (1.6) *maxsus* (yoki *xos*) *sistema* deb ataladi.

n noma’lumli n ta chiziqli maxsusmas tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega bo‘ladi. Bu yechim matritsalar usuli bilan yoki Kramer formulalari bilan topiladi.

1). Ciziqli tenglamalar sistemasi yechishning *matritsalar usuli*da (1.6) sistemaning yechimi

$$X = A^{-1}B. \tag{1.7}$$

formula bilan topiladi.

$2-$misol. Tenglamalar sistemasini matritsalar usuli bilan yeching:

$$\begin{cases} 3x_1 - x_2 + x_3 = 4, \\ 2x_1 + x_2 - 2x_3 = 2, \\ x_1 - 3x_2 + x_3 = 6. \end{cases}$$

$$A = \begin{pmatrix} 3 & -1 & 1 \\ 2 & 1 & -2 \\ 1 & -3 & 1 \end{pmatrix}, \quad \Delta = \begin{vmatrix} 3 & -1 & 1 \\ 2 & 1 & -2 \\ 1 & -3 & 1 \end{vmatrix} = 3 + 2 - 6 - 1 - 18 + 2 = -18.$$

Demak, sistema maxsusmas.

Sistema determinantining algebraik to‘ldiruvchilarini topamiz:

$$A_{11} = \begin{vmatrix} 1 & -2 \\ -3 & 1 \end{vmatrix} = -5; \qquad A_{21} = -\begin{vmatrix} -1 & 1 \\ -3 & 1 \end{vmatrix} = -2; \qquad A_{31} = \begin{vmatrix} -1 & 1 \\ 1 & -2 \end{vmatrix} = 1;$$

$$A_{12} = -\begin{vmatrix} 2 & -2 \\ 1 & 1 \end{vmatrix} = -4 \qquad A_{22} = \begin{vmatrix} 3 & 1 \\ 1 & 1 \end{vmatrix} = 2; \qquad A_{32} = -\begin{vmatrix} 3 & 1 \\ 2 & -2 \end{vmatrix} = 8;$$

$$A_{13}=\begin{vmatrix}2 & 1\\ 1 & -3\end{vmatrix}=-7; \qquad A_{23}=-\begin{vmatrix}3 & -1\\ 1 & -3\end{vmatrix}=8; \qquad A_{33}=\begin{vmatrix}3 & -1\\ 2 & 1\end{vmatrix}=-5.$$

U holda

$$A^{-1}=-\frac{1}{18}\begin{pmatrix}-5 & -2 & 1\\ -4 & 2 & 8\\ -7 & 8 & 5\end{pmatrix}.$$

Tenglamaning yechimini (1.7) formula bilan topamiz:

$$X=A^{-1}B=-\frac{1}{18}\begin{pmatrix}-5 & -2 & 1\\ -4 & 2 & 8\\ -7 & 8 & 5\end{pmatrix}\cdot\begin{pmatrix}4\\ 2\\ 6\end{pmatrix}=-\frac{1}{18}\begin{pmatrix}-20-4+6\\ -16+4+48\\ -28+16+30\end{pmatrix}=-\frac{1}{18}\begin{pmatrix}-18\\ 36\\ 18\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}1\\ -2\\ -1\end{pmatrix}.$$

Demak, $x_1=1$, $x_2=-2$, $x_3=-1$.

2) (1.6) sistema yechimini

$$x_i=\frac{\Delta x_i}{\Delta}\quad \left(i=\overline{1,n}\right) \tag{1.8}$$

formulalar orqali topish mumkin. Bu formulalarga *Kramer formulalari* deyiladi. Bunda Δx_i determinant Δ determinantdan x_i noma'lumlar oldidagi koeffitsiyentlarni ozod hadlar bilan almashtirish orqali hosil qilinadi.

3 – misol. Tenglamalar sistemasini Kramer formulalari bilan yeching:

$$\begin{cases}2x_1+x_2+3x_3=-1,\\ x_1+2x_2-x_3=0,\\ 3x_1+4x_2+2x_3=1.\end{cases}$$

Δ va Δx_i determinantlarni hisoblaymiz:

$$\Delta=\begin{vmatrix}2 & 1 & 3\\ 1 & 2 & -1\\ 3 & 4 & 2\end{vmatrix}=8-3+12-18+8-2=5;$$

$$\Delta x_1=\begin{vmatrix}-1 & 1 & 3\\ 0 & 2 & -1\\ 1 & 4 & 2\end{vmatrix}=-15; \quad \Delta x_2=\begin{vmatrix}2 & -1 & 3\\ 1 & 0 & -1\\ 3 & 1 & 2\end{vmatrix}=10; \quad \Delta x_3=\begin{vmatrix}2 & 1 & -1\\ 1 & 2 & 0\\ 3 & 4 & 1\end{vmatrix}=5.$$

Tenglamaning yechimini (1.8) formulalar bilan topamiz:

$$x_1 = \frac{\Delta x_1}{\Delta} = \frac{-15}{5} = -3; \quad x_2 = \frac{\Delta x_2}{\Delta} = \frac{10}{5} = 2; \quad x_3 = \frac{\Delta x_3}{\Delta} = \frac{5}{5} = 1.$$

Agar (1.6) sistema maxsus bo‘lsa:

– $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_n$ lardan birortasi noldan farqli bo‘lganda sistema yechimga ega bo‘lmaydi;

– $\Delta x_1 = \Delta x_2 = \dots = \Delta x_n = 0$ bo‘lganda sistema cheksiz ko‘p yechimga ega bo‘ladi yoki birgalikda bo‘lmaydi.

1.3.3. $n \neq m$ bo‘lganda (1.6) sistemaning yechimi *noma’lumlarni ketma-ket yo‘qotish*ga (chiqarishga) asoslangan *Gauss usuli* bilan topiladi.

Tenglamalar sistemasini Gauss usuli bilan yechish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich (1.6) sistemani pog‘onasimon (trapetsiyasimon yoki uchburchaksimon) ko‘rinishga keltirishdan iborat. Buning uchun birinchi tenglamaning chap va o‘ng tomonini $a_{11} \neq 0$ ga (agar $a_{11} = 0$ bo‘lsa, u holda bu tenglama sistemaning x_1 noma’lum oldidagi koeffitsiyenti nolga teng bo‘lmagan tenglamasi bilan almashtiriladi) bo‘linadi va birinchi tenglama qilib yoziladi. Birinchi tenglamani $\left(-\frac{a_{i1}}{a_{11}}\right)$ ga ko‘paytirib, $i-$tenglamaga qo‘shiladi va $i-$tenglama qilib yoziladi. Bunda sistemaning ikkinchi tenglamasidan boshlab x_1 noma’lum yo‘qotiladi.

Agar sistemada x_1 noma’lum oldidagi koeffitsiyenti birga teng bo‘lgan tenglama bor bo‘lsa, bu tenglamani birinchi yozish orqali hisoblashlarni osonlashtirish mumkin.

Shu kabi $a_{22}^{(1)} \neq 0$ deb, sistemaning uchimchi tenglamasidan boshlab x_2 noma’lum yo‘qotiladi va bu jarayon mumkin bo‘lguniga qadar davom ettiriladi.

Bu bosqichda, agar:

– $0 = 0$ ko‘rinishdagi tengliklar hosil bo‘lsa, u holda bu tengliklar tashlab yuboriladi.

– $0 = b_i^{(k)}$ $\left(b_i^k \neq 0\right)$ ko‘rinishdagi tengliklar hosil bo‘lsa, jarayon to‘xtatiladi. Chunki berilgan sistema birgalikda bo‘lmaydi.

2-bosqich pog‘onasimon sistemani yechishdan iborat. Pog‘onasimon sistema yagona yoki cheksiz ko‘p yechimga ega. Agar sistema uchburchaksimon ko‘rinishga kelsa, ya’ni tenglamalar soni noma’lumlar soniga teng ($k=n$) bo‘lsa, sistema yagona yechimga ega bo‘ladi. Agar sistema trapetsiyasimon ko‘rinishga kelsa, ya’ni $k<n$ bo‘lsa, sistema cheksiz ko‘p yechimga ega bo‘ladi. Bunda sistemaning oxirgi tenglamasidagi birinchi noma’lum x_k tenglamaning chap tomonida qoldiriladi va qolgan erkin noma’lumlar deb ataluvchi $x_{k+1},...,x_n$ noma’lumlar tenglamaning o‘ng tomoniga o‘tkaziladi. Keyin x_k oldingi $(k-1)-$tenglamaga qo‘yiladi va x_{k-1} erkin noma’lumlar orqali ifodalanadi. Bu jarayon shu tarzda davom ettirilib, birinchi tenglamadan x_1 ning erkin noma’lumlar orqali ifodasi topiladi.

$4-$misol. Tenglamalar sistemasini Gauss usuli bilan yeching:

$$\begin{cases} 2x_1-4x_2-x_3=-2, \\ 3x_1+\ x_2-2x_3=-11, \\ x_1-2x_2+4x_3=\ 8. \end{cases}$$

Sistemada quyidagicha almashtirishlarni bajaramiz:

– birinchi va uchinchi tenglamalarning o‘rinlarini almashtiramiz;

– (-3) ga ko‘paytirilgan birinchi tenglamani ikkinchi tenglamaga va (-2) ga ko‘paytirilgan birinchi tenglamani uchinchi tenglamaga hadma-had qo‘shamiz;

– ikkinchi va uchinchi tenglama hadlarini mos ravishda 7 ga va (-9) ga bo‘lamiz

– x_3 ning qiymatini birinchi va ikkinchi tenglamalarga qo‘yamiz; ikkinchi tenglamadan x_2 ni topib, uning qiymatini birinchi tenglamaga qo‘yamiz;

– sistemaning yechimlarini $x_1,\ x_2,\ x_3$ ketma-ketlikda yozamiz.

$$\begin{cases} 2x_1-4x_2-x_3=-2, \\ 3x_1+\ x_2-2x_3=-11, \\ x_1-2x_2+4x_3=\ 8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1-2x_2+4x_3=\ 8, \\ 3x_1+\ x_2-2x_3=-11, \\ 2x_1-4x_2-x_3=-2 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x_1 - 2x_2 + 4x_3 = 8, \\ 7x_2 - 14x_3 = -35, \\ 9x_3 = 18 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 - 2x_2 + 4x_3 = 8, \\ x_2 - 2x_3 = -5, \\ x_3 = 2 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x_3 = 2, \\ x_2 - 2\cdot 2 = -5, \\ x_1 - 2x_2 + 4\cdot 2 = 8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_3 = 2, \\ x_2 = -1, \\ x_1 - 2\cdot(-1) = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = -2, \\ x_2 = -1, \\ x_3 = 2. \end{cases}$$

Gauss usulining 1-bosqichini sistemaning o‘zida emas, balki uning kengaytirilgan matritsasida bajarish qulaylikka ega. Masalan, yuqoridagi tenglamaning 1-bosqichi quyidagicha bajariladi:

$$\left(\begin{array}{ccc|c} 2 & -4 & -1 & -2 \\ 3 & 1 & -2 & -11 \\ 1 & -2 & 4 & 8 \end{array}\right) \sim \begin{array}{c} \\ -3 \\ -2 \end{array} \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & -2 & 4 & 8 \\ 3 & 1 & -2 & -11 \\ 2 & -4 & -1 & -2 \end{array}\right) \sim$$

$$\sim \begin{array}{c} \\ :7 \\ :(-9) \end{array} \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & -2 & 4 & 8 \\ 0 & 7 & -14 & -35 \\ 0 & 0 & -9 & -18 \end{array}\right) \sim \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & -2 & 4 & 8 \\ 0 & 7 & -2 & -5 \\ 0 & 0 & 1 & 2 \end{array}\right)$$

1.3.4. Ozod hadlari nolga teng bo‘lgan sistemaga *bir jinsli tenglamalar sistemasi deyiladi.*

Bir jinsli tenglamalar sistemasi hamma vaqt birgalikda (chunki $r(A) = r(C)$) va nolga teng bo‘lgan (trivial) $x_1 = x_2 = \ldots, = x_n = 0$ yechimga ega.

Bir jinsli tenglamalar sistemasi nolga teng bo‘lmagan yechimga ega bo‘lishi uchun uning asosiy matritsasining rangi r noma’lumlar soni n dan kichik, ya’ni $r < n$ bo‘lishi zarur va yetarli.

n noma’lumli n ta chiziqli bir jinsli tenglamalar sistemasi nolga teng bo‘lmagan yechimga ega bo‘lishi uchun uning Δ determinanti nolga teng, ya’ni $\Delta = 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

5 – misol. Bir jinsli tenglamalar sistemasini yeching:

$$\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 0, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 0, \\ 4x_1 + x_2 + 4x_3 = 0. \end{cases}$$

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 3 & -2 \\ 1 & -1 & 3 \\ 4 & 1 & 4 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & -1 & 3 \\ 2 & 3 & -2 \\ 4 & 1 & 4 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & -1 & 3 \\ 0 & 5 & -8 \\ 0 & 5 & -8 \end{pmatrix} \sim$$

$$\sim \begin{pmatrix} 1 & -1 & 3 \\ 0 & 5 & -8 \\ 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}, \quad r(A) = 2, \; n = 3, \; r < n.$$

Demak, sistema cheksiz ko‘p yechimga ega.

Ularni topamiz:

$$\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 0, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2x_1 + 3x_2 = 2x_3, \\ x_1 - x_2 = -3x_3. \end{cases}$$

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2 & 3 \\ 1 & -1 \end{vmatrix} = -5,$$

$$\Delta x_1 = \begin{vmatrix} 2x_3 & 3 \\ -3x_3 & -1 \end{vmatrix} = 7x_3, \quad \Delta x_2 = \begin{vmatrix} 2 & 2x_3 \\ 1 & -3x_3 \end{vmatrix} = -8x_3.$$

$$x_1 = \frac{\Delta x_1}{\Delta} = -\frac{7x_3}{5}, \quad x_2 = \frac{\Delta x_2}{\Delta} = \frac{8x_3}{5}$$

Erkin noma’lumni $x_3 = 5k$ (k – ixtiyoriy son) deb, sistemaning umumiy yechimini topamiz:

$$x_1 = -7k, \; x_2 = 8k, \; x_3 = 5k.$$

Sistemaning xususiy yechimlaridan birini, masalan $k = 1$da, topamiz:

$$x_1 = -7, \; x_2 = 8, \; x_3 = 5.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

Tenglamalar sistemasini tekshiring:

1.3.1. $\begin{cases} x_1 - x_2 + x_3 = 2, \\ x_1 + x_2 - x_3 = 1, \\ 5x_1 - x_2 + x_3 = 7. \end{cases}$

1.3.2. $\begin{cases} x_1 - x_2 - x_3 = -1, \\ 5x_1 - x_2 + 2x_3 = 3, \\ 4x_1 + 3x_3 = 4. \end{cases}$

1.3.3. $\begin{cases} x_1 + x_2 + 5x_3 + 2x_4 = 1, \\ 2x_1 + x_2 + 3x_3 + 2x_4 = -3, \\ 2x_1 + 3x_2 + 11x_3 + 5x_4 = 2, \\ x_1 + x_2 + 3x_3 + 4x_4 = -3. \end{cases}$

1.3.4. $\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 + 2x_4 = 3, \\ 2x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 1, \\ 3x_1 + x_2 + 2x_3 - x_4 = 5, \\ x_1 - x_2 + 4x_3 - 5x_4 = 2. \end{cases}$

Tenglamalar sistemasini matritsalar usuli bilan yeching:

1.3.5. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = 3, \\ 2x_1 - x_2 + 2x_3 = -1, \\ x_1 + 3x_2 - x_3 = 6. \end{cases}$

1.3.6. $\begin{cases} 2x_1 + x_2 - x_3 = 2, \\ 2x_1 + 2x_2 - 3x_3 = -3, \\ x_1 + 2x_2 - 2x_3 = -5. \end{cases}$

1.3.7. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + x_3 = 8, \\ x_1 + 2x_2 + 3x_3 = 10, \\ 2x_1 - 3x_2 - 4x_3 = -4. \end{cases}$

1.3.8. $\begin{cases} 2x_1 + 7x_2 - x_3 = 10, \\ x_1 + 2x_2 + x_3 = 2, \\ 3x_1 - 5x_2 + 3x_3 = -5. \end{cases}$

Tenglamalar sistemasini Kramer formulalari bilan yeching:

1.3.9. $\begin{cases} 3x_1 - 4x_2 = 17, \\ 5x_1 + 2x_2 = 11. \end{cases}$

1.3.10. $\begin{cases} 5x_1 + 7x_2 = 1, \\ 6x_1 + 4x_2 = 10. \end{cases}$

1.3.11. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 3x_3 = 5, \\ 3x_1 - 2x_2 + 3x_3 = -1, \\ 2x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 8. \end{cases}$

1.3.12. $\begin{cases} 2x_1 - 2x_2 + x_3 = 8, \\ x_1 + 3x_2 + x_3 = -3, \\ 3x_1 + 2x_2 - 2x_3 = -5. \end{cases}$

1.3.13. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 3x_3 = 6, \\ 4x_1 + 5x_2 + 6x_3 = 9, \\ 7x_1 + 8x_2 = -6. \end{cases}$ **1.3.14.** $\begin{cases} ax_1 + ax_2 + x_3 = 1, \\ x_1 + a^2x_2 + x_3 = a, \\ x_1 + ax_2 + ax_3 = 1. \end{cases}$

Tenglamalar sistemasini Gauss usuli bilan yeching:

1.3.15. $\begin{cases} 2x_1 + x_2 + 3x_3 = -13, \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = -2, \\ 3x_1 + x_2 - 4x_3 = 7. \end{cases}$ **1.3.16.** $\begin{cases} 3x_1 + 2x_2 - 3x_3 = -1, \\ 2x_1 + x_2 + 2x_3 = 4, \\ x_1 - 3x_2 + x_3 = 9. \end{cases}$

1.3.17. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + x_3 - 2x_4 = -4, \\ x_2 + x_3 + 3x_4 = 1, \\ 2x_1 + x_3 - x_4 = 0, \\ 3x_1 + x_2 + 4x_3 = -2. \end{cases}$ **1.3.18.** $\begin{cases} 2x_1 + x_2 + x_4 = 4, \\ x_1 - x_2 + 2x_3 + 2x_4 = 1, \\ x_2 + 3x_3 + 2x_4 = -5, \\ 3x_1 - x_2 + 2x_3 = 3. \end{cases}$

1.3.19. $\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 - x_3 - x_4 = 8, \\ 3x_1 + x_2 - x_3 + x_4 = 8, \\ x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 0, \\ 3x_1 + 7x_2 - 3x_3 - x_4 = 16. \end{cases}$ **1.3.20.** $\begin{cases} x_1 - 2x_2 - 3x_3 + 5x_4 = -1, \\ 2x_1 - 3x_2 + 2x_3 + 5x_4 = -3, \\ 5x_1 - 7x_2 + 9x_3 + 10x_4 = -8, \\ x_1 - x_2 + 5x_3 = -2. \end{cases}$

Bir jinsli tenglamalar sistemasini yeching:

1.3.21. $\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 + 2x_3 = 0, \\ 3x_1 - x_2 + 3x_3 = 0. \end{cases}$ **1.3.22.** $\begin{cases} 3x_1 - x_2 + 4x_3 = 0, \\ 5x_1 + 3x_2 + 3x_3 = 0. \end{cases}$

1.3.23. $\begin{cases} 3x_1 + x_2 + 2x_3 = 0, \\ x_1 + 2x_2 - 3x_3 = 0, \\ 5x_1 + 5x_2 - 4x_3 = 0. \end{cases}$ **1.3.24.** $\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 + x_3 = 0, \\ 3x_1 - 2x_2 + 3x_3 = 0, \\ 4x_1 + 3x_2 + 5x_3 = 0. \end{cases}$

1.3.25. $\begin{cases} x_1 + 3x_2 - 6x_3 + 2x_4 = 0, \\ 2x_1 - x_2 + 2x_3 = 0, \\ 3x_1 - 2x_2 + 2x_3 - 2x_4 = 0, \\ 2x_1 + x_2 + 4x_3 + 8x_4 = 0. \end{cases}$ **1.3.26.** $\begin{cases} x_1 - x_2 - 2x_3 + 3x_4 = 0, \\ x_1 + 2x_2 - 4x_4 = 0, \\ x_1 - 4x_2 + x_3 + 10x_4 = 0, \\ 2x_1 + x_2 - 2x_3 - x_4 = 0. \end{cases}$

1-NAZORAT ISHI

1. Determinantni xossalar bilan soddalashtirib, hisoblang.
2. A va B matritsalar berilgan. AB, $(AB)^{-1}$ (agar mavjud bo‘lsa) matritsalarni va $r(AB)$ni toping.
3. Tenglamalar sistemasini tekshiring.

1-variant

1. $A(3;4;6),\ B(-4;6;4),\ C(5;-2;-3\};$

$\vec{a}=\overrightarrow{BA},\ \vec{b}=\overrightarrow{CA},\ \vec{c}=\overrightarrow{BC},\ \vec{d}=11\vec{c}-6\vec{b},\ l=AB,\ \alpha=3,\ \beta=5.$

2. $\vec{a}=2\vec{m}-\vec{n},\qquad \vec{b}=3\vec{m}+\vec{n},\qquad |\vec{m}|=4,\qquad |\vec{n}|=1,\qquad \varphi=\dfrac{\pi}{6}.$

3. $\vec{a}=\{5;1;0\},\ \vec{b}=\{2;-1;3\},\ \vec{c}=\{1;0;-1\},\ \vec{d}=\{13;2;7\}.$

15-variant

1. $A(3;5;4),\ B(4;2;-3),\ C(-4;2;7\};$

$\vec{a}=\overrightarrow{AB},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=-4\vec{c}+3\vec{b},\ l=AB,\ \alpha=5,\ \beta=2.$

2. $\vec{a}=2\vec{m}+\vec{n},\qquad \vec{b}=2\vec{m}-3\vec{n},\quad |\vec{m}|=2,\qquad |\vec{n}|=2,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{4}.$

3. $\vec{a}=\{1;0;2\},\ \vec{b}=\{0;1;1\},\ \vec{c}=\{2;-1;4\},\ \vec{d}=\{3;-3;4\}.$

16-variant

1. $A(3;4;-4),\ B(-2;1;2),\ C(3;2;-5\};$

$\vec{a}=\overrightarrow{BC},\ \vec{b}=\overrightarrow{AB},\ \vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=-4\vec{c}+3\vec{b},\ l=AB,\ \alpha=1,\ \beta=5.$

2. $\vec{a}=\vec{m}-2\vec{n},\qquad \vec{b}=2\vec{m}+2\vec{n},\quad |\vec{m}|=1,\qquad |\vec{n}|=4,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{4}.$

3. $\vec{a}=\{-1;2;1\},\ \vec{b}=\{2;0;3\},\ \vec{c}=\{1;1;-1\},\ \vec{d}=\{-1;7;-4\}.$

17-variant

1. $A(2;-3;2),\ B(1;4;2),\ C(1;-3;3\};$

$\vec{a}=\overrightarrow{AB},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=-8\vec{c}+4\vec{b},\ l=CB,\ \alpha=1,\ \beta=3.$

2. $\vec{a}=2\vec{m}-2\vec{n},\quad \vec{b}=\vec{m}+2\vec{n},\quad |\vec{m}|=2,\qquad |\vec{n}|=3,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{2}.$

3. $\vec{a}=\{1;-2;0\},\ \vec{b}=\{-1;1;3\},\ \vec{c}=\{1;0;4\},\ \vec{d}=\{6;-1;7\}.$

18-variant

1. $A(3;2;4),\ B(-2;1;3),\ C(2;-2;-1\};$

$\vec{a}=\overrightarrow{BA},\ \vec{b}=\overrightarrow{AC},\ \vec{c}=\overrightarrow{BC},\ \vec{d}=4\vec{c}-3\vec{b},\ l=AC,\ \alpha=4,\ \beta=2.$

2. $\vec{a}=\vec{m}+\vec{n},\qquad \vec{b}=\vec{m}-4\vec{n},\quad |\vec{m}|=3,\qquad |\vec{n}|=4,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{4}.$

3. $\vec{a}=\{1;1;0\},\ \vec{b}=\{0;1;-2\},\ \vec{c}=\{1;0;3\},\ \vec{d}=\{2;-1;11\}.$

19-variant

1. $A(2;4;6),\ B(-3;5;1),\ C(4;-5;-4\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{CA},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{BA},\ \vec{d}=2\vec{c}-6\vec{b},\ l=CB,\ \alpha=3,\ \beta=1.$

2. $\vec{a}=\vec{m}-3\vec{n},\qquad \vec{b}=\vec{m}+2\vec{n},\quad |\vec{m}|=\frac{1}{5},\quad |\vec{n}|=1,\quad \varphi=\frac{\pi}{2}.$

3. $\vec{a}=\{0;1;3\},\ \vec{b}=\{1;2;-1\},\ \vec{c}=\{2;0;-1\},\ \vec{d}=\{3;1;8\}.$

20-variant

1. $A(-2;-2;4),\ B(1;3;-2),\ C(1;4;2\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{BA},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=2\vec{c}-6\vec{a},\ l=CB,\ \alpha=3,\ \beta=2.$

2. $\vec{a}=4\vec{m}+\vec{n},\qquad \vec{b}=\vec{m}-\vec{n},\quad |\vec{m}|=7,\quad |\vec{n}|=2,\quad \varphi=\frac{\pi}{6}.$

3. $\vec{a}=\{1;0;2\},\ \vec{b}=\{-1;0;1\},\ \vec{c}=\{2;5;-3\},\ \vec{d}=\{11;5;-3\}.$

21-variant

1. $A(4;3;2),\ B(-4;-3;5),\ C(6;4;-3\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{AB},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=8\vec{c}-5\vec{b},\ l=CB,\ \alpha=5,\ \beta=2.$

2. $\vec{a}=3\vec{m}+2\vec{n},\qquad \vec{b}=\vec{m}+2\vec{n},\quad |\vec{m}|=8,\quad |\vec{n}|=1,\quad \varphi=\frac{\pi}{2}.$

3. $\vec{a}=\{0;1;5\},\ \vec{b}=\{3;-1;2\},\ \vec{c}=\{-1;0;1\},\ \vec{d}=\{8;-7;-13\}.$

22-variant

1. $A(2;-2;4),\ B(3;1;-4),\ C(-1;2;2\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{BA},\ \vec{b}=\vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=4\vec{c}+2\vec{a},\ l=AB,\ \alpha=2,\ \beta=3.$

2. $\vec{a}=\vec{m}+2\vec{n},\quad \vec{b}=3\vec{m}+2\vec{n},\quad |\vec{m}|=2,\quad |\vec{n}|=1,\quad \varphi=\frac{\pi}{4}.$

3. $\vec{a}=\{1;1;4\},\ \vec{b}=\{-3;0;2\},\ \vec{c}=\{1;2;-1\},\ \vec{d}=\{-13;2;18\}.$

23-variant

1. $A(0;2;5),\ B(2;-3;4),\ C(3;2;-5\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{BC},\ \vec{b}=\overrightarrow{AC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AB},\ \vec{d}=-3\vec{c}+4\vec{a},\ l=AC,\ \alpha=3,\ \beta=2.$

2. $\vec{a}=2\vec{m}+2\vec{n},\qquad \vec{b}=3\vec{m}-2\vec{n},\ |\vec{m}|=6,\quad |\vec{n}|=2,\quad \varphi=\frac{\pi}{3}.$

3. $\vec{a}=\{0;3;1\},\ \vec{b}=\{1;-1;2\},\ \vec{c}=\{2;-1;0\},\ \vec{d}=\{-1;7;0\}.$

24-variant

1. $A(5;6;1),\ B(-2;4;-1),\ C(3;-3;3\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{AC},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AB},\ \vec{d}=-4\vec{c}+3\vec{b},\ l=BC,\ \alpha=2,\ \beta=3.$

2. $\vec{a}=\vec{m}+5\vec{n},\quad \vec{b}=\vec{m}-3\vec{n},\quad |\vec{m}|=3,\quad |\vec{n}|=2,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{6}.$

3. $\vec{a}=\{1;0;1\},\ \vec{b}=\{0;-2;1\},\ \vec{c}=\{1;3;0\},\ \vec{d}=\{8;9;4\}.$

25-variant

1. $A(4;5;3),\ B(-4;2;3),\ C(5;-6;2\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{AC},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AB},\ \vec{d}=9\vec{c}-4\vec{b},\ l=CA,\ \alpha=1,\ \beta=5.$

2. $\vec{a}=3\vec{m}-2\vec{n},\quad \vec{b}=3\vec{m}+2\vec{n},\quad |\vec{m}|=1,\quad |\vec{n}|=4,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{2}.$

3. $\vec{a}=\{0;5;1\},\ \vec{b}=\{3;2;-1\},\ \vec{c}=\{-1;1;0\},\ \vec{d}=\{-15;5;6\}.$

26-variant

1. $A(-5;4;3),\ B(4;5;2),\ C(2;7;-4\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{CA},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AB},\ \vec{d}=2\vec{c}+3\vec{b},\ l=CB,\ \alpha=4,\ \beta=3.$

2. $\vec{a}=2\vec{m}+2\vec{n},\quad \vec{b}=3\vec{m}-2\vec{n},\quad |\vec{m}|=2,\quad |\vec{n}|=3,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{2}.$

3. $\vec{a}=\{1;4;1\},\ \vec{b}=\{-3;2;0\},\ \vec{c}=\{1;-1;2\},\ \vec{d}=\{-9;-17;-3\}.$

27-variant

1. $A(-2;-3;4),\ B(2;-4;0),\ C(1;4;5\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{AB},\ \vec{b}=\overrightarrow{AC},\ \vec{c}=\overrightarrow{BC},\ \vec{d}=-8\vec{c}+4\vec{b},\ l=CA,\ \alpha=2,\ \beta=4.$

2. $\vec{a}=3\vec{m}-4\vec{n},\quad \vec{b}=3\vec{m}-\vec{n},\quad |\vec{m}|=3,\quad |\vec{n}|=4,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{6}.$

3. $\vec{a}=\{0;-2;1\},\ \vec{b}=\{3;1;-1\},\ \vec{c}=\{4;0;1\},\ \vec{d}=\{0;-8;9\}.$

28-variant

1. $A(10;6;3),\ B(-2;4;5),\ C(3;-4;-6\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{BA},\ \vec{b}=\overrightarrow{BC},\ \vec{c}=\overrightarrow{AC},\ \vec{d}=5\vec{c}-2\vec{b},\ l=CA,\ \alpha=5,\ \beta=1.$

2. $\vec{a}=3\vec{m}+3\vec{n},\quad \vec{b}=\vec{m}-3\vec{n},\quad |\vec{m}|=2,\quad |\vec{n}|=1,\quad \varphi=\dfrac{\pi}{3}.$

3. $\vec{a}=\{1;-1;2\},\ \vec{b}=\{3;2;0\},\ \vec{c}=\{-1;1;1\},\ \vec{d}=\{11;-1;4\}.$

29-variant

1. $A(-2;3;-4),\ B(3;-1;2),\ C(4;2;4\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{AB},\ \vec{b}=\overrightarrow{AC},\ \vec{c}=\overrightarrow{CB},\ \vec{d}=4\vec{c}+7\vec{b},\ l=BA,\ \alpha=5,\ \beta=3.$

2. $\vec{a}=3\vec{m}+\vec{n},\qquad \vec{b}=3\vec{m}-2\vec{n},\quad |\vec{m}|=1,\quad |\vec{n}|=2,\quad \varphi=\frac{\pi}{6}.$

3. $\vec{a}=\{2;1;0\},\ \vec{b}=\{1;0;1\},\ \vec{c}=\{-2;1;1\},\ \vec{d}=\{-5;1;3\}.$

30-variant

1. $A(-1;-2;4),\ B(2;4;5),\ C(1;-2;3\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{CA},\ \vec{b}=\overrightarrow{BA},\ \vec{c}=\overrightarrow{BC},\ \vec{d}=3\vec{c}-4\vec{b},\ l=BC,\ \alpha=2,\ \beta=4.$

2. $\vec{a}=4\vec{m}+2\vec{n},\qquad \vec{b}=\vec{m}+2\vec{n},\qquad |\vec{m}|=2,\quad |\vec{n}|=1,\quad \varphi=\frac{\pi}{3}.$

3. $\vec{a}=\{0;1;-2\},\ \vec{b}=\{3;-1;1\},\ \vec{c}=\{4;1;0\},\ \vec{d}=\{-5;9;-13\}.$

NAMUNAVIY VARIANT YECHIMI

1.30. $A(-1;-2;4),\ B(2;4;5),\ C(1;-2;3\}$;

$\vec{a}=\overrightarrow{CA},\ \vec{b}=\overrightarrow{BA},\ \vec{c}=\overrightarrow{BC},\ \vec{d}=3\vec{c}-4\vec{b},\ l=BC,\ \alpha=2,\ \beta=4.$

$\vec{a},\vec{b},\vec{c}$ vektorlarni topamiz:

$$\vec{a}=\overrightarrow{CA}=\{-2;0;1\},\ \vec{b}=\overrightarrow{BA}=\{-3;-6;-1\},\ \vec{c}=\overrightarrow{BC}=\{-1;-6;-2\}.$$

U holda

$$\vec{d}=3\vec{c}-4\vec{b}=\{-3+12;-18+24;-6+4\}=\{9;6;-2\}.$$

a) $\vec{a}\vec{b}$ skalyar ko‘paytmani aniqlaymiz:

$$\vec{a}\vec{b}=(-2)\cdot(-3)+0\cdot(-6)+1\cdot(-1)=5.$$

b) $\vec{c}\vec{d}$ skalyar ko‘paytmani topamiz va $|\vec{d}|$ modulni hisoblaymiz:

$$\vec{c}\vec{d}=(-1)\cdot 9+(-6)\cdot 6+(-2)\cdot 2=-49,\quad |\vec{d}|=\sqrt{9^2+6^2+(-2)^2}=11.$$

Bundan

$$Пр_{\vec{d}}\vec{c}=\frac{\vec{c}\vec{d}}{|\vec{d}|}=-\frac{49}{11}.$$

c) $\vec{a}\vec{c}$ skalyar ko‘paytmani va $|\vec{a}|,|\vec{c}|$ modullarni topamiz:

$$\vec{a}\vec{c}=(-2)\cdot(-1)+0\cdot(-6)+1\cdot(-2)=0,\quad |\vec{a}|=\sqrt{(-2)^2+0^2+1^2}=\sqrt{5},$$

$$|\vec{c}|=\sqrt{(-1)^2+(-6)^2+(-2)^2}=\sqrt{41}.$$

Bundan

$$\cos\varphi = \frac{\vec{a}\vec{c}}{|\vec{a}|\cdot|\vec{c}|} = \frac{0}{\sqrt{5}\cdot\sqrt{41}} = 0 \ \left(\varphi = \frac{\pi}{2}\right).$$

d) $\vec{d} = \{9;6;-2\}$ vektorning modulini topamiz: $|\vec{d}| = \sqrt{9^2 + 6^2 + (-2)^2} = 11$.

U holda $\vec{d}^{\,o} = \left\{\frac{9}{11};\frac{6}{11};-\frac{2}{11}\right\}$.

e) $\lambda = \frac{\alpha}{\beta} = \frac{4}{2} = 2.$ U holda

$$x_M = \frac{x_B + \lambda x_A}{1+\lambda} = \frac{2+2\cdot 1}{1+2} = \frac{4}{3}, \qquad y_M = \frac{y_B + \lambda y_A}{1+\lambda} = \frac{4+2\cdot(-2)}{1+2} = 0,$$

$$z_M = \frac{z_B + \lambda z_A}{1+\lambda} = \frac{5+2\cdot 3}{1+2} = \frac{11}{3}.$$

Demak,

$$M\left(\frac{4}{3};0;\frac{11}{3}\right).$$

2.30. $\vec{a} = 4\vec{m} + 2\vec{n}, \quad \vec{b} = \vec{m} + 2\vec{n}, \quad |\vec{m}| = 2, \quad |\vec{n}| = 1, \quad \varphi = \frac{\pi}{3}$.

a) $\vec{a}\times\vec{b}$ vektor ko‘paytmani topamiz:

$$\vec{a}\times\vec{b} = (4\vec{m}+2\vec{n})\times(\vec{m}+2\vec{n}) = 4\vec{m}\times\vec{m} + 8\vec{m}\times\vec{n} + 2\vec{n}\times\vec{m} + 4\vec{n}\times\vec{n} =$$

$$= 8\vec{m}\times\vec{n} - 2\vec{m}\times\vec{n} = 6\vec{m}\times\vec{n}.$$

Vektor ko‘paytmaning ta’rifiga ko‘ra tomonlari $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlardan iborat bo‘lgan parallelogrammning yuzi

$$S = |\vec{a}\times\vec{b}| = 6|\vec{m}|\cdot|\vec{n}|\sin\varphi = 6\cdot 2\cdot 1\cdot\frac{\sqrt{3}}{2} = 6\sqrt{3}(y.b).$$

b) $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlarning yig‘indisi va ayirmasi tomonlari bu vektorlardan iborat bo‘lgan parallelogrammning diagonallari bo‘ladi.

$\vec{d}_1 = \vec{a} + \vec{b}$ va $\vec{d}_2 = \vec{a} - \vec{b}$, $\psi = (\widehat{\vec{a},\vec{b}})$ bo‘lsin. U holda vektor ko‘paytmaning ta’rifiga ko‘ra $|\vec{d}_1\times\vec{d}_2| = |\vec{d}_1|\cdot|\vec{d}_2|\sin\psi$. Bundan

$$\sin\psi = \frac{|\vec{d}_1\times\vec{d}_2|}{|\vec{d}_1|\cdot|\vec{d}_2|}.$$

$\vec{d}_1,\ \vec{d}_2,\ \vec{d}_1\times\vec{d}_2$ vektorlarni topamiz:

$$\vec{d}_1 = 4\vec{m} + 2\vec{n} + \vec{m} + 2\vec{n} = 5\vec{m} + 4\vec{n},$$

$$\vec{d}_2 = 4\vec{m} + 2\vec{n} - \vec{m} - 2\vec{n} = 3\vec{m},$$

$$\vec{d}_1\times\vec{d}_2 = (5\vec{m}+4\vec{n})\times 3\vec{m} = 12\vec{n}\times\vec{m}.$$

Bundan

$$|\vec{d}_1| = \sqrt{(5\vec{m}+4\vec{n})^2} = \sqrt{25\vec{m}^2 + 40\vec{m}\vec{n} + 16\vec{n}^2} = \sqrt{25|m|^2 + 40|\vec{m}|\cdot|\vec{n}|\cos\varphi + 16|\vec{n}|^2} =$$

$$= \sqrt{25\cdot 4 + 40\cdot 2\cdot 1\cdot \frac{1}{2} + 16\cdot 1} = 2\sqrt{39}, \qquad |\vec{d}_2| = 3\sqrt{\vec{m}^2} = 3|\vec{m}| = 3\cdot 2 = 6,$$

$$|\vec{d}_1 \times \vec{d}_2| = 12|\vec{n}\times\vec{m}| = 12|\vec{n}|\cdot|\vec{m}|\sin\varphi = 12\cdot 2\cdot 1\cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = 12\sqrt{3}.$$

U holda

$$\sin\psi = \frac{12\sqrt{3}}{2\sqrt{39}\cdot 6} = \frac{\sqrt{13}}{13}.$$

3.30. $\vec{a} = \{0;1;-2\}$, $\vec{b} = \{3;-1;1\}$, $\vec{c} = \{4;1;0\}$, $\vec{d} = \{-5;9;-13\}$.

a) $\vec{d} = \alpha\vec{a} + \beta\vec{b} + \gamma\vec{c}$ bo‘lsin. U holda

$$\begin{cases} 3\beta + 4\gamma = -5, \\ \alpha - \beta + \gamma = 9, \\ -2\alpha + \beta = -13 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \alpha - \beta + \gamma = 9, \\ -2\alpha + \beta = -13, \\ 3\beta + 4\gamma = -5 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \alpha - \beta + \gamma = 9, \\ -\beta + 2\gamma = 5, \\ 3\beta + 4\gamma = -5 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} \alpha - \beta + \gamma = 9, \\ \beta - 2\gamma = -5, \\ 10\gamma = 10 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \gamma = 1, \\ \beta - 2\cdot 1 = -5, \\ \alpha - \beta + 1 = 9 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \gamma = 1, \\ \beta = -3, \\ \alpha + 3 = 8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \alpha = 5, \\ \beta = -3, \\ \gamma = 1. \end{cases}$$

Demak, $\vec{d} = 5\vec{a} - 3\vec{b} + \vec{c}$.

b) $\vec{a}\vec{b}\vec{c}$ ko‘paytmani topamiz: $\vec{a}\vec{b}\vec{c} = \begin{vmatrix} 0 & 1 & -2 \\ 3 & -1 & 1 \\ 4 & 1 & 0 \end{vmatrix} = -10.$

Bundan

$$V = |\vec{a}\vec{b}\vec{c}| = 10 (h.b.).$$

c) $\vec{a}\times\vec{b}$ ko‘paytmani aniqlaymiz:

$$\vec{a}\times\vec{b} = \begin{vmatrix} \vec{i} & \vec{j} & \vec{k} \\ 0 & 1 & -2 \\ 3 & -1 & 0 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & -2 \\ -1 & 1 \end{vmatrix}\vec{i} - \begin{vmatrix} 0 & -2 \\ 3 & 1 \end{vmatrix}\vec{j} + \begin{vmatrix} 0 & 1 \\ 3 & -1 \end{vmatrix}\vec{k} = -\vec{i} - 6\vec{j} - 3\vec{k}.$$

U holda $S = |\vec{a}\times\vec{b}| = \sqrt{(-1)^2 + (-6)^2 + (-3)^2} = \sqrt{46}.$ Parallelepiped uchun $V = S\cdot h.$

Bundan

$$h = \frac{V}{S} = \frac{10}{\sqrt{46}} = \frac{5\sqrt{46}}{23} (u.b.).$$

III bob
TEKISLIKDAGI ANALITIK GEOMETRIYA

3.1. TEKISLIKDA KOORDINATALAR SISTEMASI

Dekart koordinatalari. Qutb koordinatalari. Koordinatalarni almashtirish

3.1.1. Umumiy boshlang'ich O nuqtaga va bir xil masshtab birligiga ega bo'lgan o'zaro perpendikular Ox va Oy o'qlar tekislikda dekart koordinatalar sistemasini hosil qiladi. Bu sistemaning Ox o'qiga *abssissalar o'qi*, Oy o'qiga *ordinatalar o'qi* va ular birgalikda *koordinata o'qlari* deb ataladi. Bunda Ox va Oy o'qlarning ortlari $\vec{i}$ va $\vec{j}$ bilan belgilanadi $\left(|\vec{i}|=|\vec{j}|=1,\ \vec{i}\perp\vec{j}\right)$, O nuqtaga *koordinatalar boshi* deyiladi, Ox, Oy o'qlar joylashgan tekislik *koordinata tekisligi* deb ataladi va Oxy bilan belgilanadi.

Oxy tekislik M nuqtasining $\overrightarrow{OM}$ vektoriga M *nuqtaning radius vektori* deyiladi.

➡ $\overrightarrow{OM}$ radius vektorning koordinatalariga M *nuqtaning to'g'ri burchakli dekart koordinatalari* deyiladi. Agar $\overrightarrow{OM}=\{x;y\}$ bo'lsa, u holda M nuqtaning koordinatalari $M(x;y)$ kabi belgilanadi, bu yerda x soni M nuqtaning *abssissasi*, y soni M nuqtaning *ordinatasi* deb ataladi.

3.1.2. Tekislikda sanoq boshiga, musbat yo'nalishga va masshtab birligiga ega bo'lgan Op o'q *qutb o'qi*, uning O sanoq boshi *qutb* deb ataladi.

Tekislikning qutb bilan ustma-ust tushmaydigan ixtiyoriy M nuqtasining holati ikkita son, O qutbdan M nuqtagacha bo'lgan r masofa va Op qutb o'qi bilan $\overrightarrow{OM}$ yo'nalgan kesma orasidagi φ burchak bilan aniqlanadi.

➡ r va φ sonlariga M nuqtaning *qutb koordinatalari* deyiladi va $M(r;\varphi)$ deb yoziladi. Bunda r masofa *qutb radiusi*, φ burchak *qutb burchagi* deb ataladi.



1-shakl.

Qutb koordinatalari $0 \le r < +\infty,\ -\pi < \varphi \le \pi$ kabi o‘zgaradi.

Nuqtaning qutb koordinatalaridan dekart koordinatalariga

$$x = r\cos\varphi,\quad y = r\sin\varphi. \qquad (1.1)$$

tengliklar bilan o‘tiladi (1-shakl).

Nuqtaning dekart koordinatalaridan qutb koordinatalariga o‘tish

$$r = \sqrt{x^2 + y^2},\ tg\varphi = \frac{y}{x}. \qquad (1.2)$$

tengliklar orqali amalga oshiriladi. Bunda φ burchakning qiymati nuqtaning joylashgan choragiga (x, y larning ishoralari asosida) qarab, $-\pi < \varphi \le \pi$ oraliqda tanlanadi.

$1-$misol. $M(-3;-3)$ nuqta berilgan. M nuqtaning qutb koordinatalarini toping.

(1.2) formuladan topamiz:

$$r = \sqrt{(-3)^2 + (-3)^2} = 3\sqrt{2}, \qquad \varphi = agctg\left(\frac{-3}{-3}\right) = arctg1 = \frac{\pi}{4} + n\pi.$$

M nuqtan III chorakda yotadi. U holda $n = -1$ va $\varphi = \frac{\pi}{4} - \pi = -\frac{3\pi}{4}$ bo‘ladi.

Demak,

$$M\left(3\sqrt{2}; -\frac{3\pi}{4}\right).$$

$2-$misol. Qutb koordinatalarida berilgan $M_1(r_1;\varphi_1)$ va $M_2(r_2;\varphi_2)$ nuqtalar orasidagi masofani toping.

Ikki nuqta orasidagi masofa formulasida (1.1) bog‘lanishni hisobga olib topamiz:

$$d = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2} =$$

$$= \sqrt{(r_2\cos\varphi_2 - r_1\cos\varphi_1)^2 + (r_2\sin\varphi_2 - r_1\sin\varphi_1)^2} =$$

$$= \sqrt{r_1^2 + r_2^2 - 2r_1r_2(\cos\varphi_1\cos\varphi_2 + \sin\varphi_1\sin\varphi_2)} =$$

$$= \sqrt{r_1^2 + r_2^2 - 2r_1r_1\cos(\varphi_2 - \varphi_1)}.$$

Demak,

$$d = \sqrt{r_1^2 + r_2^2 - 2r_1r_1\cos(\varphi_2 - \varphi_1)}.$$



2-shakl.

$3-$misol. ABC uchburchakning uchlari berilgan: $A(x_1;y_1)$, $B(x_2;y_2)$, $C(x_3;y_3)$. Uchburchakning yuzini koordinatalar usuli bilan toping.

A,B,C uchlardan Ox o‘qiga AA_1, BB_1, CC_1 perpendikularlar tushiramiz. 2-shakldan topamiz:

$$S_{ABC}=S_{AA_1B_1B}+S_{B_1BCC_1}-S_{A_1ACC_1}.$$

Bundan

$$S_{ABC}=\frac{y_1+y_2}{2}\cdot(x_2-x_1)+\frac{y_2+y_3}{2}(x_3-x_2)-\frac{y_1+y_3}{2}(x_3-x_1)=$$

$$=\frac{1}{2}(x_2y_1-x_1y_1+x_2y_2-x_1y_2+x_3y_2-x_2y_2+x_3y_3-x_2y_3-x_3y_1+x_1y_1-x_3y_3+x_1y_3)=$$

$$=\frac{1}{2}\big(x_3(y_2-y_1)-x_1(y_2-y_1)-x_2(y_3-y_1)+x_1(y_3-y_1)\big)=$$

$$=\frac{1}{2}\big((y_2-y_1)(x_3-x_1)-(y_3-y_1)(x_2-x_1)\big)=\frac{1}{2}\begin{vmatrix} x_3-x_1 & x_2-x_1 \\ y_3-y_1 & y_2-y_1 \end{vmatrix}.$$

Demak,

$$S_{\Delta}=\frac{1}{2}\begin{vmatrix} x_3-x_1 & x_2-x_1 \\ y_3-y_1 & y_2-y_1 \end{vmatrix}.$$

3.1.3. Nuqtaning bir sistemadagi koordinatalarini uning boshqa sistemadagi koordinatalari bilan almashtirishga *koordinatalarni almashtirish* deyiladi.

Tekislikda Oxy to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasi berilgan bo‘lsin.

Koordinata o‘qlarini parallel ko‘chirish – bu Oxy sistemadan uning o‘qlari yo‘nalishlarini va masshtablarini o‘zgartirmasdan faqat koordinatalar boshining joylashishini o‘zgartirish orqali yangi $O_1x_1y_1$ sistemaga o‘tishdir.

Koordinata o‘qlarini parallel ko‘chirishda tekislik ixtiyoriy M nuqtasining Oxy sistemadagi $(x;y)$ koordinatalari $O_1x_1y_1$ sistemadagi $(x';y')$ koordinatalari orqali

$$x=x_0+x',\ y=y_0+y' \tag{1.4}$$

formulalar bilan bog‘lanadi, bu yerda $x_0;y_0$ – $O_1x_1y_1$ sistema O_1 koordinatalar boshining Oxy sistemadagi koordinatalari.

Koordinata o‘qlarini burish – bu Oxy sistemadan uning koordinatalar boshini va o‘qlari masshtablarini o‘zgartirmasdan faqat koordinata o‘qlarini biror burchakka burish orqali yangi $O_1x_1y_1$ sistemaga o‘tishdir.

Umumiy O nuqtaga va bir xil masshtabli o‘qlarga ega bo‘lgan Oxy va Ox_1y_1 koordinatalar sistemalarida M nuqtaning koordinatalari

$$x = x'\cos\alpha - y'\sin\alpha,\ \ y = x'\sin\alpha + y'\cos\alpha \tag{1.5}$$

tengliklar bilan bo‘g‘lanadi.

Agar yangi sistema eski sistemadan koordinata o‘qlarini parallel ko‘chirish va burish orqali hosil qilingan bo‘lsa, u holda

$$x = x_0 + x'\cos\alpha - y'\sin\alpha,\ \ y = y_0 + x'\sin\alpha + y'\cos\alpha. \tag{1.6}$$

$4-$misol. To‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasining o‘qlari $A(12;-6)$ nuqtaga parallel ko‘chirilgan va $\alpha = arctg\dfrac{3}{4}$ burchakka burilgan. Yangi sistemaga nisbatan A va $B(5;5)$ nuqtalarning koordinatalarini toping.

(1.6) formulalardan topamiz:

$$x'\cos\alpha - y'\sin\alpha = x - x_0,\ \ x'\sin\alpha + y'\cos\alpha = y - y_0.$$

Bundan

$$x' = (x - x_0)\cos\alpha + (y - y_0)\sin\alpha,\ \ y' = (y - y_0)\cos\alpha - (x - x_0)\sin\alpha. \tag{1.7}$$

$$\alpha = arctg\frac{3}{4} \text{ da } \cos\alpha = \frac{1}{\sqrt{1 + tg^2\left(arctg\frac{3}{4}\right)}} = \frac{4}{5},\ \ \sin\alpha = \sqrt{1 - \left(\frac{4}{5}\right)^2} = \frac{3}{5}.$$

U holda

$$x' = \frac{4(x - x_0) + 3(y - y_0)}{5},\ \ y' = \frac{4(y - y_0) - 3(x - x_0)}{5}.$$

Nuqtalarning yangi sistemadagi koordinatalarini oxirgi tengliklar bilan topamiz:

A nuqta uchun:

$$x' = \frac{4(12 - 12) + 3(-6 + 6)}{5} = 0,\ \ y' = \frac{4(-6 + 6) - 3(12 - 12)}{5} = 0, \quad \text{ya'ni } A(0;0);$$

B nuqta uchun:

$$x' = \frac{4(5 - 12) + 3(5 + 6)}{5} = 1,\ \ y' = \frac{4(5 + 6) - 3(5 - 12)}{5} = 13, \text{ya'ni } B(1;13).$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

3.1.1. Ox, Oy o‘qlariga va koordinatalar boshiga nisbatan $A(-3;2)$ nuqtaga simmetrik bo‘lgan nuqtalarni toping.

3.1.2. Berilgan nuqtalarga I va III chorak bissektrisalariga nisbatan simmetrik bo‘lgan nuqtalarni toping:
$A(-1;2)$, $B(4;-1)$, $C(-2;-3)$, $D(4;3)$.

3.1.3. Berilgan nuqtalarning qutb koordinatalarini toping:
$A(\sqrt{3};1)$, $B(-\sqrt{3};-1)$, $C(-3;-3)$, $D(0;-3)$, $E(-3;0)$.

3.1.4. Berilgan nuqtalarning to‘g‘ri burchakli koordinatalarini toping:
$A(3;0)$, $B\left(2;-\frac{\pi}{3}\right)$, $C\left(5;\frac{\pi}{2}\right)$, $D\left(1;\frac{2\pi}{3}\right)$.

3.1.5. Qutbga va qutb o‘qiga nisbatan berilgan nuqtalarga simmetrik bo‘lgan nuqtalarni toping:
$A(3;0)$; $B\left(2;\frac{\pi}{4}\right)$; $C\left(1;-\frac{\pi}{3}\right)$.

3.1.6. $ABCD$ parallelogramm diagonallarining kesishish nuqtasi qutb koordinatalar sistemasining qutbi bilan ustma-ust tushadi. Agar $A\left(3;-\frac{4\pi}{9}\right)$, $B\left(5;\frac{3\pi}{4}\right)$ parallelogrammning ikkita uchi bo‘lsa, uning qolgan ikki uchini toping.

3.1.7. $A\left(5;\frac{\pi}{4}\right)$ va $B\left(8;-\frac{\pi}{12}\right)$ nuqtalar orasidagi masofani toping.

3.1.8. Uchlari O qutbda va $A(r_1;\varphi_1)$, $B(r_2;\varphi_2)$ nuqtalarda joylashgan OAB uchburchakning yuzini toping, bu yerda $\varphi_2 > \varphi_1$.

3.1.9. Kvadratning ikkita qarama-qarshi uchlari berilgan: $A\left(2;-\frac{\pi}{6}\right)$, $B\left(2;-\frac{2\pi}{3}\right)$.Kvadratning yuzini toping.

3.1.10. Kvadratning ikkita qo‘shni uchlari berilgan: $A\left(6;\frac{\pi}{3}\right)$, $B\left(2;\frac{4\pi}{3}\right)$.
Kvadratning yuzini toping.

3.1.11. Uchlari $A(-3;2),\ B(3;4),\ C(6;1),\ D(5;-2)$ nuqtalarda bo‘lgan to‘rtburchakning yuzini toping.

3.1.12. $A(1;2),\ B(4;4)$ nuqtalar berilgan. Agar ABC uchburchakning yuzi 5 ga teng bo‘lsa, Ox o‘qida yotuvchi C nuqtani toping.

3.1.13. $A(5;5),\ B(2;-3),\ C(-2;3)$ nuqtalar berilgan. Koordinata o‘qlarini o‘zgartirmasdan koordinatalari boshi ko‘chirilgan: 1) A nuqtaga; 2) B nuqtaga; 3) C nuqtaga. A,B,C nuqtalarning yangi sistemadagi koordinatalarini toping.

3.1.14. Koordinata o‘qlarini $\alpha = 30^0$ ga burib $A(1;1),\ B\left(\sqrt{3};2\right),\ C\left(0;2\sqrt{3}\right)$ nuqtalar hosil qilingan. Bu nuqtalarning eski sistemadagi koordinatalarini toping.

3.2. TEKISLIKDAGI TO‘G‘RI CHIZIQ

Tekislikdagi chiziq. Tekislikdagi to‘g‘ri chiziq tenglamalari. Tekislikda ikki to‘g‘ri chiziqning o‘zaro joylashishi. Nuqtadan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa

3.2.1. *Oxy tekislikdagi chiziq tenglamasi* deb aynan shu chiziq barcha nuqtalarining x va y koordinatalarini aniqlovchi ikki o‘zgaruvchining $F(x,y)=0$ tenglamasiga aytiladi; koordinatalari ikki o‘zgaruvchining $F(x,y)=0$ tenglamasini qanoatlantiruvchi Oxy tekislikning barcha $M(x;y)$ nuqtalari to‘plamiga *tekislikda* shu tenglama bilan aniqlanuvchi *chiziq* (to‘g‘ri chiziq yoki egri chiziq) deyiladi.

Tekislikdagi chiziq qutb koordinatalar sistemasida $F(r,\varphi)=0$ tenglama bilan beriladi, bu yerda $r,\varphi-$ chiziq nuqtalarining qutb koordinatalari.

Ayrim hollarda tekislikdagi chiziq $y=f(x)$ tenglama bilan beriladi. Bunda chiziq $y=f(x)$ funksiyaning grafigi deb ataladi.

Tekislikdagi chiziq ikkita $x=x(t), y=y(t), t\in T$ tenglamalar bilan ham berilishi mumkin. Bunda $x=x(t), y=y(t)$ tengliklarni qanoatlantiruvchi barcha $M(x;y)$ nuqtalar to‘plamiga tekislikdagi chiziqning parametrik berilishi, $x=x(t), y=y(t)$ funksiyalarga bu chiziqning parametrik tenglamalari, t ga parametr deyiladi. Chiziqning parametrik tenglamalaridan $F(x,y)=0$ tenglamasiga $x=x(t), y=y(t)$ tengliklarning har ikkalasidan qandaydir usul bilan t parametrni chiqarish orqali o‘tiladi.

Tekislikdagi chiziqning ikkita $x=x(t), y=y(t)$ parametrik (skalyar) tenglamalarini bitta $\vec{r}=\vec{r}(t)$ vektor tenglama bilan berish mumkin.

3.2.2. x,y o‘zgaruvchilarning har qanday birinchi darajali tenglamasi tekislikdagi biror to‘g‘ri chiziqni ifodalaydi va aksincha, tekislikdagi har qanday to‘g‘ri chiziq x,y o‘zgaruvchilarning biror birinchi darajali tenglamasi bilan aniqlanadi.

To‘g‘ri chiziqning tekislikdagi har xil o‘rni (berilish usuli) turli tenglamalar bilan aniqlanadi.

1. *Berilgan nuqtadan o‘tuvchi va berilgan vektorga perpendikular to‘g‘ri chiziq tenglamasi*:

$$A(x-x_0)+B(y-y_0)=0, \tag{2.1}$$

bu yerda $A,B-$ *to‘g‘ri chiziq normal vektori* (to‘g‘ri chiziqqa perpendikular bo‘lgan vektor) $\vec{n}=\{A;B\}$ning koordinatalari; x_0,y_0-berilgan nuqtaning koordinatalari, $x,y-$ to‘g‘ri chiziqda yotuvchi ixtiyoriy nuqtaning koordinatalari.

2. *To‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasi*:

$$Ax+By+C=0, \tag{2.2}$$

bu yerda $C-$ozod had; $A^2+B^2\neq 0$.

Bu tenglama bilan aniqlanuvchi to‘g‘ri chiziqning xususiy hollari:

$Ax+C=0\ (B=0)-Oy$ o‘qqa parallel yoki Ox o‘qqa perpendikular;

$By+C=0\ (A=0)-\ Ox$ o‘qqa parallel yoki Oy o‘qqa perpendikular;

$Ax+By=0\ (C=0)-$ koordinatalar boshidan o‘tuvchi;

$x=0\ (B=0, C=0)-Oy$ o‘qda yotuvchi;

$y=0\ (A=0, C=0)-Ox$ o‘qda yotuvchi.

3. *To‘g‘ri chiziqning kanonik tenglamasi* (yoki *berilgan nuqtadan o‘tuvchi va berilgan vektorga parallel to‘g‘ri chiziq tenglamasi*):

$$\frac{x-x_0}{p}=\frac{y-y_0}{q}, \tag{2.3}$$

bu yerda $p;q-$ *to‘g‘ri chiziq yo‘naltiruvchi vektori* (to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan vektor) $\vec{s}=\{p;q\}$ ning koordinatalari.

4. *To‘g‘ri chiziqning parametrik tenglamalari*:

$$x = x_0 + pt, y_0 = y + qt, \qquad (2.4)$$

bu yerda t – parametr.

5. *To‘g‘ri chiziqning vektor tenglamasi*:

$$\vec{r} = \vec{r}_0 + t\vec{s}, \qquad (2.5)$$

bu yerda $\vec{r}, \vec{r}_0$ – mos ravishda $M(x;y)$, $M_0(x_0;y_0)$ nuqtalarning radius vektorlari.

6. *Berilgan ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi*:

$$\frac{x - x_1}{x_2 - x_1} = \frac{y - y_1}{y_2 - y_1}, \qquad (2.6)$$

bu yerda x_1, y_1, x_2, y_2 – berilgan ikki nuqtaning koordinatalari.

7. *To‘g‘ri chiziqning kesmalarga nisbatan tenglamasi*:

$$\frac{x}{a} + \frac{y}{b} = 1, \qquad (2.7)$$

bu yerda a, b – to‘g‘ri chiziqning moc ravishda Ox va Oy o‘qlarida ajratgan kesmalari.

8. *To‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsiyentli tenglamasi*:

$$y = kx + b, \qquad (2.8)$$

bu yerda $k = tg\varphi$ – *to‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsiyenti*; φ – *to‘g‘ri chiziqning og‘ish burchagi* (Ox o‘qning musbat yo‘nalishdan berilgan to‘g‘ri chiziqqa soat strelkasiga teskari yo‘nalishda hisoblangan eng kichik burchak); b – to‘g‘ri chiziqning Oy o‘qda ajratgan kesmasi.

9. *Berilgan nuqtadan berilgan yo‘nalish bo‘yicha o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi* (yoki *to‘g‘ri chiziqlar dastasi tenglamasi*):

$$y - y_1 = k(x - x_1), \qquad (2.9)$$

bu yerda x_1, y_1 – berilgan nuqtaning koordinatalari.

10. *To‘g‘ri chiziqning qutb tenglamasi*:

$$r\cos(\alpha - \varphi) = p, \qquad (2.10)$$

bu yerda p – qutbdan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa; α – qutb oqi bilan berilgan to‘g‘ri chiziqqa perpendikular o‘q orasidagi burchak; $r;\varphi$ – to‘g‘ri chiziqda yotuvchi ixtiyoriy nuqtaning qutb koordinatalari.

11. *To‘g‘ri chiziqning normal tenglamasi*:

$$x\cos\alpha + y\sin\alpha - p = 0 \qquad (2.11)$$

bu yerda p – koordinatalar boshidan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa;

$\alpha - Ox$ o‘qi bilan berilgan to‘g‘ri chiziqqa perpendikular o‘q ($\vec{n}$ normal vektor) orasidagi burchak.

To‘g‘ri chiziqning (2.1)-(2.11) tenglamalaridan har birini qolganlaridan keltirib chiqarish mumkin.

$1-$misol. a ning qanday qiymatlarida $(a-2)x+(a^2-3a)y-2a+1=0$ to‘g‘ri chiziq: 1) Ox o‘qqa parallel bo‘ladi; 2) Ox o‘qqa perpendikular bo‘ladi; 3) koordinatalar boshidan o‘tadi.

1) To‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasida $A=0$ bo‘lsa to‘g‘ri chiziq Ox o‘qqa parallel bo‘ladi. Bundan $a-2=0$ yoki $a=2$.

2) (2.2) tenglamada $B=0$ bo‘lsa to‘g‘ri chiziq Ox o‘qqa perpendikular bo‘ladi. U holda $a^2-3a=0$ yoki $a=0, a=3$.

3) To‘g‘ri chiziq koordinatalar boshidan o‘tishi uchun to‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasida $C=0$ bo‘lishi kerak. Bundan $-2a+1=0$ yoki $a=\frac{1}{2}$.

$2-$misol. $3x-2y-6=0$ tenglama bilan berilgan to‘g‘ri chiziqni chizing.

Tekislikdagi to‘g‘ri chiziqni chizish uchun uning ikkita nuqtasini bilish yetarli.

To‘g‘ri chiziq tenglamasida, masalan $x=0$ deb, $y=-3$ ni, ya’ni $A(0;-3)$ nuqtani va shu kabi $B\left(1;-\frac{3}{2}\right)$ nuqtani topamiz. Bu nuqtalarni tutashtirib, berilgan tenglamaga mos to‘g‘ri chiziqni chizamiz. (3-shakl).

Bu masalani boshqacha, ya’ni to‘g‘ri chiziq tenglamasini kesmalarga nisbatan tenglamaga keltirib yechish mumkin. Buning uchun tenglamaning ozod hadi (-6) ni o‘ng tomonga o‘tkazamiz va hosil bo‘lgan tenglikning har ikkala tomonini 6 ga bo‘lamiz:

$$3x-2y=6,\quad \frac{3x}{6}-\frac{2y}{6}=1 \quad \text{yoki}$$

$$\frac{x}{2}+\frac{y}{(-3)}=1.$$

Bu tenglama bilan aniqlanuvchi to‘g‘ri chiziq koordinatalar boshiga nisbatan Ox o‘qida o‘ng tomonga 2 ga teng kesma va Oy o‘qida pastga 3 ga teng kesma ajratadi (3-shakl).



3-shakl.

$3-$misol. To‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing: 1) $M_1(2;-3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\vec{a}=\{-3;4\}$ vektorga perpendikular; 2) $M_2(-2;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\vec{b}=\{3;-2\}$ vektorga parallel; 3) $M_3(4;-1)$ va $M_4(1;-3)$ nuqtalardan o‘tuvchi; 4) Ox o‘qi bilan $\varphi=\frac{\pi}{4}$ burchak hosil qiluvchi va Oy o‘qni $M_5(0;4)$ nuqtada kesuvchi; 5) $M_5(2;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi va Ox o‘q bilan $\varphi=\frac{3\pi}{4}$ burchak hosil qiluvchi; 6) koordinata o‘qlarida 3 va (-4) ga teng kesma ajratuvchi.

To‘g‘ri chiziq tenglamalarini misol bandlarining shartlariga mos holda tuzamiz:

1) berilgan nuqtadan o‘tuvchi va berilgan vektorga perpendikular to‘g‘ri chiziq tenglamasi (2.1) ga ko‘ra

$$-3(x-2)+4(y+3)=0,\ -3x+6+4y+12=0 \text{ yoki}$$
$$3x-4y-18=0;$$

2) berilgan nuqtadan o‘tuvchi va berilgan vektorga parallel to‘g‘ri chiziq tenglamasi (2.3) ga asosan

$$\frac{x+2}{3}=\frac{y-2}{-2},\ -2(x+2)=3(y-2),\ 2x+4+3y-6=0 \text{ yoki}$$
$$2x+3y-2=0;$$

3) berilgan ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi ga binoan

$$\frac{x-4}{1-4}=\frac{y+1}{-3+1},\ \frac{x-4}{-3}=\frac{y+1}{-2},\quad 2x-8=3y+3 \text{ yoki}$$
$$2x-3y-11=0;$$

4) to‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsiyentli tenglamasi (2.8) ga binoan

$$y=tg\frac{\pi}{4}x+4 \text{ yoki}$$
$$y=x+4;$$

5) to‘g‘ri chiziqlar dastasi tenglamasi (2.9) ga ko‘ra

$$y+2=tg\frac{3\pi}{4}(x-2),\ y+2=-(x-2),\ x-2+y+2=0 \text{ yoki}$$
$$x+y=0;$$

6) to‘g‘ri chiziqning kesmalarga nisbatan tenglamasi (2.7) ga ko‘ra

$$\frac{x}{3}+\frac{y}{(-4)}=1 \text{ yoki}$$
$$4x-3y-12=0.$$

$4-$misol. $M_1\left(4;\frac{\pi}{2}\right)$ va $M_2(4;0)$ nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqning qutb tenglamasini tuzing.

To‘g‘ri chiziqning M_1 va M_2 nuqtalar orasidagi kesmasi katetlari 4 ga teng bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi bo‘ladi (4-shakl). Bunda qutbdan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa to‘g‘ri burchak uchidan gipotenuzaga tushirilgan balandlikdan iborat. Uning uzunligini ($p$ni) va yo‘nalishini (α ni) topamiz:

$$p=\frac{|OM_1|\cdot|OM_2|}{\sqrt{|OM_1|^2+|OM_2|^2}}=\frac{4\cdot 4}{\sqrt{4^2+4^2}}=2\sqrt{2},\quad \alpha=\frac{\pi}{4}.$$



4-shakl.

Bundan (2.10) formulaga ko‘ra

$$r\cos\left(\varphi-\frac{\pi}{4}\right)=2\sqrt{2}.$$

$5-$misol. To‘g‘ri chiziqning $5x-12y+8=0$ tenglamasini normal ko‘rinishga keltiring.

Berilgan tenglamani normal ko‘rinishga keltiramiz. Buning uchun tenglamaning chap va o‘ng tomonini *normallovchi ko‘paytuvchi* deb ataluvchi $M=\pm\frac{1}{\sqrt{A^2+B^2}}$ soniga ko‘paytiramiz. Bunda M ning ishorasi C ning ishorasiga qarama-qarshi qilib tanlanadi.

U holda $M=-\frac{1}{\sqrt{5^2+(-12)^2}}=-\frac{1}{13}$, chunki $C>0.$ Bundan

$$-\frac{5x}{13}+\frac{12y}{13}-\frac{8}{13}=0,$$

bu yerda $\cos\alpha=-\frac{5}{13},\ \sin\alpha=\frac{12}{13},\ p=\frac{8}{13}.$

3.2.3. Ikki to‘g‘ri chiziq orasidgi φ burchak to‘g‘ri chiziqlar tenglamalarining ko‘rinishi asosida topiladi.

Agar to‘g‘ri chiziqlar umumiy tenglamalari $A_1x+B_1y+C_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2=0$ bilan berilgan bo‘lsa, u holda

$$\cos\varphi=\frac{A_1A_2+B_1B_2}{\sqrt{A_1^2+B_1^2}\sqrt{A_2^2+B_2^2}}. \qquad (2.12)$$

Bunda to‘g‘ri chiziqlar orasidagi o‘tkir burchak (2.12) tenglikning o‘ng tomonini modulga olish orqali topiladi.

Agar to‘g‘ri chiziqlar kanonik tenglamalari $\frac{x-x_0}{p_1}=\frac{y-y_0}{q_1}$ va $\frac{x-x_0}{p_2}=\frac{y-y_0}{q_2}$ bilan berilgan bo‘lsa, u holda

$$\cos\varphi=\frac{p_1p_2+q_1q_2}{\sqrt{p_1^2+q_1^2}\sqrt{p_2^2+q_2^2}}. \tag{2.13}$$

Agar to‘g‘ri chiziqlar burchak koeffitsiyentli $y=k_1x+b_1$ va $y=k_2x+b_2$ tenglamalari bilan berilgan bo‘lsa, u holda

$$tg\varphi=\frac{k_1-k_2}{1+k_1k_2}. \tag{2.14}$$

Bunda to‘g‘ri chiziqlardan qaysi biri birinchi ekani ko‘rsatilmasdan ular orasidagi o‘tkir burchakni topish talab qilinsa (2.14) formulaning o‘ng tomoni modulga olinadi:

$$tg\varphi=\left|\frac{k_1-k_2}{1+k_1k_2}\right|. \tag{2.15}$$

6 – misol. To‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchakni toping:

1) $x-5y-3=0$ va $3x-2y+9=0$; 2) $\frac{x-4}{4}=\frac{y-1}{3}$ va $\frac{x+2}{3}=\frac{2y-1}{-8}$;

3) $y=\frac{1}{2}x-7$ va $y=2x+5$; 4) $y=\frac{3}{2}x+6$ va $5x+y+8=0$.

⊖ 1) To‘g‘ri chiziqlarning har ikkalasi umumiy tenglamalari bilan berilgan. Bunda $A_1=1,\ B_1=-5,\ A_2=3,\ B_2=-2.$ To‘g‘ri chiziqlar orasidagi φ burchakni (2.12) formula bilan topamiz:

$$\cos\varphi=\frac{1\cdot3+(-5)\cdot(-2)}{\sqrt{1^2+(-5)^2}\sqrt{3^2+(-2)^2}}=\frac{\sqrt{2}}{2}.\quad \text{Bundan}\quad \varphi=\frac{\pi}{4}.$$

2) Birinchi to‘g‘ri chiziq kanonik tenglamasi bilan berilgan. Ikkinchi to‘g‘ri chiziqning tenglamasini kanonik ko‘rinishga keltiramiz:

$$\frac{x+2}{3}=\frac{2y-1}{-8}\ \text{dan}\ \frac{x+2}{3}=\frac{y-\frac{1}{2}}{-4}.$$

Bundan $p_1 = 4,\ q_1 = 3,\ p_2 = 3,\ q_2 = -4.$ U holda (2.13) formulaga binoan

$$\cos\varphi = \frac{4\cdot 3 + 3\cdot(-4)}{\sqrt{4^2+3^2}\sqrt{3^2+(-4)^2}} = 0 \text{ yoki } \varphi = \frac{\pi}{2}.$$

3) To‘g‘ri chiziqlarning har ikkalasi burchak koeffitsiyentli tenglamalari bilan berilgan bo‘lib, bunda $k_1 = \frac{1}{2},\ k_2 = 2.$

U holda (2.15) formulaga ko‘ra

$$tg\varphi = \left|\frac{\frac{1}{2}-2}{1+\frac{1}{2}\cdot 2}\right| = \frac{3}{4}. \quad \text{Bundan } \varphi = arctg\frac{3}{4} \approx 37^o.$$

d) Birinchi tenglamaga ko‘ra $k_1 = \frac{3}{2}.$ Ikkinchi to‘g‘ri chiziq tenglamasidan topamiz: $5x + y + 8 = 0,\ y = -5x - 8,$ bunda $k_2 = -5.$

U holda

$$tg\varphi = \left|\frac{\frac{3}{2}+5}{1+\frac{3}{2}\cdot(-5)}\right| = 1. \quad \text{Bundan } \varphi = \frac{\pi}{4}.$$

To‘g‘ri chiziq tenglamalarining ko‘rinishiga qarab, ularning *perpendikular bo‘lishi* quyidagi shartlardan biri bilan aniqlanadi:

$$A_1A_2 + B_1B_2 = 0; \tag{2.16}$$

$$p_1p_2 + q_1q_2 = 0; \tag{2.17}$$

$$1 + k_1k_2 = 0. \tag{2.18}$$

Quyidagi shartlardan biri to‘g‘ri chiziqlar tenglamalarining berilishiga ko‘ra, ularning *parallel bo‘lishi*ni aniqlaydi:

$$\frac{A_1}{A_2} = \frac{B_1}{B_2}; \tag{2.19}$$

$$\frac{p_1}{p_2} = \frac{q_1}{q_2}; \tag{2.20}$$

$$k_1 = k_2. \tag{2.21}$$

$7-$misol. To‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing: 1) $M_1(-2;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va $2x-3y+4=0$ to‘g‘ri chiziqqa perpendikular bo‘lgan; 2) $M_2(-1;3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\frac{x-3}{3}=\frac{y-1}{2}$ to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan; 3) $y=2x-1$ to‘g‘ri chiziq bilan $\varphi=\frac{\pi}{4}$ ga teng burchak hosil qiluvchi va ordinatalar o‘qida 4 ga teng burchak ajratuvchi.

1) To‘g‘ri chiziq tenglamasini $Ax+By+C=0$ ko‘rinishda izlaymiz. Masalaning shartiga ko‘ra:

$$\begin{cases} -2A+2B+C=0 \ (\textit{to‘g‘ri chiziq } M(-2;2) \textit{ nuqtadan o‘tadi}), \\ 2\cdot A+(-3)\cdot B=0 \ (\textit{to‘g‘ri chiziq } 2x-3y+4=0 \textit{ to‘g‘ri chiziqqa } \perp). \end{cases}$$

Sistemaning yechimi: $A=\frac{3}{2}C,\ B=C.$

A va B koeffitsiyentlarni izlanayotgan tenglamaga qo‘yamiz:

$$\frac{3}{2}Cx+Cy+C=0.$$

Bundan

$$3x+2y+2=0.$$

2) To‘g‘ri chiziq tenglamasini $Ax+By+C=0$ ko‘rinishda izlaymiz. U holda

$$\begin{cases} -A+3B+C=0 \ (\textit{to‘g‘ri chiziq } M(-1;3) \textit{ nuqtadan o‘tadi}), \\ \frac{A}{3}=\frac{B}{2} \left(\textit{to‘g‘ri chiziq } \frac{x-3}{3}=\frac{y-1}{2} \textit{ to‘g‘ri chiziqqa } \parallel\right). \end{cases}$$

Bundan $A=-C,\ B=-\frac{2}{3}C$.

Demak, izlanayotgan to‘g‘ri chiziq tenglamasi:

$$-x-\frac{2}{3}y+1=0 \text{ yoki}$$

$$3x+2y-3=0.$$

3) Ordinatalar o‘qida 4 ga teng kesma ajratuvchi to‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsiyentli tenglamasi $y=kx+4$ ko‘rinishda bo‘ladi. Misol shartiga ko‘ra $y=kx+4$ va $y=2x-1$ to‘g‘ri chiziqlar $\varphi=\frac{\pi}{4}$ ga teng burchak

tashkil qiladi. U holda (2.15) formulaga ko‘ra $tg45^0 = \left|\frac{k-2}{1+2k}\right|$ yoki $1+2k = \pm(k-2)$. Bundan $k=-3$ va $k=\frac{1}{3}$. Demak, $y=-3x+4$ va $y=\frac{1}{3}x+4$ yoki

$$3x+y-4=0 \text{ va } x-3y+12=0.$$

To‘g‘ri chiziqlar umumiy tenglamalari $A_1x+B_1y+C_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2=0$ bilan berilsa, ularning *kesishish nuqtasi koordinatalari* quyidagi sistemadan topiladi:

$$\begin{cases} A_1x+B_1y+C_1=0, \\ A_2x+B_2y+C_2=0. \end{cases} \quad (2.22)$$

Bunda $M(x;y)$ kesishish nuqtasi orqali o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqlar dastasi ushbu

$$A_1x+B_1y+C_1+\lambda(A_2x+B_2y+C_2)=0 \quad (2.23)$$

tenglama bilan aniqlanadi, bu yerda $\lambda-$sonli ko‘paytuvchi.

$8-$misol. $2x-y-2=0$ a to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yo‘naltirilgan yorug‘lik nuri $x-2y+2=0$ to‘g‘ri chiziqda akslanadi (qaytadi). Qaytuvchi nur yo‘nalgan to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

Yorug‘lik nurining qaytish nuqtasi $2x-y-2=0$ va $x-2y+2=0$ to‘g‘ri chiziqlarning kesishish nuqtasi bo‘ladi.

Bu nuqta $M(x;y)$ bo‘lsin.

Uni quyidagi sistemadan topamiz:

$$\begin{cases} 2x-y-2=0, \\ x-2y+2=0. \end{cases}$$

Bundan $M(2;2)$. Yorug‘lik nuri akslanuvchi va yo‘nalgan to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak tangensini topamiz:

$$tg\alpha = \frac{\frac{1}{2}-2}{1+\frac{1}{2}\cdot 2} = -\frac{3}{4}.$$

Bu son yorug‘lik nuri qaytuvchi va akslanuvchi to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak tangensiga teng bo‘ladi.

U holda

$$-\frac{3}{4}=\frac{k-\frac{1}{2}}{1+\frac{1}{2}\cdot k},$$

bu yerda $k-$ nur qaytuvchi to‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsiyenti.
Bundan $k=-\frac{2}{11}$.

Demak, izlanayotgan to‘g‘ri chiziq $M(2;2)$ nuqtadan o‘tadi va uning burchak koeffitsiyenti $k=-\frac{2}{11}$ ga teng. U holda (2.8) tenglamaga ko‘ra $y-2=-\frac{2}{11}(x-2)$ yoki

$$2x+11y-26=0.$$

To‘g‘ri chiziqlar umumiy tenglamalari $A_1x+B_1y+C_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2=0$ bilan berilgan bo‘lsa

$$\frac{A_1}{A_2}=\frac{B_1}{B_2}=\frac{C_1}{C_2}. \tag{2.24}$$

tengliklar to‘g‘ri chiziqlarning ustma-ust tushish shartini ifodalaydi.

$9-$misol. a va b ning qanday qiymatlarida $5x-3y+1=0$ va $ax+by-2=0$ to‘g‘ri chiziqlar ustma-ust tushadi?

To‘g‘ri chiziqlarning ustma-ust tushish shartiga ko‘ra

$$\frac{5}{a}=\frac{-3}{b}=\frac{1}{-2}.$$

Bundan

$$a=-10,\ b=6.$$

2.2.4. Nuqtadan to‘g‘ri chiziqqa tushirilgan perpendikularning uzunligiga nuqtadan *to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa* deyiladi.

$M_0(x_0;y_0)$ nuqtadan $Ax+By+C=0$ to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa

$$d=\frac{|Ax_0+By_0+C|}{\sqrt{A^2+B^2}} \tag{2.25}$$

formula bilan topiladi.

$10-$misol. ABC uchburchakning $A(4;1)$ uchidan $5x+12y-6=0$ tenglama bilan aniqlanuvchi BC tomoniga tushirilgan balandlik uzunligini toping.

Izlanayotgan balandlik uzunligi A uchdan BC tomongacha bo‘lgan masofaga teng bo‘ladi. Uni (2.25) formula bilan hisoblaymiz:

$$d=\frac{|5\cdot 4+1\cdot 12-6|}{\sqrt{5^2+12^2}}=2(u.b).$$

$11-$misol. $3x+4y-4=0$ va $6x+8y+5=0$ parallel to‘g‘ri chiziqlar orasidagi masofani toping.

Birinchi to‘g‘ri chiziqda ixtiyoriy $M(x;y)$ nuqtani olamiz. Masalan, agar $x=0$ bo‘lsa, u holda $y=1$ bo‘ladi, ya’ni $M(0;1)$.U holda berilgan parallel to‘g‘ri chiziqlar orasidagi d masofa $M(0;1)$ nuqtadan ikkinchi $6x+8y+5=0$ to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofaga teng bo‘ladi. Uni (2.25) formula bilan hisoblaymiz:

$$d=\frac{|6\cdot 0+8\cdot 1+5|}{\sqrt{6^2+8^2}}=\frac{13}{10}(u.b).$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

3.2.1. Chiziqning berilgan parametrik tenglamalarini $F(x;y)=0$ ko‘rinishga keltiring:

1) $\begin{cases} x=t+1, \\ y=3t, t\in R \end{cases}$; 2) $\begin{cases} x=4\cos t, \\ y=3\sin t, t\in[0;2\pi] \end{cases}$;

3) $\begin{cases} x=t-2, \\ y=t^2-4t+5, t\in R \end{cases}$; 4) $\begin{cases} x=0,5gt^2, \\ y=vt, t\in R^+ \end{cases}$.

3.2.2. To‘g‘ri chiziqlarning burchak koeffitsiyentini va koordinata o‘qlarida ajratgan kesmalarini toping:

1) $3x+4y-12=0$; 2) $x=3y-2$; 3) $\frac{y+1}{2}=\frac{x-3}{4}$; 4) $\frac{x}{5}+\frac{y}{3}=\frac{1}{2}$.

3.2.3. To‘g‘ri chiziqning tenglamasini tuzing: 1) $M_1(2;-3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\vec{n}=\{3;4\}$ normal vektorga ega bo‘lgan; 2) $M_2(-2;-3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\vec{s}=\{-1;3\}$ yo‘naltiruvchi vektorlarga ega bo‘lgan; 3) $M_3(-2;3)$ nuqtadan o‘tuvchi Ox o‘qqa perpendikular bo‘lgan; 4) $M_4(3;2)$ nuqtadan o‘tuvchi Oy o‘qda $b=5$ ga teng kesma ajratuvchi.

3.2.4. Tenglamalardan qaysilari to‘g‘ri chiziqning normal tenglamasini ifodalaydi?

1) $y+2=0$; 2) $x-2{,}5=0$;

3) $\frac{3}{5}x-\frac{4}{5}y-3=0$; 4) $\frac{12}{13}x+\frac{5}{13}y+2=0$.

3.2.5. To‘g‘ri chiziqlarning kesishish nuqtalarini va ular orasidagi burchakni toping:

1) $5x-y-3=0$, $2x-3y+4=0$; 2) $y=\frac{3}{4}x-\frac{5}{2}$, $4x+3y-5=0$;

3) $\frac{x+1}{3}=\frac{y-1}{1}$, $x-3y+9=0$; 4) $\frac{x-1}{1}=\frac{y+3}{5}$, $\frac{x-2}{-2}=\frac{y-2}{3}$.

3.2.6. m va n ning qanday qiymatlarida $mx+9y+n=0$ va $4x+my-2=0$ to‘g‘ri chiziqlar: 1) parallel bo‘ladi; 2) ustma-ust tushadi; 3) perpendikular bo‘ladi?

3.2.7. m ning qanday qiymatlarida to‘g‘ri chiziqlar: 1) parallel bo‘ladi; 2) perpendikular bo‘ladi?

1) $x-my+5=0$, $2x+3y+3=0$; 2) $2x-3y+4=0$, $mx-6y+7=0$;

3.2.8. $x+y-7=0$ to‘g‘ri chiziqda koordinatalari $2x-y+4=0$ tenglik bilan bog‘langan nuqtani toping.

3.2.9. $A(4;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va koordinata o‘qlari bilan yuzi $2(y.b.)$ ga teng uchburchak ajratuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

3.2.10. Uchburchakning uchlari berilgan: $A(-3;2), B(5;-2), C(0;4)$. BD balandlik tenglamasini tuzing.

3.2.11. Uchburchakning uchlari berilgan: $A(-2;0), B(5;3), C(1;-1)$. AD mediana tenglamasini tuzing.

3.2.12. $2x-y+3=0$ va $x+y-2=0$ to‘g‘ri chiziqlarning kesishish nuqtasidan o‘tuvchi va $3x-4y-7=0$ to‘g‘ri chiziqqa perpendikular to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

3.2.13. To‘g‘ri burchakli teng yonli uchburchak gipotenuzasining tenglamasi $3x+2y-6=0$ dan va uchlaridan biri $A(-1;-2)$ nuqtadan iborat. Uchburchakning katetlari tenglamalarini tuzing.

3.2.14. Parallelogrammning ikki uchi $A(1;1)$ va $B(2;-2)$ nuqtalarda yotadi va diagonallari $(-1;0)$ nuqtada kesishadi. Parallelogrammning tomonlari tenglamalarini tuzing.

3.2.15. $ABCD$ to‘rtburchakning uchlari berilgan: $A(5;3)$, $B(1;1)$, $C(3;5)$, $D(6;6)$. Uning diagonallari kesishish nuqtasini va diagonallari orasidagi burchakni toping.

3.2.16. Uchburchakning uchlari berilgan: $A(8;3), B(2;5), C(5;-1)$.

Uchburchak medianalarining kesishish nuqtasidan o‘tuvchi va $x+y-2=0$ to‘g‘ri chiziqqa perpendikular to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

3.2.17. Burchak tomonlaridan birining tenglamasi $4x-3y+9=0$ dan va bissektrisasining tenglamasi $x-7y+21=0$ dan iborat. Burchak ikkinchi tomonining tenglamasini tuzing.

3.2.18. Uchburchakning ikki uchi $A(5;1), B(1;3)$ va medianalari kesishish nuqtasi $M(3;4)$ berilgan. Uchburchak tomonlarining tenglamalarini tuzing.

3.2.19. Uchburchakning ikki uchi $A(2;-2), B(-6;2)$ va balandliklari kesishish nuqtasi $M(1;2)$ berilgan. Uchburchakning B uchidan tushirilgan balandlik tenglamasini tuzing.

3.2.20. Uchburchak tomonlar o‘rtalarining koordinatalari berilgan: $M_1(1;-3), M_2(2;-2), M_3(-3;4)$. Uchburchak tomonlarining tenglamalarini tuzing.

3.2.21. Parallelogrammning ikki tomoni $2x+y-2=0$, $x-y+17=0$ tenglamalar bilan berilgan va uning diagonallari $M(-3,5;3,5)$ nuqtada kesishadi. Parallelogramm qolgan ikki tomonining tenglamasini tuzing.

3.2.22. $x-2y+5=0$ to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yo‘nalgan yorug‘lik nuri $3x-2y+7=0$ to‘g‘ri chiziqda akslanadi (qaytadi). Qaytuvchi nur yo‘nalgan to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

3.2.23. Kvadratning uchlaridan biri $A(3;4)$ nuqtadan iborat bo‘lib, tomonlaridan biri $2x+5y+3=0$ to‘g‘ri chiziqda yotadi. Kvadratning yuzini toping.

3.2.24. $4x-3y+8=0$ va $8x-6y-7=0$ to‘g‘ri chiziqlar orasidagi masofani toping.

3.2.25. Kvadratning ikki tomoni $5x+12y-61=0$ va $5x+12y+17=0$ tenglamalar bilan berilgan. Kvadrat diagonalining uzunligini toping.

3.2.26. $M(-8;12)$ nuqtaning $A(-5;1)$ va $B(2;-3)$ nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdagi proyeksiyasini toping.

3.2.27. $3x+4y-7=0$ to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan va $A(3;-1)$ nuqtadan $3(uz.b)$ masofada yotuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

3.3. IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLAR

Aylana. Ellips. Giperbola. Parabola.
Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamasi

3.3.1. Oxy koordinatalar sistemasida x, y o‘zgaruvchilarning ikkinchi darajali tenglamasi bilan aniqlanuvchi chiziq (egri chiziq) *tekislikdagi ikkinchi tartibli chiziq* deyiladi.

Tekislikdagi ikkinchi tartibli chiziqlarga aylana, ellips, giperbola va parabola kiradi.

Markaz deb ataluvchi nuqtadan teng uzoqlikda yotuvchi tekislik nuqtalarining geometrik o‘rniga *aylana* deyiladi.

$$(x-x_0)^2+(y-y_0)^2=R^2$$

tenglamaga *aylananing kanonik tenglamasi* deyiladi. Bunda $M_0(x_0;y_0)$ nuqta *aylana markazi*, R masofa *aylana radiusi* deb ataladi.

$x^2+y^2=R^2$ tenglama markazi koordinatalar boshida yotuvchi va radiusi R ga teng aylanani aniqlaydi.

$1-$misol. Koordinatalari $x = R\cos t,\ y = R\sin t$ tenglamalar bilan aniqlanuvchi $M(x;y)$ nuqta aylana nuqtasi bo‘lishini ko‘rsating.

$M(x;y)$ nuqta koordinatalarining har ikkala tomonini kvadratga ko‘taramiz va hadlab qo‘shamiz:

$$x^2 + y^2 = R^2\cos^2 t + R^2\sin^2 t = R^2(\sin^2 t + \cos^2 t) = R^2$$

yoki

$$x^2 + y^2 = R^2.$$

Demak, koordinatalari $x = R\cos t,\ y = R\sin t$ tenglamalar bilan aniqlanuvchi $M(x;y)$ nuqta markazi koordinatalar boshida yotuvchi va radiusi R ga teng aylanada yotadi.

Aylanani aniqlovchi ushbu

$$\begin{cases} x = R\cos t, \\ y = R\sin t,\ t \in [0;2\pi] \end{cases} \qquad (3.2)$$

tenglamalar sistemasiga *aylananing parametrik tenglamalari* deyiladi.

$2-$misol. Aylananing kanonik tenglamasini tuzing: 1) markazi koordinatalar boshida joylashgan va radiusi $R = 5$ ga teng bo‘lgan;
2) markazi $A(-4;3)$ nuqtada joylashgan va koordinatalar boshidan o‘tgan;
3) $B(-4;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va koordinata o‘qlariga uringan;
4) diametrlaridan birining uchlari koordinatalar boshida va $C(-4;6)$ nuqtada yotgan; 5) markazi koordinatalar boshida joylashgan va $12x - 5y + 26 = 0$ to‘g‘ri chiziqqa uringan.

1) Markazi koordinatalar boshida yotuvchi va radiusi R ga teng aylana tenglamasidan topamiz:

$$x^2 + y^2 = 25.$$

2) (3.1) tenglamaga binoan: $(x+4)^2 + (y-3)^2 = R^2$. Bu aylana koordinatalar boshidan o‘tadi. Shu sababli $(0+4)^2 + (0-3)^2 = R^2$. Bundan $R^2 = 25$. U holda

$$(x+4)^2 + (y-3)^2 = 25.$$

3) $B(-4;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va koordinata o‘qlariga uringan aylana markazi $M_0(-R;R)$ nuqtada yotadi. (3.1) tenglamadan topamiz:

$$(-4+R)^2 + (2-R)^2 = R^2 \quad \text{yoki} \quad R^2 - 12R + 20 = 0.$$

Bundan $R_1 = 2,\ R_2 = 10.$ U holda izlanayotgan tenglama

$$(x+10)^2 + (y-10)^2 = 100 \quad \text{yoki} \quad (x+2)^2 + (y-2)^2 = 4.$$

4) $O(0;0)$ va $C(-4;6)$ nuqtalardan oʻtuvchi diametrning kvadratini topamiz:

$$d^2 = (-4-0)^2 + (6-0)^2 = 52.$$

Bundan $4R^2 = 52$ yoki $R^2 = 13$. Aylana markazi $M(a;b)$ diametr oʻrtasida yotadi. Shu sababli $a = \dfrac{-4+0}{2} = -2$; $b = \dfrac{6+0}{2} = 3$.

Bundan

$$(x+2)^2 + (y-3)^2 = 13.$$

5) Markazdan, ya'ni koordinatalar boshidan urinmagacha boʻlgan masofa R ga teng. Nuqtadan toʻgʻri chiziqqacha boʻlgan masofa formulasidan topamiz:

$$R = \frac{|12\cdot 0 - 5\cdot 0 + 26|}{\sqrt{12^2 + (-5)^2}} = 2.$$

U holda

$$x^2 + y^2 = 4.$$

3 – misol. $(x-3)^2 + (y+2)^2 = 25$ aylanaga $M(0;3)$ nuqtada oʻtkazilgan urinma tenglamasini tuzing.

$M(0;3)$ nuqtadan oʻtuvchi urinma (toʻgʻri chiziq) tenglamasini $y = kx + 3$ koʻrinishda izlaymiz.

Aylana bilan urinmaning umumiy nuqtasini topish uchun quyidagi sistemani yechamiz:

$$\begin{cases} y = kx + 3, \\ (x-3)^2 + (y+2)^2 = 25. \end{cases}$$

Bundan $(x-3)^2 + (kx+3+2)^2 = 25$ yoki $(k^2+1)x^2 + (10k-6)x + 9 = 0.$ Bu tenglama toʻgʻri chiziq aylanaga uringani uchun yagona yechimga ega boʻladi. Su sababli tenglamaning diskreminanti nolga teng, ya'ni $(5k-3)^2 - 9(k^2+1) = 0$ yoki $16k^2 - 30k = 0.$ Bundan $k_1 = 0,\ k_2 = \dfrac{15}{8}.$ Toʻgʻri chiziqning burchak koeffitsiyentini $y = kx + 3$ tenglamaga qoʻyamiz:

$$y = 3 \ \text{va} \ y = \frac{15}{8}x + 3 \ \text{yoki}$$

$$y = 3 \ \text{va} \ 15x - 8y + 24 = 0.$$

3.3.2. Har biridan fokuslar deb ataluvchi berilgan ikki nuqtagacha bo‘lgan masofalarning yig‘indisi o‘zgarmas miqdorga teng bo‘lgan tekislik nuqtalarining geometrik o‘rniga *ellips* deyladi.

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1,\ b^2=a^2-c^2 \tag{3.3}$$

tenglamaga *ellipsning kanonik tenglamasi* deyiladi.

4 – misol. $x=a\cos t,\ y=b\sin t$ tengliklar ellipsning nuqtasini aniqlashini ko‘rsating.

$x=a\cos t,\ y=b\sin t$ tengliklardan topamiz: $\frac{x}{a}=\cos t,\ \frac{y}{b}=b\sin t$.

U holda $\left(\frac{x}{a}\right)^2+\left(\frac{y}{b}\right)^2=\cos^2 t+\sin^2 t=1$ yoki $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1.$

Demak, $x=a\cos t,\ y=b\sin t$ tengliklar ellipsning nuqtasini aniqlaydi.

Ellipsni aniqlovchi ushbu

$$\begin{cases} x=a\cos t, \\ y=b\sin t,\ t\in[0;2\pi] \end{cases} \tag{3.4}$$

tenglamalar sistemasiga *ellipsning parametrik tenglamalari* deyiladi.

Ellipsda $2a,\ 2b$ uzunliklariga mos ravishda katta va kichik o‘qlar, a, b sonlarga mos ravishda katta va kichik yarim o‘qlar deyiladi.

$\varepsilon=\frac{c}{a}$ kattalikka *ellipsning ekssentrisiteti* deyiladi. Bunda $0<\varepsilon<1$.

M nuqtadan d_1, d_2 masofada o‘tuvchi va tenglamalari $x=\pm\frac{a}{\varepsilon}$ dan iborat bo‘lgan to‘g‘ri chiziqlar *ellipsning direktrisalari* deb ataladi. Direktrisalar ushbu

$$\frac{r_1}{d_1}=\frac{r_2}{d_2}=\varepsilon$$

tengliklarni qanoatlantiradi. Bunda r_1, r_2 fokal radiuslar deb ataladi.

Ellipsning fokal radiuslari

$$r_1=a-\varepsilon x,\ r_2=a+\varepsilon x$$

formulalar bilan aniqlanadi.

$a<b$ bo‘lganda (3.3) tenglama uzunligi $2b$ ga teng katta o‘qi Oy o‘qida yotuvchi va uzunligi $2a$ ga teng kichik o‘qi Ox o‘qida yotuvchi ellipsni

aniqlaydi. Bu ellipsning fokuslari $F_1(0;c)$ va $F_2(0;-c)$ nuqtalarda yotadi, bu yerda $c=\sqrt{b^2-a^2}$.

$a=b$ bo‘lganda (3.3) tenglama markazi koordinata boshida yotuvchi va radiusi a ga teng aylanani aniqlaydi.

$5-$misol. Fokuslari abssissalar o‘qida koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik joylashgan va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi ellipsning kanonik tenglamasini tuzing: 1) $A(8;0)$ va $B(0;7)$ nuqtalardan o‘tuvchi; 2) katta o‘qi 8 ga, fokuslari orasidagi masofa 6 ga teng; 3) katta o‘qi 16 ga, ekssentrisiteti $\frac{1}{4}$ ga teng; 4) katta o‘qi 10 ga, direktrisalari orasidagi masofa 25 ga teng; d) fokuslari orasidagi masofa 3 ga, direktrisalari orasidagi masofa 8 ga teng.

Ellipsning tenglamalarini har bir bandda berilgan shartlar asosida tuzamiz.

1) $A(8;0)$ va $B(0;7)$ nuqtalarning koordinatalari (3.3) tenglamani qanoatlantirishi kerak, ya’ni

$$\frac{64}{a^2}+\frac{0}{b^2}=1,\ \frac{0}{a^2}+\frac{49}{b^2}=1.$$

Bundan $a^2=64,\ b^2=49.$ U holda

$$\frac{x^2}{64}+\frac{y^2}{49}=1.$$

2) Shartga ko‘ra: $2a=8$, $2c=6$. Bundan $a=4$, $c=3$, $b^2=a^2-c^2=16-9=7$. U holda

$$\frac{x^2}{16}+\frac{y^2}{7}=1.$$

3) Shartga binoan: $2a=16$, $\varepsilon=\frac{1}{4}$. Bundan $a=8$, $\frac{c}{a}=\frac{1}{4}$ yoki $c=\frac{1}{4}\cdot a=2$. U holda $a^2=64,\ b^2=64-4=60$ va

$$\frac{x^2}{64}+\frac{y^2}{60}=1.$$

4) Shartga asosan: $2a=10$, $d_1+d_2=25$. Bundan $a=5$, $\frac{r_1}{\varepsilon}+\frac{r_2}{\varepsilon}=\frac{r_1+r_2}{\varepsilon}=\frac{2a}{\varepsilon}=\frac{2a^2}{c}=25$ yoki $c=\frac{2a^2}{25}=2$.

U holda $a^2 = 25,\ b^2 = 25 - 4 = 21$ va

$$\frac{x^2}{25} + \frac{y^2}{21} = 1.$$

5) Shartda berilishicha $2c = 6$, $d_1 + d_2 = 8$. Bundan $c = 3$, $\frac{2a^2}{c} = 8$.

U holda $a^2 = \frac{8c}{2} = \frac{8 \cdot 3}{2} = 12$, $b^2 = 12 - 9 = 3$ va

$$\frac{x^2}{12} + \frac{y^2}{3} = 1.$$

$6-$misol. $24x^2 + 49y^2 = 1176$ tenglama bilan berilgan ellipsda toping: 1) yarim o‘qlar uzunligini; 2) fokuslar koordinatalarini; 3) ekssentrisitetni; 4) direktrisalarning tenglamalari va ular orasidagi masofani; 5) ellipsning $M(x;y)$ nuqtasidan chap fokusgacha bo‘lgan masofa 12 ga teng bo‘lsa, $M(x;y)$ nuqtani.

Ellips tenglamasining har ikkala tomonini 1176 ga bo‘lib, uni kanonik shaklga keltiramiz:

$$\frac{x^2}{49} + \frac{y^2}{24} = 1.$$

1) Bu tenglamadan topamiz: $a^2 = 49,\ b^2 = 24,$ ya’ni $a = 7,\ b = 2\sqrt{6}.$

2) $c^2 = a^2 - b^2$ tenglikdan topamiz: $c^2 = 49 - 24 = 25,\ c = 5.$

Bundan $F_1(5;0),\ F_2(-5;0).$

3) $\varepsilon = \frac{c}{a}$ formuladan topamiz: $\varepsilon = \frac{5}{7}.$

4) Ellipsning direktrisalarini $x = \pm\frac{a}{\varepsilon}$ formulalar orqali topamiz:

$$x = \pm\frac{7}{\frac{5}{7}} = \pm\frac{49}{5},\ \text{ya'ni}\ x_1 = \frac{49}{5}, x_2 = -\frac{49}{5}.$$

U holda direktrisalar orasidagi masofa

$$d = \frac{49}{5} - \left(-\frac{49}{5}\right) = \frac{98}{5}.$$

5) $M(x;y)$ nuqtadan chap fokusgacha bo‘lgan masofa $r_1 = 12.$

U holda $r_1 = a + \varepsilon x$ formulaga ko‘ra $12 = 7 + \frac{5}{7}x.$ Bundan $x = 7.$ x ni ellipsning kanonik tenglamasiga qo‘yib, $M(x;y)$ nuqtaning ordinatasini topamiz:
$1 + \frac{y^2}{24} = 1$ yoki $y = 0.$ Demak, $M(7;0).$

3.3.3. Har biridan fokuslar deb ataluvchi berilgan ikki nuqtagacha bo‘lgan masofalar ayirmasining moduli o‘zgarmas miqdorga teng bo‘lgan tekislik nuqtalarining geometrik o‘rniga *giperbola d*eyiladi.

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1, \; b^2 = c^2 - a^2 \qquad (3.5)$$

tenglamaga *giperbolaning kanonik tenglamasi* deyiladi.

$y = \pm\frac{b}{a}x$ tenglama bilan aniqlanuvchi to‘g‘ri chiziqlarga *giperbolaning asimptotalari* deyiladi.

Giperbolada $2a$ uzunlikka haqiqiy o‘q, $2b$ uzunlikka mavhum o‘q, a, b sonlarga mos ravishda haqiqiy va mavhum yarim o‘qlar deyiladi.
$\varepsilon = \frac{c}{a}$ kattalikka *giperbolaning ekssentrisiteti* deyiladi. Bunda $\varepsilon > 1.$

M nuqtadan d_1 va d_2 masofada o‘tuvchi , tenglamalari $x = \pm\frac{a}{\varepsilon}$ dan ibo-rat to‘g‘ri chiziqlar giperbola*ning direktrisalari* deb ataladi. Direktrisalar ushbu

$$\frac{r_1}{d_1} = \frac{r_2}{d_2} = \varepsilon$$

tengliklarni qanoatlantiradi.

Giperbolaning fokal radiuslari ushbu

$$x > 0 \text{ bo‘lganda } r_1 = \varepsilon x - a, \; r_2 = \varepsilon x + a;$$
$$x < 0 \text{ bo‘lganda } r_1 = -a - \varepsilon x, \; r_2 = a - \varepsilon x$$

formulalar bilan aniqlanadi.

$7-$misol. Fokuslari abssissalar o‘qida koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik joylashgan va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi giperbolaning kanonik tenglamasini tuzing: 1) $M_1(8;2\sqrt{2})$ va $M_2(-6;1)$ nuqtalardan o‘tuvchi; 2) fokuslar orasidagi masofa 26 ga, mavhum o‘qi 5 ga teng; 3) fokuslar orasidagi masofa 8 ga, ekssentrisitet 2 ga teng; 4) fokuslar orasidagi masofa 20 ga, direktrisalar orasidagi masofa $\frac{64}{5}$ ga teng ; 5) fokuslar orasidagi masofa 26 ga teng, asimptota tenglamalari $y=\pm\frac{12}{5}x$ dan iborat.

⊜ 1) $M_1(8;2\sqrt{2})$ va $M_2(-6;1)$ nuqtalarning koordinatalari (3.5) tenglamani qanoatlantirishi kerak, ya'ni

$$\frac{64}{a^2}-\frac{8}{b^2}=1,\ \frac{36}{a^2}-\frac{1}{b^2}=1.$$

Bundan $a^2=32,\ b^2=8$. U holda

$$\frac{x^2}{32}-\frac{y^2}{8}=1.$$

2) Giperbolada $a=\sqrt{c^2-b^2}$. Shartga ko'ra $c=13$, $b=5$. Bundan $a=\sqrt{169-25}=12$. U holda $a^2=144,\ b^2=25$ va

$$\frac{x^2}{144}-\frac{y^2}{25}=1.$$

3) Giperbola ekssentrisiteti $\varepsilon=\frac{c}{a}$ ga teng. Shartga binoan $c=4$, $\varepsilon=2$.

Bundan $a=\frac{c}{\varepsilon}=2$ va $b^2=c^2-a^2=16-4=12$. U holda

$$\frac{x^2}{4}-\frac{y^2}{12}=1.$$

4) Giperbolada direktrisalar orasidagi masofa $\frac{2a^2}{c}$ ga teng. Shartda berilishicha $c=10$, $\frac{2a^2}{c}=\frac{64}{5}$. Bundan $a^2=64$, $b^2=c^2-a^2=100-64=36$ va

$$\frac{x^2}{100}-\frac{y^2}{36}=1.$$

5) Giperbolaning asimptotalari $y=\pm\frac{b}{a}x$ tenglamalar bilan aniqlanadi.

Shartga asosan $c=13$, $y=\pm\frac{12}{5}x$. Bundan $\frac{b}{a}=\frac{12}{5}$, $b=\frac{12}{5}a$,

$a^2=c^2-b^2=169-\frac{144}{25}a^2$ yoki $\left(1+\frac{144}{25}\right)a^2=169$.

U holda $a^2=25$, $b^2=169-25=144$ va

$$\frac{x^2}{25}-\frac{y^2}{144}=1.$$ ⊜

$8-$misol. $5x^2-4y^2=20$ tenglama bilan berilgan giperbolada toping: 1) yarim o‘qlar uzunligini; 2) fokuslar koordinatalarini; 3) ekssentrisitetni; 4) asimptota va direktrisalarning tenglamalarini; 5) $M\left(3;\frac{5}{2}\right)$ nuqtaning fokal radiuslarini.

Giperbola tenglamasini kanonik shaklga keltiramiz:

$$\frac{x^2}{4}-\frac{y^2}{5}=1.$$

1) Bu tenglamadan topamiz: $a^2=4,\ b^2=5,$ ya’ni $a=2,\ b=\sqrt{5}.$

2) $c^2=a^2+b^2$ tenglikdan topamiz: $c^2=4+5=9,\ c=3.$
Bundan $F_1(3;0),\ F_2(-3;0).$

3) $\varepsilon=\frac{c}{a}$ formuladan topamiz: $\varepsilon=\frac{3}{2}.$

4) asimptota tenglamalari $y=\pm\frac{b}{a}x=\pm\frac{\sqrt{5}}{2}x,$
direktrisa tenglamalari $x=\pm\frac{a}{\varepsilon}=\pm\frac{4}{3};$

4) $M\left(3;\frac{5}{2}\right)$ nuqta giperbolaning o‘ng tarmog‘ida yotadi $(x=3>0)$.

U holda $r_1=\varepsilon x-a,\ r_2=\varepsilon x+a$ formulalarga ko‘ra

$$r_1=\frac{3}{2}\cdot 3-2=\frac{5}{2},\ r_2=\frac{3}{2}\cdot 3+2=\frac{13}{2}.$$

Yarim o‘qlari teng ($a=b$) bo‘lgan giperbolaga *teng tomonli giperbola* deyiladi. Teng tomonli giperbola

$$x^2-y^2=a^2 \tag{3.6}$$

tenglama bilan aniqlanadi. Asimptotalari Ox va Oy o‘qlardan iborat bo‘lgan teng tomonli giperbola $y=\frac{k}{x}$ ko‘rinishdagi tenglama bilan aniqlanadi.

Agar giperbolaning fokuslari Oy o‘qida yotsa, u holda giperbola

$$\frac{y^2}{b^2}-\frac{x^2}{a^2}=1 \tag{3.7}$$

tenglama bilan aniqlanadi. Bunda giperbolaning ekssentrisiteti $\varepsilon=\frac{c}{b}$ tenglik bilan, asimptotalari $y=\pm\frac{b}{a}x$ tenglamalar bilan, direktrisalari $y=\pm\frac{b}{\varepsilon}$

tenglamalar bilan topiladi. (3.5) va (3.7) tenglamalar bilan aniqlanuvchi giperbolalarga *qo'shma giperbolalar* deyiladi.

$9-$misol. $\frac{x^2}{9}-\frac{y^2}{16}=1$ giperbolaning chap fokusi bilan bu giperbolaga qo'shma giperbolaning o'ng fokusi orasidagi masofani toping.

$c^2=a^2+b^2$ tenglikdan topamiz: $c^2=9+16=25,\ c=5.$ U holda berilgan giperbola uchun $F_1(5;0),\ F_2(-5;0)$ va qo'shma giperbola uchun $F_1'(0;5),\ F_2'(0;-5)$ bo'ladi.

Bundan

$$|F_1'F_2|=\sqrt{(-5-0)^2+(0-5)^2}=5\sqrt{2}(u.b).$$

3.3.4. Fokus deb ataluvchi berilgan nuqtadan va direktrisa deb ataluvchi berilgan to'g'ri chiziqdan teng uzoqlikda yotuvchi tekislik nuqtalarining geometrik o'rniga *parabola* deyiladi.

Fokusdan direktrisagacha bo'lgan p masofaga *parabolaning parametri* deyiladi.

$$y^2=2px \qquad (3.8)$$

tenglamaga *parabolaning kanonik tenglamasi* deyiladi.

Parabolada $O(0;0)$ nuqta uning uchi, Ox o'q uning o'qi deb ataladi.

Parabolaning *ekssentrisiteti* $\varepsilon=\frac{|KM|}{|MF|}=1$ ga teng, *direktrisasi* $x=-\frac{p}{2}$ tenglama bilan aniqlanadi.

$10-$misol. $x^2=6y$ tenglama bilan berilgan parabolada toping:
1) fokusning koordinatalarini; 2) direktrisaning tenglamasini;
3) $M\left(-2;\frac{5}{2}\right)$ nuqtaning fokal radiusini.

1) Shartga ko'ra $2p=6.$ Bundan $p=3.$

U holda: 1) fokus $F\left(0;\frac{p}{2}\right)=F\left(0;\frac{3}{2}\right)$ koordinatalarga ega bo'ladi;

2) direktrisa $y=-\frac{p}{2}=-\frac{3}{2}$ tenglamaga ega bo'ladi;

3) $M\left(-2;\frac{5}{2}\right)$ nuqtaning fokal radiusi $r=y_0+\frac{p}{2}=\frac{3}{2}+\frac{5}{2}=4$ ga teng bo'ladi.

3.3.5. Ikki x va y o‘zgaruvchining ikkinchi darajali tenglamasi umumiy ko‘rinishda

$$Ax^2+2Bxy+Cy^2+2Dx+2Ey+F=0,\quad A^2+B^2+C^2\neq 0 \tag{3.9}$$

kabi yoziladi.

Bu tenglamani koordinata o‘qlarini α burchakka burish orqali

$$Ax^2+Cy^2+2Dx+2Ey+F=0 \tag{3.10}$$

ko‘rinishga keltirish mumkin.

Teorema. (3.10) tenglama hamma vaqt yoki aylanani ($A=C$ da), yoki ellipsni ($A\cdot C>0$ da), yoki giperbolani ($A\cdot C<0$ da), yoki parabolani ($A\cdot C=0$ da) aniqlaydi. Bunda ellips (aylana) uchun - nuqta yoki mavhum ellips, giperbola uchun - kesishuvchi chiziqlar juftligi, parabola uchun - parallel chiziqlar juftligi kabi buzilishlar bo‘lishi mumkin.

$11-$misol. $3x^2+4y^2+30x-32y+91=0$ tenglama bilan berilgan ikkinchi tartibli chiziq ko‘rinishini aniqlang.

Berilgan tenglama ellipsni ifodalaydi, chunki $A\cdot C=3\cdot 4>0$. Haqiqatan ham

$$3(x^2+10x+25)+4(y^2-8y+16)-75-64+91=0,$$

$$3(x+5)^2+4(y-4)^2=48,$$

$$\frac{(x+5)^2}{16}+\frac{(y-4)^2}{12}=1.$$

Shunday qilib, markazi $O(-5;4)$ nuqtada joylashgan va yarim o‘qlari $a=4,\ b=2\sqrt{3}$ ga teng bo‘lgan ellipsning kanonik tenglamasi kelib chiqdi.

Mustahkamlash uchun mashqlar

3.3.1. Aylananing kanonik tenglamasini tuzing: 1) markazi $M_1(-1;3)$ nuqtada joylashgan va radiusi $R=6$ ga teng bo‘lgan; 2) markazi $M_2(-3;5)$ nuqtada joylashgan va $A(4;4)$ nuqtadan o‘tgan; 3) diametrlaridan birining uchlari $B(-1;3)$ va $C(-3;5)$ nuqtalardan iborat bo‘lgan; 4) $D(8;-4)$ nuqtadan o‘tgan va koordinata o‘qlariga uringan; 5) markazi $M(2;-1)$ nuqtada joylashgan va urinmalaridan biri $3x+4y+3=0$ to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘lgan.

3.3.2. $x^2 + y^2 - 2x + 4y - 20 = 0$ va $x^2 + y^2 - 10y + 20 = 0$ tenglamalar bilan berilgan aylanalar markazlari orasidagi masofani toping.

3.3.3. $\frac{x}{4} + \frac{y}{3} = 1$ to‘g‘ri chiziqning koordinata o‘qlaridan kesgan kesmasi aylana diametriga teng. Aylananing kanonik tenglamasini tuzing.

3.3.4. $A(2;-1)$, $B(3;4)$ nuqtalardan o‘tgan va markazi $x - y - 4 = 0$ to‘g‘ri chiziqda joylashgan aylananing kanonik tenglamasini tuzing.

3.3.5. Uchburchakning uchlari berilgan: $A(-2;2), B(0;-2), C(-1;-1)$. Uchburchakka tashqi chizilgan aylananing markazi va radiusini toping.

3.3.6. k ning qanday qiymatlarida $y = kx$ to‘g‘ri chiziq $x^2 + y^2 - 8x - 2y + 16 = 0$ aylanani kesadi, bu aylanaga urinadi?

3.3.7. $(x-4)^2 + (y-2)^2 = 4$ aylanaga uringan va koordinatalar boshidan o‘tgan to‘g‘ri chiziqlar tenglamalarini tuzing.

3.3.8. Aylana kanonik tenglamalari bilan berilgan:
1) $x^2 + y^2 = 16x$; 2) $x^2 + y^2 = 4y$; 3) $x^2 + y^2 = 2x + 2y$.
Qutbi koordinatalar boshida joylashgan va qutb o‘qi Ox o‘q bo‘ylab yo‘nalgan koordinatalar sistemasida aylananing parametrik tenglamasini tuzing.

3.3.9. Fokuslari ordinatalar o‘qida koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik joylashgan va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi ellipsning kanonik tenglamasini tuzing: 1) kichik o‘qi 12 ga va ekssentrisiteti $\frac{4}{5}$ ga teng bo‘lgan; 2) fokuslari orasidagi masofa 10 ga va ekssentrisiteti $\frac{5}{7}$ ga teng bo‘lgan; 3) $M_1(6;0)$ va $M_2(0;9)$ nuqtalardan o‘tgan; 4) direktrisalari orasidagi masofa $\frac{50}{3}$ ga va ekssentrisiteti $\varepsilon = \frac{3}{5}$ ga teng bo‘lgan.

3.3.10. $\frac{x^2}{12} + \frac{y^2}{4} = 1$ ellipsga tomonlari ellips o‘qlariga parallel qilib kvadrat ichki chizilgan. Kvadratning yuzini toping.

3.3.11. $\frac{x^2}{20} + \frac{y^2}{5} = 1$ ellipsning $x + y - 20 = 0$ to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan urinmasi tenglamasini tuzing.

3.3.12. $16x^2+25y^2-400=0$ ellipsning fokularining biridan uning kichik o‘qiga parallel o‘tgan vatari uzunligini toping.

3.3.13. $\frac{x^2}{50}+\frac{y^2}{18}=1$ ellipsning $M(x;y)$ nuqtasidan uning o‘ng fokusigacha bo‘lgan masofa chap fokusigacha bo‘lgan masofadan 4 marta katta. $M(x;y)$ nuqtani toping.

3.1.14. $\frac{x^2}{9}+\frac{y^2}{8}=1$ ellipsning $M(x;y)$ nuqtasidan uning chap fokusigacha bo‘lgan masofa o‘ng fokusigacha bo‘lgan masofadan 2 marta katta. $M(x;y)$ nuqtani toping.

3.3.15. Ellipsning fokuslaridan biridan uning katta o‘qi oxirlarigacha bo‘lgan masofalar 2 va 8 ga teng. Ellipsning kanonik tenglamasini tuzing.

3.3.16. Kanonik tenglamalari bilan berilgan ellipsning parametrik tenglamalarini tuzing: 1) $16x^2+25y^2-400=0$; 2) $144x^2+25y^2-3600=0$.

3.3.17. Fokuslari ordinatalar o‘qida joylashgan va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi giperbolaning kanonik tenglamasini tuzing:
1) direktrisalari orasidagi masofa $\frac{18}{5}$ ga va ekssentrisiteti $\frac{5}{3}$ ga teng bo‘lgan;
2) direktrisalari orasidagi masofa $\frac{288}{13}$ ga teng va asimptotalari tenglamalari $y=\pm\frac{12}{5}x$ bo‘lgan; 3) direktrisalari orasidagi masofa $\frac{32}{5}$ ga va haqiqiy o‘qi 8 ga teng bo‘lgan; 4) direktrisalari orasidagi masofa $\frac{50}{7}$ ga va fokuslari orasidagi masofa 14 ga teng bo‘lgan.

3.3.18. Giperbolaning nuqtalaridan biri va asimptotalarining tenglamalari berilgan. Giperbolaning kanonik tenglamasini tuzing:

1) $M(6;2)$, $y=\pm\frac{\sqrt{3}}{3}x$; 2) $M(4;2)$, $y=\pm\frac{\sqrt{2}}{2}x$;

3) $M(4;3)$, $y=\pm\frac{3}{2}x$; 4) $M(6;3)$, $y=\pm\frac{\sqrt{3}}{2}x$.

3.3.19. Giperbolaning ekssentrisiteti 2 ga teng. Uning asimptotalari orasidagi burchakni toping.

3.3.20. Giperbolaning asimptotasi haqiqiy o‘q bilan $\frac{\pi}{4}$ ga teng burchak tashkil qiladi. Giperbolaning ekssentrisitetini toping.

3.3.21. b ning qanday qiymatlarida $y = 2x + b$ to‘g‘ri chiziq $18x^2 - 7y^2 = 126$ giperbolani kesadi, bu giperbolaga urinadi?

3.3.22. $5x^2 + 17y^2 - 85 = 0$ ellips berilgan. Ellips bilan bir xil fokuslarga ega bo‘lgan teng tomonli giperbolaning kanonik tenglamasini tuzing.

3.3.23. Giperbola $25x^2 + 9y^2 = 225$ ellips bilan bir xil fokuslarga ega. Giperbolaning ekssentrisiteti 2 ga teng bo‘lsa, uning kanonik tenglamasini tuzing.

3.3.24. Berilgan fokusi va direktrisasi tenglamasiga ko‘ra parabolaning kanonik tenglamasini tuzing: 1) $F(-3;4)$, $x - 5 = 0$; 2) $F(5;3)$, $y + 2 = 0$.

3.3.25. Berilgan tenglamasiga ko‘ra parabolaning uchini va simmetriya o‘qining tenglamasini aniqlang:
1) $y^2 - 2y + 16x + 65 = 0$; 2) $2x^2 + y - 8x + 5 = 0.$

3.3.26. $y^2 = 4x$ parabolaga uringan va quyidagi shartni qanoatlantiruvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing: 1) $y = 2x + 7$ to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan; 2) $A(-2;-1)$ nuqtadan o‘tgan.

3.3.27. k ning qanday qiymatlarida $y = kx - 1$ to‘g‘ri chiziq $y^2 + 5x = 0$ parabolani kesadi, bu parabolaga urinadi?

3.2.28. Berilgan tenglamalar bilan qanday chiziqlar aniqlanadi?

1) $\begin{cases} x = \frac{1}{2}(e^t + e^{-t}), \\ y = \frac{1}{2}(e^t - e^{-t}) \end{cases}$; 2) $\begin{cases} x = \frac{2}{t^2}, \\ y = \frac{3}{t} \end{cases}$; 3) $y = -2\sqrt{x^2 + 1}$; 4) $x = -\sqrt{y^2 + 4}.$

3.3.29. Egri chiziqning tenglamasini soddalashtiring, chiziqning turini aniqlang va shaklini chizing:

1) $5x^2 + 9y^2 - 30x + 18y + 9 = 0;$ 2) $2x^2 - 12x + y + 13 = 0;$

3) $5x^2 - 4y^2 + 30x + 8y + 21 = 0;$ 4) $2y^2 - x - 12y + 14 = 0;$

5) $x^2 - 6x + y^2 - 8 = 0;$ 6) $x^2 + y + y^2 - 1 = 0.$

3-NAZORAT ISHI

1. ABC uchburchak tomonlari tenglamalari bilan berilgan:
a) AB tomon uzunligini toping; b) BD balandlik tenglamasini tuzing va uning uzunligini toping; c) BC tomonni B uchdan C uchga qarab $1:3$ nisbatda bo‘luvchi E nuqtadan va A uchdan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqning parametrik tenglamasini tuzing.

2. Ko‘rsatilgan nuqtadan o‘tuvchi va markazi $C(x;y)$ nuqtada joylashgan aylana tenglamasini tuzing.

1-variant

1. $7x+3y-3=0\ (AB),\quad 4x-3y+3=0\ (BC),\quad x+2y-13=0\ (CA).$

2. $33x^2+49y^2=1617$ ellipsning o‘ng fokusi ,$C(1;7)$.

2-variant

1. $4x-9y-6=0\ (AB),\quad 2x-y+4=0\ (BC),\quad x+3y-12=0\ (CA).$

2. $3x^2-5y^2=30$ giperbolaning chap fokusi, $C(0;6)$.

3-variant

1. $4x+3y+3=0\ (AB),\quad x+4y+4=0\ (BC),\quad 5x+7y-6=0\ (CA).$

2. $2x^2-9y^2=18$ giperbolaning o‘ng uchi, $C(0;4)$.

4-variant

1. $2x+7y+15=0\ (AB),\quad 2x-3y+5=0\ (BC),\quad 6x+y-15=0\ (CA).$

2. $16x^2+41y^2=656$ ellipsning o‘ng fokusi, C – uning quyi uchi.

5-variant

1. $x-4y-10=0\ (AB),\quad 2x-3y-10=0\ (BC),\quad x+y-5=0\ (CA).$

2. $5x^2-11y^2=55$ giperbolaning chap fokusi, $C(0;5)$.

6-variant

1. $3x+4y+9=0\ (AB),\quad 2x-7y+6=0\ (BC),\quad 5x-3y-14=0\ (CA).$

2. $57x^2-64y^2=3648$ giperbolaning o‘ng fokusi, $C(0;8)$.

7-variant

1. $x+y+1=0$ (AB), $3x+5y+3=0$ (BC), $x-y-7=0$ (CA).

2. $12x^2-13y^2=156$ giperbolaning chap fokusi, $C(0;-2)$.

8-variant

1. $3x-5y+8=0$ (AB), $x+4y-3=0$ (BC), $4x-y-12=0$ (CA).

2. $24y^2-25x^2=600$ giperbolaning o‘ng fokusi, $C(0;-8)$.

9-variant

1. $x-4y-7=0$ (AB), $y+2=0$ (BC), $x+y-2=0$ (CA).

2. $4x^2-9y^2=36$ giperbolaning uchi, $C(0;4)$.

10-variant

1. $4x-3y-14=0$ (AB), $x-y-4=0$ (BC), $6x-5y-20=0$ (CA).

2. $40x^2-81y^2=3240$ giperbolaning o‘ng uchi, $C(-2;5)$.

11-variant

1. $x-2y+3=0$ (AB), $6x+7y+3=0$ (BC), $4x-3y+7=0$ (CA).

2. $9x^2+25y^2=1$ ellipsning o‘ng fokusi, $C(0;6)$.

12-variant

1. $x+4y-6=0$ (AB), $5x+3y-30=0$ (BC), $3x-5y+16=0$ (CA).

2. $B(1;4)$, $C-2y^2=x-4$ parabolaning uchi.

13-variant

1. $x+4y-8=0$ (AB), $5x+3y-40=0$ (BC), $3x-5y+10=0$ (CA).

2. $3x^2+7y^2=21$ ellipsning chap fokusi, $C(-1;-3)$.

14-variant

1. $4x-3y-10=0$ (AB), $4x+5y-26=0$ (BC), $4x+y-2=0$ (CA).

2. $5x^2-9y^2=45$ giperbolaning chap uchi, $C(0;-6)$.

15-variant

1. $2x-3y+5=0$ (AB), $6x+y-15=0$ (BC), $2x+7y+15=0$ (CA).

2. $24x^2+25y^2=600$ ellipsning o'ng fokusi, $C-$uning yuqori uchi.

16-variant

1. $3x-4y-13=0$ (AB), $3x-y-10=0$ (BC), $y+4=0$ (CA).

2. $3x^2-4y^2=12$ giperbolaning chap fokusi, $C(0;-3)$.

17-variant

1. $12x+5y-47=0$ (AB), $x-1=0$ (BC), $3x+5y+7=0$ (CA).

2. $3x^2+4y^2=12$ ellipsning o'ng fokusi, $C-$ uning yuqori uchi.

18-variant

1. $4x+3y-1=0$ (AB), $x+3y+2=0$ (BC), $x-4=0$ (CA).

2. $x^2-16y^2=64$ giperbolaning o'ng uchi, $C(0;-2)$.

19-variant

1. $4x-3y+19=0$ (AB), $3x+8y+4=0$ (BC), $7x+5y-18=0$ (CA).

2. $4x^2-5y^2=80$ giperbolaning chap fokusi, $C(0;-4)$.

20-variant

1. $3x+4y-2=0$ (AB), $2x+3y-2=0$ (BC), $x+y-2=0$ (CA).

2. $O(0;0)$, $C-$ $2y^2=-x-5$ parabolaning uchi.

21-variant

1. $x-2y+22=0$ (AB), $7x+y-41=0$ (BC), $3x+4y-14=0$ (CA).

2. $x^2+10y^2=90$ ellipsning o'ng fokusi, $C-$uning quyi uchi.

22-variant

1. $3x+4y-36=0$ (AB), $7x+y-59=0$ (BC), $x-2y+28=0$ (CA).

2. $3x^2-25y^2=75$ giperbolaning o'ng uchi, $C(5;-2)$.

23-variant

1. $3x+4y+5=0$ (AB), $7x+y-30=0$ (BC), $x-2y+15=0$ (CA).

2. $B(3;4)$, $C-4y^2=x-7$ parabolaning uchi.

24-variant

1. $x-y+5=0$ (AB), $4x-y-10=0$ (BC), $5x+4y-2=0$ (CA).

2. $13x^2+49y^2=637$ ellipsning chap fokusi, $C(1;8)$.

25-variant

1. $2x-y-1=0$ (AB), $x-3y+7=0$ (BC), $x+2y-3=0$ (CA).

2. $4x^2-5y^2=20$ giperbolaning o‘ng fokusi, $C(0;-6)$.

26-variant

1. $5x+y+4=0$ (AB), $x-3y-12=0$ (BC), $3x+7y-4=0$ (CA).

2. $O(0;0)$, $C-y^2=3(x-4)$ parabolaning uchi.

27-variant

1. $3x-4y-14=0$ (AB), $5x-2y-28=0$ (BC), $x+y=0$ (CA).

2. $3x^2-16y^2=48$ giperbolaning o‘ng uchi , $C(1;3)$.

28-variant

1. $4x+3y-14=0$ (AB), $10x+3y+10=0$ (BC), $2x-3y+2=0$ (CA).

2. $7x^2-9y^2=63$ giperbolaning chap fokusi , $C(-1;-2)$.

29-variant

1. $x-4y-7=0$ (AB), $2x-5y-8=0$ (BC), $x-y-4=0$ (CA).

2. $B(2;-5)$, $C-x^2=-2(y+1)$ parabolaning uchi.

30-variant

1. $x-2y+1=0$ (AB), $x+3y-19=0$ (BC), $4x-3y-1=0$ (CA).

2. $x^2+4y^2=12$ ellipsning o‘ng fokusi, $C(2;-7)$.

IV bob
FAZODA ANALITIK GEOMETRIYA

4.1. TEKISLIK

Fazoda dekart koordinatalari. Silindrik va sferik koordinatalar. Fazoda sirt va chiziq. Tekislik tenglamalari. Fazoda ikki tekislikning o‘zaro joylashishi. Nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofa

4.1.1. Umumiy boshlang‘ich O nuqtaga va bir xil masshtab birligiga ega bo‘lgan o‘zaro perpendikular Ox, Oy va Oz o‘qlar fazoda dekart koordinatalar sistemasini hosil qiladi. Bu sistemada Ox *abssissalar o‘qi*, Oy *ordinatalar o‘qi*, Oz *applikatalar o‘qi* va ular birgalikda *koordinata o‘qlari* deb ataladi. Bunda Ox, Oy va Oz o‘qlarning ortlari $\vec{i}, \vec{j}, \vec{k}$ $\left(|\vec{i}|=|\vec{j}|=|\vec{k}|=1,\ \vec{i}\perp\vec{j}, \vec{j}\perp\vec{k}, \vec{k}\perp\vec{j}\right)$ bilan belgilanadi, O nuqtaga *koordinatalar boshi* deyiladi, Ox, Oy va Oz o‘qlar joylashgan fazoga *koordinatalar fazosi* deb ataladi va $Oxyz$ bilan belgilanadi.

$Oxyz$ fazo M nuqtasining $\overrightarrow{OM}$ vektoriga M *nuqtaning radius vektori* deyiladi.

$\overrightarrow{OM}$ radius vektorning koordinatalariga M *nuqtaning to‘g‘ri burchakli dekart koordinatalari* deyiladi. Agar $\overrightarrow{OM}=\{x;y;z\}$ bo‘lsa, u holda M nuqtaning koordinatalari $M(x;y;z)$ kabi belgilanadi, bunda x soni M nuqtaning *abssissasi*, y soni M nuqtaning *ordinatasi* va z soni M nuqtaning *applikatasi* deb ataladi.

4.1.2. r, φ, z sonlar uchligiga $Oxyz$ fazo $M(x;y;z)$ nuqtasining *silindrik koordinatalari* deyiladi, bu yerda $r-$ M nuqtaning Oxy tekislikka proyeksiyasi radius vektorining uzunligi, $\varphi-$ bu radius vektorning Ox o‘q bilan tashkil qilgan burchagi, $z-$ M nuqtaning applikatasi (1-shakl).

Silindrik va dekart koordinatalari quyidagi bog‘lanishga ega:

$$x = r\cos\varphi,\ \ y = r\sin\varphi,\ \ z = z,$$

bu yerda $0 \le \varphi \le 2\pi,\ o \le r \le +\infty,\ -\infty < z < +\infty.$

r, φ, θ sonlar uchligiga $Oxyz$ fazo $M(x;y;z)$ nuqtasining *sferik koordinatalari* deyiladi, bu yerda $r-$ M nuqta radius vektorining uzunligi,

$\varphi -$ radius vektorning Oxy tekislikka proyeksiyasining Ox o‘q bilan tashkil qilgan burchagi, $\theta -$ radius vektorning Oz o‘qdan og‘ish burchagi (2-shakl).

Sferik va dekart koordinatalari quyidagi bog‘lanishga ega

$$x = r\cos\varphi\sin\theta,\ \ y = r\sin\varphi\sin\theta,\ \ z = r\cos\theta,$$

bu yerda $0 \le \varphi \le 2\pi,\ o \le r \le +\infty,\ 0 < \theta < \pi$.



1-shakl.



2-shakl.

4.1.2. *$Oxyz$ fazodagi sirt tenglamasi* deb aynan shu sirt barcha nuqtalarining x, y, z koordinatalarini aniqlovchi uch o‘zgaruvchining $F(x, y, z) = 0$ tenglamasiga aytiladi.

Koordinatalari uch o‘zgaruvchining $F(x, y, z) = 0$ tenglamasini qanoatlantiruvchi $Oxyz$ fazoning barcha $M(x; y; z)$ nuqtalari to‘plamiga *fazoda* shu tenglama bilan aniqlanuvchi *sirt* deyiladi.

Fazodagi chiziqni ikki sirtning kesishish chizig‘i yoki ikki sirt umumiy nuqtalarining geometrik o‘rni deb qarash mumkin.

l chiziqni aniqlovchi ikki sirt $F(x, y, z) = 0$ va $G(x, y, z) = 0$ tenglamalar bilan berilgan bo‘lsin. U holda l chiziq ikkala tenglamani ham qanoatlantiruvchi $M(x; y; z)$ nuqtalar to‘plamidan tashkil topadi.

Koordinatalari $\begin{cases} F(x, y, z) = 0, \\ G(x, y, z) = 0 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini qanoatlantiruvchi $Oxyz$ fazoning barcha $M(x; y; z)$ nuqtalari to‘plamiga *fazodagi* shu tenglama bilan aniqlanuvchi *chiziq* deyiladi.

Oxyz fazodagi chiziq tenglamasi deb aynan shu chiziq barcha nuqtalarining x, y, z koordinatalarini aniqlovchi $\begin{cases} F(x,y,z)=0, \\ G(x,y,z)=0 \end{cases}$ tenglamalar sistemasiga aytiladi.

Fazodagi chiziqni nuqtaning trayektoriyasi deb qarash mumkin. Bunda chiziq $\vec{r}=\vec{r}(t)$ vektor tenglama bilan yoki $x=x(t), y=y(t), z=z(t), t\in T$ parametrik tenglamalar bilan beriladi.

4.1.3. Tekislikning fazodagi har xil o‘rni turli tenglamalar bilan aniqlanadi.

1. *Berilgan nuqtadan o‘tuvchi va berilgan vektorga perpendikular tekislik tenglamasi*:

$$A(x-x_0)+B(y-y_0)+C(z-z_0)=0, \qquad (1.1)$$

bu yerda $A, B, C-$ *tekislik normal vektori* (tekislikka perpendikular bo‘lgan vektor) $\vec{n}=\{A;B;C\}$ ning koordinatalari; x_0, y_0, z_0-berilgan nuqtaning koordinatalari, $x, y, z-$ tekislikda yotuvchi ixtiyoriy nuqtaning koordinatalari.

2. *Tekislikning umumiy tenglamasi*:

$$Ax+By+Cz+D=0 \qquad (1.2)$$

bu yerda $D-$ozod had; $A^2+B^2+C^2\neq 0$.

Bu tenglama bilan aniqlanuvchi tekislikning xususiy hollari:

$By+Cz+D=0\ \ (A=0)-Ox$ o‘qqa parallel;

$Ax+Cz+D=0\ \ (B=0)-Oy$ o‘qqa parallel;

$Ax+By+D=0\ \ (C=0)-Oz$ o‘qqa parallel;

$Ax+By+Cz=0\ \ (D=0)-$koordinatalar boshidan o‘tuvchi;

$By+Cz=0\ \ (A=0, D=0)-Ox$ o‘qdan o‘tuvchi;

$Ax+Cz=0\ \ (B=0, D=0)-Oy$ o‘qdan o‘tuvchi;

$Ax+By=0\ \ (C=0, D=0)-Oz$ o‘qdan o‘tuvchi;

$Cz+D=0\ \ (A=0, B=0)-Oxy$ tekislikka parallel yoki Oz o‘qqa perpendikular;

$By+D=0\ \ (A=0, C=0)-Oxz$ tekislikka parallel yoki Oy o‘qqa perpendikular;

$Ax+D=0\ \ (B=0, C=0)-Oyz$ tekislikka parallel yoki Ox o‘qqa perpendikular;

$z = 0 \ (A = 0, B = 0, D = 0) - Oxy$ tekislik;

$x = 0 \ (B = 0, C = 0, D = 0) - Oyz$ tekislik;

$y = 0 \ (A = 0, C = 0, D = 0) - Oxz$ tekislik.

3. *Berilgan nuqtadan o'tuvchi va berilgan ikki vektorga parallel tekislik tenglamasi:*

$$\begin{vmatrix} x - x_0 & y - y_0 & z - z_0 \\ p_1 & q_1 & r_1 \\ p_2 & q_2 & r_2 \end{vmatrix} = 0. \qquad (1.3)$$

bu yerda x_0, y_0, z_0 – berilgan nuqtaning koordinatalari;
$p_1, q_1, r_1, p_2, q_2, r_2$ – berilgan ikki vektorning koordinatalari.

4. *Berilgan uchta nuqtadan o'tuvchi tekislik tenglamasi*

$$\begin{vmatrix} x - x_1 & y - y_1 & z - z_1 \\ x_2 - x_1 & y_2 - y_1 & z_2 - z_1 \\ x_3 - x_1 & y_3 - y_1 & z_3 - z_1 \end{vmatrix} = 0. \qquad (1.4)$$

bu yerda $x_1, y_1, z_1, x_2, y_2, z_2, x_3, y_3, z_3$ – berilgan uchta nuqtaning koordinatalari.

5. *Tekislikning kesmalarga nisbatan tenglamasi*:

$$\frac{x}{a} + \frac{y}{b} + \frac{z}{c} = 1, \qquad (1.5)$$

bu yerda a, b, c – tekislikning mos ravishda Ox, Oy va Oz o'qlarda ajratgan kesmalari.

6. *Tekislikning normal tenglamasi*:

$$x\cos\alpha + y\cos\beta + z\cos\gamma = -p = 0, \qquad (1.6)$$

bu yerda p – koordinatalar boshidan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa; $\cos\alpha, \cos\beta, \cos\gamma$ – tekislikka perpendikular birlik vektorning koordinatalari.

Tekislikning umumiy tenglamasini normal tenglamaga (1.2) tenglikning chap va o'ng tomonini $M = \pm\frac{1}{\sqrt{A^2 + B^2 + C^2}}$ normallovchi ko'paytuvchiga ko'paytirib, o'tkaziladi. Bunda M ko'paytuvchining ishorasi
D koeffitsiyentning ishorasiga qarama-qarshi qilib tanlanadi.

x, y, z o'zgaruvchilarning har qanday birinchi darajali tenglamasi fazodagi biror tekislikni ifodalaydi va aksincha, fazodagi har qanday tekislik x, y, z o'zgaruvchilarning biror birinchi darajali tenglamasi bilan aniqlanadi.

$1-$misol. Tekislik tenglamasini tuzing: 1) Oy o‘qdan va $M_0(5;3;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi; 2) Oz o‘qqa parallel bo‘lgan va $M_1(5;0;-1)$, $M_2(-3;4;-2)$ nuqtalardan o‘tuvchi; 3) Ox o‘qqa perpendikular bo‘lgan va $M_3(4;-2;4)$ nuqtadan o‘tuvchi; 4) Oxy tekislikka parallel bo‘lgan va $M_4(-1;3;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi.

1) Oy o‘qdan o‘tuvchi tekislik tenglamasi $Ax+Cz=0$ bo‘ladi. Bu tenglamani $M_0(5;3;-2)$ nuqtaning koordinatalari qanoatlantiradi, chunki bu nuqta tekislikda yotadi. U holda $5A-2C=0$ yoki $A=\frac{2}{5}C$. Bundan $\frac{2}{5}Cx+Cz=0$ yoki

$$2x+5z=0.$$

2) Oz o‘qqa parallel tekislik tenglamasi $Ax+By+D=0$ bo‘ladi. Bu tenglamani $M_1(5;0;-1)$, $M_2(-3;4;-2)$ nuqtalarning koordinatalari qanoatlantiradi, ya’ni

$$\begin{cases} 5A+D=0, \\ -3A+4B+D=0. \end{cases}$$

Bundan $A=-\frac{1}{5}D$ va $B=-\frac{2}{5}D$. U holda $-\frac{1}{5}Dx-\frac{2}{5}Dy+D=0$ yoki

$$x+2y-5=0.$$

3) Ox o‘qqa perpendikular tekislik tenglamasi $Ax+D=0$. $M_3(4;-2;4)$ nuqtada $4A+D=0$ yoki $D=-4A$. Bundan

$$x-4=0.$$

4) Oxy tekislikka parallel tekislik tenglamasi $Cz+D=0$ bo‘ladi. Bu tenglikdan $M_4(-1;3;-2)$ nuqtada $-2C+D=0$ yoki $D=2C$ kelib chiqadi.

U holda

$$z+2=0.$$

$2-$misol. Tekislik tenglamasini tuzing: 1) $M_0(-1;3;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va normal vektori $\vec{n}=\{3;2;-2\}$ bo‘lgan; 2) $M_1(3;-1;2)$ nuqtadan o‘tuvchi, $\vec{s}_1=\{1,-1,2\}$ va $\vec{s}_2=\{2;-3;0\}$ vektorlarga parallel bo‘lgan; 3) $M_2(3;2;-1)$, $M_3(1;-1;2)$ nuqtalardan o‘tuvchi va $\vec{s}_3=\{2;1;-1\}$ vektorga parallel bo‘lgan; 4) $M_4(1;-1;2)$, $M_5(-2;3;1)$ va $M_6(1;-3;3)$ nuqtalardan o‘tgan; 5) koordinata o‘qlarida $a=-2$; $b=3$; $c=-5$ birlik kesmalar ajratgan; 6) koordinatalar boshidan 26 ga teng masofada yotuvchi va normal vektori $\vec{n}=\{3;-4;12\}$ bo‘lgan.

⊖ Berilgan masala shartiga mos tekislik tenglamalaridan foydalanamiz.

1) Shartga ko‘ra tekislik $M_0(-1;3;2)$ nuqtadan o‘tadi va $\vec{n}=\{3;2;-2\}$ vektorga perpendikular bo‘ladi. (1.1) tenglamadan topamiz:

$$3\cdot(x+1)+2\cdot(y-3)-2\cdot(z-2)=0 \text{ yoki}$$

$$3x+2y-2z+1=0.$$

2) Shartga binoan tekislik $M_1(3;-1;2)$ nuqtadan va $\vec{s}_1=\{1,-1,2\}, \vec{s}_2=\{2;-3;0\}$ vektorlardan o‘tadi. (1.3) tenglamadan topamiz:

$$\begin{vmatrix} x-3 & y+1 & z-2 \\ 1 & -1 & 2 \\ 2 & -3 & 0 \end{vmatrix}=0.$$

Bundan $(x-3)\cdot 6-(y+1)\cdot(-4)+(z-2)\cdot(-3+2)=0$ yoki

$$6x+4y-z-12=0.$$

3) Tekislik $M_2(3;2;-1)$, $M_3(1;-1;2)$ nuqtalardan o‘tib, $\vec{s}_3=\{2;1;-1\}$ vektorga parallel bo‘lgani sababli u $M_3(1;-1;2)$ nuqtadan va $\overrightarrow{M_2M_3}=\{-2;-3;3\}$, $\vec{s}_3=\{2;1;-1\}$ vektorlardan o‘tadi. U holda

$$\begin{vmatrix} x-1 & y+1 & z-2 \\ -2 & -3 & 3 \\ 2 & 1 & -1 \end{vmatrix}=0.$$

Bundan $(x-1)\cdot(3-3)-(y+1)\cdot(2-6)+(z-2)\cdot(-2+6)=0$ yoki

$$y+z-1=0.$$

4) Shartga ko‘ra tekislik uchta nuqtadan o‘tadi. (1.4) tenglamadan topamiz:

$$\begin{vmatrix} x-1 & y+1 & z-2 \\ -2-1 & 3+1 & 1-2 \\ 1-1 & -3+1 & 3-2 \end{vmatrix}=0, \quad \begin{vmatrix} x-1 & y+1 & z-2 \\ -3 & 4 & -1 \\ 0 & -2 & 1 \end{vmatrix}=0.$$

Bundan $(x-1)\cdot 2-(y+1)\cdot(-3)+(z-2)\cdot 6=0$ yoki

$$2x+3y+6z-11=0.$$

5) Tekislik koordinata o‘qlarida $a=-2$; $b=3$; $c=-5$ kesmalar ajratadi. Tekislikning kesmalarga nisbatan tenglamasidan topamiz: $\frac{x}{(-2)}+\frac{y}{3}+\frac{z}{(-5)}=1$ yoki

$$15x-10y+6z+30=0.$$

6) Tekislikning normal tenglamasidan foydalanamiz. Buning uchun $\vec{n}=\{3;2;-2\}$ vektorning yo‘naltiruvchi kosinuslarini topamiz:

$$\cos\alpha=\frac{3}{\sqrt{3^2+(-4)^2+12^2}}=\frac{3}{13},\quad \cos\beta=-\frac{4}{13},\quad \cos\gamma=\frac{12}{13}.$$

U holda (1.6) tenglamaga ko‘ra izlanayotgan tekislik tenglamasi

$$\frac{3x}{13}-\frac{4y}{13}+\frac{12z}{13}-\frac{26}{13}=0$$

yoki

$$3x-4y+12z-26=0.$$

4.1.4. Ikki tekislikning normal vektorlari orasidagi burchakka *ikki tekislik orasidagi burchak* deyiladi.

σ_1 va σ_2 tekisliklar orasidagi burchak φ ga teng bo‘lsin.

Agar tekisliklar $A_1x+B_1y+C_1z+D_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2z+D_2=0$ tenglamalar bilan berilgan bo‘lsa

$$\cos\varphi=\frac{A_1A_2+B_1B_2+C_1C_2}{\sqrt{A_1^2+B_1^2+C_1^2}\sqrt{A_2^2+B_2^2+C_2^2}}. \quad (1.7)$$

Bu tekisliklar orasidagi qo‘shni burchaklardan kichigi (1.7) tenglikning o‘ng tomonini modulga olish orqali topiladi.

σ_1 va σ_2 tekisliklar *perpendikular* bo‘lsin.

U holda

$$A_1A_2+B_1B_2+C_1C_2=0. \quad (1.8)$$

σ_1 va σ_2 tekisliklar *parallel* bo‘lsin.

U holda

$$\frac{A_1}{A_2}=\frac{B_1}{B_2}=\frac{C_1}{C_2}. \quad (1.9)$$

σ_1 va σ_2 tekisliklar *ustma-ust tushsin*.

U holda

$$\frac{A_1}{A_2}=\frac{B_1}{B_2}=\frac{C_1}{C_2}=\frac{D_1}{D_2}. \quad (1.10)$$

3 – misol. $4x-10y+z-3=0$ va $11x-8y-7z+8=0$ tekisliklar orasidagi burchakni toping.

Ikki tekislik orasidagi burchak formulasi (1.7) bilan topamiz:

$$\cos\varphi=\frac{4\cdot 11+(-10)\cdot(-8)+1\cdot(-7)}{\sqrt{4^2+(-10)^2+1^2}\cdot\sqrt{11^2+(-8)^2+(-7)^2}}=\frac{\sqrt{2}}{2}.$$

Bundan $\varphi=\frac{\pi}{4}$.

4 – misol. Tekislik tenglamasini tuzing: 1) $M_0(1;-2;3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $2x-6y+3z-5=0$ tekislikka parallel bo‘lgan; 2) $M_1(3;-2;1)$, $M_2(2;-1;4)$ nuqtalardan o‘tuvchi va $3x-4y+z-2=0$ tekislikka perpendikular bo‘lgan.

1) Tekislik tenglamasini $Ax+By+Cz+D=0$ ko‘rinishida izlaymiz.

Misolning shartiga ko‘ra:

$$\begin{cases} A-2B+3C+D=0 \ \ (tekislik\ M_0(1;-2;3)\ nuqtadan\ o'tadi), \\ \frac{A}{2}=\frac{B}{-6}=\frac{C}{3} \ \ (tekislik\ 2x-6y+3z-5=0\ tekislikka\ \|). \end{cases}$$

Bundan $A=\frac{2}{3}C$, $B=-2C$, $D=-\frac{23}{3}C$. U holda

$$\frac{2}{3}Cx-2Cy+Cz-\frac{23}{3}C=0 \ \text{ yoki}$$

$$2x-6y+3z-23=0.$$

Bu masalani boshqacha yechish mumkin. Tekislik $M_0(1;-2;3)$ nuqtadan o‘tgani uchun (1.1) tenglamaga ko‘ra $A(x-1)+B(y+2)+C(z-3)=0$. Tekislik $2x-6y+3z-5=0$ tekislikka parallel bo‘lgani uchun uning normal vektori sifatida $\vec{n}=\{2;-6;3\}$ vektorni olish mumkin. U holda

$$2\cdot(x-1)-6\cdot(y+2)+3\cdot(z-3)=0 \text{ yoki}$$

$$2x-6y+3z-23=0.$$

2) Tekislik tenglamasini $Ax+By+Cz+D=0$ ko‘rinishida izlaymiz.

Misol shartiga ko‘ra:

$$\begin{cases} 3A-4B+C=0 \ (tekislik\ 3x-4y+z-2=0\ tekislikka\ \perp), \\ 3A-2B+C=-D \ (tekislik\ M_1(3;-2;1)\ nuqtadan\ o‘tadi), \\ 2A-B+4C=-D \ (tekislik\ M_2(2;-1;4)\ nuqtadan\ o‘tadi). \end{cases}$$

Sistemaning yechimi: $A=13C$, $B=10C$, $D=-20C$.

A, B, D koeffitsiyentlarni izlanayotgan tenglamaga qo‘yamiz:

$$13Cx + 10Cy + Cz - 20C = 0$$

Bundan

$$13x + 10y + z - 20 = 0.$$

4.1.5. Nuqtadan tekislikka tushirilgan perpendikularning uzunligiga nuqtadan *tekislikkacha bo‘lgan masofa* deyiladi.

$M_0(x_0; y_0; z_0)$ *nuqtadan* $Ax + By + Cz + D = 0$ tenglama bilan berilgan *tekislikkacha bo‘lgan masofa* ushbu formula bilan topiladi:

$$d = \frac{|Ax_0 + By_0 + Cz_0 + D|}{\sqrt{A^2 + B^2 + C^2}}. \qquad (1.11)$$

$5-$misol. $M_0(5;4;-1)$ nuqtadan $M_1(3;0;3)$, $M_2(0;4;0)$ va $M_3(0;4;-3)$ nuqtalardan o‘tuvchi tekislikkacha bo‘lgan masofani toping.

Berilgan uchta nuqtadan o‘tuvchi tekislik tenglamasini tuzamiz:

$$\begin{vmatrix} x-3 & y & z-3 \\ 0-3 & 4 & 0-3 \\ 0-3 & 4 & -3-3 \end{vmatrix} = 0, \quad \begin{vmatrix} x-3 & y & z-3 \\ -3 & 4 & -3 \\ -3 & 4 & -6 \end{vmatrix} = 0.$$

Bundan $-12 \cdot (x-3) - 9 \cdot y + 0 \cdot (z-3)$ yoki $4x + 3y - 12 = 0$.

$M_0(5;4;-1)$ nuqtadan $4x + 3y - 12 = 0$ tekislikkacha bo‘lgan masofani (1.11) formula bilan hisoblaymiz:

$$d = \frac{|4 \cdot 5 + 3 \cdot 4 - 12|}{\sqrt{4^2 + 3^2 + 0^2}} = 4(u.b).$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

4.1.1. Oz o‘qning $M_1(-1;-2;5)$ va $M_2(2;1;3)$ nuqtalardan teng uzoqlikda yotuvchi nuqtasini toping.

4.1.2. Oxy tekislikning $M_1(1;-3;1)$, $M_2(1;9;5)$ va $M_3(0;-1;-2)$ nuqtalardan teng uzoqlikda yotuvchi nuqtasini toping.

4.1.3. $M_0(2;-1;3)$ nuqtadan o‘tuvchi va shu nuqtaning radius vektoriga perpendikular bo‘lgan tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.4. $\vec{n} = \{2;-3;4\}$ vektorga perpendikular bo‘lgan va Oz manfiy yarim o‘qda 5ga teng kesma ajratuvchi tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.5. Tekislik tenglamalarini tuzing:

1) $M_0(1;3;-2)$ nuqtadan va berilgan o‘qdan o‘tuvchi: a) Ox; b) Oz;

2) $M_0(2;-1;3)$ nuqtadan o‘tuvchi va berilgan o‘qqa perpendikular bo‘lgan: a) Oy; b) Oz;

3) $M_0(3;-2;4)$ nuqtadan o‘tuvchi va berilgan tekislikka parallel bo‘lgan: a) Oxy; b) Oyz;

4) $M_1(2;-3;1)$, $M_2(3;4;0)$ nuqtalardan o‘tuvchi va berilgan o‘qqa parallel bo‘lgan: a) Oy; b) Oz;

5) koordinatalar boshidan va berilgan nuqtalardan o‘tgan:

a) $M_1(3;-4;2)$, $M_2(-1;3;4)$; b) $M_1(2;4;5)$, $M_2(-1;2;-1)$;

4.1.6. $2x + y - 3z + 6 = 0$ tekislikning koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalarini toping.

4.1.7. $M_0(1;-2;3)$ nuqtadan va berilgan ikkita vektorga parallel tekislik tenglamasini tuzing:

1) $\vec{a} = \{2;1;1\}$ va $\vec{b} = \{3;1;-1\}$; 2) $\vec{a} = \{1;4;-2\}$ va $\vec{b} = \{5;2;-2\}$.

4.1.8. $M_1(2;-1;3)$, $M_2(-1;3;2)$ nuqtalardan o‘tuvchi va Ox, Oz o‘qlarida teng musbat kesmalar ajratuvchi tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.9. $M_0(2;5;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi va Ox, Oz o‘qlarida Oy o‘qqa nisbatan uch barobar uzun kesma ajratuvchi tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.10. Berilgan uchta nuqtadan o‘tuvchi tekislik tenglamasini tuzing:

1) $M_1(2;1;-1)$, $M_2(3;1;0)$, $M_3(-1;2;-1)$; 2) $M_1(1;-2;3)$, $M_2(4;1;3)$, $M_3(1;2;-1)$.

4.1.11. $9x - 2y + 6z - 11 = 0$ tekislik tenglamasining kesmalarga nisbatan va normal ko‘rinishlarini yozing.

4.1.12. $M_0(3;3;3)$ nuqtadan koordinata tekisliklariga tushirilgan perpendikular asoslari orqali o‘tgan tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.13. Tekisliklar orasidagi burchakni toping:

1) $x - 2y + 2z + 5 = 0$ va $x - y - 3 = 0$;

2) $3x - y + 2z + 12 = 0$ va $5x + 9y - 3z - 1 = 0$;

3) $2x - 3y - 4z + 4 = 0$ va $5x + 2y + z - 3 = 0$;

4) $x + 2y + 3 = 0$ va $y + 2z - 5 = 0$

4.1.14. m va n ning qanday qiymatlarida tekisliklar parallel bo‘ladi:
1) $3x-5y-nz-2=0$, $mx+2y-3z+11=0$;
2) $nx-6y-6z+4=0$, $2x+my+3z-8=0$.

4.1.15. m ning qanday qiymatlarida tekisliklar perpendikular bo‘ladi:
1) $4x-7y+2z-3=0, -3x+2y+mz+5=0$; 2) $x-my+z=0, 2x+3y+mz-4=0$.

4.1.16. Tekislik tenglamalarini tuzing:

1) $M_0(2;2;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi va berilgan tekislikka parallel bo‘lgan: a) $x-2y-3z=0$; b) $2x+3y+z-1=0$;

2) $M_0(-1;-1;2)$ nuqtadan o‘tuvchi va berilgan ikki tekislikka perpendikular bo‘lgan: 1) $x+2y-2z+6=0$, $x-2y+z+4=0$;
2) $x+3y+z-1=0$, $2x-y+z-2=0$.

3) $M_1(5;-4;3)$, $M_2(-2;1;8)$ nuqtalardan o‘tuvchi va berilgan tekislikka perpendikular bo‘lgan: a) Oxy; b) Oyz; c) Oxz.

4.1.17. $M(-2;1;3)$ nuqtadan va $x-2y-2z+6=0$, $2x+3y-z+3=0$ tekisliklarning kesishish chizig‘idan o‘tuvchi tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.18. $M(2;1;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi va $x+3y+2z+1=0$, $3x+2y-z+8=0$ tekisliklar kesishish chizig‘iga perpendikular tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.19. $M_1(2;0;0)$, $M_2(0;1;0)$ nuqtalardan o‘tuvchi va Oxy tekislik bilan 45^o li burchak tashkil qiluvchi tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.20. Tekisliklarning kesishish nuqtasini toping:
1) $x+2y-z+2=0,\ x-y-2z+7=0,\ 3x-y-2z+11=0;$
2) $x-2y-4z=0,\ x+2y-4z+4=0,\ 3x+y-z-4=0.$

4.1.21. $M_0(5;-1;4)$ nuqtadan $M_1(3;3;0)$, $M_2(0;-3;4)$, $M_3(0;0;4)$ nuqtalardan o‘tuvchi tekislikkacha bo‘lgan masofani toping.

4.1.22. $2x+y-2z+6=0$, $x+2y+2z-9=0$ tekisliklardan teng uzoqlikda yotuvchi Ox oqning nuqtasini toping.

4.1.23. $2x-y-2z-5=0$ tekislikka parallel bo‘lgan va $M_0(4;3;-2)$ nuqtadan $d=3$ masofadan o‘tuvchi tekislik tenglamasini tuzing.

4.1.24. Ikki yoqi $12x+3y-4z-4=0$ va $12x+3y-4z+22=0$ tekisliklarda yotuvchi kubning hajmini toping.

4.2. FAZODAGI TO‘G‘RI CHIZIQ

Fazodagi to‘g‘ri chiziq tenglamalari. Fazoda ikki to‘g‘ri chiziqning o‘zaro joylashishi. Fazoda to‘g‘ri chiziq bilan tekislikning o‘zaro joylashishi. Nuqtadan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa

4.2.1. To‘g‘ri chiziqning tekislikdagi har xil o‘rni turli tenglamalar bilan aniqlanadi.

1.*To‘g‘ri chiziqning kanonik tenglamasi:*

$$\frac{x-x_0}{p}=\frac{y-y_0}{q}=\frac{z-z_0}{r}, \qquad (2.1)$$

bu yerda, $p,q,r-$ *to‘g‘ri chiziq yo‘naltiruvchi vektori* (to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan vektor) $\vec{s}=\{p;q;r\}$ ning koordinatalari; x_0,y_0,z_0-berilgan nuqtaning koordinatalari, $x,y,z-$ to‘g‘ri chiziqda yotuvchi ixtiyoriy nuqtaning koordinatalari.

2. *To‘g‘ri chiziqning parametrik tenglamalari:*

$$\begin{cases} x=x_0+pt, \\ y=y_0+qt, \\ z=z_0+rt \end{cases} \qquad (2.2)$$

bu yerda, $t-$parametr.

3. *To‘g‘ri chiziqning vektor tenglamasi:*

$$\vec{r}=\vec{r}_0+t\vec{s}, \qquad (2.3)$$

bu yerda, $\vec{r}=\{x;y;z\}$, $\vec{r}_0=\{x_0;y_0;z_0\}-$ mos ravishda $M(x;y;z)$, $M_0(x_0;y_0;z_0)$ nuqtalarning radius vektorlari.

4. *Berilgan ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi:*

$$\frac{x-x_1}{x_2-x_1}=\frac{y-y_1}{y_2-y_1}=\frac{z-z_1}{z_2-z_1}, \qquad (2.4)$$

bu yerda, x_1,y_1,z_1,x_2,y_2,z_2-berilgan ikki nuqtaning koordinatalari.

5. *To‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamalari:*

$$\begin{cases} A_1x+B_1y+C_1z+D_1=0, \\ A_2x+B_2y+C_2Z+D_2=0, \end{cases} \qquad (2.5)$$

bu yerda, A_1,B_1,C_1,A_2,B_2,C_2-ikkita parallel bo‘lmagan tekislik $\vec{n}_1=\{A_1;B_1;C_1\}$ va $\vec{n}_2=\{A_2;B_2;C_2\}$ normal vektorlarining koordinatalari.

Umumiy tenglamasi bilan berilgan to‘g‘ri chiziqning yo‘naltiruvchi vektori

$$\vec{s}=\left\{\begin{vmatrix} B_1 & C_1 \\ B_2 & C_2 \end{vmatrix}; -\begin{vmatrix} A_1 & C_1 \\ A_2 & C_2 \end{vmatrix}; \begin{vmatrix} A_1 & B_1 \\ A_2 & B_2 \end{vmatrix}\right\} \qquad (2.6)$$

formula bilan topiladi.

$1-$misol. $\begin{cases} x+4y-z+2=0, \\ 2x-3y+z-7=0. \end{cases}$ to‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasini kanonik va parametrik ko‘rinishlarga keltiring.

⊜ To‘g‘ri chiziqda yotuvchi M_0 nuqtaning koordinatalarini topamiz. Buning uchun berilgan sistemani

$$\begin{cases} x+4y= z-2, \\ 2x-3y=-z+7. \end{cases}$$

ko‘rinishga keltirib, z ga $z_0=0$ qiymat beramiz va sistemadan $x=x_0$ va $y=y_0$ larni aniqlaymiz: $x_0=2,\ y_0=-1.$

To‘g‘ri chiziqning yo‘naltiruvchi vektorini (2.6) formuladan topamiz:

$$\vec{s}=\left\{\begin{vmatrix} 4 & -1 \\ -3 & 1 \end{vmatrix}; -\begin{vmatrix} 1 & -1 \\ 2 & 1 \end{vmatrix}; \begin{vmatrix} 1 & 4 \\ 2 & -3 \end{vmatrix}\right\}=\{1;-3;-11\}.$$

U holda (2.1) formulaga ko‘ra berilgan tenglama ushbu

$$\frac{x-2}{1}=\frac{y+1}{-3}=\frac{z}{-11}$$

kanonik shaklga keladi.

t parametr kiritamiz: $\dfrac{x-2}{1}=\dfrac{y+1}{-3}=\dfrac{z}{-11}=t$. Bundan

$$x=2+t,\ y=-1-3t,\ z=-11t,\ t\in T. \ ⊜$$

$2-$misol. $M(2;-1;1)$ nuqtadan o‘tuvchi va koordinata o‘qlari bilan $\alpha=\dfrac{\pi}{4}$, $\beta=\dfrac{3\pi}{4}$, $\gamma=\dfrac{\pi}{2}$ burchaklar tashkil qiluvchi to‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasini tuzing.

⊜ To‘g‘ri chiziqning yo‘naltiruvchi vektori $\vec{s}=\{p;q;r\}$ bo‘lsin.

Masala shartiga ko‘ra: $p=\cos\alpha=\cos\dfrac{\pi}{4}=\dfrac{\sqrt{2}}{2}$, $q=\cos\beta=\cos\dfrac{3\pi}{4}=-\dfrac{\sqrt{2}}{2}$,

$r = \cos\gamma = \cos\frac{\pi}{2} = 0$, ya'ni $\vec{s} = \left\{\frac{\sqrt{2}}{2}; -\frac{\sqrt{2}}{2}; 0\right\}$.

To‘g‘ri chiziq $M(2;-1;1)$ nuqtadan o‘tadi. Shu sababli (2.1) tenglamadan

$$\frac{x-2}{\frac{\sqrt{2}}{2}} = \frac{y+1}{-\frac{\sqrt{2}}{2}} = \frac{z-1}{0} \quad \text{yoki}$$

$$\frac{x-2}{1} = \frac{y+1}{-1} = \frac{z-1}{0}.$$

Bundan $\begin{cases} x-2 = -(y+1), \\ z-1 = 0 \end{cases}$ yoki

$$\begin{cases} x+y-1 = 0, \\ z-1 = 0. \end{cases}$$

4.2.2. $\frac{x-x_1}{p_1} = \frac{y-y_1}{q_1} = \frac{z-z_1}{r_1}$ va $\frac{x-x_2}{p_2} = \frac{y-y_2}{q_2} = \frac{z-z_2}{r_2}$ tenglamalari bilan berilgan ikki l_1 va l_2 *to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak* φ ga teng bo‘lsin.

U holda

$$\cos\varphi = \frac{p_1 p_2 + q_1 q_2 + r_1 r_2}{\sqrt{p_1^2 + q_1^2 + r_1^2}\sqrt{p_2^2 + q_2^2 + r_2^2}}. \tag{2.7}$$

Bunda to‘g‘ri chiziqlar orasidagi o‘tkir buqchak (2.7) tenglikning o‘ng tomonini modulga olish orqali topiladi.

l_1 va l_2 *to‘g‘ri chiziqlar perpendikular* bo‘lsin. U holda $\cos\varphi = 0$ yoki

$$p_1 p_2 + q_1 q_2 + r_1 r_2 = 0. \tag{2.8}$$

l_1 va l_2 *to‘g‘ri chiziqlar parallel* bo‘lsin. U holda $\vec{s}_1 = \{p_1; q_1; r_1\}$ va $\vec{s}_2 = \{p_2; q_2; r_2\}$ vektorlar kollinear bo‘ladi, ya’ni

$$\frac{p_1}{p_2} = \frac{q_1}{q_2} = \frac{r_1}{r_2}. \tag{2.9}$$

l_1 va l_2 *to‘g‘ri chiziqlar bir tekislikda yotsin*.

U holda $\vec{s}_1 = \{p_1; q_1; r_1\}$, $\vec{s}_2 = \{p_2; q_2; r_2\}$, $\overrightarrow{M_1 M_2} = \{x_2 - x_1; y_2 - y_1; z_2 - z_1\}$ vektorlar shu tekislikda yotadi, ya’ni

$$\begin{vmatrix} x_2 - x_1 & y_2 - y_1 & z_2 - z_1 \\ p_1 & q_1 & r_1 \\ p_2 & q_2 & r_2 \end{vmatrix} = 0. \tag{2.10}$$

Agar l_1 va l_2 *to'g'ri chiziqlar ayqash* bo'lsa

$$\begin{vmatrix} x_2 - x_1 & y_2 - y_1 & z_2 - z_1 \\ p_1 & q_1 & r_1 \\ p_2 & q_2 & r_2 \end{vmatrix} \neq 0. \qquad (2.11)$$

l_1 va l_2 *to'g'ri chiziqlar ustma-ust tushsin.*
U holda

$$\begin{cases} \dfrac{p_1}{p_2} = \dfrac{q_1}{q_2} = \dfrac{r_1}{r}, \\ \dfrac{x_2 - x_1}{p_1} = \dfrac{y_2 - y_1}{q_1} = \dfrac{z_2 - z_1}{r_1}. \end{cases} \qquad (2.12)$$

3 – misol. $\dfrac{x-2}{8} = \dfrac{y+3}{7} = \dfrac{z-1}{11}$ va $\begin{cases} 7x + 2z - 8 = 0, \\ 4x + \ y + 6 = 0 \end{cases}$ to'g'ri chiziqlar orasidagi o'tkir burchakni toping.

Birinchi to'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektori $\vec{s}_1 = \{8;7;11\}$,

Ikkinchi to'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektorini (2.6) formuladan topamiz:

$$\vec{s}_2 = \left\{ \begin{vmatrix} 0 & 2 \\ 1 & 0 \end{vmatrix}; -\begin{vmatrix} 7 & 2 \\ 4 & 0 \end{vmatrix}; \begin{vmatrix} 7 & 0 \\ 4 & 1 \end{vmatrix} \right\} = \{-2;8;7\}.$$

U holda (2.7) formulaga ko'ra

$$\cos\varphi = \frac{|8\cdot(-2) + 7\cdot 8 + 11\cdot 7|}{\sqrt{8^2 + 7^2 + 11^2}\cdot\sqrt{(-2)^2 + 8^2 + 7^2}} = \frac{\sqrt{2}}{2}. \quad \text{Bundan } \varphi = \frac{\pi}{4}.$$

4.2.3. To'g'ri chiziq bilan uning tekislikdagi proyeksiyasi orasidagi burchakka *to'g'ri chiziq bilan tekislik orasidagi burchak* deyiladi.

l to'g'ri chiziq $\dfrac{x - x_0}{p} = \dfrac{y - y_0}{q} = \dfrac{z - z_0}{r}$ tenglama bilan va σ tekislik $Ax + By + Cz + D = 0$ tenglama bilan berilgan bo'lsin.

U holda

$$\sin\varphi = \frac{Ap + Bq + Cz}{\sqrt{A^2 + B^2 + C^2}\sqrt{p^2 + q^2 + r^2}} \qquad (2.13)$$

bo'ladi, bu yerda φ – to'g'ri chiziq bilan tekislik orasidagi burchak.

Bunda to'g'ri chiziq bilan tekislik orasidagi o'tkir burchak (2.13) tenglikning o'ng tomonini modulga olish orqali topiladi.

l to‘g‘ri chiziq σ tekislik perpendikular bo‘lsin.
U holda

$$\frac{A}{p}=\frac{B}{q}=\frac{C}{r}. \qquad (2.14)$$

l to‘g‘ri chiziq σ tekislik parallel bo‘lsin.
Bunda

$$Ap+Bq+Cr=0. \qquad (2.15)$$

Agar $l\|\sigma$ bo‘lmasa, u holda *to‘g‘ri chiziq va tekislik kesishadi*.
Shu sababli

$$Ap+Bq+Cr\neq 0. \qquad (2.16)$$

4 – misol. $\frac{x+1}{1}=\frac{y-2}{1}=\frac{z-5}{-2}$ to‘g‘ri chiziq bilan $2x-y-z+9=0$ tekislik orasidagi o‘tkir burchakni toping.

(2.13) formuladan topamiz:

$$\sin\varphi=\frac{|2\cdot1+(-1)\cdot1+(-1)\cdot(-2)|}{\sqrt{2^2+(-1)^2+(-1)^2}\cdot\sqrt{1^2+1^2+(-2)^2}}=\frac{1}{2}.$$ Bundan $\varphi=\frac{\pi}{6}$.

5 – misol. $\frac{x+2}{-1}=\frac{y+1}{-2}=\frac{z-1}{3}$ to‘g‘ri chiziq bilan $2x+3y-z-3=0$ tekislikning kesishish nuqtasini toping.

$Ap+Bq+Cr=2\cdot(-1)+3\cdot(-2)+(-1)\cdot3=-11\neq0$. Demak, to‘g‘ri chiziq bilan tekislik kesishadi.

To‘g‘ri chiziq va tekislik $M_1(x_1;y_1;z_1)$ nuqtada kesishsin. U holda bu nuqta ham to‘g‘ri chiziqda, ham tekislikda yotadi. Shu sababli $M_1(x_1;y_1;z_1)$ nuqtaning koordinatalari to‘g‘ri chiziq va tekislikning tenglamalarini qanoatlantiradi:

$$\frac{x_1+2}{-1}=\frac{y_1+1}{-2}=\frac{z_1-1}{3},\quad 2x_1+3y_1-z_1-3=0.$$

To‘g‘ri chiziq tenglamalarini parametrik ko‘rinishga keltiramiz:

$$x_1=-2-t,\quad y_1=-1-2t,\quad z_1=1+3t.$$

Bu koordinatalarni tekislik tenglamasiga qo‘yamiz:

$$2(-2-t)+3(-1-2t)-(1+3t)-3=0.$$

Bundan $t=-1$. t ning qiymatlarini parametrik tenglamalarga qo‘yib, topamiz:

$$x_1=-2-(-1)=-1,\quad y_1=-1-2\cdot(-1)=1,\quad z_1=1+3\cdot(-1)=-2.$$

Demak, $M_1(-1;1;-2)$. ⊙

l to‘g‘ri chiziq σ tekislikda yotsin.

U holda

$$\begin{cases} Ap + Bq + Cr = 0, \\ Ax_0 + By_0 + Cz_0 + D = 0. \end{cases} \quad (2.18)$$

6 – misol. $M_0(-1;2;-3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $2x - 3y + 6z - 1 = 0$ tekislikka perpendikular to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

⊝ To‘g‘ri chiziq bilan tekislikning perpendikularlik shartidan topamiz:

$$\frac{2}{p} = \frac{-3}{q} = \frac{6}{r}.$$

Bundan $q = -\frac{3}{2}p,\ r = 3p.$

(2.1) tenglamadan topamiz:

$$\frac{x+1}{p} = \frac{y-2}{-\frac{3}{2}p} = \frac{z+3}{3p} \quad \text{yoki} \quad \frac{x+1}{2} = \frac{y-2}{-3} = \frac{z+3}{6}.$$

Bu masalani boshqacha yechish mumkin. To‘g‘ri chiziq tekislikka perpendikular bo‘lgani sababli tekislikning normal vektori to‘g‘ri chiziqning yo‘naltiruvchi vektori bo‘ladi, ya’ni $\vec{s} = \{2;-3;6\}$.

U holda $M_0(-1;2;-3)$ nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqning kanonik tenglamasi:

$$\frac{x+1}{2} = \frac{y-2}{-3} = \frac{z+3}{6}.$$ ⊙

7 – misol. m ning qanday qiymatida $\frac{x+2}{3} = \frac{y-1}{m} = \frac{z+3}{m+1}$ to‘g‘ri chiziq va $3x + y - 3z - 1 = 0$ tekislik parallel bo‘ladi?

⊝ To‘g‘ri chiziq va tekislikning parallellik shartiga ko‘ra $3 \cdot 3 + 1 \cdot m + (-3) \cdot (m+1) = 0$. Bundan $m = 3$. ⊙

8 – misol. $\begin{cases} 3x - y + z - 3 = 0, \\ 2x + y - 2z + 9 = 0 \end{cases}$

to‘g‘ri chiziq va $M(-2;-3;2)$ nuqtadan o‘tuvchi tekislik tenglamasini tuzing.

⊝ Berilgan to‘g‘ri chiziqdan o‘tadigan tekisliklar dastasi tenglamasini tuzamiz:

$$3x - y + z - 3 + \lambda(2x + y - 2z + 9) = 0.$$

$M(-2;-3;2)$ nuqta koordinatalari tekislik tenglamasini qanoatlantiradi. Shu sababli

$$3\cdot(-2) - (-3) + 2 - 3 + \lambda(2\cdot(-2) - 3 - 2\cdot 2 + 9) = 0.$$

Bundan $\lambda = -2$.

λ ning topilgan qiymatini tekisliklar dastasi tenglamasiga qo‘yamiz:

$$x + 3y - 5z + 21 = 0.$$

4.2.4. $M_0(x_0; y_0; z_0)$ nuqtadan $\dfrac{x - x_0}{p} = \dfrac{y - y_0}{q} = \dfrac{z - z_0}{r}$ tenglama bilan berilgan l to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa d ga teng bo‘lsin.

U holda

$$d = \frac{|\overrightarrow{M_0M} \times \vec{s}\,|}{|\vec{s}\,|}. \qquad (2.19)$$

9 – misol. $M_1(-5;4;3)$ nuqtadan $\dfrac{x-2}{-1} = \dfrac{y-3}{3} = \dfrac{z-1}{2}$ to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofani toping.

Masalaning shartiga ko‘ra: $M_1(-5;4;3)$, $M_0(2;3;1)$, $\vec{s} = \{-1;3;2\}$.

Bundan

$$\overrightarrow{M_1M_0} = \{2 - (-5); 3 - 4; 1 - 3\} = \{7;-1;-2\}.$$

U holda

$$\overrightarrow{M_1M_0} \times \vec{s} = \begin{vmatrix} \vec{i} & \vec{j} & \vec{k} \\ 7 & -1 & -2 \\ -1 & 3 & 2 \end{vmatrix} =$$

$$= (-2 + 6)\vec{i} - (14 - 2)\vec{j} + (21 - 1)\vec{k} = 4\vec{i} - 12\vec{j} + 20\vec{k},$$

$$|\overrightarrow{M_1M_0} \times \vec{s}\,| = \sqrt{4^2 + (-12)^2 + 20^2} = 4\sqrt{35},$$

$$|\vec{s}\,| = \sqrt{(-1)^2 + 3^2 + 2^2} = \sqrt{14}.$$

(2.19) formula bilan topamiz:

$$d = \frac{4\sqrt{35}}{\sqrt{14}} = 2\sqrt{10}\,(uz.b).$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

4.2.1. To‘g‘ri chiziqning kanonik tenglamasini tuzing:
1) $M_1(1;1;-2)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\vec{s}=\{2;3;-1\}$ vektorga parallel bo‘lgan ;
2) $M_2(2;-3;-1)$ nuqtadan o‘tuvchi va Oy o‘qqa parallel bo‘lgan;
3) $M_3(-1;-2;3)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\begin{cases} x=3+2t, \\ y=-1+3t, \\ z=1-t \end{cases}$ to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan;
4) $M_4(-1;-2;-1)$ nuqtadan o‘tuvchi va $\begin{cases} x+3y+z+6=0, \\ 2x-y-4z+3=0 \end{cases}$ to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan.

4) $D(f)=\left[-\frac{\sqrt{2}}{2};\frac{\sqrt{2}}{2}\right]$ va $f(-x)=f(x)$. Shu sababli, funksiya eng kichik qiymatiga $x=0$ da erishadi va eng katta qiymatiga $x=\pm\frac{\sqrt{2}}{2}$ da erishadi:

$f(0)=\arcsin\frac{1}{2}=\frac{\pi}{6}$, $f\left(\pm\frac{\sqrt{2}}{2}\right)=\arcsin\left(\frac{1}{2}+\frac{1}{2}\right)=\frac{\pi}{2}$. Demak, $E(f)=\left[\frac{\pi}{6};\frac{\pi}{2}\right]$.

5) $a\cos x+b\sin x=\sqrt{a^2+b^2}\cos(x-\varphi)$ $\left(\varphi=arctg\frac{b}{a}\right)$ formuladan topamiz:

$$f(x)=\sqrt{3^2+4^2}\cos(3x-\varphi)=5\cos(3x-\varphi),\ \varphi=arctg\frac{4}{3}.$$

$E(\cos(3x-\varphi))=[-1;1]$ ekanidan $E(f)=[-5;5]$.

3 – misol. $f(x)=\frac{3x^2-1}{3x^2+1}$ funksiya uchun quyidagilarni toping:

1) $f(0)$; 2) $f(\sqrt{2})$; 3) $f(-a)$; 4) $f\left(\sqrt{\frac{a+1}{3(a-1)}}\right)$; 5) $f(a)-1$.

1) – 3). Berilgan funksiyaning analitik ifodasiga x ning belgilangan qiymatlarini qo‘yib, topamiz:

$$f(0)=\frac{3\cdot 0-1}{3\cdot 0+1}=-1;\quad f(\sqrt{2})=\frac{3\cdot(\sqrt{2})^2-1}{3\cdot(\sqrt{2})^2+1}=\frac{3\cdot 2-1}{3\cdot 2+1}=\frac{5}{7};$$

$$f(-a)=\frac{3\cdot(-a)^2-1}{3\cdot(-a)^2+1}=\frac{3a^2-1}{3a^2+1}.$$

4) Funksiya a ning $\begin{cases}\frac{a+1}{3(a-1)}\geq 0,\\ a-1\neq 0\end{cases}$ shartni qanoatlantiruvchi qiymatlarida aniqlangan.

$$f\left(\sqrt{\frac{a+1}{3(a-1)}}\right)=\frac{3\cdot\left(\sqrt{\frac{a+1}{3(a-1)}}\right)^2-1}{3\cdot\left(\sqrt{\frac{a+1}{3(a-1)}}\right)^2+1}=\frac{3\cdot\frac{a+1}{3(a-1)}-1}{3\cdot\frac{a+1}{3(a-1)}+1}=\frac{1}{a},\quad a\in(-\infty;-1]\cup(1;+\infty).$$

5) $f(a)-1=\dfrac{3a^2-1}{3a^2+1}-1=\dfrac{3a^2-1-3a^2-1}{3a^2+1}=-\dfrac{2}{3a^2+1}.$ ◘

4 – misol. $f(x)=\dfrac{8}{2x-x^2-3}$ funksiyaning monotonlik intervallarini va eng kichik qiymatini toping.

◙ $\varphi(x)=2x-x^2-3$ belgilash kiritamiz.

$$\varphi(x)=2x-x^2-3=-2-(x^2-2x+1)=-2-(x-1)^2.$$

Bu funksiya $(-\infty;+\infty)$ intervalda manfiy, $(-\infty;1]$ intervalda o‘sadi va $[1;+\infty)$ intervalda kamayadi.

U holda $f(x)=\dfrac{8}{\varphi(x)}$ funksiya $(-\infty;1]$ intervalda kamayadi va $[1;+\infty)$ intervalda o‘sadi. Bunda $\min\limits_R f(x)=f(1)=-4.$ ◘

5 – misol. Funksiyalarning juft, toq yoki umumiy ko‘rinishda ekanini aniqlang:

1) $f(x)=x^3-8x;$ 2) $f(x)=x^6-3|x|;$ 3) $f(x)=2e^{-x}+e^x;$

4) $f(x)=3\sin x+\cos x;$ 5) $f(x)=\ln(2x+\sqrt{1+4x^2})$.

◙ 1) $D(f)=(-\infty;+\infty)$ va $f(-x)=(-x)^3-8(-x)=-x^3+8x=-(x^3-8x)=-f(x).$ Demak, funksiya toq.

2) $D(f)=(-\infty;+\infty)$ va $f(-x)=(-x)^6-|-x|=x^6-|x|=f(x),$ ya’ni funksiya juft.

3) $D(f)=(-\infty;+\infty)$ va $f(-x)=2e^x+e^{-x}\neq\pm f(x).$ Demak, funksiya umumiy ko‘rinishda.

4) $D(f)=(-\infty;+\infty)$ va $f(-x)=3\sin(-x)+\cos(-x)=-3\sin x+\cos x\neq\pm f(x),$ ya’ni funksiya umumiy ko‘rinishda.

5) $D(f)=(-\infty;+\infty)$. Toq funksiya uchun $f(-x)=-f(x)$ yoki $f(x)+f(-x)=0$ bo‘ladi. Tekshirib ko‘ramiz:

$$f(x)+f(-x)=\ln(2x+\sqrt{1+4x^2})+\ln(-2x+\sqrt{1+4x^2})=\ln(1+4x^2-4x^2)=\ln 1=0.$$

Demak, funksiya toq. ◘

$6-$misol. Funksiyalarning davrini toping:

1) $f(x)=\sin 6x;$ 2) $f(x)=\cos 6x+tg 4x;$

3) $f(x)=\cos^2 3x;$ 4) $f(x)=ctg\frac{x}{3}.$

1) $\sin x$ funksiyaning davri $T_1=2\pi$. Bundan $T_0=\frac{2\pi}{6}=\frac{\pi}{3}.$

2) $\cos 6x$ va $tg 4x$ funksiyalarning davrlari mos ravishda $T_1=\frac{\pi}{3}$ va $T_2=\frac{\pi}{4}$.

U holda $f(x)=\cos 6x+tg 4x$ funksiyaning davri $\frac{\pi}{3}$ va $\frac{\pi}{4}$ sonlarining eng kichik
umumiy karralisiga teng bo‘ladi, ya’ni $T_0=\pi$.

3) $\cos^2 3x=\frac{1+\cos 6x}{2}$ ekanidan berilgan funksiyaning davri

$\cos 6x$ funksiyaning davri bilan bir xil bo‘ladi. Demak, $T_0=\frac{2\pi}{6}=\frac{\pi}{3}.$

4) $ctgx$ funksiyaning davri $T_1=\pi$. Bundan $T_0=\frac{\pi}{(1/3)}=3\pi.$

$7-$misol. $f(x)=\log_3(x+\sqrt{1+x^2})$ funksiyaga teskari funksiyani toping.

$\sqrt{1+x^2}>|x|$ bo‘lgani sababli berilgan funksiya $(-\infty;+\infty)$ intervalda aniqlangan. Bu funksiya uchun $f(x)+f(-x)=0$, ya’ni funksiya toq. Funksiya $x\geq 0$ da o‘sadi. Demak, berilgan funksiya $x\in(-\infty;\infty)$ da qat’iy monoton va unga teskari funksiya mavjud.

$y=f(x)$ desak, $y=\log_3(x+\sqrt{1+x^2})$ bo‘ladi. Bu tenglikni x ga nisbatan yechamiz: $3^y=x+\sqrt{1+x^2}$, $3^{-y}=-x+\sqrt{1+x^2}$ (chunki funksiya toq).
Bundan $x=\frac{1}{2}\left(3^y+3^{-y}\right)$ yoki $y=\frac{1}{2}\left(3^x+3^{-x}\right)$.

5.1.5. $y=f(x)$ *funksiyaning grafigi* deb Oxy koordinatalar tekisligining abssissasi x argumentning qiymatlaridan va ordinatasi
y funksiyaning mos qiymatlaridan tashkil topgan barcha $(x;f(x))$ nuqtalari to‘plamiga aytiladi. Bunda har bir vertikal (Oy o‘qqa parallel) to‘g‘ri chiziq $(x;f(x))$ nuqtalar to‘plamining faqat bitta nuqtasini kessa, bu to‘plam $y=f(x)$ funksiyaning grafigi bo‘ladi.

Elementar funksiyaning grafigini chizishda funksiyaning quyidagi xossalarini inobatga olish kerak:

– juft funksiyaning grafigi ordinata o‘qiga nisbatan simmetrik bo‘ladi;

– toq funksiyaning grafigi koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik bo‘ladi;

– o‘zaro teskari $y = f(x)$ va $y = \varphi(x)$ funksiyalarning grafiklari I va III choraklar koordinata burchaklarining bissektrisalariga nisbatan simmetrik bo‘ladi;

– davriy funksiyaning grafigi Ox o‘qi bo‘ylab chapga va o‘ngga davr birligiga surish orqali qaytariladi;

– o‘zgarmas funksiyaning grafigi abssissalar o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq bo‘ladi;

– darajali funksiyaning grafiklari $(1;1)$ nuqtadan o‘tadi va α ga bog‘liq bo‘ladi:

– ko‘rsatkichli funksiyaning grafigi $(0;1)$ nuqtadan o‘tadi;

– logarifmik funksiyaning grafigi $(1;0)$ nuqtadan o‘tadi;

– teskari trigonometrik funksiyalarining grafiklari trigonometrik funksiyalarning grafiklaridan $y = x$ to‘g‘ri chiziqqa nisbatan simmetrik qilib hosil qilinadi.

Funksiyaning grafigini oldindan ma’lum $y = f(x)$ funksiya grafigidan almashtirishlar (surish, cho‘zish, siqish) orqali hosil qilish mumkin.

Xususan:

1) $y = f(x) + b$ funksiyaning grafigi $y = f(x)$ funksiya grafigini Oy o‘qi bo‘ylab $b > 0$ da yuqoriga, $b < 0$ da pastga $|b|$ birlikka surish bilan hosil qilinadi;

2) $y = f(x - a)$ funksiyaning grafigi $y = f(x)$ funksiya grafigini Ox o‘qi bo‘ylab $a > 0$ da o‘ngga, $a < 0$ da chapga $|a|$ birlikka surish bilan hosil qilinadi;

3) $y = kf(x)\,(k \neq 0, k \neq 1)$ funksiyaning grafigi $y = f(x)$ funksiya grafigini Oy o‘qi bo‘ylab $|k| > 1$ da $|k|$ marta cho‘zish, $|k| < 1$ da $\frac{1}{|k|}$ marta surish orqali hosil qilinadi;

4) $y = f(kx)\,(k \neq 0, k \neq 1)$ funksiyaning grafigi $y = f(x)$ funksiya grafigini Ox o‘qi bo‘ylab $|k| > 1$ da $|k|$ marta siqish, $|k| < 1$ da $\frac{1}{|k|}$ marta cho‘zish

orqali hosil qilinadi;

5) $y=-f(x)$ funksiyaning grafigi $y=f(x)$ funksiya grafigini Ox o‘qqa nisbatan simmetrik akslantirish orqali hosil qilinadi;

6) $y=f(-x)$ funksiyaning grafigi $y=f(x)$ funksiya grafigini Oy o‘qqa nisbatan simmetrik akslantirish orqali hosil qilinadi;

7) $y=|f(x)|$ funksiyaning grafigi $y=f(x)$ funksiya grafigining Ox o‘qdan yuqorida yotgan qismini o‘zgarishsiz qoldirish, Ox o‘qdan quyida yotgan qismini esa bu o‘qqa nisbatan simmetrik akslantirish orqali hosil qilinadi;

8) $y=f(|x|)$ funksiya grafigi $y=f(x)$ funksiya grafigining Oy o‘qdan o‘ngda yotgan qismini o‘zgarishsiz qoldirish, Oy o‘qdan chapda yotgan qismini esa bu o‘qqa nisbatan simmetrik akslantirish orqali hosil qilinadi;

9) $y=f(x)+g(x)$ funksiyaning grafigi $y_1=f(x)$ va $y_2=g(x)$ funksiyalar grafiklarining mos ordinatalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi;

10) $y=f(x)\cdot g(x)$ funksiyaning grafigi $y_1=f(x)$ va $y_2=g(x)$ funksiyalar grafiklarining mos ordinatalarini ko‘paytirish orqali hosil qilinadi;

11) $y=\dfrac{f(x)}{g(x)}$ funksiyaning grafigi $y_1=f(x)$ va $y_2=g(x)$ funksiyalar grafiklarining $y_2\neq 0$ bo‘lgan mos ordinatalarini bo‘lish orqali hosil qilinadi;

12) $y=f(\varphi(x))$ funksiyaning grafigi avval $z=\varphi(x)$ funksiyaning grafigini chizish, keyin esa $y=f(z)$ funksiyaning xossalarini bilgan holda $y=f(\varphi(x))$ murakkab funksiyaning grafigini chizish orqali hosil qilinadi.

$8-$misol. $y=2\sin(3x-2)$ funksiyaning grafigini chizing.

Avval funksiyani $y=2\sin 3\left(x-\dfrac{2}{3}\right)$ ko‘rinishda yozib olamiz.

1) $y_1=\sin x$ funksiya grafigining bir to‘lqinini chizamiz.

2) 3-bandga ko‘ra $y_1=\sin x$ funksiya grafigini Oy o‘qi bo‘ylab ikki marta cho‘zib, $y_2=2\sin x$ funksiya grafigini hosil qilamiz.

3) 4-bandga ko‘ra $y_2=2\sin x$ funksiya grafigini Ox o‘qi bo‘ylab uch marta siqib, $y_3=2\sin 3x$ funksiya grafigini hosil qilamiz.

4) 2-bandga ko‘ra $y_3=2\sin 3x$ funksiya grafigini Ox o‘qi bo‘ylab o‘ngga $\dfrac{2}{3}$ birlikka surib, izlanayotgan, ya’ni $y=2\sin(3x-2)$ funksiya grafigining bir to‘lqinini hosil qilamiz (1-shakl).



1-shakl.

$y = 2\sin(3x-2)$ funksiyaning grafigi bu to'lqinni Ox o'qi bo'ylab chapga va o'ngga davriy davom ettirish orqali topiladi.

$9-$misol. $y = \left|2x^2 - 8|x| + 5\right|$ funksiyaning grafigini chizing.

Avval $y_1 = 2x^2 - 8x + 5$ funksiya grafigini chizamiz. Buning uchun uni to'la kvadrat ajratish orqali $y_1 = 2(x-2)^2 - 3$ ko'rinishda yozib olamiz.

1) $y_2 = x^2$ funksiya grafigini chizib olamiz.

2) 3-bandga ko'ra $y_2 = x^2$ funksiya grafigini Oy o'qi bo'ylab ikki marta cho'zib, $y_3 = 2x^2$ funksiya grafigini hosil qilamiz.

3) 2-bandga ko'ra $y_3 = 2x^2$ funksiya grafigini Ox o'qi bo'ylab o'ngga 2 birlikka surib $y_4 = 2(x-2)^2$ funksiya grafigini hosil qilamiz .

4) 1-bandga ko'ra $y_4 = 2(x-2)^2$ funksiya grafigini Oy o'qi bo'ylab pastga 3 birlikka surib $y_1 = 2(x-2)^2 - 3$ funksiya grafigini hosil qilamiz (2-shakl).

5) 8-bandga ko'ra $y_1 = 2(x-2)^2 - 3$ funksiya grafigining Oy o'qdan o'ngda yotgan qismini o'zgarishsiz qoldirib va Oy oqdan chapda yotgan qismini bu o'qqa nisbatan simmetrik akslantirib, $y_5 = 2x^2 - 8|x| + 5$ funksiya grafigini hosil qilamiz .

6) 7-bandga ko'ra $y_5 = 2x^2 - 8|x| + 5$ funksiya grafigining Ox o'qdan yuqorida yotgan qismini o'zgarishsiz qoldirib va Ox o'qdan pastda yotgan qismini bu o'qqa nisbatan simmetrik akslantirib, izlanayotgan, ya'ni $y = \left|2x^2 - 8|x| + 5\right|$ funksiya grafigini hosil qilamiz (3-shakl).



2-shakl.



3-shakl.

5.1.6. Ko'rsatkichli funksiyalardan hosil qilinadigan quyidagi elementar funksiyalarga *giperbolik funksiyalar* deyiladi:

– *giperbolik sinus*: $y = shx$, bu yerda $shx = \dfrac{e^x - e^{-x}}{2}$;

– *giperbolik kosinus*: $y = chx$, bu yerda $chx = \dfrac{e^x + e^{-x}}{2}$;

– *giperbolik tangens*: $y = thx$, bu yerda $thx = \dfrac{e^x - e^{-x}}{e^x + e^{-x}}$;

– *giperbolik kotangens*: $y = cthx$, bu yerda $cthx = \dfrac{e^x + e^{-x}}{e^x - e^{-x}}$.

Giperbolik funksiyalar uchun trigonometrik funksiyalarga xos bo'lgan quyidagi mos formulalar o'rinli bo'ladi:

$$ch^2x - sh^2x = 1,\ ch2x = ch^2x + sh^2x,\ sh2x = 2shxchx,\ thx = \frac{shx}{chx},\ cthx = \frac{chx}{shx},$$

$ch(x \pm y) = chxchy \pm shxshy,\ sh(x \pm y) = shxchy \pm chxshy$ va boshqalar.

5.1.7. $y = f(x)$ funksiyaning oshkor ko'rinishdagi berilishi hisoblanadi. Shuningdek, ayrim hollarda funksiyaning oshkormas ko'rinishidan foydalanishga to'g'ri keladi.

⇨ Funksiya X to‘plamda aniqlangan bo‘lsin. Agar har bir $x \in X$ elementga mos qo‘yilgan yagona funksiya qandaydir $F(x,y)=0$ tenglamani qanoatlantirsa, u holda *funksiya* $F(x,y)=0$ *tenglama bilan oshkormas berilgan* deb ataladi. Bunda funksiyaga oshkormas funksiya deyiladi. Oshkormas funksiyaning grafigi deb Oxy koordinatalar tekisligining $F(x,y)=0$ tenglamani qanoatlantiruvchi barcha nuqtalari to‘plamiga aytiladi.

⇨ $X \subset R$ to‘plamda ikkita $x = x(t)$ va $y = y(t)$ funksiyalar berilgan bo‘lsin. U holda Oxy koordinatalar tekisligining koordinatalari $(x(t); y(t))$ bo‘lgan barcha nuqtalari to‘plamiga parametrik ko‘rinishda berilgan chiziq (egri chiziq yoki to‘g‘ri chiziq) deyiladi.

Agar parametrik ko‘rinishda berilgan chiziq $y = f(x)$ funksiyaning grafigini ifodalasa, u holda bu funksiyaga *parametrik ko‘rinishda berilgan funksiya* deyiladi.

Mustahkamlash uchun mashqlar

5.1.1. Funksiyaning aniqlanish sohasini toping:

1) $f(x)=\dfrac{1+x^2}{x^3+8}$;
2) $f(x)=\dfrac{1+x}{x^2+5x+6}$;

3) $f(x)=\sqrt{4-x^2}$;
4) $f(x)=\dfrac{5}{(x-1)\sqrt{x+2}}$;

5) $f(x)=\sqrt{\dfrac{10-x}{x^2-11x+18}}$;
6) $f(x)=\dfrac{\sqrt{4-3x^2-x^4}}{\cos \pi x}$; .

7) $f(x)=\sqrt{x-7}+\sqrt{10-x}$;
8) $f(x)=\sqrt{2x+1}-\sqrt{x+1}$;

9) $f(x)=\sqrt{x-2}+\sqrt{2-x}+\sqrt{x^2+4}$;
10) $f(x)=\sqrt{x^3-8}+\dfrac{3}{\sqrt[3]{2-x}}$;

11) $f(x)=\arcsin x-\arccos(4-x)$;
12) $f(x)=\arcsin(x-2)+3\ln(x-2)$;

13) $f(x)=\log_3 \ln \lg x$;
14) $f(x)=\ln \sin x$;

15) $f(x)=e^{\sqrt{x}}\log_2(2-3x);$

16) $f(x)=\ln\left(\dfrac{\sqrt{x-3}+\sqrt{7-x}}{\sqrt[3]{(x-6)^2}}\right);$

17) $f(x)=\sqrt{3-4x}+\arccos x\dfrac{3-4x}{6};$

18) $f(x)=\arccos\dfrac{x+2}{3}+2^{\frac{1}{x}};$

19) $f(x)=\dfrac{3}{\sqrt[3]{x^2-3x+2}}-5\sin 2x.$

20) 13) $f(x)=\dfrac{x-\ln(x+3)}{\sqrt{8-x^3}}.$

5.1.2. Funksiyaning qiymatlar sohasini toping:

1) $f(x)=x^2+4x+2;$

2) $f(x)=\sqrt{7-x}+2;$

3) $f(x)=2\sin x-5;$

4) $f(x)=\sin x+\cos x;$

5) $f(x)=2^{x^2}-1;$

6) $f(x)=2e^{-x^2}+1;$

7) $f(x)=\sqrt{9-x^2};$

8) $f(x)=\dfrac{1}{\pi}arctgx;$

9) $f(x)=3|x|-\dfrac{1}{5};$

10) $f(x)=\dfrac{2x-3}{|2x-3|};$

11) $f(x)=\dfrac{9}{2x^2+4x+5};$

12) $f(x)=\dfrac{2}{\sqrt{2x^2-4x+3}};$

5.1.3. $f(x)=x^3 3^x$ funksiya berilgan. Quyidagilarni toping:

1) $f(1);$ 2) $f(-\sqrt[3]{4});$ 3) $f(-x);$ 4) $f\left(\dfrac{1}{x}\right).$

5.1.4. Funksiyaning monotonlik oraliqlarini toping:

1) $f(x)=x^2-5x+6;$

2) $f(x)=x^3+\arcsin x;$

3) $f(x)=\dfrac{1}{x^3};$

4) $f(x)=arctgx-x.$

5.1.5. Funksiyaning juft, toq yoki umumiy ko‘rinishda ekanini aniqlang:

1) $f(x)=x^3-3x-x^5;$

2) $f(x)=x^4+5x^2+1;$

3) $f(x)=\frac{tg2x}{x}$; 4) $f(x)=ctg3x+\cos 2x$;

5) $f(x)=\ln\left(\frac{3+x}{3-x}\right)$; 6) $f(x)=\ln(x+\sqrt{x^2+1})$;

7) $f(x)=2|x|-3$; 8) $f(x)=x|x|$;

9) $f(x)=3^{x^2}(x+\sin x)$; 10) $f(x)=\left(\frac{2^x-2^{-x}}{2}\right)x$.

5.1.6. Funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini toping:

1) $f(x)=(k-n)\cos^2 x+n\ (0<k<n)$; 2) $f(x)=4\sin x^5$;

3) $f(x)=\sin 2x+\cos 2x$; 4) $f(x)=3\sin x+4\cos x$;

5) $f(x)=\sin^4 x+\cos^4 x$; 6) $f(x)=|\cos 4x|$.

5.1.7. Funksiyaning monoton, qat'iy monoton yoki chegaralangan ekanini aniqlang:

1) $f(x)=\sin^2 x$; 2) $f(x)=\frac{x+2}{x+7}$;

3) $f(x)=\sqrt{3x-4}$; 4) $f(x)=\begin{cases} x, & agar\ x<0\ bo'lsa, \\ -3, & agar\ x\geq 0\ bo'lsa. \end{cases}$

5.1.8. Funksiyaning davrini toping:

1) $f(x)=-2\cos\frac{x}{3}$; 2) $f(x)=ctg(2x-3)$;

3) $f(x)=tgx-\cos\frac{x}{2}$; 4) $f(x)=\sin 2x+\cos 3x$;

5) $f(x)=\sin^4 x-\cos^4 x$; 6) $f(x)=\sin\frac{x}{2}\cos\frac{x}{2}\cos x\cos 2x$;

7) $f(x)=|\sin 2x|$; 8) $f(x)=|\cos 3x|$;

9) $f(x)=\sin\frac{3x}{2}+\cos\frac{2x}{3}$; 10) $f(x)=tg\frac{2x}{3}-ctg\frac{3x}{2}+\sin\frac{x}{3}$.

5.1.9. Funksiyaga teskari funksiyani toping:

1) $y=3x+5$; 2) $y=\frac{x}{1+x}$;

3) $y=4+\log_3 x$; 4) $y=2\sin 3x$.

5.1.10. $f(g(x))$ va $g(f(x)$ murakkab funksiyalarni toping:

1) $f(x)=3x+1,\ g(x)=x^3;$ 2) $f(x)=\sin x,\ g(x)=|x|;$

3) $f(x)=\dfrac{x+1}{x},\ g(x)=\dfrac{1}{4-x};$ 4) $f(x)=2^{3x},\ g(x)=\log_2 x.$

5.1.11. Funksiyaning grafigini chizing:

1) $y=x^2+4x+3;$ 2) $y=-2\sin 3x;$

3) $y=\dfrac{2x-1}{2x+1};$ 4) $y=-x^2|x|;$

5) $y=x\sin x;$ 6) $y=x+\sin x.$

7) $y=\arccos|x|;$ 8) $y=3^{\frac{1}{x}}.$

5.1.12. Ayniyatni isbotlang:

1) $1-th^2x=\dfrac{1}{ch^2x};$ 2) $cth^2x-1=\dfrac{1}{sh^2x};$

3) $ch^2x=\dfrac{ch2x+1}{2};$ 4) $sh^2x=\dfrac{ch2x-1}{2};$

5) $sh(\ln x)=\dfrac{x^2-1}{2x};$ 6) $ch(\ln x)=\dfrac{x^2+1}{2x}.$

5.1.13. Qaysi nuqta $y+\cos y-x=0$ tenglamaga tegishli ekanini aniqlang: $A(1;0);\ B(0;0);\ C\left(\dfrac{\pi}{2};\dfrac{\pi}{2}\right);\ D(\pi-1;\pi).$

5.1.14. Qaysi nuqta $\begin{cases} x=t-1, \\ y=t^2+1 \end{cases}$ parametrik tenglamalar bilan berilgan egri chiziqqa tegishli ekanini aniqlang: $A(1;5);\ B\left(\dfrac{1}{2};\dfrac{13}{4}\right);\ C(2;8);\ D(0;1).$

5.1.15. Parametrik ko‘rinishda berilgan funksiyani $y=y(x)$ ko‘rinishga keltiring:

1) $\begin{cases} x=t+2, \\ y=t^2+4t+5; \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x=3\sin t, \\ y=2\cos t. \end{cases}$

5.2. SONLI KETMA-KETLIKLAR

Sonli ketma-ketlik. Sonli ketma-ketlikning limiti. Yaqinlashuvchi ketma-ketliklar. e soni

5.2.1. Har bir n natural songa mos qo‘yilgan $x_1, x_2, x_3, ..., x_n ...$ haqiqiy sonlar to‘plamiga *sonli ketma-ketlik* deyiladi va $\{x_n\}$ kabi belgilanadi. Bunda $x_1, x_2, x_3, ..., x_n ...$ sonlar $\{x_n\}$ ketma-ketlikning hadlari, x_n bu ketma-ketlikning umumiy hadi, n uning nomeri deb ataladi.

*Analitik usul*da ketma-ketlikning umumiy hadini topish formulasi beriladi. *Rekurrent usul*da ketma-ketlikning $n-$hadini oldingi hadlar orqali topish formulasi beriladi.

$1-$m i s o l. Berilgan ketma-ketliklarning birinchi beshta hadini toping:

1) $x_n = \dfrac{(-1)^n}{n^2}$; 2) $x_n = \begin{cases} \dfrac{1}{n-1}, & n \text{ juft bo'lsa}, \\ \dfrac{n}{n^2+1}, & n \text{ toq bo'lsa}; \end{cases}$ 3) $x_1 = 3, x_n = n \cdot x_{n-1}$.

Birinchi ikkita ketma-ketlikda n ning o‘rniga 1,2,3,4,5 qiymatlar qo‘yib topamiz:

1) $x_1 = -1,\ x_2 = \dfrac{1}{4},\ x_3 = -\dfrac{1}{9},\ x_4 = \dfrac{1}{16},\ x_5 = -\dfrac{1}{25}$;

2) $x_1 = \dfrac{1}{2},\ x_2 = 1,\ x_3 = \dfrac{3}{10},\ x_4 = \dfrac{1}{3},\ x_5 = \dfrac{5}{26}$.

3) Uchinchi ketma-ketlikning birinchi hadi $x_1 = 3$. Keyingi hadlarni rekurrent formuladan topamiz:

$$x_2 = 2 \cdot x_{2-1} = 2 \cdot x_1 = 2 \cdot 3 = 6, \quad x_3 = 3 \cdot x_2 = 3 \cdot 6 = 18,$$
$$x_4 = 4 \cdot x_3 = 4 \cdot 18 = 72, \quad x_5 = 5 \cdot x_4 = 5 \cdot 72 = 360.$$

Agar $\forall n \in N$ uchun $x_n = c\,(c \in R)$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka *o‘zgarmas ketma-ketlik* deyiladi.

Agar shunday o‘zgarmas $M\,(m)$ soni topilsaki, $\forall n \in N$ uchun $x_n \le M$ $(x_n \ge m)$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka *yuqoridan* (*quyidan*) *chegaralangan* deyiladi. Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlik ham quyidan ham yuqoridan chegaralangan bo‘lsa, ya’ni shunday o‘zgarmas m va M sonlari topilsaki, $\forall n \in N$ uchun $m \le x_n \le M$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka *chegaralangan* deyiladi.

Agar $\forall A > 0$ son uchun $\{x_n\}$ ketma-ketlikning $|x_n| > A$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi hadi topilsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka *chegaralanmagan* deyiladi.

2 – m i s o l. $\{x_n\}=\left\{\dfrac{n}{n+1}\right\}$ ketma-ketlikning chegaralanganligini ko‘rsating.

Birinchidan $x_n=\dfrac{n}{n+1}=1-\dfrac{1}{n+1}\le 1$. Demak, ketma-ketlik yuqoridan chegaralangan. Ikkinchidan $x_n=\dfrac{n}{n+1}$ to‘g‘ri kasr. Shu sababli $x_n\ge 0$. Demak, ketma-ketlik quyidan chegaralangan. Shunday qilib, $0\le x_n\le 1$ $(m=0, M=1)$), ya’ni berilgan ketma-ketlik chegaralangan.

Agar $\forall n\in N$ uchun: $x_n<x_{n+1}$ $(x_n>x_{n+1})$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka *qat’iy o‘suvchi* (*qat’iy kamayuvchi*) deyiladi; $x_n\le x_{n+1}$ $(x_n\ge x_{n+1})$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka *kamaymaydigan* (o‘*smaydigan*)deyiladi.

O‘suvchi, kamaymaydigan, kamayuvchi va o‘smaydigan ketma-ketliklar *monoton ketma-ketlik* nomi bilan umumlashtiriladi. Bunda o‘suvchi va kamayuvchi ketma-ketliklarga *qat’iy monoton* ketma-ketliklar deyiladi.

3 – m i s o l. $\{x_n\}=\left\{\dfrac{n}{3^n}\right\}$ ketma-ketlikning qat’iy kamayuvchi ekanini ko‘rsating.

Agar ketma-ketlik qat’iy kamayuvchi bo‘lsa, $x_{n+1}<x_n$ yoki $\dfrac{x_{n+1}}{x_n}<1$ bo‘ladi.

$x_n=\dfrac{n}{3^n}$, $x_{n+1}=\dfrac{n+1}{3^{n+1}}$ ekanidan

$$\frac{x_{n+1}}{x_n}=\frac{n+1}{3^{n+1}}:\frac{n}{3^n}=\frac{(n+1)3^n}{3^n\,3n}=\frac{n+1}{n}\cdot\frac{1}{3}=\left(1+\frac{1}{n}\right)\cdot\frac{1}{3}\le(1+1)\cdot\frac{1}{3}=\frac{2}{3}<1.$$

Demak, berilgan ketma-ketlik qat’iy kamayuvchi.

Ikkita $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketlikning yig‘indisi, ayirmasi, kopaytmasi, bo‘linmasi (bunda $y_n\ne 0$) deb har bir hadi bu ketma-ketliklar mos hadlarining yig‘indisidan, ayirmasidan, ko‘paytmasidan va bo‘linmasidan iborat bo‘lgan ketma-ketlikka aytiladi.

Xususan, $\{x_n\}$ ketma-ketlikning chekli songa ko‘paytmasi deb har bir hadi $\{x_n\}$ ketma-ketlik hadining shu songa ko‘paytmasidan iborat bo‘lgan ketma-ketlikka aytiladi.

Agar $\forall\varepsilon > 0$ son uchun shunday $N = N(\varepsilon)$ nomer topilsaki, $\forall n > N$ uchun $|x_n| < \varepsilon$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ *cheksiz kichik* ketma-ketlik deyiladi.

4 – m i s o l. $\{\alpha_n\} = \left\{\frac{2n}{n^2+1}\right\}$ ketma-ketlik cheksiz kichik ekanini ko‘rsating .

$\forall\varepsilon > 0$ son olamiz. $|\alpha_n| = \left|\frac{2n}{n^2+1}\right| < \left|\frac{2n}{n^2}\right| < \left|\frac{2}{n}\right| < \varepsilon$ tengsizlikdan $n > \frac{2}{\varepsilon}$ tengsizlik kelib chiqadi. $N = \left[\frac{2}{\varepsilon}\right]$ desak, $\forall n > N$ uchun $|\alpha_n| < \varepsilon$ bo‘ladi.

Demak, $\left\{\frac{2n}{n^2+1}\right\}$ ketma-ketlik cheksiz kichik ketma-ketlik.

Chekli sondagi cheksiz kichik ketma-ketliklarning algebraik yig‘indisi va ko‘paytmasi cheksiz kichik ketma-ketlik bo‘ladi. Shuningdek, cheksiz kichik ketma-ketlikning chegaralangan ketma-ketlikka va chekli songa ko‘paytmasi cheksiz kichik ketma-ketlik bo‘ladi.

Agar $\forall A > 0$ son uchun shunday $N = N(A)$ nomer topilsaki, $\forall n > N$ lar uchun $|x_n| > A$ bo‘lsa, $\{x_n\}$ *cheksiz katta* ketma-ketlik deyiladi.

Agar $\{x_n\}$ cheksiz katta ketma-ketlik bo‘lsa, u holda $\left\{\frac{1}{x_n}\right\}$ cheksiz kichik ketma-ketlik bo‘ladi va aksincha, agar $\{\alpha_n\}$ cheksiz kichik ketma-ketlik bo‘lsa, u holda $\left\{\frac{1}{\alpha_n}\right\}$ cheksiz katta ketma-ketlik bo‘ladi.

5.2.2. Agar $\forall\varepsilon > 0$ son uchun shunday $N = N(\varepsilon)$ nomer topilsaki, $\forall n > N$ uchun $|x_n - a| < \varepsilon$ bo‘lsa, o‘zgarmas a songa $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning limiti* deyiladi va $\lim_{n\to\infty} x_n = a$ kabi yoziladi.

Cheksiz kichik ketma-ketlikning limiti nolga teng bo‘ladi.

Cheksiz katta ketma-ketlik limitga ega bo‘lmaydi. Uning limitini ∞ deb qaraladi.

5 – misol. $\lim\limits_{n\to\infty}\frac{2n+5}{n+1}=2$ ekanini isbotlang.

$\forall\varepsilon>0$ olamiz. Misolning shartidan topamiz:

$$|x_n-2|=\left|\frac{2n+5}{n+1}-2\right|=\left|\frac{3}{n+1}\right|=\frac{3}{n+1}.$$

$|x_n-a|<\varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi n ning qiymatlarini topish uchun $\frac{3}{n+1}<\varepsilon$ tengsizlikni yechamiz. Bundan $n>\frac{3}{\varepsilon}-1$.

N nomer sifatida $\left(\frac{3}{\varepsilon}-1\right)$ sonining butun qismini, ya'ni $N=\left[\frac{3}{\varepsilon}-1\right]$ sonini olish mumkin. Bunda $\forall\varepsilon>0$ son olinganda ham $\forall n>N$ uchun $|x_n-1|<\varepsilon$ bo‘ladi.

U holda ketma-ketlik limitining ta'rifiga ko‘ra

$$\lim_{n\to\infty}\frac{2n+5}{n+1}=2.$$

5.2.3. Ghekli limitga ega bo‘lgan ketma-ketlikka *yaqinlashuvchi* ketma-ketlik deyiladi.

Yaqinlashuvchi ketma-ketliklar quyidagi xossalarga ega.

1^o. Yaqinlashuvchi ketma-ketlik yagona limitga ega bo‘ladi.

2^o. Yaqinlashuvchi ketma-ketlik chegaralangan bo‘ladi.

3^o. Agar $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketliklar yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{n\to\infty}(x_n\pm y_n)=\lim\limits_{n\to\infty}x_n\pm\lim\limits_{n\to\infty}y_n$ bo‘ladi.

4^o. Agar $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketliklar yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{n\to\infty}x_n\cdot y_n=\lim\limits_{n\to\infty}x_n\cdot\lim\limits_{n\to\infty}y_n$ bo‘ladi.

Xususan, $\lim\limits_{n\to\infty}x_n=a$ bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{n\to\infty}x_n^{\,k}=a^k$, $\lim\limits_{n\to\infty}\sqrt[k]{x_n}=\sqrt[k]{a}$, $k=2,3,4,\ldots$.

5^o. Agar $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ yaqinlashuvchi ketma-ketliklar bo‘lib, $\lim\limits_{n\to\infty}y_n\neq 0$ bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}=\frac{\lim\limits_{n\to\infty}x_n}{\lim\limits_{n\to\infty}y_n}$ bo‘ladi.

6^o. Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{n\to\infty}c\cdot x_n=c\cdot\lim\limits_{n\to\infty}x_n$ $(c\in R)$ bo‘ladi.

7^o. Agar $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ yaqinlashuvchi ketma-ketliklar bo‘lib, biror nomerdan boshlab $x_n \le y_n$ $(x_n \ge y_n)$ bo‘lsa, u holda $\lim_{n\to\infty} x_n \le \lim_{n\to\infty} y_n$ $\left(\lim_{n\to\infty} x_n \ge \lim_{n\to\infty} y_n\right)$ bo‘ladi.

8^o. Agar $\{x_n\}$ va $\{z_n\}$ yaqinlashuvchi ketma-ketliklar hamda $\lim_{n\to\infty} x_n = \lim_{n\to\infty} z_n = a$ bo‘lib, biror nomerdan boshlab $x_n \le y_n \le z_n$ bo‘lsa, u holda $\lim_{n\to\infty} y_n = a$ bo‘ladi.

6 – misol. $\{x_n\} = \left\{\left(\dfrac{n+2}{n^2}\right)^n\right\}$ ketma-ketlikning yaqinlashuvchi ekanini ko‘rsating.

Birinchidan $\dfrac{n+2}{n^2} \le \dfrac{n+2n}{n^2} = \dfrac{3n}{n^2} = \dfrac{3}{n} \le \dfrac{1}{2}$, $n \ge 6$ da.

Ikkinchidan $\dfrac{n+2}{n^2} \ge \dfrac{1+2}{n^2} = \dfrac{3}{n^2} > 0$, $\forall n \in N$ da.

$y_n = 0$, $z_n = \dfrac{1}{2^n}$ belgilash kiritamiz. Bunda $\lim_{n\to\infty} y_n = \lim_{n\to\infty} z_n = 0$ va $\forall n \ge 6$ uchun $y_n \le x_n \le z_n$ bo‘ladi.

U holda 8^o xossaga ko‘ra $\lim_{n\to\infty} x_n = 0$, ya’ni berilgan ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Limitga ega bo‘lmagan yoki cheksiz (∞) limitga ega bo‘lgan ketma-ketlikka *uzoqlashuvchi* ketma-ketlik deyiladi.

5.2.4. Sonli ketma-ketlik uchun ushbu

$$\lim_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^n = e$$

formula o‘rinli bo‘ladi.

e soniga *Neper soni* deyiladi. e soni irratsional son. Uning taqribiy qiymati 2,78 $(e = 2{,}718284828459045...)$ ga teng.

Umumman olganda

$$\lim_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{f(n)}\right)^{f(n)} = e, \text{ bu yerda } n\to\infty \text{ da } f(n)\to\infty. \qquad (2.1)$$

Sonli ketma-ketliklar mavzusining asosiy masalalaridan biri uning limitini topishdan iborat. Ketma-ketliklarning limitini topishda ketma-ketlik limitining ta’rifidan, yaqinlashuvchi ketma-ketliklarning xossalaridan va (2.1) formuladan foydalaniladi.

7 – misol. Quyidagi limitlarini toping:

1) $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{5n+3}{7n-2}$; 2) $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{4n^2+3n-1}-n}{n-5}$;

3) $\lim\limits_{n\to\infty}\sqrt[3]{n+2}+\sqrt[3]{3-n}$; 4) $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2+6+18+\cdots+2\cdot 3^{n-1}}{4\cdot 3^{n+1}+5}$;

5) $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)!-5n!}{3n!+2(n+1)!}$; 6) $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{3n-1}{3n-2}\right)^{6n+1}$.

1) Ketma-ketlikning surat va maxraji limitga ega emas, chunki ular chegaralanmagan ketma-ketliklar. Shu sababli yaqinlashuvchi ketma-ketlikning 5^o – xossasini qo‘llab bo‘lmaydi. Bunday hollarda avval ketma-ketlikning surat va maxraji n ga bo‘linadi va keyin yaqinlashuvchi ketma-ketlikning kerakli xossalari qo‘llaniladi.

Demak,

$$\lim_{n\to\infty}\frac{5n+3}{7n-2}=\lim_{n\to\infty}\frac{5+\frac{3}{n}}{7-\frac{2}{n}}=\frac{\lim\limits_{n\to\infty}\left(5+\frac{3}{n}\right)}{\lim\limits_{n\to\infty}\left(7-\frac{2}{n}\right)}=\frac{\lim\limits_{n\leftarrow\infty}5+\lim\limits_{n\to\infty}\frac{3}{n}}{\lim\limits_{n\to\infty}7-\lim\limits_{n\to\infty}\frac{2}{n}}=$$

$$=\frac{5+3\lim\limits_{n\to\infty}\frac{1}{n}}{7-2\lim\limits_{n\to\infty}\frac{1}{n}}=\frac{5+3\cdot\frac{1}{\infty}}{7-2\cdot\frac{1}{\infty}}=\frac{5+3\cdot 0}{7-2\cdot 0}=\frac{5}{7}.$$

Keyingi limitlarni topishda avval ketma-ketlikning xossalarini qo‘llashga olib keluvchi almashtirishlar bajaramiz, so‘ngra xossalarni qo‘llaymiz:

$$2)\ \lim_{n\to\infty}\frac{\sqrt{4n^2+3n-1}-n}{n-5}=\lim_{n\to\infty}\frac{\sqrt{4+\frac{3}{n}-\frac{1}{n^2}}-1}{1-\frac{5}{n}}=\frac{\lim\limits_{n\to\infty}\left(\sqrt{4+\frac{3}{n}-\frac{1}{n^2}}-1\right)}{\lim\limits_{n\to\infty}\left(1-\frac{5}{n}\right)}=\frac{\sqrt{4+0-0}-1}{1-0}=1.$$

$$3)\ \lim_{n\to\infty}\sqrt[3]{n+2}+\sqrt[3]{3-n}=\lim_{n\to\infty}\frac{\left(\sqrt[3]{n+2}+\sqrt[3]{3-n}\right)\cdot\left(\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{3-n}\right)}{\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{(3-n)^2}}=$$

$$=\lim_{n\to\infty}\frac{n+2+3-n}{\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{(3-n)^2}}=$$

$$= 5\lim_{n\to\infty}\frac{1}{\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{(3-n)^2}}.$$

$\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{(3-n)^2}$ ketma-ketlik cheksiz katta.

Shu sababli $\dfrac{1}{\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{(3-n)^2}}$ ketma-ketlik cheksiz kichik bo‘ladi.

Bundan

$$\lim_{n\to\infty}\frac{1}{\sqrt[3]{(n+2)^2}-\sqrt[3]{(n+2)(3-n)}+\sqrt[3]{(3-n)^2}}=0.$$

Demak, $\lim\limits_{n\to\infty}\sqrt[3]{n+2}+\sqrt[3]{3-n}=0.$

4) $$\lim_{n\to\infty}\frac{2+6+18+\cdots+2\cdot 3^{n-1}}{4\cdot 3^{n+1}+5}=\lim_{n\to\infty}\frac{2\cdot\dfrac{1-3^n}{1-3}}{4\cdot 3\cdot 3^n+5}=\lim_{n\to\infty}\frac{3^n-1}{12\cdot 3^n+5}=$$

$$=\lim_{n\to\infty}\frac{1-\dfrac{1}{3^n}}{12+\dfrac{5}{3^n}}=\left(\frac{1-0}{12+0}\right)=\frac{1}{12}.$$

5) $$\lim_{n\to\infty}\frac{(n+1)!-5n!}{3n!+2(n+1)!}=\lim_{n\to\infty}\frac{n!(n+1-5)}{n!(3+2n+2)}=\lim_{n\to\infty}\frac{n-4}{2n+5}=\lim_{n\to\infty}\frac{1-\dfrac{4}{n}}{2+\dfrac{5}{n}}=\frac{1-0}{2+0}=\frac{1}{2}.$$

6) $$\lim_{n\to\infty}\left(\frac{3n-1}{3n-2}\right)^{6n+1}=\lim_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{3n-2}\right)^{6n+1}=\lim_{n\to\infty}\left(\left(1+\frac{1}{3n-2}\right)^{3n-2}\right)^{\frac{6n+1}{3n-2}}$$

$f(n)=3n-2$ deb olsak, $n\to\infty$ da $f(n)\to\infty.$ Shu sababli ichki qavs uchun (2.1) formulani va tashqi qavs uchun yaqinlashuvchi ketma-ketlikning 4^o –xossasini qo‘llab, topamiz:

$$\lim_{n\to\infty}\left(\left(1+\frac{1}{3n-2}\right)^{3n-2}\right)^{\frac{6n+1}{3n-2}}=e^{\lim\limits_{n\to\infty}\frac{6n+1}{3n-2}}=e^{\lim\limits_{n\to\infty}\frac{6+\frac{1}{n}}{3-\frac{2}{n}}}=e^{\frac{6+0}{3-0}}=e^2.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

5.2.1. Ketma-ketlikning birinchi to‘rtta hadi berilgan. Uning umumiy hadini toping:

1) $\frac{1}{2},\frac{1}{5},\frac{1}{8},\frac{1}{11},...;$ 2) $5,\frac{25}{2},\frac{125}{6},\frac{625}{24},...;$

3) $-1,1,-1,1,...;$ 4) $1,5,1,5,....$

5.2.2. Chegaralangan ketma-ketliklarni ko‘rsating:

1) $x_n=\frac{n}{2+n^2};$ 2) $x_n=\cos n\pi+2tgn\pi;$

3) $x_n=\frac{1-n}{\sqrt{n}};$ 4) $x_n=\sqrt{n^2+1}-n.$

5) $x_n=(-1)^n\cdot n;$ 6) $x_n=\ln(n+1)-\ln n.$

5.2.3. Ketma-ketliklardan qaysilari monoton va qaysilari qat’iy monoton?

1) $x_n=\frac{n}{3n-2};$ 2) $x_1=1, x_n=\frac{2}{x_{n-1}+1};$

3) $x_n=\frac{3^n}{n};$ 4) $x_n=\frac{n}{5^n}.$

5) $x_n=\lfloor\sqrt{n}\rfloor;$ 6) $x_n=\frac{3^n}{n!}.$

5.2.4. $1,\frac{1}{7},\frac{1}{17},...,\frac{1}{2n^2-1}$ ketma-ketlik cheksiz kichik ekanini isbotlang.

5.2.5. $\frac{17}{14},\frac{37}{29},\frac{65}{50},...,\frac{4n^2+1}{3n^2+2}$ ketma-ketlik $\frac{4}{3}$ ga teng limitga ega ekanligini ketma-ketlikning limiti ta’rifidan foydalanib isbotlang.

5.2.6. Ketma-ketlikning limitini toping:

1) $x_n=\frac{5-n^2}{3+2n^2};$ 2) $x_n=\frac{3n^2+2}{4-n^3};$

3) $x_n=\frac{3n+n^3}{2n^2+3n+7};$ 4) $x_n=\left(\frac{2n^2+3n-1}{n^2-2n+1}\right)^3;$

5) $x_n = \frac{(n+2)^2 - (2-n)^2}{2n+7}$;

6) $x_n = \frac{(n+1)^3 - (n-1)^3}{3n^2+2}$;

7) $x_n = \frac{3n^3}{1+3n^2} + \frac{1-5n^2}{5n+1}$;

8) $x_n = \frac{3}{n+2} - \frac{5n}{2n+1}$;

9) $x_n = \sqrt{n+2} - \sqrt{n-2}$;

10) $x_n = \sqrt{n^2+n} - \sqrt{n^2-n}$;

11) $x_n = \sqrt{n(n-5)} - n$;

12) $x_n = \sqrt[3]{n^3 - 4n^2} - n$;

13) $x_n = \frac{2n+1}{\sqrt[3]{n^2+n+5}}$;

14) $x_n = \frac{\sqrt[3]{n^4-1}}{\sqrt{n+1}}$;

15) $x_n = \frac{n!+(n+1)!}{(n+1)!-2n!}$;

16) $x_n = \frac{(2n+1)!+(2n+2)!}{(2n+3)!-(2n+2)!}$;

17) $x_n = \frac{2-5+4-7+\ldots+2n-(2n+3)}{n+5}$;

18) $x_n = \frac{1+2+3+\ldots+n}{n^2-2n+1}$;

19) $x_n = \frac{1}{1\cdot 7} + \frac{1}{7\cdot 13} + \ldots + \frac{1}{(6n-5)(6n+1)}$;

20) $x_n = \frac{1}{2\cdot 4} + \frac{1}{4\cdot 6} + \ldots + \frac{1}{2n(2n+2)}$;

21) $x_n = \frac{3^{\frac{1}{n}} - 1}{3^{\frac{1}{n}} + 1}$.

22) $x_n = \frac{6\cdot 6^n + 5}{2\cdot 3^n + 1} - 3^{n+1}$;

23) $x_n = \frac{3}{4} + \frac{5}{16} + \frac{9}{64} + \ldots + \frac{1+2^n}{4^n}$;

24) $x_n = \frac{1+3+9+\ldots+3^{n-1}}{2\cdot 3^{n+2} + 5}$;

25) $x_n = \frac{1}{n}\cos n^2 - \frac{3n}{6n+1}$;

26) $x_n = \frac{1}{n}\sin n^3 + \frac{2n^2}{n^2-1}$;

27) $x_n = \left(1 - \frac{1}{n}\right)^n$;

28) $x_n = \left(\frac{n-1}{1+n}\right)^{2n-5}$;

29) $x_n = \left(\frac{2n+1}{2n-1}\right)^{3n-4}$;

30) $x_n = \left(\frac{n^2-1}{n^2+1}\right)^{3n-n^2}$.

5.3. FUNKSIYANING LIMITI

Funksiyaning limiti. Limitlar haqidagi teoremalar. Ajoyib limitlar

5.3.1. Agar $\forall\varepsilon>0$ son uchun shunday $\delta=\delta(\varepsilon)>0$ son topilsaki, $x$ning $|x-x_0|<\delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x\in R,\ x\neq x_0$ qiymatlarida $|f(x)-A|<\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, A soniga $f(x)$ funksiyaning x_0 *nuqtadagi* yoki $x\to x_0$ *dagi limiti* deyiladi va $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)=A$ kabi yoziladi.

Bu ta'rif funksiya limitining Koshi ta'rifi deb yuritiladi.

1 – misol. $\lim\limits_{x\to 2}(5x-6)=4$ ekanini ta'rif orqali isbotlang.

$\forall\varepsilon>0$ son olamiz. $\delta=\delta(\varepsilon)>0$ sonini shunday tanlaymizki $|x-2|<\delta$ da $|f(x)-4|<\varepsilon$ bo‘lsin.

U holda $|f(x)-4|=|(5x-6)-4|=|5x-10|=|5(x-2)|=5|x-2|<\varepsilon$ bo‘ladi.

Bundan $|x-2|<\dfrac{\varepsilon}{5}$. Agar $\delta(\varepsilon)=\dfrac{\varepsilon}{5}$ deb olsak, $|x-2|<\delta$ da $|f(x)-4|<\varepsilon$ bo‘ladi.

Demak,

$$\lim_{x\to 2}(5x-2)=4.$$

Agar $\forall\varepsilon>0$ son uchun shunday $\delta=\delta(\varepsilon)>0$ son topilsaki, x ning $x_0<x<x_0+\delta$ $(x_0-\delta<x<x_0)$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x\in R,\ x\neq x_0$ qiymatlarida $|f(x)-A|<\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, A soniga $f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtadagi *o‘ng* (*chap*) *limiti* deyiladi va $\lim\limits_{x\to x_0+0} f(x)=A$ yoki $f(x+0)=A$ ($\lim\limits_{x\to x_0-0} f(x)=A$ yoki $f(x-0)=A$) kabi belgilanadi.

$f(x)$ funksiyaning $x_0$nuqtadagi o‘ng va chap limitlari *bir tomonlama limitlar* deyiladi. Agar $f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtadagi o‘ng va chap limitlari mavjud va ular o‘zaro teng, ya'ni $f(x_0+0)=f(x_0-0)=A$ bo‘lsa, $f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtadagi limiti mavjud va $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)=A$ bo‘ladi.

Agar $\forall\varepsilon>0$ son uchun shunday $\delta=\delta(\varepsilon)>0$ son topilsaki, x ning $x>\delta\ (x<-\delta)$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x\in R,\ x\neq x_0$ qiymatlarida $|f(x)-A|<\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, A soniga $f(x)$ funksiyaning $x\to+\infty\ (x\to-\infty)$ dagi limiti deyiladi va $\lim\limits_{x\to+\infty}f(x)=A\ (\lim\limits_{x\to-\infty}f(x)=A)$ kabi belgilanadi.

5.3.2. Limitlar haqidagi teoremalar.

1-teorema. Ikkita funksiya algebraik yig‘indisining limiti bu funksiyalar limitlarining algebraik yig‘indisiga teng, ya’ni

$$\lim_{x\to x_0}\big(f(x)\pm g(x)\big)=\lim_{x\to x_0}f(x)\pm\lim_{x\to x_0}g(x).$$

2-teorema. Ikkita funksiya ko‘paytmasining limiti bu funksiyalar limitlarining ko‘paytmasiga teng, ya’ni

$$\lim_{x\to x_0}(f(x)\cdot g(x))=\lim_{x\to x_0}f(x)\cdot\lim_{x\to x_0}g(x).$$

1-natija. Funksiya $x\to x_0$ da yagona limitga ega bo‘ladi.

2-natija. $\lim\limits_{x\to x_0}C=C$, $C-$o‘zgarmas funksiya.

3-natija. $\lim\limits_{x\to x_0}(k\cdot f(x))=k\cdot\lim\limits_{x\to x_0}f(x)$, $k\in R.$

4-natija. $\lim\limits_{x\to x_0}(f(x))^k=(\lim\limits_{x\to x_0}f(x))^k$, $\lim\limits_{x\to x_0}\sqrt[k]{f(x)}=\sqrt[k]{\lim\limits_{x\to x_0}f(x)}$, $k=1,2,3,....$

3-teorema. Ikki funksiya bo‘linmasining limiti bu funksiyalar limitlarining nisbatiga teng, ya’ni

$$\lim_{x\to x_0}\frac{f(x)}{g(x)}=\frac{\lim\limits_{x\to x_0}f(x)}{\lim\limits_{x\to x_0}g(x)},\quad \lim_{x\to x_0}g(x)\neq 0.$$

4-teorema. Agar x_0 nuqtaning biror atrofidagi barcha x lar uchun $f(x)\le\varphi(x)\le g(x)$ tengsizlik bajarilsa va $\lim\limits_{x\to x_0}f(x)=\lim\limits_{x\to x_0}g(x)=A$ bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{x\to x_0}\varphi(x)=A$ bo‘ladi.

5-teorema. Agar x_0 nuqtaning biror atrofidagi barcha x lar uchun $f(x)\le g(x)$ tengsizlik bajarilsa va $f(x),\ g(x)$ funksiyalar $x\to x_0$ da limitga ega bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{x\to x_0}f(x)\le\lim\limits_{x\to x_0}g(x)$ bo‘ladi.

6-teorema. $\lim_{x\to x_0} g(x)=0,\quad \lim_{x\to x_0} f(x)=C\neq 0$ bo‘lsin. U holda:

1) agar $|x-x_0|<\delta$ $(\delta>0)$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha x lar uchun $\dfrac{f(x)}{g(x)}>0$ bo‘lsa, $\lim_{x\to x_0}\dfrac{f(x)}{g(x)}=+\infty$ bo‘ladi;

2) agar $|x-x_0|<\delta$ $(\delta>0)$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha x lar uchun $\dfrac{f(x)}{g(x)}<0$ bo‘lsa, $\lim_{x\to x_0}\dfrac{f(x)}{g(x)}=-\infty$ bo‘ladi.

5.3.3. *Birinchi ajoyib limit*

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}=1.$$

Ikkinchi ajoyib limit

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^x=e.$$

Ajoyib limitlar va limitlar haqidagi teoremalar asosida quyidagi formulalar hosil qilingan:

1. $\lim_{x\to 0}\dfrac{\sin kx}{kx}=\lim_{x\to 0}\dfrac{tgkx}{kx}=\lim_{x\to 0}\dfrac{shkx}{kx}=\lim_{x\to 0}\dfrac{thkx}{kx}=1,\ k\in R.$
2. $\lim_{x\to 0}\dfrac{(1+kx)^m-1}{kx}=m\ (m>0).$
3. $\lim_{x\to 0}\dfrac{\ln(1+kx)}{kx}=1.$
4. $\lim_{x\to 0}\dfrac{a^{kx}-1}{kx}=\ln a\ (a>0).$
5. $\lim_{x\to 0}\dfrac{e^{kx}-1}{kx}=1.$
6. $\lim_{x\to 0}x^{\alpha}\ln x=\lim_{x\to+\infty}x^{-\alpha}\ln x=\lim_{x\to+\infty}x^{\alpha}e^{-x}=0\ (a>0).$
7. $\lim_{x\to\infty}\left(1+\dfrac{k}{x}\right)^x=e.^k$
8. $\lim_{x\to 0}(1+x)^{\frac{k}{x}}=e.^k$

9. $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\dfrac{1}{f(x)}\right)^{f(x)}=e,$ bu yerda $x\to\infty$ da $f(x)\to\infty$.

10. $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+f(x)\right)^{\frac{1}{f(x)}}=e,$ bu yerda $x\to 0$ da $f(x)\to 0$.

$2-$misol. Limitlarni toping:

1) $\lim\limits_{x\to -1}\dfrac{2x^2-1}{4x^2+5x+2}$;

2) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{x^2-9}{x^2+2x-15}$;

3) $\lim\limits_{x\to 7}\dfrac{\sqrt{x-3}-2}{x-7}$;

4) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{\sqrt{x}-1}{\sqrt[3]{x}-1}$;;

5) $\lim\limits_{x\to 3}\left(\dfrac{1}{x-3}-\dfrac{27}{x^3-27}\right)$

6) $\lim\limits_{x\to +\infty}\left(\sqrt{x^2+9}-x\right)$;

7) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{3x}{\sin 5x}$;

8) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\arcsin x}{x}$;

9) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{2x+5}{2x+4}\right)^{1-4x}$;

10) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{e^{2x}-1}{tg 3x}$.

1) Limitlar haqidagi teoremalardan foydalanib, topamiz:

$$\lim_{x\to -1}\frac{2x^2-1}{4x^2+5x+2}=\frac{\lim\limits_{x\to -1}(2x^2-1)}{\lim\limits_{x\to -1}(4x^2+5x+2)}=\frac{\lim\limits_{x\to -1}2x^2-\lim\limits_{x\to -1}1}{\lim\limits_{x\to -1}4x^2+\lim\limits_{x\to -1}5x+\lim\limits_{x\to -1}2}=$$

$$=\frac{2\lim\limits_{x\to -1}x^2-1}{4\lim\limits_{x\to -1}x^2+5\lim\limits_{x\to -1}x+2}=\frac{2(\lim\limits_{x\to -1}x)^2-1}{4(\lim\limits_{x\to -1}x)^2+5\lim\limits_{x\to -1}x+2}=\frac{2(-1)^2-1}{4(-1)^2+5(-1)+2}=1.$$

2) Bu limit uchun ikki funksiya bo‘linmasining limiti haqidagi teoremani qo‘llab bo‘lmaydi, chunki $x\to 3$ da kasrning maxraji nolga teng bo‘ladi. Bundan tashqari suratning limiti nolga teng. Bunday hollarda $\dfrac{0}{0}$ ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan deyiladi. Bu aniqmaslikni ochish uchun kasrning surati va maxrajini ko‘paytuvchilarga ajratamiz va kasrni $x-3\neq 0$ ($x\to 3$, lekin $x\neq 3$) ga bo‘lib, topamiz:

$$\lim_{x\to 3}\frac{(x-3)(x+3)}{(x-3)(x+5)}=\lim_{x\to 3}\frac{x+3}{x+5}=\frac{6}{8}=\frac{3}{4}.$$

3) $x \to 7$ da $\frac{0}{0}$ ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan. Kasrning surat va maxrajini $\sqrt{x-3}+2$ ko‘paytirib, topamiz:

$$\lim_{x\to 7}\frac{(\sqrt{x-3}-2)(\sqrt{x-3}+2)}{(x-7)(\sqrt{x-3}+2)}=\lim_{x\to 7}\frac{x-3-4}{(x-7)(\sqrt{x-3}+2)}=$$

$$=\lim_{x\to 7}\frac{x-7}{(x-7)(\sqrt{x-3}+2)}=\lim_{x\to 7}\frac{1}{\sqrt{x-3}+2}=\frac{1}{\sqrt{7-3}+2}=\frac{1}{4}.$$

4) $t^6 = x$ almashtirish bajaramiz. Bunda $x \to 1$ da $t \to 1$. U holda

$$\lim_{x\to 1}\frac{\sqrt{x}-1}{\sqrt[3]{x}-1}=\lim_{t\to 1}\frac{t^3-1}{t^2-1}=\lim_{t\to 1}\frac{(t-1)(t^2+t+1)}{(t-1)(t+1)}=\lim_{t\to 1}\frac{t^2+t+1}{t+1}=\frac{3}{2}.$$

5) $x \to 3$ da $\infty-\infty$ ko‘rinishdagi aniqmaslik kelib chiqadi. U holda

$$\lim_{x\to 3}\left(\frac{1}{x-3}-\frac{27}{x^3-27}\right)=\lim_{x\to 3}\frac{x^2+3x-18}{x^3-27}=$$

$$=\lim_{x\to 3}\frac{(x-3)(x+6)}{(x-3)(x^2+3x+9)}=\lim_{x\to 3}\frac{x+6}{x^2+3x+9}=\frac{1}{3}.$$

6) $x \to +\infty$ da $\infty-\infty$ ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan. Kasrning surat va maxrajini $\sqrt{x^2+9}+x$ ko‘paytirib, topamiz:

$$\lim_{x\to +\infty}\frac{(\sqrt{x^2+9}-x)(\sqrt{x^2+9}+x)}{\sqrt{x^2+9}+x}=\lim_{x\to +\infty}\frac{x^2+9-x^2}{\sqrt{x^2+9}+x}=$$

$$=\lim_{x\to +\infty}\frac{\frac{9}{x}}{\sqrt{1+\frac{9}{x}}+1}=\frac{\frac{9}{\infty}}{\sqrt{1+\frac{9}{\infty}}+1}=\frac{0}{\sqrt{1+0}+1}=0.$$

7) $x \to 0$ da $\frac{0}{0}$ ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan. Almashtirishlar bajaramiz:

$$\lim_{x\to 0}\frac{3x}{\sin 5x}=\lim_{x\to 0}\frac{\frac{3}{5}}{\frac{\sin 5x}{5x}}=\frac{3}{5}\cdot\frac{1}{\lim\limits_{x\to 0}\frac{\sin 5x}{5x}}.$$

Yuqorida keltirilgan 1-formulaga ko‘ra $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\sin 5x}{5x}=1.$

Demak,

$$\lim_{x\to 0}\frac{3x}{\sin 5x}=\frac{3}{5}\cdot\frac{1}{1}=\frac{3}{5}.$$

8) $x\to 0$ da $\frac{0}{0}$ ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan. $t=\arcsin x$ almashtirish bajaramiz. Bunda $x\to 0$ da $t\to 0$. U holda

$$\lim_{x\to 0}\frac{\arcsin x}{x}=\lim_{t\to 0}\frac{t}{\sin t}=\lim_{t\to 0}\frac{1}{\frac{\sin t}{t}}=\frac{1}{\lim\limits_{t\to 0}\frac{\sin t}{t}}=\frac{1}{1}=1.$$

9) $x\to\infty$ da 1^{∞} ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan.

Kasrning butun qismini ajratib, almashtirishlar bajaramiz:

$$\left(1+\frac{1}{2x+4}\right)^{1-4x}=\left(\left(1+\frac{1}{2x+4}\right)^{2x+4}\right)^{\frac{1-4x}{2x+4}}.$$

$x\to\infty$ da $2x+4\to\infty$ bo‘lgani sababli yuqorida keltirilgan 9-formulaga ko‘ra

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{2x+4}\right)^{2x+4}=e.$$

U holda

$$\lim_{x\to\infty}\frac{1-4x}{2x+4}=\lim_{x\to\infty}\frac{\frac{1}{x}-4}{2+\frac{4}{x}}=\frac{0-4}{2+0}=-2 \text{ ekanidan } \lim_{x\to\infty}\left(\frac{2x+5}{2x+4}\right)^{1-4x}=e^{-2}=\frac{1}{e^{2}}.$$

10) $x\to 0$ da $\frac{0}{0}$ ko‘rinishdagi aniqmaslik berilgan. Almashtirishlar bajaramiz:

$$\lim_{x\to 0}\frac{e^{2x}-1}{tg3x}=\lim_{x\to 0}\frac{\frac{e^{2x}-1}{2x}\cdot 2x}{\frac{tg3x}{3x}\cdot 3x}=\frac{2}{3}\cdot\frac{\lim\limits_{x\to 0}\frac{e^{2x}-1}{2x}}{\lim\limits_{x\to 0}\frac{tg3x}{3x}}.$$

Kasrning suratiga yuqorida keltirilgan $5-$formulani va maxrajiga $1-$formulani qo‘llaymiz.

U holda

$$\lim_{x\to 0}\frac{e^{2x}-1}{tg3x}=\frac{2}{3}\cdot\frac{1}{1}=\frac{2}{3}.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

5.3.1. Funksiyaning limiti ta'rifi yordamida isbotlang:

1) $\lim\limits_{x\to 2}(2x-3)=1;$ 2) $\lim\limits_{x\to -1}(1-3x)=4;$

3) $\lim\limits_{x\to 1}x^2=1;$ 4) $\lim\limits_{x\to 3}\left(\dfrac{2}{4-x}\right)=2.$

5.3.2. $f(x)$ funksiyaning $x=x_0$ nuqtalardagi chap va o'ng limitlarini toping:

1) $f(x)=[x],\ x_0=3;$ 2) $f(x)=2^{\frac{1}{x}},\ x_0=0;$

3) $f(x)=\begin{cases} x & agar\ x<2\ bo‘lsa, \\ x^2-4 & agar\ x\ge 2\ bo‘lsa, \end{cases}\ x_0=2;$ 4) $f(x)=\dfrac{2(1-x)-|1-x|}{4(1-x)+|1-x|},\ x_0=1.$

5.3.3. $f(x)=signx$ funksiyaning $x_0=0$ nuqtada limitga ega emasligini ko'rsating.

5.3.4. $f(x)=x-[x]$ funksiyaning $x_0=2$ nuqtada limitga ega emasligini ko'rsating.

5.3.5. Limitlarni toping:

1) $\lim\limits_{x\to -3}(2x^2+3x-1);$ 2) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{3^x-9}{3^x+9};$

3) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{x^2-9}{x^2-2x-3};$ 4) $\lim\limits_{x\to 5}\dfrac{x^2-7x+10}{2x^2-11x+5};$

5) $\lim\limits_{x\to 4}\dfrac{\sqrt{1+2x}-3}{\sqrt{x}-2};$ 6) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{\sqrt{2-x}-1}{\sqrt{5-x}-2};$

7) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt[3]{8-x}-2}{x};$ 8) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt[3]{1+x}-1}{x};$

9) $\lim\limits_{x\to -1}\dfrac{x^3+4x^2+6x+3}{2x^2+3x+1};$ 10) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^2+x-2}{x^3-x^2-x+1};$

11) $\lim\limits_{x\to 2}\left(\dfrac{2x+1}{x-2}-\dfrac{x-7}{x^2-5x+6}\right);$ 12) $\lim\limits_{x\to -1}\left(\dfrac{3}{x^3-1}+\dfrac{1}{1-x}\right);$

13) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{4x^4-3x+2}{x^2-3x^4}$;

14) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{3x^5-4}{x^3+3x-x^5}$;

15) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^3+2x}{x^4-2x^2+3}$;

16) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^5-2x^2}{2x^3+x-4}$;

17) $\lim\limits_{x\to+\infty}x(\sqrt{4x^2-1}-2x)$;

18) $\lim\limits_{x\to-\infty}(\sqrt{x^2-4}+x)$;

19) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x^3}{x^2-2}-x\right)$;

20) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x^3}{5x^2+1}-\dfrac{x^2}{5x+2}\right)$;

21) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tg2x}{x}$;

22) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{x-\sin x}{x+\sin x}$;

23) $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\left(\dfrac{\pi}{2}-x\right)tgx$;

24) $\lim\limits_{x\to\pi}\dfrac{\sin 3x}{\sin 2x}$;

25) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1-\cos^3 x}{x\sin 2x}$;

26) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tgx-\sin x}{x^3}$;

27) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin 3x}{\sqrt{x+2}-\sqrt{2}}$;

28) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{2}-\sqrt{1+\cos x}}{\sin^2 x}$;

29) $\lim\limits_{x\to 0}\left(\dfrac{1}{\sin x}-ctgx\right)$;

30) $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\left(tgx-\dfrac{1}{\cos x}\right)$;

31) $\lim\limits_{x\to 1}(x-1)ctg\pi x$;

32) $\lim\limits_{x\to\frac{1}{2}}\left(\dfrac{1}{2}-x\right)tg\pi x$;

33) $\lim\limits_{x\to -1}\dfrac{\arcsin(x+1)}{x^2+x}$;

34) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{arctg(x-2)}{x^2-2x}$;

35) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{2x-1}{2x+1}\right)^{3x-2}$;

36) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{3x-4}{3x+2}\right)^{\frac{4-x}{2}}$;

37) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{3x-2}{x+3}\right)^{x-4}$;

38) $\lim\limits_{x\to-\infty}\left(\dfrac{2x+3}{x+2}\right)^{4x}$;

39) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{e^x-e^2}{x-2}$;

40) $\lim\limits_{x\to e}\dfrac{\ln x-1}{x-e}$;

41) $\lim\limits_{x\to 0}(1+\sin x)^{\frac{1}{x}}$;

42) $\lim\limits_{x\to 0}(\cos 2x)^{1+ctg^2 x}$;

43) $\lim\limits_{x\to 1}(3-2x)^{\frac{x}{2(1-x)}}$;

44) $\lim\limits_{x\to 2}(3-x)^{\frac{2x-3}{2-x}}$.

45) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{e^{2x}-e^{3x}}{tgx-2\sin x}$;

46) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{e^{3x}-e^x}{\arcsin x+3x}$;

47) $\lim\limits_{x\to+\infty}x(\ln(x+1)-\ln x)$;

48) $\lim\limits_{x\to+\infty}(4x+1)(\ln(3x+2)-\ln(3x-1))$.

5.4. CHEKSIZ KICHIK FUNKSIYALAR

Cheksiz kichik funksiyalar. Cheksiz kichik funksiyalarni taqqoslash. Ekvivalent cheksiz kichik funksiyalar

5.4.1. Agar $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)=0$ bo‘lsa, $f(x)$ funksiyaga x_0 *nuqtada* yoki $x\to x_0$ *da cheksiz kichik funksiya* deyiladi.

Chekli sondagi cheksiz kichik funksiyalarning algebraik yig‘indisi va ko‘paytmasi cheksiz kichik funksiya bo‘ladi. Shuningdek, cheksiz kichik funksiyaning chegaralangan funksiyaga va chekli songa ko‘paytmasi cheksiz kichik funksiya bo‘ladi.

Agar $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)=A$ bo‘lsa, $\alpha(x)=f(x)-A$ funksiya x_0 nuqtada cheksiz kichik bo‘ladi.

Agar $\forall\varepsilon>0$ son uchun shunday $\delta=\delta(\varepsilon)>0$ son topilsaki, $x$ning $|x-x_0|<\delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x\in R,\ x\neq x_0$ qiymatlarida $|f(x)|>\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $f(x)$ funksiyaga x_0 *nuqtada* yoki $x\to x_0$ *da cheksiz katta funksiya* deyiladi.

Bu holda $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)=\infty$ deb yoziladi va $f(x)$ funksiya $x\to x_0$ da cheksizlikka intiladi yoki $x=x_0$ nuqtada cheksiz limitga ega bo‘ladi deyiladi.

Agar $f(x)$ cheksiz katta funksiya bo‘lsa, u holda $\dfrac{1}{f(x)}$ cheksiz kichik funksiya bo‘ladi va aksincha, agar $f(x)$ cheksiz kichik funksiya bo‘lsa, u holda $\dfrac{1}{f(x)}$ cheksiz katta funksiya bo‘ladi.

$1-$misol. $f(x)=(x-3)^2\cos\left(\dfrac{1}{x-3}\right)$ funksiya $x\to 3$da cheksiz kichik bo‘lishini ko‘rsating.

$\lim\limits_{x\to 3}(x-3)=0$ ekanidan $\alpha(x)=(x-3)^2$ funksiya cheksiz kichik.

$\beta(x)=\cos\left(\dfrac{1}{x-3}\right),\ x\neq 3$ funksiya chegaralangan, chunki $\left|\cos\left(\dfrac{1}{x-3}\right)\right|\leq 1$.

$f(x)$ funksiya cheksiz kichik $\alpha(x)$ funksiyaning chegaralangan $\beta(x)$ funksiyaga ko‘paytmasidan iborat. Shu sababli u cheksiz kichik funksiya bo‘ladi.

5.4.2. Cheksiz kichik funksiyalar bir-biri bilan nisbati yordamida taqqoslanadi.

$\alpha(x)$ va $\beta(x)$ funksiyaar $x \to x_0$ da cheksiz kichik funksiyalar bo‘lsin.

1. Agar $\lim\limits_{x\to x_0}\frac{\alpha(x)}{\beta(x)} = A \neq 0\ (A - chekli\ son)$ bo‘lsa, $\alpha(x)$ va $\beta(x)$ funksiyalarga *bir xil tartibli cheksiz kichik funksiyalar* deyiladi.

2. Agar $\lim\limits_{x\to x_0}\frac{\alpha(x)}{\beta(x)} = 0$ bo‘lsa, $\alpha(x)$ funksiya $\beta(x)$ funksiyaga nisbatan *yuqori tartibli cheksiz kichik funksiya* deyiladi va $\alpha = o(\beta)$ deb yoziladi.

3. Agar $\lim\limits_{x\to x_0}\frac{\alpha(x)}{\beta(x)} = \infty$ bo‘lsa, $\alpha(x)$ funksiya $\beta(x)$ funksiyaga nisbatan *quyi tartibli cheksiz kichik funksiya* deyiladi.

4. Agar $\lim\limits_{x\to x_0}\frac{\alpha(x)}{\beta(x)}$ mavjud bo‘lmasa, $\alpha(x)$ va $\beta(x)$ funksiyalarga *taqqoslanmaydigan cheksiz kichik funksiyalar* deyiladi.

5.4.3. Agar $\lim\limits_{x\to x_0}\frac{\alpha(x)}{\beta(x)} = 1$ bo‘lsa, u holda $x \to x_0$ da $\alpha(x)$ va $\beta(x)$ *ekvivalent cheksiz kichik funksiyalar* deyiladi va $\alpha(x) \sim \beta(x)$ kabi belgilanadi.

1^o. Agar ikkita cheksiz kichik funksiya nisbatida cheksiz kichik funksiyalarning har ikkalasini yoki ulardan bittasini ekvivalent cheksiz kichik funksiya bilan almashtirilsa, bu nisbatning limiti o‘zgarmaydi.

2^o. Chekli sondagi har xil tartibli cheksiz kichik funksiyalarning yig‘indisi quyi tartibli qo‘shiluvchiga ekvivalent bo‘ladi.

Cheksiz kichik funksiyalarning yig‘indisiga ekvivalent bo‘lgan cheksiz kichik funksiyaga *bu yig‘indining bosh qismi* deyiladi. Cheksiz kichik funksiyalarning yig‘indisini uning bosh qismi bilan almashtirish *yuqori tartibli cheksiz kichik funksiyalarni tashlab yuborish* deb yuritiladi.

$2-$misol. $\lim\limits_{x\to 0}\frac{2x+5x^2+3x^4}{\sin x}$ limitni toping.

$x \to 0$ da $2x+5x^2+3x^4$ funksiyaning bosh qismi $2x$ dan iborat. Shu sababli $x \to 0$ da $2x+5x^2+3x^4 \sim 2x$ va 1-ajoyib limitga ko‘ra $\sin x \sim x$.

Demak,

$$\lim_{x\to 0}\frac{2x+5x^2+3x^4}{\sin x} = \lim_{x\to 0}\frac{2x}{x} = \lim_{x\to 0} 2 = 2.$$

$$y' = \frac{1}{3}\cdot 3x^2 - 2\cdot(-2)x^{-3} + 0 + 2\cdot\frac{3}{2}x^{\frac{1}{2}} + 3\cdot\frac{1}{6}x^{-\frac{5}{6}} - 4\cdot\left(-\frac{1}{2}\right)x^{-\frac{3}{2}} =$$

$$= x^2 + \frac{4}{x^3} + 3\sqrt{x} + \frac{1}{2\sqrt[6]{x^5}} + \frac{2}{x\sqrt{x}}.$$

2) Differensiallash qoidalari va formulalarini qo‘llab topamiz:

$$y' = \left(\frac{x^2+3^x}{xe^x}\right)' = \frac{(x^2+3^x)'xe^x - (xe^x)'(x^2+3^x)}{x^2e^{2x}} =$$

$$= \frac{(2x+3^x\ln 3)xe^x - (x'e^x + (e^x)'x)(x^2+3^x)}{x^2e^{2x}} = \frac{(2x+3^x\ln 3)xe^x - (1+x)e^x\left(x^2+3^x\right)}{x^2e^{2x}} =$$

$$= \frac{2x^2 + 3^x x\ln 3 - x^2 - 3^x - x^3 - 3^x x}{x^2e^x} = \frac{3^x(x\ln 3 - x - 1) + x^2(1-x)}{x^2e^x}.$$

3) $y' = (e^x\, arctg\, x - 2\sqrt{x}\cos x + x\log_2 x)' =$

$$= (e^x)'arctgx + e^x(arctgx)' - 2(\sqrt{x})'\cos x - 2\sqrt{x}(\cos x)' + x'\log_2 x + x(\log_2 x)' =$$

$$= e^x arctgx + e^x\cdot\frac{1}{1+x^2} - \frac{\cos x}{\sqrt{x}} + 2\sqrt{x}\sin x + \log_2 x + \frac{x}{x\ln 2} =$$

$$= e^x\left(arctgx + \frac{1}{1+x^2}\right) + \frac{2x\sin x - \cos x}{\sqrt{x}} + \log_2(ex).$$

4) Murakkab funksiyani differensiallash qoidasidan foydalanamiz:

$$y' = (arctg^4 x)' = 4arctg^3 x\cdot(arctgx)' = 4arctg^3 x\cdot\frac{1}{1+x^2} = \frac{4arctg^3 x}{1+x^2}.$$

5) logarifmik ifodani soddalashtiramiz:

$$y = \log_4\sin^{\frac{2}{3}}3x = \frac{2}{3}\log_4\sin 3x.$$

Murakkab funksiyani differensiallaymiz:

$$y' = \frac{2}{3}\cdot\frac{1}{\sin 3x\cdot\ln 4}\cdot\cos 3x\cdot 3 = \frac{2\cos 3x}{\sin 3x}\cdot\log_4 e = 2\log_4 e\cdot ctg3x.$$

6) $y = th\frac{x}{2} + cth\frac{x}{2} + \ln(2shx) + \ln(chx) = th\frac{x}{2} + cth\frac{x}{2} + \ln(sh2x).$

U holda

$$y' = \frac{1}{ch^2\frac{x}{2}}\cdot\frac{1}{2} - \frac{1}{sh^2\frac{x}{2}}\cdot\frac{1}{2} + \frac{1}{sh2x}\cdot ch2x\cdot 2 =$$

$$=\frac{1}{2}\left(\frac{sh^2\frac{x}{2}-ch^2\frac{x}{2}}{sh^2\frac{x}{2}ch^2\frac{x}{2}}\right)+2cth2x=2cth2x-\frac{2}{sh^2x}.$$

7) $y = Arshx$ funksiyaga teskari funksiya $x = shy$. Teskari funksiyani differensiallash qoidasiga ko‘ra

$$y' = (Arshx)' = \frac{1}{(shy)'_y} = \frac{1}{chy} = \frac{1}{\sqrt{1+sh^2y}} = \frac{1}{\sqrt{1+x^2}}.$$

8) $y = |arctgx|$ funksiyani

$$y=\begin{cases} actgx \ agar \ x \geq 0 \ bo‘lsa, \\ -arctgx \ agar \ x<0 \ bo‘lsa \end{cases}$$

ko‘rinishda yozib olamiz.
U holda

$$y=\begin{cases} \frac{1}{1+x^2} \ agar \ x \geq 0 \ bo‘lsa, \\ -\frac{1}{1+x^2} \ agar \ x<0 \ bo‘lsa. \end{cases}$$

6.1.4. Funksiyani avval logarifmlab, so‘ngra differensiallashga *logarifmik differensiallash* deyiladi.

4 – misol. $y = \frac{(x^3+1)\cdot\sqrt[5]{(x-2)^4}\cdot 2^x}{(x-4)^3}$ funksiyaning hosilasini toping.

Bu hosilani differensiallash qoidalari va formulalaridan foydalanib topish mumkin. Bu jarayonda bir qancha almashinishlar bajarishga hamda differensiallash qoidalari va formulalarini qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Shu sababli bu jarayonni engillashtirish uchun logarifmik differensiallash qoidasidan foydalaniladi.

Funksiyani logarifmlaymiz:

$$\ln y = \ln\left(x^3+1\right) + \frac{4}{5}\ln(x-2) + x\ln 2 - 3\ln(x-4).$$

Tenglikning har ikkala tomonini x bo‘yicha differensiallaymiz:

$$\frac{1}{y}\cdot y' = \frac{1}{x^3+1}\cdot 3x^2 + \frac{4}{5}\cdot\frac{1}{x-2} + \ln 2 - 3\cdot\frac{1}{x-4}.$$

y' ni topamiz:

$$y' = y \cdot \left(\frac{3x^2}{x^3+1} + \frac{4}{5(x-2)} + \ln 2 - \frac{3}{x-4} \right),$$

yoki

$$y' = \frac{(x^3+1) \cdot \sqrt[5]{(x-2)^4} \cdot 2^x}{(x-4)^3} \cdot \left(\frac{3x^2}{x^3+1} + \frac{4}{5(x-2)} + \ln 2 - \frac{3}{x-4} \right).$$

Dararajali-ko'rsatkichli funksiya deb ataluvchi $y = u^v$ funksiyaning hosilasi logarifmik differensiallash yordamida

$$(u^v)' = u^v \cdot \left(\ln u \cdot v' + v \cdot \frac{u'}{u} \right)$$

formula bilan topiladi.

$5-$misol. $y = x^{\cos 3x}$ funksiyaning hosilasini toping.

$u = x,\ u' = 1,\ v = \cos 3x,\ v' = -3\sin 3x$ larni formulaga qo'yib topamiz:

$$y' = x^{\cos 3x} \cdot \left(\ln x \cdot (-3\sin 3x) + (\cos 3x) \cdot \frac{1}{x} \right)$$

yoki

$$y' = x^{\cos 3x - 1} \cdot (\cos 3x - 3x \ln x \cdot \sin 3x).$$

6.1.5. Agar $y = f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtadagi orttirmasini

$$\Delta y = A\Delta x + \alpha(\Delta x)\Delta x$$

ko'rinishda ifodalash mumkin bo'lsa, $f(x)$ *funksiya* x_0 *nuqtada differensiallanuvchi* deyiladi, bunda $A-$o'zgarmas son, $\lim\limits_{\Delta x \to 0} \alpha(\Delta x) = 0$.

$y = f(x)$ funksiya orttirmasining Δx ga nisbatan chiziqli bo'lgan bosh qismi $f'(x_0)\Delta x$ ga $y = f(x)$ *funksiyaning* x_0 *nuqtadagi differensiali* deyiladi va dy (yoki $df(x)$) bilan belgilanadi, ya'ni

$$dy = f'(x_0)dx.$$

$6-$misol. $y = 2x^3 - x^2 + 1$ funksiyaning $x_0 = 2$ nuqtadagi orttirmasini va differensialini $\Delta x = 0{,}1$ da toping. Orttirma bilan differensial orasidagi ayirmaning absolut va nisbiy xatoliklarini hisoblang.

$$\Delta y = (2(x+\Delta x)^3 - (x+\Delta x)^2 + 1) - (2x^3 - x^2 + 1) =$$
$$= 2x(3x-1)\Delta x + (6x-1)\Delta x^2 + 2\Delta x^3;$$
$$dy = 2x(3x-1)\Delta x.$$

Bundan $\Delta y - dy = (6x-1)\Delta x^2 + 2\Delta x^3$.

$x_0 = 2$ va $\Delta x = 0{,}1$ da $\Delta y = 2{,}112$, $dy = 2$, $\Delta y - dy = 0{,}112$.

Absolut va nisbiy xatoliklarni hisoblaymiz:

$$|\Delta y - dy| = 0{,}112, \quad \left|\frac{\Delta y - dy}{\Delta y}\right| = \frac{0{,}112}{2{,}112} \approx 0{,}053 \text{ yoki } 5{,}3\%.$$

Ko'pchilik masalalarni yechishda funksiyaning x_0 nuqtadagi orttirmasi funksiyaning shu nuqtadagi differensialiga taqriban almashtiriladi, ya'ni $\Delta y \approx dy$ deb olinadi.

Bunday almashtirish yordamida biror A miqdorning taqribiy qiymati quyidagi tartibda hisoblanadi:

1^o. A miqdor x nuqtada biror $f(x)$ funksiya qiymatiga tenglashtiriladi:

$$A = f(x);$$

2^o. x_0 nuqta x ga yaqin va $f(x_0)$ ni hisoblash qulay qilib tanlanadi;

3^o. Δx va $f(x_0)$ hisoblanadi;

4^o. $f'(x)$ topilib, $f'(x_0)$ hisoblanadi;

5^o. $\Delta x, f(x_0), f'(x_0)$ qiymatlar $f(x) \approx f(x_0) + f'(x_0)\Delta x$ formulaga qo'yiladi.

$7-$misol. $\arcsin 0{,}47$ ning taqribiy qiymatini toping .

$1.^o$ $A = \arcsin 0{,}47$, $f(x) = \arcsin x$ deymiz. U holda $A = f(0{,}47)$ va $x = 0{,}47$;

2^o. $x_0 = 0{,}5$ deb olamiz;

3^o. $\Delta x = 0{,}47 - 0{,}5 = -0{,}03$, $f(0{,}5) = \frac{\pi}{6} \approx 0{,}5236$;

4^o. $f'(x) = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$, $f'(0{,}5) = 1{,}1547$;

5^o. $f(0{,}47) \approx f(0{,}5) + f'(0{,}5)\Delta x = 0{,}5236 + 1{,}1547 \cdot (-0{,}03 =) = 0{,}489$.

6.1.6. $f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda $f'(x)$ hosilaga ega bo'lsin.

$f'(x)$ funksiyaning hosilasidan olingan hosilaga *ikkinchi tartibli hosila* deyiladi. Ikkinchi tartibli hosila mavjud bo'lsa, bu hosiladan olingan hosilaga *uchinchi tartibli hosila* deyiladi va hokazo. Hosilalar ikkinchi tartiblidan boshlab *yuqori tartibli hosila* deyiladi va $y'', y''', y^{(4)}, \ldots, y^{(n)}, \ldots$

(yoki $f''(x), f'''(x), f^{IY}(x), \ldots, f^{(n)}(x), \ldots$) kabi belgilanadi.

$8-$misol. $y = x^2 \ln 3x$ bo‘lsa, $y^{(5)}(2)$ ni toping.

$$y' = (x^2)' \ln 3x + x^2 (\ln 3x)' = 2x \ln 3x + x^2 \cdot \frac{3}{3x} = x(2\ln 3x + 1);$$

$$y'' = \left(x(2\ln 3x + 1)\right)' = x'(2\ln 3x + 1) + x(2\ln 3x + 1)' =$$

$$= 1 \cdot (2\ln 3x + 1) + x \cdot 2 \cdot \frac{3}{3x} = 2\ln 3x + 3;$$

$$y''' = (2\ln 3x + 3)' = 2 \cdot \frac{3}{3x} = \frac{2}{x}; \quad y^{(4)} = \left(\frac{2}{x}\right)' = -\frac{2}{x^2}; \quad y^{(5)} = \left(-\frac{2}{x^2}\right)' = \frac{4}{x^3};$$

Bundan

$$y^{(5)}(2) = \frac{4}{2^3} = \frac{1}{2}.$$

Yuqori tartibli hosilalar uchun quyidagi formulalar o‘rinli bo‘ladi:

1. $(a^x)^{(n)} = a^x \ln^n a \ (a > 0), \ \left(e^x\right)^{(n)} = e^x;$
2. $(\sin x)^{(n)} = \sin\left(x + \frac{n\pi}{2}\right);$
3. $(x^\alpha)^{(n)} = \alpha(\alpha - 1)...(\alpha - n + 1)x^{\alpha - n}, \alpha \in R;$
4. $(\cos x)^{(n)} = \cos\left(x + \frac{n\pi}{2}\right);$
5. $(\ln x)^{(n)} = \frac{(-1)^n (n-1)!}{x^n};$
6. $(u \pm v)^{(n)} = u^{(n)} \pm v^{(n)};$
7. $(Cu)^{(n)} = Cu^{(n)};$
8. $(u \cdot v)^{(n)} = \sum_{k=0}^{n} C_n^k u^{(k)} v^{(n-k)}.$

$9-$misol. $y = xe^{2x}$ funksiyaning $n-$tartibli hosilasini toping.

$(u \cdot v)^{(n)} = \sum_{k=0}^{n} C_n^k u^k v^{(n-k)}$ formuladan foydalanamiz.

Shartga ko‘ra $u = x, \ v = e^{2x}$.

Bundan

$$x' = 1, \quad x'' = 0, \ ..., \ x^{(n)} = 0; \quad (e^{2x})' = 2e^{2x}, \ (e^{2x})'' = 2^2 e^{2x}, ..., (e^{2x})^{(n)} = 2^n e^{2x}.$$

U holda

$$(xe^{2x})^{(n)} = \sum_{k=0}^{n} C_n^k x^{(k)} (e^{2x})^{(n-k)} = C_n^0 x^{(0)} (e^{2x})^{(n)} + C_n^1 x' (e^{2x})^{(n-1)} + ... + C_n^n x^{(n)} (e^{2x})^{(0)} =$$

$$= \frac{n!}{0!\, n!} \cdot x \cdot 2^n e^{2x} + \frac{n!}{1!(n-1)!} \cdot 1 \cdot 2^{n-1} e^{2x} + 0 + ... + 0 = 2^{n-1} e^{2x} (2x + n).$$

Demak,

$$(xe^{2x})^{(n)} = 2^{m-1} e^{2x} (2x + n).$$

$f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda dy differensialga ega bo'lsin.

Birinchi tartibli dy differensialdan olingan differensialga *ikkinchi tartibli differensial* deyiladi va $d^2y = f''(x)dx^2$ kabi yoziladi, bunda $dx^2 = (dx)^2$. Ikkinchi tartibli differensialdan olingan differensialga *uchinchi tartibli differensial* deyiladi va hokazo. $n-$tartibli differensial deb $(n-1)-$tartibli differensialdan olingan differensialga aytiladi va $d^n y = f^{(n)}(x)dx^n$ kabi yoziladi.

10 – misol. $y = x^5 + 3x^3 - 1$ bo'lsa, d^4y ni toping.

$y' = 5x^4 + 9x^2,\ y'' = 20x^3 + 18x,\ y''' = 60x^2 + 18,\ y^{(4)} = 120x.$

Bundan

$$d^4y = y^{(4)}(x)dx^4 = 120xdx^4.$$

6.1.7. x nuqtada differensiallanuvchi $y = y(x)$ funksiya $F(x,y) = 0$ tenglama bilan berilgan bo'lsin.

$y'(x)$ hosilani topish uchun avval $F(x,y) = 0$ tenglikning chap va o'ng tomoni x bo'yicha differensiyalanadi (bunda $y = y(x)$ga x ning funksiyasi deb qaraladi) va so'ngra hosil bo'lgan tenglama y' ga nisbatan yechiladi.

11 – misol. $y - \cos(x+y) = 0$ bo'lsa, y'' ni toping.

$y - \cos(x+y) = 0$ tenglikning har ikkala tomonini x bo'yicha differensiallaymiz: $y' + \sin(x+y)(1+y') = 0$.

Bundan

$$y'(1+\sin(x+y)) = -\sin(x+y) \quad \text{yoki}$$

$$y' = -\frac{\sin(x+y)}{1+\sin(x+y)}.$$

U holda

$$y'' = \left(-\frac{\sin(x+y)}{1+\sin(x+y)}\right)' = -\frac{\cos(x+y)(1+y')(1+\sin(x+y)) - \cos(x+y)(1+y')\sin(x+y)}{(1+\sin(x+y))^2} =$$

$$= -\frac{\cos(x+y)}{(1+\sin(x+y))^2}(1+y')$$

yoki

$$y'' = -\frac{\cos(x+y)}{(1+\sin(x+y))^2}\left(1 - \frac{\sin(x+y)}{1+\sin(x+y)}\right) = -\frac{\cos(x+y)}{(1+\sin(x+y))^3}.$$

6.1.8. $y = f(x)$ funksiya

$$\begin{cases} x = \varphi(t), \\ y = \psi(t), t \in T \end{cases}$$

parametrik tenglamalar bilan berilgan bo‘lsa, u holda

$$y'_x = \frac{y'_t}{x'_t} \quad \text{va} \quad y''_{xx} = \frac{(y'_x)'_t}{x'_t}, \ldots$$

12 – misol. $\begin{cases} x = 3\cos t, \\ y = 2\sin t \end{cases}$ bo‘lsa, y'''_{xxx} ni toping.

$$y'_x = \frac{y'_t}{x'_t} = \frac{(2\sin t)'_t}{(3\cos t)'_t} = \frac{2\cos t}{-3\sin t} = -\frac{2}{3}ctgt.$$

U holda

$$y''_{xx} = \frac{(y'_x)'_t}{x'_t} = \frac{\left(-\frac{2}{3}ctgt\right)'_t}{\left(3\cos t\right)'_t} = \frac{\frac{2}{3}\cdot\frac{1}{\sin^2 t}}{-3\sin t} = -\frac{2}{9}\cdot\frac{1}{\sin^3 t},$$

$$y'''_{xxx} = \frac{(y''_{xx})'_t}{x'_t} = \frac{\left(-\frac{2}{9}\cdot\frac{1}{\sin^3 t}\right)'_t}{\left(3\cos t\right)'_t} = \frac{\frac{2}{3}\cdot\frac{\cos t}{\sin^4 t}}{-3\sin t} = -\frac{2}{9}\cdot\frac{\cos t}{\sin^5 t}.$$

6.1.9. $f(x)$ funksiya x_0 nuqtada hosilaga ega bo‘lsin.

$f'(x_0)$ hosila $y = f(x)$ funksiya grafigiga $M_0(x_0; f(x_0))$ nuqtada o‘tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyentiga teng, ya’ni

$$k = tg\alpha = f'(x_0).$$

Bu jumla hosilaning *geometrik ma’nosini* ifodalaydi.

$y = f(x)$ funksiya bilan berilgan egri chiziq grafigiga $M_0(x_0; f(x_0))$ nuqtada o‘tkazilgan urinma

$$y - y_0 = f'(x_0)(x - x_0)$$

tenglama bilan, normal

$$y - y_0 = -\frac{1}{f'(x_0)}(x - x_0)$$

tenglama bilan aniqlanadi.

13 – misol. $\frac{x^2}{16}+\frac{y^2}{12}=1$ ellipsga $M_0(2;3)$ nuqtada o‘tkazilgan urinma va normal tenglamasini tuzing.

Hosilaning $x_0=2$ nuqtadagi qiymatini topamiz:

$$\frac{2x}{16}+\frac{2yy'}{12}=0,\quad y'=-\frac{3x}{4y},\quad y'(2)=-\frac{1}{2}.$$

$M_0(2;3)$ nuqtaning koordinatalari va $y'(2)$ ni urinma hamda normal tenglamalariga qo‘yamiz:

$$y-3=-\frac{1}{2}(x-2)\quad \text{yoki}\quad x+2y-8=0;$$

$$y-3=2(x-2)\quad \text{yoki}\quad 2x-y-1=0.$$

Demak, izlanayotgan urinma tenglamasi

$$x+2y-8=0,$$

normal tenglamasi

$$2x-y-1=0.$$

$M_0(x_0;f(x_0))$ nuqtada kesishuvchi ikkita chiziq x_0 nuqtada hosilaga ega bo‘lgan $y=f_1(x)$ va $y=f_2(x)$ funksiyalar bilan berilgan bo‘lsin. Bu ikki chiziq orasidagi burchak deb, ularga M_0 nuqtada o‘tkazilgan urinmalar orasidagi burchakka aytiladi.

Bu burchak

$$tg\varphi=\frac{f_2'(x_0)-f_1'(x_0)}{1+f_1'(x_0)\cdot f_2'(x_0)}$$

formula bilan topiladi.

14 – misol. $y=\frac{x^2-4}{x}$, $y=2-x$ chiziqlar orasidagi burchakni toping.

Chiziqlarning tenglamalarini birgalikda yechib, ularning kesishish nuqtalarini topamiz:

$$\frac{x^2-4}{x}=2-x.$$

Bundan $A(-1;3)$, $B(2;0)$.

Funksiyalar hosilalarining bu nuqtalaridagi qiymatlarini hisoblaymiz:

$$f_1'(x)=\left(\frac{x^2-4}{x}\right)'=\frac{x^2+4}{x^2},\quad f_2'(x)=-1.$$

$A(-1;3)$ nuqtada $f_1'(-1)=5,\ f_2'(-1)=-1;$ $B(2;0)$ nuqtada $f_1'(2)=2,\ f_2'(2)=-1.$

To‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak formulasidan topamiz:

$A(-1;3)$ nuqtada $tg\varphi_1=\dfrac{-1-5}{1+(-1)\cdot 5}=\dfrac{3}{2},\quad \varphi_1=arctg\dfrac{3}{2};$

$B(2;0)$ nuqtada $tg\varphi_2=\dfrac{-1-2}{1+(-1)\cdot 2}=3,\quad \varphi_2=arctg3.$

Material nuqta harakat qonunidan t vaqt bo‘yicha olingan hosila material nuqtaning t vaqtdagi to‘g‘ri chiziqli harakat tezligiga teng. Bu jumla *hosilaning mexanik ma’nosini* ifodalaydi.

Agar $y=f(x)$ funksiya biror fizik jarayonni ifodalasa, u holda y' hosila bu jarayonnig ro‘y berish tezligini ifodalaydi. Bu jumla *hosilaning fizik ma’nosini* anglatadi.

$15-$misol. Massasi 27 kg bo‘lgan jism $s=\ln(1+t^3)$ qonun bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli harakat qilmoqda. Jismning harakat boshlangandan 2 sekund o‘tgandan keyingi kinetik energiyasini $\left(K=\dfrac{mv^2}{2}\right)$ toping.

$v(t)=s_t'(t)=\dfrac{3t^2}{1+t^3},\ v(2)=\dfrac{4}{3}.$

U holda

$$K=\frac{mv^2}{2}=\frac{27}{2}\left(\frac{4}{3}\right)^2=24\,(\text{J}).$$

$16-$misol. Material nuqta $\begin{cases}x=3\sin 2t,\\ y=\sqrt{3}\cos 2t\end{cases}$ qonun bilan harakatlanmoqda. Nuqta tezligining $t=\dfrac{\pi}{8}$ vaqtdagi yo‘nalishini toping.

Nuqta tezligi uning harakat yo‘nalishiga o‘tkazilgan urinma bo‘ylab yo‘naladi. Urinma og‘ish burchagining $t=t_0$ vaqtdagi tangensi

$$tg\varphi=y_x'(t_0)=-\left.\frac{\sqrt{3}\sin 2t}{3\cos 2t}\right|_{t=\frac{\pi}{8}}=-\frac{\sqrt{3}}{3}.$$

Demak, $t=\dfrac{\pi}{8}$ vaqtda material nuqta tezligi Ox o‘qining musbat yo‘nalishiga $\varphi=-60^0$ li burchak ostida yo‘naladi.

Mustahkamlash uchun mashqlar

6.1.1. Hosila ta'rifidan foydalanib funksiyalarning hosilasini toping:

1) $f(x)=\sqrt{3x-1};$ 2) $f(x)=\dfrac{1}{2-5x};$

3) $f(x)=ctg2x;$ 4) $f(x)=ch2x.$

6.1.2. $f'(x_0)$ ni hosila ta'rifidan foydalanib hisoblang:

1) $f(x)=e^{-3x},\ x_0=0;$ 2) $f(x)=\ln(1-4x),\ x_0=0;$

3) $f(x)=tg\left(2x+\dfrac{\pi}{4}\right),\ x_0=\pi;$ 4) $f(x)=\dfrac{1-x}{1+x},\ x_0=1.$

6.1.3. Berilgan funksiyalarning $f'_-(x_0)$ va $f'_+(x_0)$ hosilalarini toping:

1) $f(x)=|3x-2|,\ x_0=\dfrac{2}{3};$ 2) $f(x)=|x-2|+|x+2|,\ x_0=2;$

3) $y=\begin{cases} x\ agar\ x\le 2\ bo'lsa, \\ -x^2+3x\ agar\ x<2\ bo'lsa, x_0=2; \end{cases}$ 4) $f(x)=\sqrt{e^{x^2}-1},\ x_0=0.$

6.1.4. Differensiallash qoidalari va formulalaridan foydalanib berilgan funksiyalarning hosilasini toping:

1) $y=3x^4-\dfrac{1}{3}x^3+\ln 2;$ 2) $y=\dfrac{1}{6}x^6+3x^4-2x;$

3) $y=\dfrac{2}{\sqrt{x}}+3x^2\sqrt[3]{x}-\dfrac{6}{\sqrt[3]{x^2}};$ 4) $y=\sqrt{x}-\dfrac{3}{x}+\dfrac{1}{3x^3};$

5) $y=\dfrac{xe^x-e^{-x}}{x^2};$ 6) $y=\dfrac{2^x+3^x}{2^x-3^x};$

7) $y=\dfrac{x\ln x}{\ln x-1};$ 8) $y=\dfrac{\ln x+e^x}{\ln x-e^x};$

9) $y=\dfrac{1+\cos x}{1-\cos x};$ 10) $y=\dfrac{1+tgx}{1-tgx};$

11) $y=tgx-ctgx;$ 12) $y=\dfrac{x\sin x-\cos x}{x\cos x+\sin x};$

13) $y=\dfrac{xchx-shx}{xshx-chx};$ 14) $y=thx+cthx;$

15) $y=\log_x e;$ 16) $y=4\sin^2 x-3\lg x+4\cos^2 x;$

17) $y=\sqrt{4-3x^2};$ 18) $y=\arg\sin\sqrt{x};$

19) $y = \cos^4 x - \sin^4 x;$

20) $y = \frac{1}{6}\ln\frac{x-3}{x+3};$

21) $y = \sqrt{1-x^2} + x\arcsin x;$

22) $y = \ln(e^{2x}+1) - 2arctge^{x};$

23) $y = \frac{1}{2}\ln\frac{1+3^x}{1-3^x};$

24) $y = \log_{x^3} x^x;$

25) $y = \frac{tg3x + \ln\cos^2 3x}{3};$

26) $y = e^{-3x}(\sin 3x + \cos 3x);$

27) $y = \sqrt{e^x - 1} - arctg\sqrt{e^x - 1};$

28) $y = \ln ctg\left(\frac{\pi}{4} + \frac{x}{2}\right);$

29) $y = 3\arccos\frac{x-3}{\sqrt{5}} + \sqrt{6x - 4 - x^2};$

30) $y = \frac{2-x}{4(x^2+2)} - \frac{1}{4\sqrt{2}}arctg\frac{x}{\sqrt{2}} + \ln\sqrt{x^2+2}.$

6.1.5. Berilgan $x = \varphi(y)$ funksiyalar uchun y' hosilani toping:

1) $x = \frac{1-y}{1+y};$ 2) $x = e^{-y};$ 3) $x = 2\sin y;$ 4) $x = 3ctg\, y.$

6.1.6. Oshkormas funksiyalarning hosilasini toping:

1) $b^2x^2 + a^2y^2 = a^2b^2;$ 2) $y^3 = x^3 + 3xy;$ 3) $e^{x+y} = xy;$

4) $\cos(xy) = x^2;$ 5) $e^y + xy = e;$ 6) $x\sin y + y\sin x = 0.$

6.1.7. Funksiyalarning berilgan nuqtadagi orttirmasini va differensialini berilgan argument orttirmasida toping:

1) $y = x^2 - x,\ \ x = 10,\ \Delta x = 0{,}1;$ 2) $y = x^2 + 3x + 1,\ x = 2,\ \Delta x = 0{,}1;$

3) $y = x^3 - 7x^2 + 8,\ x = 5,\ \Delta x = 0{,}1;$ 4) $y = x^3 - x,\ x = 2,\ \Delta x = 0{,}01.$

6.1.8. Quyidagi sonlarni differensial yordamida taqriban hisoblang:

1) $\sqrt[5]{33};$ 2) $\lg 10{,}21;$ 3) $ctg\,45^0 10';$ 4) $3{,}013^3.$

6.1.9. Quyidagi funksiyalarning berilgan nuqtadagi taqribiy qiymatini differensial yordamida hisoblang:

1) $y = \sqrt{x^2 - 7x + 10},\ \ x = 0{,}98;$ 2) $y = \sqrt[5]{\frac{2-x}{2+x}},\ x = 0{,}15;$

3) $y = \sqrt{\frac{x^2-3}{x^2+5}},\ \ x = 2{,}037;$ 4) $y = \sqrt[4]{2x - \sin\frac{\pi x}{2}},\ \ x = 1{,}02.$

6.1.10. Berilgan murakkab funksiyalarning differensialini erkli o‘zgaruvchi va uning differensiali orqali ifodalang:

1) $y = x^2 + 5x,\ x = t^3 + 2t + 1;$ 2) $y = \cos x,\ x = \dfrac{t^2 - 1}{4};$

3) $y = e^x,\ x = \dfrac{1}{2}\ln t,\ t = 2u^2 - 3u + 1.$ 4) $y = \ln x,\ x = tgt,\ t = 2u^2 + u.$

6.1.11. Berilgan funksiyalarning birinchi tartibli differensialini toping:

1) $y = x(\ln x - 1);$ 2) $y = \dfrac{\ln x}{x};$ 3) $y = \cos^2 2x;$

4) $y = a\sin^3 x.$ 5) $y = 3^{\cos x};$ 6) $y = \ln^3 \cos x.$

6.1.12. Berilgan hosilalar uchun y''' ni toping:

1) $y = (x^2 - 1)^3;$ 2) $y = e^{2x}\cos x;$ 3) $y = (1 + x^2)arctgx;$ 4) $y = x^2(\ln x - 1).$

6.1.13. Berilgan funksiyalar uchun $y^{(n)}(0)$ ni toping:

1) $y = \sin 5x \cos 2x;$ 2) $y = x\cos x;$ 3) $y = x^2 \sin x;$ 4) $y = x^2 e^x.$

6.1.14. Berilgan funksiyalar uchun $\dfrac{d^2y}{dx^2}$ ni toping:

1) $\begin{cases} x = t^2 + 1, \\ y = t^3 - 1; \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x = a\cos t, \\ y = a\sin t; \end{cases}$

3) $\begin{cases} x = \ln(1 + t^2), \\ y = t - arctg\, t; \end{cases}$ 4) $\begin{cases} x = \arcsin t, \\ y = \sqrt{1 - t^2}. \end{cases}$

6.1.15. Berilgan egri chiziqqa $M_0(x_0, y_0)$ nuqtada o‘tkazilgan urinma va normal tenglamalarini tuzing:

1) $y = \dfrac{x^3}{3},\ M_0\left(-1, -\dfrac{1}{3}\right);$ 2) $y = \sin x,\ M_0(\pi, 0);$

3) $y = x^3 + x^2 - 1$ egri chiziqqa $y = x^2$ parabola bilan kesishish nuqtasida;

4) $\dfrac{x^2}{9} + \dfrac{y^2}{25} = 1,\ M_0\left(\dfrac{9}{5}; 4\right);$ 5) $\begin{cases} x = \dfrac{1 + t}{t^3}, \\ y = \dfrac{3}{t^2} - \dfrac{1}{t}, \end{cases}$ $M_0(2, 2);$ 6) $\begin{cases} x = \sin t, \\ y = \cos 2t, \end{cases}$ $M_0\left(\dfrac{1}{2}; \dfrac{1}{2}\right).$

6.1.16. Berilgan chiziqlarning kesishish burchaklarini toping:

1) $y = 4 - x$ to‘g‘ri chiziq va $y = 4 - \dfrac{x^2}{2}$ parabola;

2) $y = \sin x$ sinusoida va $y = \cos x$ kosinusoida $(0 \le x \le \pi)$;

3) $y = (x-2)^2$ va $y = 4x - x^2 + 4$ parabolalar;

4) $y = \ln(\sqrt{3}x - 1)$ egri chiziq va abssissalar o‘qi .

6.1.17. Material nuqta Ox o‘qi bo‘ylab $x = \dfrac{t^3}{3} - 2t^2 + 3t$ qonun bilan harakatlanmoqda. Qaysi nuqtalarda nuqtaning harakat yo‘nalishi o‘zgaradi?

6.1.18. Material nuqta $s = s(t)$ qonun bilan to‘g‘ri chiziqli harakat qilmoqda. Qaysi vaqtda material nuqtaning tezlanishi $a(m/c^2)$ ga teng bo‘ladi?

1) $s(t) = 2t^3 - \dfrac{5}{2}t^2 + 3t + 1(m),\ a = 19;$ 2) $s(t) = t^3 + \dfrac{3}{2}t^2 - 4t + 3(m),\ a = 9.$

61.19. O’tkazgich orqali o‘tuvchi tok miqdori $t = 0$ vaqtdan boshlab $q = 3t^2 - 1$ qonun bilan aniqlanadi. Ikkinchi sekund oxiridagi tok kuchini aniqlang.

6.2. DIFFERENSIAL HISOBNING ASOSIY TEOREMALARI

O‘rta qiymat haqidagi teoremalar. Lopital qoidasi. Teylor teoremasi

6.2.1. *Ferma teoremasi.* $f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda aniqlangan bo‘lib, bu intervalning biror c nuqtasida o‘zining eng kichik yoki eng katta qiymatiga erishsin. Agar funksiya c nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda $f'(c) = 0$ bo‘ladi.

Roll teoremasi. $f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, $f(a) = f(b)$ bo‘lsin. Agar funksiya $(a;b)$ intervalda differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda shunday $c \in (a;b)$ nuqta topiladiki, $f'(c) = 0$ bo‘ladi.

$1-$misol. Roll teoremasi o‘rinli bo‘lishini tekshiring: 1) $f(x)=x^2-3x-4$ funksiya uchun $[0;3]$ kesmada; 2) $f(x)=\sqrt[3]{x^2}-1$ funksiya uchun $[-1;1]$ kesmada.

1) $f(x)=x^2-3x-4$ funksiya $[0;3]$ kesmada uzluksiz, differensiallanuvchi va uning chetki nuqtalarida bir xil qiymatga ega: $f(0)=f(3)=-4$. Shu sababli, bu funksiya uchun Roll teoremasi o‘rinli bo‘ladi. x ning $f'(x)=0$ bo‘lgan qiymatini topamiz: $f'(x)=4x-3=0.$ Bundan $x=\frac{3}{4}.$

2) $f(x)=\sqrt[3]{x^2}-1$ funksiya $[-1;1]$ kesmada uzluksiz, $f(-1)=f(1)=0$, $f'(x)=\frac{2}{3}\frac{1}{\sqrt[3]{x}}$. Bu hosila $x=0\in(-1;1)$ nuqtada mavjud emas. Demak, bu funksiya uchun Roll teoremasi o‘rinli bo‘lmaydi.

Lagranj teoremasi. $f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo‘lsin. Agar $f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda shunday $c\in(a;b)$ nuqta topiladiki,

$$f'(c)=\frac{f(b)-f(a)}{b-a}$$

bo‘ladi.

Natija. Biror intervalda hosilasi nolga teng bo‘lgan funksiya shu intervalda o‘zgarmas bo‘ladi.

$2-$misol. $y=x^2+6x+1$ parabolaning urinmasi $A(-1;-4)$ va $A(3;28)$ nuqtalarni tutashtiruvchi AB vatarga parallel bo‘lgan nuqtasini toping.

$y=x^2+6x+1$ funksiya A va B nuqtalarning abssissalari chetki nuqtalar bo‘lgan $[-1;3]$ kesmada uzluksiz, chekli hosilaga ega. Shu sababli, bu funksiya uchun Lagranj teoremasini qo‘llash mumkin. Teoremaga ko‘ra AB parabolada hech bo‘lmaganda bitta c nuqta topiladiki, funksiya grafigiga bu nuqtada o‘tkazilgan urinma AB vatarga parallel bo‘ladi.

Lagranj formulasidan topamiz:

$$f(3)-f(-1)=f'(c)(3-(-1)) \text{ yoki } 28+4=(2c+6)\cdot 4.$$

Bundan $c=1$. U holda $f(c)=8$.

Demak, $M(1;8)$ nuqtada berilgan parabolaning urinmasi $A(-1;-4)$ va $A(3;28)$ nuqtalarni tutashtiruvchi AB vatarga parallel bo‘ladi.

3 – misol. $arctgx + arcctgx = \frac{\pi}{2}, \; x \in R$ ekanini isbotlang.

$f(x) = arctgx + arcctgx$ deb olsak, $x \in R$ da

$$f'(x) = \frac{1}{1+x^2} - \frac{1}{1+x^2} = 0.$$

U holda natijaga ko‘ra $f(x) = C$, ya’ni $arctgx + arcctgx = C$ bo’ladi. C ni topish uchun x ga biror qiymatni, masalan, $x = 1$ ni qo‘yamiz: $arctg1 + arcctg1 = C$ yoki $\frac{\pi}{2} = C$. Bundan

$$arctgx + arcctgx = \frac{\pi}{2}, \; x \in R.$$

Koshi teoremasi. $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $[a;b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo‘lsin. Agar funksiyalar $(a;b)$ intervalda differensiallanuvchi bo‘lib, $\forall x \in (a;b)$ uchun $g'(x) \neq 0$ bo‘lsa, u holda shunday $c \in (a;b)$ nuqta topiladiki,

$$\frac{f(b) - f(a)}{g(b) - g(a)} = \frac{f'(c)}{g'(c)}$$

bo‘ladi

6.2.2. 1-teorema. $\left(\frac{0}{0} \; \textit{ko'rinishdagi aniqmaslikni ochishning Lopital qoidasi} \right)$

x_0 nuqtaning biror atrofida $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar uzluksiz, differensiallanuvchi va $g'(x) \neq 0$ bo‘lsin. Agar $\lim\limits_{x \to x_0} f(x) = 0$ va $\lim\limits_{x \to x_0} g(x) = 0$ bo‘lib, $\lim\limits_{x \to x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} = k$ (chekli yoki cheksiz) limit mavjud bo‘lsa, u holda

$$\lim_{x \to x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \to x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)}$$

bo‘ladi.

Izohlar: 1. 1- teorema $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $x = x_0$ da aniqlanmagan, ammo $\lim\limits_{x \to x_0} f(x) = 0$ va $\lim\limits_{x \to x_0} g(x) = 0$ bo‘lganda ham o‘rinli bo‘ladi.

2. 1-teorema $x \to \infty$ da ham o‘rinli bo‘ladi.

3. $f'(x)$ va $g'(x)$ funksiyalar 1-teoremaning shartlarini qanoatlantirsa, bu teoremani takror qo‘llash mumkin:

$$\lim_{x \to x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \to x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} = \lim_{x \to x_0} \frac{f''(x)}{g''(x)} \text{ va hokazo.}$$

$4-$misol. $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^2-1+\ln x}{e^x-e}$ limitnі toping.

$f(x)=x^2-1+\ln x,\qquad g(x)=e^x-e$ funksiyalar $x=1$ nuqta atrofida aniqlangan. $\lim\limits_{x\to 1} f(x)=\lim\limits_{x\to 1} g(x)=0$, ya'ni $\dfrac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmaslik hosil bo'ladi.

$$\lim_{x\to 1}\frac{f'(x)}{g'(x)}=\lim_{x\to 1}\frac{2x+\frac{1}{x}}{e^x}=\frac{3}{e}$$ mavjud va $g'(x)=e\neq 0$.

U holda 1-teoremaga ko'ra

$$\lim_{x\to 1}\frac{x^2-1+\ln x}{e^x-e}=\frac{3}{e}.$$

2-teorema. $\left(\dfrac{\infty}{\infty}\right.$ *ko'rinishdagi aniqmaslikni ochishning Lopital qoidasi*$\left.\right)$ x_0 nuqtaning biror atrofida $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar uzluksiz, differensiallanuvchi va $g'(x)\neq 0$ bo'lsin. Agar $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)=\lim\limits_{x\to x_0} g(x)=\infty$ bo'lib, $\lim\limits_{x\to x_0}\dfrac{f'(x)}{g'(x)}$ limit mavjud bo'lsa, u holda

$$\lim_{x\to x_0}\frac{f(x)}{g(x)}=\lim_{x\to x_0}\frac{f'(x)}{g'(x)}$$

bo'ladi.

$5-$misol. $\lim\limits_{x\to a}\dfrac{\ln(x-a)}{\ln(e^x-e^a)}$ limitni toping.

$$\lim_{x\to a}\frac{\ln(x-a)}{\ln(e^x-e^a)}=\left(\frac{\infty}{\infty}\right)=\lim_{x\to a}\frac{\frac{1}{x-a}}{\frac{e^x}{e^x-e^a}}=\lim_{x\to a}\frac{e^x-e^a}{e^x(x-a)}=$$

$$=\lim_{x\to a}\frac{e^x}{e^x(x-a)+e^x}=\lim_{x\to a}\frac{1}{1+(x-a)}=\frac{1}{1+(a-a)}=\frac{1}{1+0}=1.$$

Keltirilgan teoremalar *asosiy aniqmasliklar* deb ataluvchi $\dfrac{0}{0}$ yoki $\dfrac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochishda qo'llaniladi.

$0\cdot\infty$ yoki $\infty-\infty$ ko'rinishdagi aniqmasliklar algebraik almashtirishlar yordamida asosiy aniqmasliklarga keltirilib, ochiladi.

6 – misol. $\lim\limits_{x\to\infty} x\left(e^{\frac{1}{x}}-1\right)$ limitni toping.

$$\lim_{x\to\infty} x\left(e^{\frac{1}{x}}-1\right)=(\infty\cdot 0)=\lim_{x\to\infty}\frac{e^{\frac{1}{x}}-1}{\frac{1}{x}}=\left(\frac{\infty}{\infty}\right)=$$

$$=\lim_{x\to\infty}\frac{e^{\frac{1}{x}}\cdot\left(-\frac{1}{x^2}\right)}{\left(-\frac{1}{x^2}\right)}=\lim_{x\to\infty}e^{\frac{1}{x}}=e^{\frac{1}{\infty}}=e^0=1.$$

7 – misol. $\lim\limits_{x\to 1}\left(\frac{1}{\ln x}-\frac{x}{x-1}\right)$ limitni toping.

$$\lim_{x\to 1}\left(\frac{1}{\ln x}-\frac{x}{x-1}\right)=(\infty-\infty)=\lim_{x\to 1}\left(\frac{x-1-x\ln x}{(x-1)\ln x}\right)=\left(\frac{0}{0}\right)=$$

$$=\lim_{x\to 1}\frac{-\ln x}{\ln x+\frac{x-1}{x}}=-\lim_{x\to 1}\frac{x\ln x}{x\ln x+x-1}=-\lim_{x\to 1}\frac{\ln x+1}{\ln x+1+1}=-\frac{1}{2}.$$

0^0, ∞^0 yoki 1^∞ ko‘rinishdagi aniqmasliklar $\lim\limits_{x\to x_0} f(x)^{g(x)}=e^{\lim\limits_{x\to x_0} g(x)\ln f(x)}$ formula yordamida asosiy aniqmasliklarga keltirilib, ochiladi.

8 – misol. $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}(\cos x)^{x-\frac{\pi}{2}}$ limitni toping.

$$\lim_{x\to\frac{\pi}{2}}(\cos x)^{x-\frac{\pi}{2}}=\left(0^0\right)=e^{\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\left(x-\frac{\pi}{2}\right)\ln(\cos x)(0\cdot\infty)}=e^{\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\frac{\ln(\cos x)}{\frac{1}{x-\frac{\pi}{2}}}\left(\frac{\infty}{\infty}\right)}=$$

$$=e^{\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\frac{\frac{1}{\cos x}\cdot\sin x}{\frac{1}{\left(x-\frac{\pi}{2}\right)^2}}}=e^{\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\sin x\cdot\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\frac{\left(x-\frac{\pi}{2}\cdot\right)^2}{\cos x}}=e^{1\cdot\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\frac{2\left(x-\frac{\pi}{2}\right)}{-\sin x}}=e^0=1.$$

9 – misol. $\lim\limits_{x\to+0}\ln\left(\dfrac{1}{x}\right)^x$ limitni toping.

$$\lim_{x\to+0}\ln\left(\frac{1}{x}\right)^x=\left(\infty^0\right)=e^{\lim\limits_{x\to+0} x\ln\left(\ln\left(\frac{1}{x}\right)\right)(0\cdot\infty)}=e^{\lim\limits_{x\to+0}\frac{\ln\left(\ln\left(\frac{1}{x}\right)\right)}{\frac{1}{x}}\left(\frac{\infty}{\infty}\right)}=$$

$$=e^{\lim\limits_{x\to+0}\frac{\frac{1}{\ln\left(\frac{1}{x}\right)}\left(-\frac{1}{x^2}\cdot\right)}{\left(-\frac{1}{x^2}\right)}}=e^{\lim\limits_{x\to+0}\frac{1}{\ln\left(\frac{1}{x}\right)}}=e^{\frac{1}{\infty}}=e^0=1.$$

10 – misol. $\lim\limits_{x\to0}(1+\sin x)^{ctgx}$ limitni toping.

$$\lim_{x\to0}(1+\sin x)^{ctgx}=\left(1^\infty\right)=e^{\lim\limits_{x\to0} ctgx\ln(1+\sin x)\left(\infty\cdot0\right)}=e^{\lim\limits_{x\to0}\frac{\ln(1+\sin x)}{tgx}\left(\frac{0}{0}\right)}=$$

$$=e^{\lim\limits_{x\to0}\cos x\cdot\lim\limits_{x\to0}\frac{\ln(1+\sin x)}{\sin x}}=e^{1\cdot\lim\limits_{x\to0}\frac{\frac{\cos x}{1+\sin x}}{\cos x}}=e^{\lim\limits_{x\to0}\frac{1}{1+\sin x}}=e^1=e.$$

6.2.3. *Teylor teoremasi*. $f(x)$ funksiya x_0 nuqtaning biror atrofida aniqlangan bo‘lib, bu atrofda $(n+1)$ – tartibligacha hosilalarga ega va $f^{(n+1)}(x)$ hosila x_0 nuqtada uzluksiz bo‘lsin. U holda

$$f(x)=f(x_0)+\frac{f'(x_0)}{1!}(x-x_0)+\frac{f''(x_0)}{2!}(x-x_0)^2+\ldots+$$

$$+\frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x-x_0)^n+\frac{f^{(n+1)}(c)}{(n+1)!}(x-x_0)^{n+1}$$

bo‘ladi, bunda $c=x_0+\theta(x-x_0),\ 0<\theta<1.$

Bu tenglikka *Lagranj ko‘rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi* deyiladi.

$\varphi(x,x_0)=f(x_0)+\dfrac{f'(x_0)}{1!}(x-x_0)+\dfrac{f''(x_0)}{2!}+\ldots+\dfrac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x-x_0)^n$ ga markazi x_0 nuqtada bo‘lgan n – darajali *Teylor ko‘phadi* ,

$R_n(x)=\dfrac{f^{n+1}(c)}{(n+1)!}(x-x_0)^{n+1}$ ga Teylor formulasining *Lagranj ko‘rinishdagi qoldiq hadi* deyiladi.

$11-$misol. $f(x)=x^4-3x^2-x+2$ ko‘phadni $(x+1)$ ikkihadning butun musbat darajalari bo‘yicha yoying.

Funksiyaning hosilalarini topamiz:

$$f'(x)=4x^3-6x-1,\ f''(x)=12x^2-6,\ f'''(x)=24x,\ f^{IV}(x)=24,$$

$$f^{V}(x)=0,\ (n\geq 5\ \text{uchun},\ f^{(n)}(x)=0).$$

Ko‘phad va uning hosilalarining $x_0=-1$dagi qiymatlarini topamiz:

$$f(-1)=1,\ f'(-1)=1,\ f''(-1)=6,\ f'''(1)=-24,\ f^{IV}(1)=24.$$

U holda

$$f(x)=x^4-3x^2-x+2=1+\frac{1}{1!}(x+1)+\frac{6}{2!}(x+1)^2-\frac{24}{3!}(x+1)^3+\frac{24}{4!}(x+1)^4=$$

$$=1+(x+1)+3(x+1)^2-4(x+1)^3+(x+1)^4.$$

$x_0=0$da Teylor formulasining xususiy hollaridan biri

$$f(x)=f(0)+\frac{f^1(0)}{1!}x+...+\frac{f^{(n)}(0)}{n!}x^n+\cdots+=\frac{f^{(n+1)}(\theta x)}{(n+1)!}x^{n+1}$$

hosil bo‘ladi. Bu formulaga *Makloren formulasi* deyiladi.

Ayrim funksiyalarning Makloren formulasiga yoyilmasi:

1. $e^x=1+\frac{x}{1!}+\frac{x^2}{2!}+...+\frac{x^n}{n!}+\frac{e^{\theta x}}{(n+1)!}x^{n+1},\quad x\in R$;

2. $\sin x=x-\frac{x^3}{3!}+\frac{x^5}{5!}-\frac{x^7}{7!}+...+(-1)^{n-1}\frac{x^{2n-1}}{(2n-1)!}+(-1)^n\sin\theta x\frac{x^{2n+2}}{(2n+2)!},\quad x\in R;$

3. $\cos x=1-\frac{x^2}{2!}+\frac{x^4}{4!}+...+(-1)^n\frac{x^{2n}}{(2n)!}+(-1)^{n+1}\cos\theta x\frac{x^{2n+1}}{(2n+1)!},\quad x\in R;$

4. $(1+x)^m=1+\frac{m}{1!}x+\frac{m(m-1)}{2!}x^2+...+\frac{m(m-1)...(m-n+1)}{n!}x^2+$

$$+\frac{m(m-1)...(m-n)}{(n+1)!}(1+\theta x)^{m-n+1}x^{n+1},\quad x\in(-1;1);$$

Xususan, $n=m$ da (Nuyton binomi)

$$(1+x)^n=1+\frac{n}{1!}x+\frac{n(n-1)}{2!}x^2+...+\frac{n(n-1)(n-2)}{3!}x^3+...+nx^{n-1}+x^n;$$

5. $\ln(1+x)=x-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{3}+\frac{x^4}{4}+...+(-1)^{n-1}\frac{x^n}{n}+(-1)^n\frac{x^{n+1}}{n+1}\cdot\frac{1}{(1+\theta x)^{n+1}},\quad x\in(-1;1).$

$12-$misol. e sonini $0{,}001$ aniqlikda hisoblang.

Shartga ko‘ra $x=1,\ \varepsilon=0{,}001$.

Makloren formulasiga binoan

$$e=1+\frac{1}{1!}+\frac{1}{2!}+...+\frac{1}{n!}+R_n(1).$$

$n=6$ da $R_n(1)=\dfrac{e^{\theta}}{(n+1)!}<\varepsilon=0{,}001, 0<\theta<1$ tengsizlik bajariladi.

Demak,

$$e\approx 1+\frac{1}{1!}+\frac{1}{2!}+\frac{1}{3!}+...+\frac{1}{6!}=$$

$$=2+0{,}5+0{,}16667+0{,}04167+0{,}00833+0{,}00139=2{,}718.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

6.2.1. Funksiya uchun berilgan kesmada Roll teoremasi o‘rinli bo‘lishini tekshiring. Agar o‘rinli bo‘lsa, c ning tegishli qiymatini toping:

1) $f(x)=4x-x^3+5,\ [0;2]$;
2) $f(x)=\sin 2x,\ \left[\dfrac{\pi}{2};\pi\right]$;
3) $f(x)=2-\sqrt[5]{x^2},\ [-1;1]$;
4) $f(x)=3-|x|,\ [-2;2]$.

6.2.2. Funksiya uchun berilgan kesmada Lagranj formulasi orqali c ning tegishli qiymatini toping:

1) $f(x)=\dfrac{1}{3}x^3-x+1,\ [0;1]$;
2) $f(x)=e^x,\ [0;1]$;
3) $f(x)=\ln x,\ [1;e]$;
4) $f(x)=x^2-6x+1,\ [0;1]$.

6.2.3. Berilgan funksiya grafigining urinmasi AB vatarga parallel bo‘lgan nuqtasini toping:

1) $f(x)=x^2+3x,\ A(-2;-2), B(1;4)$;
2) $f(x)=\sqrt{x+1},\ A(0;1), B(3;2)$.

6.2.4. Funksiya uchun berilgan kesmada Koshi formulasini yozing va c ning tegishli qiymatini toping:

1) $f(x)=\sin 2x$ *va* $g(x)=\cos 2x,\ \left[0;\dfrac{\pi}{4}\right]$;
2) $f(x)=x^4-3,\ g(x)=x^3+2,\ [0;2]$.

6.2.5. Funksiyaning o‘zgarmas bo‘lishlik alomatidan foydalanib, quyidagilarni isbotlang:

1) $\arccos\frac{1-x^2}{1+x^2}=2arctgx,\ 0\le x<+\infty;$ 2) $\arcsin\frac{2x}{1+x^2}=\begin{cases}-\pi-2arctgx, & x\le -1,\\ 2arctgx, & -1\le x<1,\\ -\pi-2arctgx, & x\ge 1.\end{cases}$

6.2.6. Limitlarni Loopital qoidasidan foydalanib toping:

1) $\lim\limits_{x\to 1}\frac{\sin\pi x}{\ln x};$ 2) $\lim\limits_{x\to 0}\frac{x-arctgx}{x^3};$

3) $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\ln tg2x}{\ln\sin x};$ 4) $\lim\limits_{x\to +0}\frac{\ln x}{ctgx};$

5) $\lim\limits_{x\to +\infty}\frac{\log_3 x}{3^x};$ 6) $\lim\limits_{x\to +\infty}\frac{\pi-2arctgx}{\ln\left(1+\frac{1}{x}\right)};$

7) $\lim\limits_{x\to 0}\frac{e^{x^2}-x^2-1}{\sin^4 x};$ 8) $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\ln\cos(3x^2-x)}{\sin 2x^2};$

9) $\lim\limits_{x\to\infty}xtg\frac{3}{x};$ 10) $\lim\limits_{x\to 0}(1-e^{3x})ctgx;$

11) $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}(\sec x-tgx);$ 12) $\lim\limits_{x\to 0}\left(\frac{1}{x}-\frac{1}{arctgx}\right);$

13) $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}-0}(\pi-2x)^{\cos x};$ 14) $\lim\limits_{x\to 0}x^{\frac{1}{\ln(e^x-1)}};$

15) $\lim\limits_{x\to 3}\left(2-\frac{x}{3}\right)^{tg\frac{\pi x}{6}};$ 16) $\lim\limits_{x\to 0}(\cos 3x)^{\frac{2}{x^2}};$

17) $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}(tgx)^{1-\sin x};$ 18) $\lim\limits_{x\to +\infty}(x+3x)^{\frac{1}{x}}.$

6.2.7. Ko‘phadni $(x-x_0)$ ning darajasi bo‘yicha yoying:

1) $P(x)=x^3+5x^2-3x+1,\ x_0=-2;$ 2) $P(x)=x^4-2x^3+5x-6,\ x_0=2.$

6.2.8. Funksiyaning berilgan nuqtada uchinchi tartibli Teylor formulasini yozing:

1) $f(x)=\sqrt{1+x},\ x_0=3;$ 2) $f(x)=\frac{1}{x},\ x_0=-2.$

6.2.9. Funksiyalarni Makloren formulasi yordamida x ning darajalari bo‘yicha yoying:

1) $f(x) = xe^x$; 2) $f(x) = chx.$

6.2.10. Berilganlarni 0,001 aniqlikda hisoblang:

1) $\sin 36^0$; 2) $\cos 32^0$;

3) $\sqrt[3]{e}$; 4) $\lg 10,09.$

6.3. FUNKSIYALARNI TEKSHIRISH VA GRAFIKLARINI CHIZISH

Funksiyaning o‘sishi va kamayishi. Funksiyaning ekstremumi. Funksiya grafigining botiqligi, qavariqligi va egilish nuqtalari. Funksiya grafigining asimptotalari. Funksiyani tekshirish va grafigini chizishning umumiy sxemasi

6.3.1. $y = f(x)$ funksiya X to‘plamda aniqlangan va $X_1 \subset X$ bo‘lsin.

Agar $\forall x_1, x_2 \in X_1$ uchun $x_1 < x_2$ bo‘lganda: $f(x_1) < f(x_2)$ $(f(x_1) > f(x_2))$ tengsizlik bajarilsa, $y = f(x)$ funksiyaga X_1 to‘plamda *o‘suvchi* (*kamayuvchi*) deyiladi.

Funksiya o‘suvchi va kamayuvchi bo‘lgan intervallar funksiyaning *monotonlik intervallari* deb ataladi.

$f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda differensiallanuvchi bo‘lsin:

1) $\forall x \in (a;b)$ da $f'(x) > 0$ bo‘lsa, funksiya $(a;b)$ intervalda o‘sadi;

2) $\forall x \in (a;b)$ da $f'(x) < 0$ bo‘lsa, funksiya $(a;b)$ intervalda kamayadi.

$1-$misol. $f(x) = 8 + 27x - x^3$ funksiyaning monotonlik intervallarini toping.

$D(f) = R.$ Hosilani topamiz: $f'(x) = 27 - 3x^2 = 3(9 - x^2)$.

U holda: 1) $f'(x) = 3(9 - x^2) > 0$ dan $|x| < 3$ yoki $-3 < x < 3;$

2) $f'(x) = 3(9 - x^2) > 0$ dan $|x| > 3$ yoki $x < -3$ va $x > 3.$

Demak, berilgan funksiya $(-3;3)$ intervalda o‘sadi, $(-\infty;-3) \cup (3;+\infty)$ intervalda kamayadi.

6.3.2. Agar x_0 nuqtaning shunday δ atrofi topilsaki, bu atrofning barcha $x \neq x_0$ nuqtalarida $f(x) < f(x_0)$ $\left(f(x) > f(x_0)\right)$tengsizlik bajarilsa, x_0 nuqtaga $f(x)$ funksiyaning *maksimum* (*minimum*) nuqtasi deyiladi.

Funksiyaning maksimum va minimum nuqtalariga *ekstremum* nuqtalar deyiladi. Funksiyaning ekstremum nuqtadagi qiymati *funksiyaning ekstremumi* deb ataladi

Teorema (*ekstremum mavjud bo'lishining zaruriy sharti*). Agar $f(x)$ funksiya x_0 nuqtada ekstremumga ega bo'lsa, u holda bu nuqtada uning hosilasi yoki nolga teng $\left(f'(x_0) = 0\right)$ bo'ladi yoki mavjud bo'lmaydi.

$f(x)$ funksiyaning hosilasi nolga teng bo'lgan yoki mavjud bo'lmagan nuqtaga *kritik* nuqta deyiladi. $f(x)$ funksiyaning hosilasi nolga teng bo'lgan nuqtaga *statsionar nuqta* deyiladi.

Teorema (*ekstremum mavjud bo'lishining birinchi yetarli sharti*). Agar $f(x)$ funksiya x_0 kritik nuqtaning biror δ atrofida differensiallanuvchi bo'lib, x_0 nuqtadan chapdan o'ngga o'tganda $f'(x)$ hosila: ishorasini musbatdan manfiyga o'zgartirsa x_0 nuqta maksimum nuqta bo'ladi; manfiydan musbatga o'zgartirsa x_0 nuqta minimum nuqta bo'ladi; ishorasini o'zgartirmasa x_0 nuqtada ekstremum mavjud bo'lmaydi.

$2-$misol. $f(x) = \sqrt[3]{x^2} - \dfrac{x}{3}$ funksiyaning ekstremumlarini toping.

$D(f) = R.$ Hosilani topamiz: $f'(x) = \dfrac{2}{3 \cdot \sqrt[3]{x}} - \dfrac{1}{3}$ yoki $f'(x) = \dfrac{1}{3} \cdot \dfrac{2 - \sqrt[3]{x}}{\sqrt[3]{x}}.$

Hosila $x_1 = 0$ nuqtada mavjud emas va $x_2 = 8$nuqtada nolga teng. Bu nuqtalar berilgan funksiyaning aniqlanish sohasini uchta $(-\infty;0),\ (0;8),\ (8;+\infty)$intervallarga ajratadi. Hosilaning har bir kritik nuqtadan chapdan o'ngga o'tgandagi ishoralarini chizmada belgilaymiz:



Demak, $x_1 = 0$minimum nuqta, $y_{\min} = f(0) = 0$ va $x_2 = 8$ maksimum nuqta, $y_{\max} = f(8) = \dfrac{4}{3}.$

Teorema (*ekstremum mavjud bo'lishining ikkinchi yetarli sharti*). $f(x)$ funksiya x_0 statsionar nuqtada ikkinchi tartibli $f''(x)$ hosilaga ega bo'lsin. U holda: $f''(x)<0$ bo'lsa x_0 nuqta maksimum nuqta bo'ladi; $f''(x)>0$ bo'lsa x_0 nuqta minimum nuqta bo'ladi.

$3-$misol. Asosi a ga va balandligi h ga teng uchburchakka eng katta yuzaga ega bo'lgan to'g'ri to'rtburchak ichki chizilgan. To'g'ri to'rtburchakning yuzasini toping.

To'g'ri to'rtburchakning tomonlari x va y bo'lsin.

Uchburchaklarning o'xshashlik alomatidan topamiz (1-shakl):

$$\frac{y}{a}=\frac{h-x}{h}.$$

U holda $y=\frac{a}{h}(h-x)$ va $S=xy=\frac{a}{h}(hx-x^2)$.

$$S'_x=\frac{a}{h}(h-2x)=0 \text{ dan } x=\frac{h}{2}.$$

Bu qiymatda $S''_x=-\frac{2a}{h}<0.$ Demak, to'g'ri to'rtburchak eng katta yuzaga ega bo'ladi.



1-shakl.

$x=\frac{h}{2}$ da $y=\frac{a}{h}\left(h-\frac{h}{2}\right)=\frac{a}{2}$ va eng katta to'g'ri to'rtburchak yuzasi

$$S=xy=\frac{a}{2}\cdot\frac{h}{2}=\frac{ah}{4} \text{ (yuza.b)}$$

$[a;b]$ kesmada uzluksiz $y=f(x)$ funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini topish uchun funksiyaning kesmadagi kritik nuqtalaridagi va kesmaning chetki nuqtalaridagi qiymatlari orasidan eng kattasi va eng kichigi tanlanadi.

$4-$misol. $y=x^3-3x$ funksiyaning $[0,2]$ kesmada eng katta va eng kichik qiymatlarini toping.

$f'(x)=3x^2-3=0$ dan $x_1=-1, x_2=1.$ Bu kritik nuqtalardan $x_2\in[0,2]$.

Funksiyaning $x_2=1$ nuqtadagi va kesmaning chetki nuqtalaridagi qiymatlarini topamiz va solishtiramiz: $f(1)=-2,\ f(0)=0,\ f(2)=2$.

Demak, $y_{eng\ katta}=f(2)=2;\quad y_{eng\ kichik}=f(1)=-2.$

6.3.3. Agar $(a;b)$ intervalning istalgan nuqtasida $y=f(x)$ funksiya grafigi unga o‘tkazilgan urinmadan yuqorida (pastda) yotsa, funksiya $(a;b)$ intervalda *botiq* (*qavariq*) deyiladi.

Teorema. Agar $y=f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda ikkinchi tartibli hosilaga ega bo‘lib, $\forall x\in(a;b)$da: $f''(x)<0$ bo‘lsa, funksiya $(a;b)$ intervalda qavariq bo‘ladi; $f''(x)>0$ bo‘lsa, funksiya $(a;b)$ intervalda botiq bo‘ladi.

$f(x)$ funksiya x_0 nuqtaning biror δ atrofida differensiallanuvchi bo‘lib, x_0 nuqtadan o‘tganda botiqligini qavariqlikka (yoki qavariqligini botiqlikka) o‘zgartirsa x_0 nuqta funksiyaning egilish nuqtasi deyiladi. Bunda $M(x_0;f(x_0))$ nuqta funksiya grafigining *egilish nuqtasi* deb ataladi.

Teorema (*egilish nuqta mavjud bo‘lishining zaruriy sharti*). Agar x_0 nuqta $f(x)$ funksiyaning egilish nuqtasi bo‘lsa, u holda bu nuqtada uning ikkinchi tartibli hosilasi yoki nolga teng $(f''(x_0)=0)$ bo‘ladi yoki mavjud bo‘lmaydi.

$f(x)$ funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasi nolga teng bo‘lgan yoki mavjud bo‘lmagan nuqtaga *ikkinchi tur kritik* nuqta deyiladi.

$f(x)$ funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasi nolga teng bo‘lgan nuqtaga *ikkinchi tur statsionar nuqta* deyiladi.

Teorema (*egilish nuqta mavjud bo‘lishining birinchi yetarli sharti*) $y=f(x)$ funksiya x_0 nuqtaning biror δ atrofida ikkinchi tartibli hosilaga ega bo‘lsin. Agar δ atrofning x_0 nuqtadan chap va o‘ng tomonlarida $f''(x)$ hosila har xil ishoraga ega bo‘lsa, u holda x_0 nuqta funksiya grafigining egilish nuqtasi bo‘ladi.

$5-$misol. $y=\dfrac{x}{1-x^2}$ funksiya grafigini botiq va qavariqlikka tekshiring.

$D(f)=(-\infty;-1)\cup(-1;1)\cup(1;\infty).$

$$y'=\left(\frac{x}{1-x^2}\right)'=\frac{x^2+1}{(1-x^2)^2},\qquad y''=\left(\frac{x^2+1}{(1-x^2)^2}\right)'=\frac{2x(x^2+3)}{(1-x^2)^3}.$$

Ikkinchi tartibli hosila $x_1=-1,\ x_2=0,\ x_3=1$ nuqtalarda nolga teng va mavjud emas.

$f''(x)$ hosilaning bu nuqtalardan chapdan o‘ngga o‘tgandagi ishoralarini chizmada belgilaymiz:



Demak, funksiyaning grafigi $(-1;0)$ va $(1;\infty)$ intervallarda qavariq, $(-\infty;-1)$ va $(0;1)$ intervallarda botiq bo‘ladi. $O(0;0)$ nuqta funksiya grafigining egilish nuqtasi bo‘ladi.

Teorema (*egilish nuqta mavjud bo‘lishining ikkinchi yetarli sharti*). $f(x)$ funksiya x_0 ikkinchi tur statsionar nuqtada uchinchi tartibli $f'''(x)$ hosilaga ega bo‘lsin. Agar $f'''(x) \neq 0$ bo‘lsa, u holda x_0 nuqta egilish nuqta bo‘ladi.

$6-$misol. $y=(x-3)^3+5x+4$ egri chiziqning egilish nuqtasini toping.

Funksiyanig uchinchi tartibligacha bo‘lgan hosilalarini topamiz:

$$y'=3(x-3)^2+5,\ \ y''=6(x-3),\ \ y'''=6.$$

Funksiyaning ikkinchi tartibli statsionar nuqtasini topamiz:

$y''=6(x-3)=0$ dan $x=3$. Bu nuqtada $y'''=6\neq 0$.

Demak, $x=3$ funksiyaning egilish nuqtasi. $x=3$ da $y=19$. Berilgan egri chiziqning egilish nuqtasi $M(3;19)$.

6.3.4. *Egri chiziqning asimptotasi* deb shunday to‘g‘ri chiziqqa aytiladiki, egri chiziqda yotuvchi M nuqta egri chiziq bo‘ylab harakat qilib koordinata boshidan cheksiz uzoqlashgani sari M nuqtadan bu to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa nolga intiladi.

Assimptotalar uch turga bo‘linadi: vertikal, gorizontal va og‘ma.

Agar $\lim\limits_{x\to x_0+0} f(x)$ yoki $\lim\limits_{x\to x_0-0} f(x)$ limitlardan hech bo‘lmaganda bittasi cheksiz ($+\infty$ yoki $-\infty$) bo‘lsa, $x=x_0$ to‘g‘ri chiziqqa $y=f(x)$ funksiya grafigining *vertikal asimptotasi* deyiladi.

Agar shunday k va b sonlari mavjud bo‘lib, $x\to\infty$ $(x\to-\infty)$ da $f(x)$ funksiya

$$f(x)=kx+b+\alpha(x),\ \ \lim_{x\to\pm\infty}\alpha(x)=0$$

ko‘rinishda ifodalansa, $y=kx+b$ to‘g‘ri chiziqqa $y=f(x)$ funksiya grafigining *og‘ma asimptotasi* deyiladi. Bu yerda

$$k=\lim_{x\to+\infty}\frac{f(x)}{x},\quad b=\lim_{x\to+\infty}\big(f(x)-kx\big).$$

Agar $\lim\limits_{x\to+\infty}\frac{f(x)}{x}$, $\lim\limits_{x\to+\infty}\big(f(x)-kx\big)$ limitlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lmasa yoki cheksiz bo‘lsa, $f(x)$ funksiya grafigi og‘ma asimptotaga ega bo‘lmaydi.

Agar $k=0$ bo‘lsa, $b=\lim\limits_{x\to+\infty} f(x)$ bo‘ladi. Bunda $y=b$ to‘g‘ri chiziqqa $f(x)$ funksiya grafigining *gorizontal asimptotasi* deyiladi.

Izoh. $y=f(x)$ funksiya grafigining asimptotalari $x\to+\infty$ da va $x\to-\infty$ da har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli k va b ni aniqlashda $x\to+\infty$ va $x\to-\infty$ hollarini alohida qarash lozim.

$7-$misol. $y=\frac{x^2-3}{x}$ funksiya grafigining asimptotalarini toping.

$$\lim_{x\to0+}\frac{x^2-3}{x}=+\infty,\quad \lim_{x\to0-}\frac{x^2-3}{x}=-\infty.$$

Demak, $x=0$ to‘g‘ri chiziq vertikal asimptota.

$$\lim_{x\to+\infty} f(x)=\lim_{x\to+\infty}\frac{x^2-3}{x}=+\infty \quad \text{va} \quad \lim_{x\to+\infty} f(x)=\lim_{x\to-\infty}\frac{x^2-3}{x}=-\infty.$$

Demak, gorizontal asimptota yo‘q.

$$k=\lim_{x\to+\infty}\frac{f(x)}{x}=\lim_{x\to+\infty}\frac{x^2-3}{x^2}=1,\quad b=\lim_{x\to+\infty}(f(x)-kx)=\lim_{x\to+\infty}\left(\frac{x^2-3}{x}-x\right)=\lim_{x\to+\infty}\frac{-3}{x}=0,$$

$$k=\lim_{x\to-\infty}\frac{f(x)}{x}=\lim_{x\to-\infty}\frac{x^2-3}{x^2}=1,\ b=\lim_{x\to-\infty}(f(x)-kx)=\lim_{x\to-\infty}\left(\frac{x^2-3}{x}-x\right)=\lim_{x\to-\infty}\frac{-3}{x}=0.$$

Bundan $y=kx+b=x$. Demak, $y=x$ to‘g‘ri chiziq og‘ma asimptota.

6.3.5. Funksiyani tekshirish va grafigini chizishni ma’lum tartibda (masalan, quyidagicha) bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1^o. Funksiyaning aniqlanish sohasini topish.

2^o. Funksiya grafigining koordinata o‘qlari bilan kesishadigan nuqtalarini (agar ular mavjud bo‘lsa) aniqlash.

3^o. Funksiyaning ishorasi o‘zgarmaydigan intervallarni ($f(x)>0$ yoki $f(x)<0$ bo‘ladigan intervallarni) aniqlash.

4^o. Funksiyaning juft-toqligini tekshirish.

5^o. Funksiya grafigining asimptotalarini topish.

6^o. Funksiyaning monotonlik intervallarini aniqlash.

7^o. Funksiyaning ekstremumlarini topish.

8^o. Funksiyaning qavariqlik va botiqlik intervallarini hamda egilish nuqtalarini aniqlash.

$1^o - 8^o$ bandlardagi tekshirishlar asosida funksiyaning grafigini chizish.

Keltirilgan sxema albatta bajarilishi shart emas. Soddaroq hollarda keltirilgan bandlardan ayrimlarini, masalan $1^o, 2^o, 7^o$ ni bajarish yetarli bo‘ladi. Agar funksiya grafigi juda tushunarli bo‘lmasa, $1^o - 8^o$ bandlardan keyin funksiyaning davriyligini tekshirish, funksiyaning bir nechta qo‘shmcha nuqtalarini topish va funksiyaning boshqa xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha qo‘shimcha tekshirishlar o‘tkazish mumkin.

$8-$misol. $y = \dfrac{x^2+1}{x^2-1}$ funksiyani tekshiring va grafigini chzing.

1^o. Funksiyaning aniqlanish sohasi:

$$D(f) = (-\infty;-1) \cup (-1;1) \cup (1;+\infty).$$

2^o. $x=0$ da $y=-1$ bo‘ladi. Funksiya Oy o‘qini $(0;-1)$ nuqtada kesadi. $y \neq 0$ bo‘lgani uchun funksiya Ox o‘qini kesmaydi.

3^o. Funksiya $(-\infty;-1)$ va $(1;+\infty)$ intervallarda musbat ishorali va $(-1;1)$ intervalda manfiy ishorali.

4^o. Funksiya uchun $f(-x) = f(x)$ bo‘ladi. Demak, u juft.

5^o. $\lim\limits_{x\to -1-0} \dfrac{x^2+1}{x^2-1} = +\infty, \quad \lim\limits_{x\to -1+0} \dfrac{x^2+1}{x^2-1} = -\infty,$

$$\lim_{x\to 1-0} \frac{x^2+1}{x^2-1} = -\infty, \quad \lim_{x\to -1+0} \frac{x^2+1}{x^2-1} = +\infty.$$

Demak, $x=-1$ va $x=1$ to‘g‘ri chiziqlar vertikal asimptotalar bo‘ladi.

$$k = \lim_{x\to+\infty} \frac{x^2+1}{x(x^2-1)} = 0 \ (x \to +\infty \text{ da ham } x \to -\infty \text{ da ham } k=0),$$

$$b = \lim_{x\to+\infty} \left(\frac{x^2+1}{x^2-1} - 0 \cdot x \right) = 1.$$

U holda $y=1$ to‘g‘ri chiziq gorizontal asimptota bo‘ladi.

$y=1$ to‘g‘ri chiziq $x \to +\infty$ da ham $x \to -\infty$ da ham gorizontal asimptota bo‘ladi.

6^o. Funksiyaning o‘sish va kamayish intervallarini topamiz.

$$y' = \frac{2x(x^2-1) - 2x(x^2+1)}{(x^2-1)^2} = -\frac{4x}{(x^2-1)^2}.$$

Bundan $x<0$ da $y>0$ va $x>0$ da $y<0$.
Demak, funksiya $(-\infty;0)$ intervalda o‘sadi va $(0;+\infty)$ intervalda kamayadi.

7^o. Funksiyani ekstremumga tekshiramiz. Hosila $x=-1$ va $x=1$ da mavjud emas va $x=0$ da nolga teng. Bu nuqtalar berilgan funksiyaning aniqlanish sohasini to‘rtta $(-\infty;-1)$, $(-1;0)$, $(0;1)$, $(1;+\infty)$ intervallarga ajratadi.

Hosilaning har bir kritik nuqtadan chapdan o‘ngga o‘tgandagi ishoralarini chizmada belgilaymiz:



Demak, $x=0$ maksimum nuqta,

$$y_{\max}=f(0)=-1.$$

8^o. Funksiyani qavariqlikka va botiqlikka tekshiramiz va egilish nuqtalarini topamiz.

$$y''==\left(-\frac{4x}{(x^2-1)^2}\right)'=$$

$$-4\frac{(x^2-1)^2-x\cdot 2(x^2+1)\cdot 2x}{(x^2-1)^4}=\frac{4(1+3x^2)}{(x^2-1)^3}$$

Ikkinchi tartibli hosila $x_1=-1,\ x_3=1$

nuqtalarda mavjud emas.

y'' hosilaning bu nuqtalardan chapdan o‘ngga o‘tgandagi ishoralarini chizmada belgilaymiz:



Demak, funksiyaning grafigi $(-1;1)$ intervalda qavariq, $(-\infty;-1)$ va $(1;+\infty)$ intervallarda botiq bo‘ladi. Funksiya grafigining egilish nuqtasi yo‘q.

1^o-8^o bandlardagi tekshirishlar asosida funksiya grafigini chizamiz (2-shakl).



2-shakl.

Mustahkamlash uchun mashqlar

6.3.1. Berilgan funksiyalarning monotonlik intervallarini va ekstremumlarini toping:

1) $f(x)=x^3-9x^2+15x;$ 2) $f(x)=\frac{x^3}{3}-\frac{x^2}{2}-2x;$

3) $f(x)=\frac{x^2}{4-x^2};$ 4) $f(x)=\frac{4x}{x^2+4};$

5) $f(x)=x\sqrt{1-x^2};$ 6) $f(x)=3\sqrt[3]{x^2}-x^2;$

7) $f(x)=xe^{-x};$ 8) $f(x)=ch^2x;$

9) $f(x)=\ln(x^2+1);$ 10) $f(x)=\frac{x}{\ln x};$

11) $f(x)=x-2\sin x,\ 0\le x\le 2\pi;$ 12) $f(x)=x+2\cos^2 x,\ 0\le x\le \pi$.

6.3.2. Funksiyalarning berilgan kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatlarini toping:

1) $f(x)=x^3-3x,\ [0;2];$ 2) $f(x)=x^3+3x^2-9x-10,\ [-4;0];$

3) $f(x)=x+\cos 2x,\ \left[0;\frac{\pi}{3}\right];$ 4) $f(x)=x^3\ln x,\ [1;e].$

6.3.3. Jism $S=21t+3t^2-t^3$ qonun bilan harakatlanmoqda. Jismning eng katta tezligini toping.

\end{array}$$

Bundan

$$\frac{x^5-3x^4+7x^3-8x^2+6x-1}{x^3-3x^2+4x-2}=x^3+3+\frac{3x^2-6x+5}{x^3-3x^2+4x-2}.$$

To‘g‘ri kasrning maxrajini ko‘paytuvchilarga ajratamiz:

$$x^3-3x^2+4x-2=(x-1)(x^2-2x+2).$$

To‘g‘ri kasrni sodda kasrlarga yoyamiz:

$$\frac{3x^2-6x+5}{x^3-3x^2+4x-2}=\frac{A}{x-1}+\frac{Bx+C}{x^2-2x+2}.$$

Yoyilmaning koeffitsiyentlarini topamiz:

$$3x^2-6x+5=A(x^2-2x+2)+B(x^2-x)+C(x-1).$$

Bundan

$$\begin{cases} x^2: \ A+B=3, \\ x^1: \ -2A-B+C=-6, \\ x^0: \ 2A-C=5. \end{cases}$$

yoki $A=2,\ B=1,\ C=-1.$

Shunday qilib,

$$\frac{3x^2-6x+5}{x^3-3x^2+4x-2}=\frac{2}{x-1}+\frac{x-1}{x^2-2x+2}.$$

Ko‘phad va sodda kasrlar yig‘indisini integrallaymiz:

$$\int\frac{x^5-3x^4+7x^3-8x^2+6x-1}{x^3-3x^2+4x-2}dx=\int(x^2+3)dx+2\int\frac{dx}{x-1}+\int\frac{x-1}{x^2-2x+2}dx=$$

$$=\frac{x^3}{3}+3x+2\ln|x-1|-\frac{1}{2}\int\frac{d(x^2-2x+2)}{x^2-2x+2}==\frac{x^3}{3}+3x+2\ln|x-1|-$$

$$-\frac{1}{2}\ln|x^2-2x+2|+C==\frac{x^3}{3}+3x+\frac{1}{2}\ln\frac{(x-1)^4}{x^2-2x+2}+C.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.3.1. Berilgan to‘g‘ri kasrlarni sodda kasrlar yig‘indisiga yoying va koeffitsiyentlarni noma’lum koeffitsiyentlar usuli bilan toping:

1) $\frac{x^2+4x+1}{x^3+x^2}$; 2) $\frac{3x^3-5x^2+8x-4}{x^4+4x^2}$;

3) $\frac{3x-2}{x^3+x^2-2x}$; 4) $\frac{x^2+5x+1}{x^4+x^2+1}$.

7.3.2. Berilgan to‘g‘ri kasrlarni sodda kasrlar yig‘indisiga yoying va koeffitsiyentlarni ixtiyoriy qiymatlar usuli bilan toping:

1) $\frac{x^2+2x+3}{x^4+x^3}$; 2) $\frac{2x^2-11x-6}{x^3+x^2-6x}$;

3) $\frac{3x^3-2x^2-2x+7}{x^4-x^2}$; 4) $\frac{2x-1}{x^4+x}$.

7.3.3. Integrallarni toping:

1) $\int\frac{2x+3}{(x-2)(x+5)}dx$; 2) $\int\frac{xdx}{(x+1)(2x+1)}$;

3) $\int\frac{xdx}{(x+1)(x+2)(x+3)}$; 4) $\int\frac{8xdx}{(x+1)(x^2+6x+5)}$;

5) $\int\frac{3x^2+2x-3}{x(x-1)(x+1)}dx$; 6) $\int\frac{x^3-1}{4x^3-x}dx$;

7) $\int\frac{2x^3+2x^2+4x+3}{x^3+x^2}dx$; 8) $\int\frac{2+5x^3}{x(x^2-5x+4)}dx$;

9) $\int\frac{x^3-3}{x^3-2x^2-x+2}dx$; 10) $\int\frac{dx}{x^2(x^2+1)}$;

11) $\int\frac{dx}{x(1+x^2)}$; 12) $\int\frac{dx}{1+x^3}$;

13) $\int\frac{x^4+3x^3+2x^2+x+1}{x^2+x+1}dx$; 14) $\int\frac{x^9dx}{x^4-1}$;

15) $\int\frac{dx}{x^4-1}$; 16) $\int\frac{dx}{(x^2+9)^3}$;

17) $\int\frac{3x+5}{(x^2+2x+2)^2}dx$; 18) $\int\frac{x^4+2x^2+x}{(x-1)(x^2+4)^2}dx$;

19) $\int\frac{dx}{(x^2+4x+5)(x^2+4x+13)}$; 20) $\int\frac{dx}{(x+1)^2(x^2+1)}$;

21) $\int\frac{dx}{(x^2+1)^4}$; 22) $\int\frac{2x-1}{(x^2-2x+5)^2}dx$;

23) $\int\frac{2x+3}{(x^2-3x+3)^2}dx$; 24) $\int\frac{3x^2-10x+12}{x^4+13x^2+36}dx$.

7.4. TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARNI INTEGRALLASH

$\int R(\sin x, \cos x)dx$ ko‘rinishidagi integrallar.

$\int \sin^n x \cos^m x dx$ ko‘rinishidagi integrallar.

$\int tg^n x dx$, $\int ctg^n x dx$ ko‘rinishidagi integrallar.

$\int \sin mx \cos nx dx$, $\int \sin mx \sin nx dx$, $\int \cos mx \cos nx dx$ ko‘rinishidagi integrallar

7.4.1. $\int R(\sin x, \cos x)dx$ ko‘rinishidagi integralni hamma vaqt *universal trigonometrik o‘rniga qo‘yish* deb ataluvchi $tg\frac{x}{2}=t$ o‘rniga qo‘yish orgali t o‘zgaruvchili ratsional funksiyaning integraliga almashtirish, ya’ni *ratsionallashtirish* mumkin.

Bunda $\int R(\sin x, \cos x)dx$ ifodadan

$$\sin x = \frac{2tg\frac{x}{2}}{1+tg^2\frac{x}{2}} = \frac{2t}{1+t^2}, \quad \cos x = \frac{1-tg^2\frac{x}{2}}{1+tg^2\frac{x}{2}} = \frac{1-t^2}{1+t^2}, \quad x = arctgt, \quad dx = \frac{2dt}{1+t^2}$$

o‘rniga qo‘yishlar yordamida t o‘zgaruvchili

$$\int R\left(\frac{2t}{1+t^2}, \frac{1-t^2}{1+t^2}\right)\cdot\frac{2dt}{1+t^2} = \int R_1(t)dt$$

ratsional funksiya kelib chiqadi.

1 – misol. $\int \frac{dx}{2\cos x - 3\sin x + 3}$ integralni toping.

$tg\frac{x}{2}=t$ deymiz. U holda

$$\int \frac{dx}{2\cos x - 3\sin x + 3} = \int \frac{\frac{2dt}{1+t^2}}{2\cdot\frac{1-t^2}{1+t^2} - 3\cdot\frac{2t}{1+t^2} + 3} = 2\int\frac{dt}{t^2-6t+5} = 2\int\frac{dt}{(t-1)(t-5)} =$$

$$= \frac{1}{2}\left(\ln|t-5| - \ln|t-1|\right) + C = \frac{1}{2}\ln\left|tg\frac{x}{2}-5\right| - \ln\left|tg\frac{x}{2}-1\right| + C.$$

$\int R(\sin x, \cos x)dx$ ko‘rinishidagi integralni quyidagi o‘rniga qo‘yishlar orqali ham topish mumkin:

a) $R(\sin x, \cos x)$ ifoda $\sin x$ ga nisbatan toq bo‘lganda uning integrali $\cos x = t$ o‘rniga qo‘yish orqali ratsionallashtiradi;

b) $R(\sin x, \cos x)$ ifoda $\cos x$ ga nisbatan toq bo‘lganda uning integrali $\sin x = t$ o‘rniga qo‘yish bilan ratsionallashtiriladi;

c) $R(\sin x, \cos x)$ ifoda $\sin x$ va $\cos x$ larga nisbatan juft bo‘lganda uning integralini $tgx = t$ o‘rniga qo‘yish ratsionallashtiradi. Bunda quyidagi almashtirishlardan foydalaniladi:

$$\sin^2 x = \frac{tg^2 x}{1+tg^2 x} = \frac{t^2}{1+t^2}, \quad \cos^2 x = \frac{1}{1+tg^2 x} = \frac{1}{1+t^2}, \quad x = arctgt, \quad dx = \frac{dt}{1+t^2}.$$

$2-$misol. Integrallarni toping:

1) $\int \frac{\sin x dx}{\cos^2 x - 2\cos x + 5}$; 2) $\int \frac{dx}{3\sin^2 x - 4}$.

1) Integral ostidagi funksiya $\sin x$ ga nisbatan toq funksiya. Shu sababli $\cos x = t, \ -\sin x dx = dt$ deb olamiz.

U holda

$$\int \frac{\sin x dx}{\cos^2 x - 2\cos x + 5} = -\int \frac{dt}{t^2 - 2t + 5} = -\int \frac{d(t-1)}{(t-1)^2 + 4} =$$

$$= -\frac{1}{2} arctg\left(\frac{t-1}{2}\right) + C = -\frac{1}{2} arctg \frac{\cos x - 1}{2} + C.$$

2) Integral ostidagi funksiya $\sin x$ ga nisbatan juft funksiya, shu sababli $tgx = t$ o‘rniga qo‘yishdan foydalanamiz:

$$\int \frac{dx}{3\sin^2 x - 4} = \int \frac{\frac{dt}{1+t^2}}{\frac{3t^2}{1+t^2} - 4} = -\int \frac{dt}{t^2+4} = -\frac{1}{2} arctg \frac{t}{2} = -\frac{1}{2} arctg\left(\frac{tgx}{2}\right) + C.$$

7.4.2. $\int \sin^n x \cos^m x dx$ ko‘rinishidagi integrallar m va n butun sonlarga bog‘liq holda quyidagicha topiladi:

a) $n > 0$ va toq bo‘lganda $\cos x = t$ o‘rniga qo‘yish integralni ratsionallashtiradi;

a) $m > 0$ va toq bo‘lganda $\sin x = t$ o‘rniga qo‘yish orqali integral ratsionallashtiriladi;

c) m va n sonlarining har ikkalasi juft va nomanfiy bo‘lsa,

$$\sin^2 x = \frac{1-\cos 2x}{2}, \quad \cos^2 x = \frac{1+\cos 2x}{2}$$

formulalari bilan integral ostidagi ifodada daraja ko‘rsatkichlar pasaytiriladi;

d) $m+n<0$ va juft bo‘lganda $tgx = t$ yoki $ctgx = t$ o‘rniga qo‘yish bajariladi. Bunda $m<0$ va $n<0$ bo‘lsa, suratda $1=(\sin^2 x+\cos^2 x)^k$ almashtirishdan foydalaniladi, bu yerda $k = \frac{|m+n|}{2} - 1$;

e) $m,n \le 0$ va ulardan biri toq bo‘lganda $\sin x$ va $\cos x$ lardan qaysi birining darajasi toqligiga qarab, surat va maxrajni shu funksiyaga qo‘shimcha ko‘paytirishdan foydalaniladi.

$3-$misol. Integrallarni toping:

1) $\int \sin^2 x\cos^3 x dx$; 2) $\int \sin^4 x \cos^2 x dx$; 3) $\int \frac{dx}{\sin^4 x\cos^2 x}$.

1) $\int \sin^2 x\cos^3 x dx$ $(m>0$ *va toq*, $\sin x = t) = \int \sin^2 x\cos^2 x\cos x dx =$

$$= \int t^2(1-t^2)dt = \int t^2 dt - \int t^4 dt = \frac{t^3}{3} - \frac{t^5}{5} + C = \frac{1}{3}\sin^3 x - \frac{1}{5}\sin^5 x + C.$$

2) $\int \sin^2 x\cos^4 x dx$ $(n,m \ge 0$ *va juft*$) = \int (\sin x\cos x)^2 \cos^2 x dx =$

$$= \int\left(\frac{\sin^2 2x}{4}\right)\cdot\left(\frac{1+\cos 2x}{2}\right)dx = \frac{1}{8}\int(\sin^2 2x + \sin^2 2x\cos 2x)dx =$$

$$= \frac{1}{8}\int\frac{1-\cos 4x}{2}dx + \frac{1}{16}\int \sin^2 2x d(\sin 2x) =$$

$$= \frac{1}{16}\left(x - \frac{\sin 4x}{4}\right) + \frac{\sin^3 2x}{48} + C = \frac{1}{16}\left(x - \frac{\sin 4x}{4} + \frac{\sin^3 2x}{3}\right) + C.$$

3) $\int \frac{dx}{\sin^4 x\cos^2 x}$ integralda $n=-4$, $m=-2$, $n+m=-6<0$, $k=\frac{|m+n|}{2}-1=2$.

Demak,

$$\int\frac{dx}{\sin^4 x\cos^2 x} = \int\frac{(\sin^2 x+\cos^2 x)^2}{\sin^4 x\cos^2 x}dx = \int\frac{\sin^4 x + 2\sin^2 x\cos^2 x + \cos^4 x}{\sin^4 x\cos^2 x}dx =$$

$$= \int\frac{dx}{\cos^2 x} + 2\int\frac{dx}{\sin^2 x} + \int\frac{\cos^2 x dx}{\sin^4 x}dx = tgx - 2ctgx - \int ctg^2 x d(ctgx) =$$

$$= -\frac{1}{3}ctg^3 x - 2ctgx + tgx + C.$$

7.4.3. $\int tg^n xdx$ va $\int ctg^n xdx$ (bu yerda $n>0$ butun son) ko'rinishidagi integrallar mos rasvishda $tgx=t$ va $ctgx=t$ o'rniga qo'yish orqali topiladi.

Bunday integrallarni o'rniga qo'yishlardan foydalanmasdan, bevosita

$$tg^2 x=\frac{1}{\cos^2 x}-1,\ ctg^2 x=\frac{1}{\sin^2 x}-1$$

formulalarni qo'llab topish mumkin.

$4-$misol. $\int tg^4 xdx$ integralni toping.

1-usul. $\int tg^4 xdx=\left|tgx=t,\ dx=\frac{dt}{1+t^2}\right|=\int\frac{t^4dt}{1+t^2}=\int t^2dt-\int dt+\int\frac{dt}{1+t^2}=$

$$=\frac{t^3}{3}-t+arctgt=\frac{1}{3}tg^3x-tgx+arctg(tgx)+C=\frac{1}{3}tg^3x-tgx+x+C.$$

2-usul. $\int tg^4 xdx=\int tg^2x\cdot tg^2xdx=\int tg^2x\cdot\left(\frac{1}{\cos^2 x}-1\right)dx=$

$$=\int tg^2x\cdot\frac{1}{\cos^2 x}-\int tg^2xdx=\int tg^2xd(tgx)-\int\left(\frac{1}{\cos^2 x}-1\right)dx=$$

$$=\frac{1}{3}tg^3x-\int d(tgx)+\int dx=\frac{1}{3}tg^3x-tgx+x+C.$$

7.4.4. $\int\sin mx\cos nxdx,\ \int\sin mx\sin nxdx,\ \int\cos mx\cos nxdx$ ko'rinishdagi integrallar

$$\sin mx\cos nx=\frac{1}{2}(\sin(m+n)x+\sin(m-n)x),$$

$$\sin mx\sin nx=\frac{1}{2}(\cos(m-n)x-\cos(m+n)x),$$

$$\cos mx\cos nx=\frac{1}{2}(\cos(m+n)x+\cos(m-n)xd)$$

trigonometrik formulalar yordamida topiladi.

$5-$misol. $\int\sin 3x\cdot\cos 5xdx$ integralni toping.

$\int\sin 3x\cdot\cos 5xdx=\frac{1}{2}\int(\sin 8x-\sin 2x)dx=$

$$=\frac{1}{2}\left(-\frac{1}{8}\cos 8x+\frac{1}{2}\cos 2x\right)+C=\frac{1}{16}(4\cos 2x-\cos 8x)+C.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.4.1. Berilgan integrallarni toping:

1) $\int \frac{dx}{5+4\sin x}$;

2) $\int \frac{dx}{2\sin x+\sin 2x}$;

3) $\int \frac{dx}{3+5\sin x+3\cos x}$;

4) $\int \frac{dx}{4+2\sin x+3\cos x}$;

5) $\int \frac{\sin xdx}{\sqrt{3-\cos^2 x}}$;

6) $\int \frac{3\cos^3 xdx}{\sin^4 x}$;

7) $\int \frac{\cos^3 xdx}{1+\sin^2 x}$;

8) $\int \frac{\cos^4 x+\sin^4 x}{\cos^2 x-\sin^2 x}dx$;

9) $\int \sin^2 x\cos^4 xdx$;

10) $\int \frac{dx}{\sin x\cos^3 x}$;

11) $\int \frac{dx}{2+3\sin^2 x-7\cos^2 x}$;

12) $\int ctg^3 2xdx$;

13) $\int \frac{\sin^2 xdx}{1+\cos^2 x}$;

14) $\int \cos 2x\cos 5xdx$;

15) $\int \sin^2 x\cos 3xdx$;

16) $\int \cos x\cos 2x\cos 3xdx$.

7. 5. GIPERBOLIK FUNKSIYALARNI INTEGRALLASH

Giberbolik funksiyalarni integrallash trigonometrik funksiyalarni integrallash kabi amalga oshiriladi. Bunda giperbolik funksiyalar uchun o‘rinli bo‘ladigan quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$ch^2 x-sh^2 x=1,\quad 2shx\cdot chx=sh2x,\quad ch^2 x=\frac{ch2x+1}{2},\quad sh^2 x=\frac{ch2x-1}{2},$$

$$1-th^2 x=\frac{1}{ch^2 x},\quad cth^2 x-1=\frac{1}{sh^2 x},\quad shx=\frac{2th\frac{x}{2}}{1-th^2\frac{x}{2}},\quad shx=\frac{1+th^2\frac{x}{2}}{1-th^2\frac{x}{2}}.$$

$1-$misol. Integrallarni toping:

1) $\int \frac{dx}{shx}$;

2) $\int \frac{dx}{ch^4 x}$;

3) $\int th^3 x dx$; 4) $\int \frac{dx}{3chx + 2shx}$.

1) $\int \frac{dx}{shx} = \int \frac{dx}{2sh\frac{x}{2}ch\frac{x}{2}} = \int \frac{1}{th\frac{x}{2}} \cdot \frac{\frac{dx}{2}}{ch^2\frac{x}{2}} = \int \frac{d\left(th\frac{x}{2}\right)}{th\frac{x}{2}} = \ln\left|th\frac{x}{2}\right| + C.$

2) $\int \frac{dx}{ch^4 x} = \int \frac{1}{ch^2 x} \cdot \frac{dx}{ch^2 x} = \int (1 - th^2 x) d(thx) = thx - \frac{1}{3} th^3 x + C.$

3) $\int th^3 x dx = \int thx \cdot th^2 x dx = \int thx\left(1 - \frac{1}{ch^2 x}\right)dx = \int thx dx - \int thx d(thx) =$

$= \int \frac{shx dx}{chx} - \frac{1}{2} th^2 x = \int \frac{d(chx)}{chx} - \frac{1}{2} th^2 x = \ln|chx| - \frac{1}{2} th^2 x + C.$

4) $th\frac{x}{2} = t$ belgilash kiritamiz. $dx = \frac{2dt}{1-t^2}, shx = \frac{2t}{1-t^2}, shx = \frac{1+t^2}{1-t^2}$ o‘rniga qo‘yishlar yordamida topamiz:

$$\int \frac{dx}{3chx + 2shx} = \int \frac{\frac{2dt}{1-t^2}}{3 \cdot \frac{1+t^2}{1-t^2} + 2 \cdot \frac{2t}{1-t^2}} = \frac{2}{3} \int \frac{dt}{t^2 + \frac{4}{3}t + 1} =$$

$$= \frac{2}{3} \int \frac{d\left(t + \frac{2}{3}\right)}{\left(t + \frac{2}{3}\right)^2 + \left(\frac{\sqrt{5}}{3}\right)^2} = \frac{2}{\sqrt{5}} arctg\left(\frac{3t+2}{\sqrt{5}}\right) + C = \frac{2}{\sqrt{5}} arctg\left(\frac{3th\frac{x}{2} + 2}{\sqrt{5}}\right) + C.$$

Giberbolik funksiyalarni o‘z ichiga olgan integrallarni $R(e^x)$ ratsional funksiyaning integraliga keltirib topish mumkin. Bunda $\int R(e^x)dx$ ko‘rinishdagi integrallar $e^x = t$ o‘rniga qo‘yish yordamida ratsionallashtiriladi.

2 – misol. Integrallarni toping:

1) $\int \frac{dx}{chx}$; 2) $\int \frac{2e^x - 1}{e^{2x} - e^x - 2} dx.$

1) $\int \frac{dx}{chx} = \int \frac{2dx}{e^x + e^{-x}} = 2\int \frac{e^x dx}{e^{2x} + 1} = (e^x = t,\ e^x dx = dt) = 2\int \frac{dt}{t^2 + 1} =$

$= 2\arg tgt + C = 2arctge^x + C.$

$$2)\int\frac{2e^x-1}{e^{2x}-e^x-2}dx=\left(e^x=t,\ dx=\frac{dt}{t}\right)=\int\frac{2t-1}{t(t^2-t-2)}dt=\int\frac{2t-1}{t(t+1)(t-2)}dt.$$

Ratsional kasrni sodda kasrlarga yoyamiz:

$$\frac{2t-1}{t(t+1)(t-2)}=\frac{A}{t}+\frac{B}{t+1}+\frac{C}{t-2}.$$

Yoyilmaning koeffitsiyentlarini topamiz:

$$2t-1=A(t^2-t-2)+B(t^2-2t)+C(t^2+t).$$

Bundan

$$\begin{cases} t^2:\ A+B+C=0,\\ t^1:\ -A-2B+C=2,\\ x^0:\ -2A=-1.\end{cases}$$

yoki $A=\frac{1}{2},\ B=-1,\ C=\frac{1}{2}.$

Shunday qilib,

$$\int\frac{2e^x-1}{e^{2x}-e^x-2}dx=\int\frac{2t-1}{t(t+1)(t-2)}dt=\frac{1}{2}\int\frac{dt}{t}-\int\frac{dt}{t+1}+\frac{1}{2}\int\frac{dt}{t-2}=$$

$$=\frac{1}{2}\ln t-\ln(t+1)+\frac{1}{2}\ln(t-2)+C=$$

$$=\frac{1}{2}\ln\frac{|t(t-2)|}{(t+1)^2}+C=\frac{1}{2}\ln\frac{|e^x(e^x-2)|}{(e^x+1)^2}+C.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.5.1. Berilgan integrallarni toping:

1) $\int\frac{chxdx}{\sqrt{1+sh^2x}}$;
2) $\int sh^4\frac{x}{8}ch^3\frac{x}{8}dx$;
3) $\int xsh^2xdx$;
4) $\int\frac{thxdx}{\sqrt{chx-1}}$;
5) $\int\frac{dx}{ch^6x}$;
6) $\int\frac{chxdx}{\sqrt{ch2x}}$;
7) $\int th^5xdx$;
8) $\int cth^4xdx$;
9) $\int\frac{e^{2x}+1}{e^{2x}-1}dx$;
10) $\int\frac{dx}{e^xshx}$.

7. 6. IRRATSIONAL FUNKSIYALARNI INTEGRALLASH

$\int R\left(x,\left(\frac{ax+b}{cx+d}\right)^{\frac{m_1}{n_1}},\left(\frac{ax+b}{cx+d}\right)^{\frac{m_2}{n_2}},...\right)dx$ **ko'rinishidagi integrallar.**

$\int R\left(x,\sqrt{ax^2+bx+c}\right)dx$ **ko'rinishidagi integrallar.**

$\int x^m(a+bx^n)^p\,dx$ **binominal differensial integrali**

7.6.1. $\int R\left(x,\left(\frac{ax+b}{cx+d}\right)^{\frac{m_1}{n_1}},\left(\frac{ax+b}{cx+d}\right)^{\frac{m_2}{n_2}},...\right)dx$ ($R-$ratsional funksiya, $m_1,n_1,m_2,n_2,...-$butun sonlar) $\frac{ax+b}{cx+d}=t^s$ o'rniga qo'yish yordamida ratsional funksiyaning integraliga keltiriladi, bunda $s=EKUK(n_1,n_2,...)$.

$1-$misol. Integrallarni toping:

1) $\int\frac{1}{x}\sqrt{\frac{2+x}{2-x}}dx$; 2) $\int\frac{4x^2+\sqrt[3]{2x+1}}{\sqrt{2x+1}}dx$.

1) $\frac{2+x}{2-x}=t^2$ deymiz. Bundan $x=2\frac{t^2-1}{t^2+1}$, $dx=\frac{8tdt}{(t^2+1)^2}$.

U holda

$$\int\frac{1}{x}\sqrt{\frac{2+x}{2-x}}dx=\int\frac{t^2+1}{2(t^2-1)}\cdot t\cdot\frac{8tdt}{(t^2+1)^2}=4\int\frac{t^2dt}{(t^2-1)(t^2+1)}=$$

$$=2\left(\int\frac{1}{t^2-1}+\frac{1}{t^2+1}\right)dt=2\int\frac{dt}{t^2+1}+2\int\frac{dt}{t^2-1}=2arctgt+\ln\left|\frac{t-1}{t+1}\right|+C=$$

$$=2arctg\sqrt{\frac{2+x}{2-x}}+\ln\left|\frac{\sqrt{2+x}-\sqrt{2-x}}{\sqrt{2+x}+\sqrt{2-x}}\right|+C.$$

2) $EKUK(2,3)=6$. $2x+1=t^6$ deymiz. U holda

$$\sqrt{2x+1}=t^3,\ \sqrt[3]{2x+1}=t^2,\ dx=3t^5dt.$$

Demak,

$$\int\frac{4x^2+\sqrt[3]{2x+1}}{\sqrt{2x+1}}dx=\int\frac{(t^6-1)^2+t^2}{t^3}\cdot 3t^5dt=3\int t^2(t^{12}-2t^6+t^2+1)dt=$$

$$=3\left(\frac{t^{15}}{15}-2\frac{t^9}{9}+\frac{t^5}{5}+\frac{t^3}{3}\right)+C=\frac{t^3}{15}(3t^{12}-10t^6+9t^2+15)+C=$$

$$=\frac{\sqrt{2x+1}}{15}\cdot(12x^2-8x+9\sqrt[3]{2x+1}+8)+C.$$

7.6.2. $\int R\left(x,\sqrt{ax^2+bx+c}\right)dx$ ko‘rinishdagi integrallar *Eylerning uchta o‘rniga qo‘yichi* orqali ratsional funksiyalardan olinadigan integrallarga keltiriladi:

a) $a>0$ bo‘lganda $\sqrt{ax^2+bx+c}=t\pm\sqrt{a}x$ almashtirish orqali integral ostidagi funksiya ratsionallashtiriladi (*Eylerning birinchi o‘rniga qo‘yishi*);

b) $c>0$ bo‘lganda $\sqrt{ax^2+bx+c}=tx\pm\sqrt{c}$ almashtirish yordamida integral ostidagi funksiya ratsionallashtiriladi (*Eylerning ikkinchi o‘rniga qo‘yishi)*;

c) ax^2+bx+c kvadrat uchhad $a(x-x_1)(x-x_2)$ ko‘rinishda ko‘paytuvchilarga ajralganda integral ostidagi funksiya $\sqrt{ax^2+bx+c}=t(x-x_1)$ almashtirish bilan ratsionallashtiriladi (*Eylerning uchinchi o‘rniga qo‘yishi*).

$2-$misol. Integrallarni toping:

1) $\int\frac{dx}{\sqrt{4x^2+9x+1}}$; 2) $\int\frac{dx}{x\sqrt{x^2+x+1}}$; 3) $\int\frac{dx}{\sqrt{x^2+2x-3}}$.

$a>0$. Shu sababli $\sqrt{4x^2+9x+1}=2x+t$ o‘rniga qo‘yishni bajaramiz. U holda

$$t=\sqrt{4x^2+9x+1}-2x \text{ va } 4x^2+9x+1=4x^2+4xt+t^2,\ 9x-4tx=t^2-1.$$

Bundan

$$x=\frac{t^2-1}{9-4t},\quad dx=-2\frac{2t^2-9t+2}{(9-4t)^2}dt,\quad \sqrt{4x^2+9x+1}=-\frac{2t^2-9t+2}{9-4t}.$$

Topilganlarni berilgan integralga qo‘yamiz:

$$\int\frac{dx}{\sqrt{4x^2+9x+1}}=\int\left(-\frac{9-4t}{2t^2-9t+2}\right)\cdot\left(-2\frac{2t^2-9t+2}{(9-4t)^2}dt\right)=-\int\frac{2dt}{4t-9}dt.$$

Bundan

$$\int\frac{dx}{\sqrt{4x^2+9x+1}}=-\frac{1}{2}\ln|4t-9|+C.$$

x o‘zgaruvchiga qaytamiz:

$$\int\frac{dx}{\sqrt{4x^2+9x+1}}=-\frac{1}{2}\ln|4(\sqrt{x^2+2x+2}-2x)-9|+C.$$

2) $c>0$. Shu sababli $\sqrt{x^2+x+1}=tx+1$ deymiz. U holda

$$t=\frac{\sqrt{x^2+x+1}-1}{x} \quad \text{va} \quad x^2+x+1=t^2x^2+2xt+1,\ x-xt^2=2t-1.$$

Bundan

$$x=\frac{2t-1}{1-t^2},\quad dx=2\frac{t^2-t+1}{(1-t^2)^2}dt,\quad \sqrt{x^2+x+1}=\frac{t^2-t+1}{1-t^2}.$$

Topilganlarni berilgan integralga qo‘yamiz:

$$\int\frac{dx}{x\sqrt{x^2+x+1}}=\int\left(\frac{1-t^2}{2t-1}\right)\cdot\left(\frac{1-t^2}{t^2-t+1}\right)\cdot\left(2\frac{t^2-t+1}{(1-t^2)^2}dt\right)=\int\frac{2dt}{2t-1}.$$

Bundan

$$\int\frac{dx}{x\sqrt{x^2+x+1}}\int\frac{2dt}{2t-1}=\ln|2t-1|+C=\ln\left|\frac{2\sqrt{x^2+x+1}-2-x}{x}\right|+C.$$

3) $x^2+2x-3=(x-1)(x+3)$ bo‘lgani uchun $\sqrt{(x-1)(x+3)}=(x-1)t$ o‘rniga qo‘yish bajaramiz. U holda

$$(x-1)(x+3)=(x-1)^2t^2,\ t=\sqrt{\frac{x+3}{x-1}}.$$

Bundan

$$x=\frac{t^2+3}{t^2-1},\quad dx=\frac{-8tdt}{(t^2-1)^2},\quad \sqrt{x^2+2x-3}=\frac{4t}{t^2-1}.$$

Topilganlarni berilgan integralga qo‘yamiz:

$$\int\frac{dx}{\sqrt{x^2+2x-3}}=\int\left(\frac{t^2-1}{4t}\right)\cdot\left(\frac{-8t}{(t^2-1)^2}dt\right)=2\int\frac{dt}{t^2-1}.$$

Bundan

$$\int\frac{dx}{\sqrt{x^2+2x-3}}=2\int\frac{dt}{t^2-1}=\ln\left|\frac{t+1}{t-1}\right|+C=\ln\left|\frac{\sqrt{x+3}+\sqrt{x-1}}{\sqrt{x+3}-\sqrt{x-1}}\right|+C.$$

Eyler o‘rniga qo‘yishlari murakkab hisoblashlarga olib kelgan hollarda integrallashning quyidagi usullaridan foydalaniladi.

$\int R(x,\sqrt{ax^2+bx+c})dx$ ko‘rinishidagi integrallarni topishning *kvadrat uchhaddan to‘la kvadrat ajratish* usulida kvadrat uchhaddan to‘la kvadrat ajratish yo‘li bilan berilgan integral avval ushbu integrallardan biriga keltiriladi:

a) agar $a>0$ va $b^2-4ac<0$ bo‘lsa, u holda $\int R(t,\sqrt{m^2+n^2t^2})dt,$ bu yerda

$n^2 = a,\ m^2 = -\dfrac{b^2 - 4ac}{4a},\ \ t = x + \dfrac{b}{2a};$

b) agar $a > 0$ va $b^2 - 4ac > 0$ bo‘lsa, u holda $\int R(t, \sqrt{n^2t^2 - m^2})dt,$ bu yerda $n^2 = a,\ m^2 = \dfrac{b^2 - 4ac}{4a},\ t = x + \dfrac{b}{2a}$;

c) agar $a < 0$ va $b^2 - 4ac > 0$ bo‘lsa, u holda $\int R(t, \sqrt{m^2 - n^2t^2})dt,$ bu yerda $n^2 = -a,\ m^2 = -\dfrac{b^2 - 4ac}{4a},\ t = x + \dfrac{b}{2a}.$

So‘ngra hosil qilingan integrallar mos ravishda $t = \dfrac{m}{n}tgz,\quad t = \dfrac{m}{n\sin z},$ $t = \dfrac{m}{n}\sin z$ trigonometrik o‘rniga qo‘yishlar orqali $\int R(\sin z, \cos z)dz$ ko‘rinishga keltiriladi.

$3-$misol. $\int \sqrt{7 + 6x - x^2}dx$ integralni toping.

Kvadrat uchhaddan to‘la kvadrat ajratamiz, yangi t o‘zgaruvchi kiritamiz va trigonometrik o‘rniga qo‘yishdan foydalanib, topamiz:

$$\int \sqrt{7 + 6x - x^2}dx = \int \sqrt{16 - (x-3)^2}dx = \left| \begin{array}{c} x - 3 = t, \\ dx = dt \end{array} \right| = \int \sqrt{16 - t^2}dt = \left| \begin{array}{c} t = 4\sin z, \\ dt = 4\cos z dz \end{array} \right| =$$

$$= \int \sqrt{16 - 16\sin^2 z} \cdot 4\cos z dz = \int 16\cos^2 z dz = 8\int (1 + \cos 2z)dz = 8\left(z + \frac{\sin 2z}{2} \right) + C =$$

$$= 8\left(z + \sin z\sqrt{1 - \sin^2 z} \right) + C = \left(z = \arcsin\frac{t}{4} \right) = 8\left(\arcsin\frac{t}{4} + \frac{t}{4}\sqrt{1 - \frac{t^2}{16}} \right) + C =$$

$$= 8\arcsin\frac{t}{4} + \frac{1}{2}t\sqrt{16 - t^2} + C = 8\arcsin\frac{x-3}{4} + \frac{1}{2}(x-3)\sqrt{7 + 6x - x^2} + C.$$

Shuningdek, $\int R\left(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}\right)dx$ ko‘rinishidagi integrallarni topishda quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

a) $\int \dfrac{P_n(x)dx}{\sqrt{ax^2 + bx + c}}$ ko‘rinishidagi integrallar, bu yerda $P_n(x) - n-$ darajali ko‘phad:

1) $n = 0$ da $\int \dfrac{Adx}{\sqrt{ax^2 + bx + c}}$ bo‘ladi; bu integrallar $a > 0$ bo‘lganda integrallar jadvalining $14-$formulasiga, $a < 0$ bo‘lganda esa jadvalning 13-formulasiga keltiriladi;

2) $n=1$ da $\int \frac{(Ax+B)dx}{\sqrt{ax^2+bx+c}}$ bo‘ladi; bu integrallar suratda kvadrat uchhadning hosilasini ajratish natijasida ikkita, biri integrallar jadvalining 1-formulasiga va ikkinchisi 1) banddagi integralga keltiriladi;

3) $n \geq 2$ da berilgan integraldan keltirish formulalari yordamida quyidagi ko‘rinishdagi ifoda hosil qilinadi:

$$\int \frac{P_n(x)dx}{\sqrt{ax^2+bx+c}} = Q_{n-1}(x)\sqrt{ax^2+bx+c} + M\int \frac{dx}{\sqrt{ax^2+bx+c}},$$

bu yerda $Q_{n-1}(x)$ – koeffitsiyentlari noma’lum bo‘lgan $n-1$ – darajali ko‘phad, M – qandaydir o‘zgarmas son. Bunda ko‘phadning noma’lum koeffitsiyentlari va M soni oxirgi tenglikni differensiallash hamda tenglikning chap va o‘ng tomonidagi x ning bir xil darajalari oldidagi sonlarni tenglashtirish orqali topiladi.

b) $\int \frac{dx}{(\alpha x+\beta)\sqrt{ax^2+bx+c}}$ ko‘rinishidagi integral $\alpha x+\beta = \frac{1}{t}$ almashtirish yordamida 1) banddagi integralga keltiriladi;

c) $\int \frac{dx}{(\alpha x+\beta)^n\sqrt{ax^2+bx+c}}$ $(n \in Z, n > 1)$ ko‘rinishidagi integrallar $\alpha x+\beta = \frac{1}{t}$ o‘rniga qo‘yish orqali 3) banddagi integralga keltiriladi.

4 – misol. $\int \frac{dx}{(x-3)^3\sqrt{x^2-6x+10}}$ integralni toping.

⊜ $x-3=\frac{1}{t}$ deymiz. U holda $dx = -\frac{dt}{t^2}$, $x^2-6x+10 = \frac{1}{t^2}+1$. Bundan

$$\int \frac{dx}{(x-3)^3\sqrt{x^2-6x+10}} = -\int \frac{\frac{dt}{t^2}}{\frac{1}{t^3}\sqrt{\frac{1}{t^2}+1}} = -\int \frac{t^2 dt}{\sqrt{t^2+1}}.$$

3) banddagi integral hosil qilindi. $n=2$ bo‘lgani uchun

$$\int \frac{t^2 dt}{\sqrt{t^2+1}} = (At+B)\sqrt{t^2+1} + M\int \frac{dt}{\sqrt{t^2+1}}.$$

Tenglikning har ikkala tomonini differensiallaymiz:

$$\frac{t^2}{\sqrt{t^2+1}} = A\sqrt{1+t^2} + \frac{(At+B)t}{\sqrt{t^2+1}} + \frac{M}{\sqrt{t^2+1}}$$

yoki

$$t^2 = A(1+t^2) + (At+B)t + M.$$

Bundan $A=\frac{1}{2},\ b=0,\ M=-\frac{1}{2}.$ U holda

$$\int\frac{t^2dt}{\sqrt{1+t^2}}=\frac{t\sqrt{1+t^2}}{2}-\frac{1}{2}\int\frac{dt}{\sqrt{1+t^2}}=\frac{t\sqrt{1+t^2}}{2}-\frac{1}{2}\ln\left|t+\sqrt{1+t^2}\right|+C$$

yoki eski o‘zgaruvchiga qaytsak

$$\int\frac{dx}{(x-3)^3\sqrt{x^2-6x+10}}=-\frac{\sqrt{x^2-6x+10}}{2(x-3)^2}+\frac{1}{2}\ln\left|\frac{1+\sqrt{x^2-6x+10}}{x-3}\right|+C.$$

7.6.3. $\int x^m(a+bx^n)^p\,dx$ ko‘rinishidagi integral *binominal differensial integrali* deyiladi. Bunda $m,n,p-$ ratsional sonlar.

Binominal differensial integrali faqat uchta holda ratsional funksiyalarni integrallashga keltiriladi:

a) p butun son bo‘lganda integral $x=t^s$ (bu yerda $s=EKUK(m,n)$) o‘rniga qo‘yish orqali ratsionallashtiriladi;

b) $\frac{m+1}{n}$ butun son bo‘lganda integral $a+bx^n=t^s$ (bu yerda $s-p$ sonning maxraji) o‘rniga qo‘yish yordamida ratsionallashtiriladi;

c) $\frac{m+1}{n}+p$ butun son bo‘lganda integralda $a+bx^n=t^sx^n$ (bu yerda $s-p$ sonning maxraji) almashtirish bajariladi.

Bu o‘rniga qo‘yishlar *Chebeshev o‘rniga qo‘yishlari* deb ataladi.

$5-$misol. $\int\frac{\sqrt[6]{7-4\sqrt[3]{x}}}{\sqrt[3]{x^2}}dx$ integralni toping.

Integralni standart ko‘rinishda yozamiz: $\int x^{-\frac{2}{3}}\left(7-4x^{\frac{1}{3}}\right)^{\frac{1}{6}}dx$.

Bundan $m=-\frac{2}{3},\ n=\frac{1}{3},\ p=\frac{1}{6}$ va $\frac{m+1}{n}=\frac{-\frac{2}{3}+1}{\frac{1}{3}}1-$butun son.

Shu sababli Chebishevning ikkinchi o‘rniga qo‘yishini bajaramiz:

$$7-4x^{\frac{1}{3}}=t^6,\ t=\sqrt[6]{7-4\sqrt[3]{x}},\ x^{\frac{1}{3}}=\frac{1}{4}(7-t^6),\ x^{-\frac{2}{3}}=\frac{16}{(7-t^6)^2},$$

$$=\frac{16}{(7-t^6)^2},\ x=\frac{1}{64}(7-t^6)^3,\ dx=-\frac{9}{32}(7-t^6)^2t^5dt.$$

Bundan

$$\int x^{-\frac{2}{3}}\left(7-4x^{\frac{1}{3}}\right)^{\frac{1}{6}}dx=\int\frac{16}{(7-t^6)^2}\cdot t\cdot\left(-\frac{9}{32}(7-t^6)^2t^5dt\right)=-\frac{9}{2}\int t^6dt$$

yoki

$$\int\frac{\sqrt[6]{7-4\sqrt[3]{x}}}{\sqrt[3]{x^2}}dx=-\frac{9}{2}\int t^6dt=-\frac{9}{14}t^7+C=-\frac{9}{14}\sqrt[6]{(7-4\sqrt[3]{x^2})^7}+C.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.6.1. Berilgan integrallarni toping:

1) $\int\frac{dx}{\sqrt{x}+\sqrt[3]{x}}$;

2) $\int\frac{dx}{\sqrt{x(1+\sqrt[4]{x})^3}}$;

3) $\int\frac{x^2+\sqrt[3]{1+x}}{\sqrt{1+x}}dx$

4) $\int\frac{x-\sqrt{x+1}}{\sqrt[3]{x+1}}dx$;

5) $\int\frac{dx}{\sqrt{2x-1}+\sqrt[3]{(2x-1)^2}}$;

6) $\int\left(\sqrt[3]{\left(\frac{x+1}{x-1}\right)^2}-\sqrt[6]{\left(\frac{x+1}{x-1}\right)^5}\right)\frac{dx}{1-x^2}$;

7) $\int\frac{dx}{\sqrt{x^2-3x+2}}$;

8) $\int\frac{dx}{\sqrt{x^2+2x+5}}$;

9) $\int\frac{dx}{x\sqrt{x^2+x+1}}$;

10) $\int\frac{dx}{x\sqrt{4-2x-x^2}}$;

11) $\int\frac{dx}{1+\sqrt{1-2x-x^2}}$;

12) $\int\frac{dx}{1+\sqrt{x^2+2x+2}}$;

13) $\int\sqrt{5+4x-x^2}dx$;

14) $\int\sqrt{x^2-4}dx$;

15) $\int\frac{dx}{(x-1)\sqrt{-x^2+3x-2}}$;

16) $\int\frac{dx}{(x-1)\sqrt{x^2-2x}}$;

17) $\int\frac{xdx}{\sqrt{3-2x-x^2}}$;

18) $\int\frac{(2x+3)dx}{\sqrt{6x-x^2-8}}$;

19) $\int\frac{dx}{x(1+\sqrt[3]{x})^2}$;

20) $\int\frac{dx}{x^3\sqrt[3]{2-x^3}}$;

21) $\int x^5\sqrt[3]{(1+x^3)^2}dx$;

22) $\int\frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[4]{x}}}{\sqrt{x}}dx$;

23) $\int\frac{dx}{x^3\sqrt{1+x^4}}$;

24) $\int\frac{\sqrt{1+\sqrt[3]{x}}}{x\sqrt{x}}dx.$

7.7. ANIQ INTEGRALNI HISOBLASH

Aniq integralning ta'rifi, geometrik ma'nosi va xossalari. Aniq integralni hisoblash

7.7.1. $y = f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo'lsin.

$[a;b]$ kesmani ixtiyoriy tarzda $a = x_0 < x_1 < ... < x_{i-1} < x_i < ... < x_{n-1} < x_n = b$ nuqtalar bilan uzunliklari $\Delta x_1 = x_1 - x_0, ..., \Delta x_i = x_i - x_{i-1}, ..., \Delta x_n = x_n - x_{n-1}$ bo'lgan n ta qismga bo'lamiz. Har bir Δx_i $(i = \overline{1,n})$ qismda ixtiyoriy ξ_i nuqtani tanlaymiz. $f(x)$ funksiyaning bu nuqtadagi qiymati $f(\xi_i)$ ni hisoblaymiz, bu qiymatni tegishli Δx_i uzunlikka ko'paytiramiz va barcha ko'paytmalarni qo'shamiz, ya'ni

$$\sigma = \sum_{i=1}^{n} f(\xi_i)\Delta x_i \qquad (7.1)$$

yig'indini tuzamiz. Bu yig'indiga $f(x)$ funksiyaning $[a;b]$ kesmadagi *integral yig'indisi* deyiladi.

Agar (7.1) integral yig'indining $\lambda = \max\limits_{1\le i\le n} \Delta x_i \to 0$ dagi chekli limiti $[a;b]$ kesmani qismlarga bo'lish usuliga va bu qismlarda ξ_i nuqtani tanlash usuliga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa, u holda bu limitga $[a;b]$ kesmada $f(x)$ funksiyadan olingan *aniq integral* deyiladi va $\int_a^b f(x)dx$ kabi belgilanadi:

$$\int_a^b f(x)dx = \lim_{\lambda\to 0} \sum_{i=1}^{n} f(\xi_i)\Delta x_i. \qquad (7.2)$$

Agar $f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz bo'lsa, u holda shu kesmada integrallanuvchi bo'ladi (*aniq integralning mavjudlik teoremasi*). Shuningdek, $[a;b]$ kesmada chegaralangan va chekli sondagi birinchi tur uzulish nuqtalariga ega bo'lgan $f(x)$ funksiya shu kesmada integrallanuvchi bo'ladi.

1 – misol. $\int_0^1 xdx$ integralni integral yig'indining limiti sifatida hisoblang.

[0;1] kesmani $0 = x_0 < x_1 < ... < x_{i-1} < x_i < ... < x_{n-1} < x_n = 1$ nuqtalar bilan uzunliklari $\Delta x_i = \frac{1}{n}$ $(i = \overline{1,n})$ bo'lgan n ta bo'lakka bo'lamiz.

Bunda $\lambda = \lim_{n\to\infty} \max_{1\le i\le n} \Delta x_i = \lim_{n\to\infty} \frac{1}{n} = 0.$ ξ_i nuqta sifatida qismiy kesmalarning oxirlarini olamiz, ya'ni $\xi_i = x_i = \frac{i}{n}.$

Tegishli integral yig'indini tuzamiz:

$$\sigma = \sum_{i=1}^{n} f(\xi_i)\Delta x_i = \sum_{i=1}^{n} \frac{i}{n}\cdot\frac{1}{n} = \frac{1}{n^2}(1+2+...+n) = \frac{n(n+1)}{2n^2} = \frac{n+1}{2n}.$$

Bundan

$$\lim_{\lambda\to 0\ (n\to\infty)} \sigma = \frac{1}{2}\lim_{n\to\infty}\frac{n+1}{2n} = \frac{1}{2}.$$

Endi ξ_i nuqta sifatida qismiy kesmalarning boshlarini olamiz: $\xi_i = x_{i-1} = \frac{i-1}{n}.$ Bundan

$$\sigma = \sum_{i=1}^{n} f(\xi_i)\Delta x_i = \sum_{i=1}^{n} \frac{(i-1)}{n}\cdot\frac{1}{n} = \frac{(n-1)n}{n^2} = \frac{n-1}{2n},$$

$$\lim_{\lambda\to 0\ (n\to\infty)} \sigma = \lim_{n\to\infty}\frac{n-1}{2n} = \frac{1}{2}.$$

Demak, integral yig'indining limiti $[0;1]$ kesmani bo'lish usuliga va bu kesmada ξ_i nuqtani tanlash usuliga bog'liq emas.

U holda ta'rifga ko'ra $\int_0^1 x dx = \frac{1}{2}.$

$y = f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz va $f(x) > 0$ bo'lsin.

Yuqoridan $y = f(x)$ funksiya grafigi bilan, quyidan Ox o'q bilan, yon tomonlaridan $x = a$ va $x = b$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan figuraga *egri chiziqli trapetsiya* deyiladi.

$\int_a^b f(x)dx$ aniq integral son jihatidan egri chiziqli trapetsiyaning yuziga teng. Bu jumla *aniq integralning geometrik ma'nosi*ni anglatadi.

$2-$misol. $\int_0^4 \sqrt{16-x^2}dx$ integralni uning geometrik ma'nosiga tayanib hisoblang.

x ning 0 dan 4 gacha o'zgarishida tenglamasi $y = \sqrt{16-x^2}$ bo'lgan chiziq $x^2 + y^2 = 16$ aylananing I chorakdagi bo'lagidan iborat bo'ladi.

Shu sababli $x = 0,\ x = 4,\ y = 0,\ y = \sqrt{16-x^2}$ chiziqlar bilan chegaralangan egri chiziqli trapetsiya $x^2+y^2=16$ doiraning chorak qismidan tashkil topadi. Uning yuzi $S=\frac{16\pi}{4}$ ga teng.

Demak,

$$\int_0^4 \sqrt{16-x^2}\,dx=4\pi.$$

Aniq integral quyidagi xossalarga ega.

1^o. Aniq integralning chegaralari almashtirilsa uning ishorasi o‘zgaradi, ya’ni

$$\int_a^b f(x)dx=-\int_b^a f(x)dx.$$

2^o. Aniq integralning chegaralari teng bo‘lsa uning qiymati nolga teng bo‘ladi, ya’ni

$$\int_a^a f(x)dx=0.$$

3^o. O‘zgarmas ko‘paytuvchini aniq integral belgisidan tashqariga chiqarish mumkin, ya’ni

$$\int_a^b kf(x)dx=k\int_a^b f(x)dx,\ k=const.$$

4^o. Chekli sondagi funksiyalar algebraik yig‘indisining aniq integrali qo‘shiluvchilar aniq integrallarining algebraik yig‘indisiga teng, ya’ni

$$\int_a^b \left(f(x)\pm\varphi(x)\right)dx=\int_a^b f(x)dx\pm\int_a^b \varphi(x)dx.$$

5^o. Agar $[a;b]$ kesmada funksiya o‘z ishorasini o‘zgartirmasa, u holda bu funksiyadan olingan aniq integralning ishorasi funksiyaning ishorasi bilan bir xil bo‘ladi.

6^o. Agar $[a;b]$ kesmada $f(x)\geq\varphi(x)$ bo‘lsa, u holda

$$\int_a^b f(x)dx\geq\int_a^b \varphi(x)dx$$

bo‘ladi.

7^o. Agar $[a;b]$ kesma bir necha qismga bo‘lingan bo‘lsa, u holda $[a;b]$ kesma bo‘yicha olingan aniq integral har bir qism bo‘yicha olingan aniq integrallar yig‘indisiga teng bo‘ladi. Masalan,

$$\int_a^b f(x)dx=\int_a^c f(x)dx+\int_c^b f(x)dx,\quad c\in[a;b].$$

8^o. Agar m va M sonlar $f(x)$funksiyaning $[a;b]$ kesmadagi eng kichik va eng katta qiymatlari bo‘lsa, u holda

$$m(b-a) \leq \int_a^b f(x)dx \leq M(b-a)$$

bo‘ladi.

9^o. Agar $f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz bo‘lsa, u holda shunday $c \in [a;b]$ nuqta topiladiki,

$$\int_a^b f(x)dx = f(c)(b-a) \tag{7.3}$$

bo‘ladi.

$3-$misol. $\int_0^{\frac{\pi}{2}} \frac{dx}{4+3\sin^2 x}$ integralni baholang.

$0 \leq \sin^2 x \leq 1$ ekanidan $\frac{1}{7} \leq \frac{1}{4+3\sin^2 x} \leq \frac{1}{4}$.

U holda aniq integralni baholash haqidagi teoremaga ko‘ra

$$\frac{\pi}{14} \leq \int_0^{\frac{\pi}{2}} \frac{dx}{4+3\sin^2 x} \leq \frac{\pi}{8}.$$

7.7.2. 1-teorema (*integral hisobning asosiy teoremasi*). Agar $F(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz bo‘lgan $f(x)$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasi bo‘lsa, u holda $[a;b]$ kesmada $f(x)$ funksiyadan olingan aniq integral $F(x)$ funksiyaning integrallash oralig‘idagi orttirmasiga teng, ya’ni

$$\int_a^b f(x)dx = F(x)\Big|_a^b = F(b) - F(a). \tag{7.4}$$

(7.4) formulaga *Nyuton-Leybnis formulasi* deyiladi.

$4-$misol. $\int_2^5 \frac{dx}{x^2-4x+13}$ integralni hisoblang.

$$\int_2^5 \frac{dx}{x^2-4x+13} = \int_2^5 \frac{dx}{(x-2)^2+3^2} = \frac{1}{3} arctg \frac{x-2}{3}\Big|_2^5 = \frac{1}{3}(arctg1 - arctg0) = \frac{\pi}{12}.$$

2-teorema. Agar: $y = f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz; $x = \varphi(t)$funksiya $[\alpha;\beta]$kesmada differensiallanuvchi va $\varphi'(t)$funksiya $[\alpha;\beta]$ kesmada uzluksiz; $x = \varphi(t)$funksiyaning qiymatlar sohasi $[a;b]$ kesmadan iborat; $\varphi(\alpha)=a$ va $\varphi(\beta)=b$ bo‘lsa, u holda

$$\int_a^b f(x)dx=\int_\alpha^\beta f(\varphi(t))\varphi'(t)dt \qquad (7.5)$$

bo‘ladi.

(7.5) formula *aniq integralda o‘zgaruvchini almashtirish* formulasi deb yuritiladi.

5 – misol. $\int_0^3 \sqrt{9-x^2}dx$ integralni hisoblang.

$x=3\sin t,\ 0\le t\le\frac{\pi}{2}$ belgilash kiritamiz. Bu o‘zgaruvchini almashtirish 2-teoremaning barcha shartlarini qanoatlantiradi: $f(x)=\sqrt{9-x^2}$ funksiya $[0;3]$ kesmada uzluksiz; $x=3\sin t$ funksiya $\left[0;\frac{\pi}{2}\right]$ kesmada differensiallanuvchi va $x'=3\cos t$ funksiya bu kesmada uzluksiz; $x=3\sin t$ funksiyaning qiymatlar sohasi $[0;3]$ kesmadan iborat; $\varphi(0)=0$ va $\varphi\left(\frac{\pi}{2}\right)=3$.

(7.5) formuladan topamiz:

$$\int_0^3\sqrt{9-x^2}dx=9\int_0^{\frac{\pi}{3}}\cos^2 tdt=\frac{9}{2}\int_0^{\frac{\pi}{3}}(1+\cos 2t)dt=\frac{9}{2}\cdot\left(t+\frac{1}{2}\sin 2t\right)\Bigg|_0^{\frac{\pi}{2}}=\frac{9\pi}{4}+0=\frac{9\pi}{4}.$$

6 – misol. $\int_0^1 x\sqrt{1+x^2}dx$ integralni hisoblang.

$t=\sqrt{1+x^2}$ o‘rniga qo‘yishni bajaramiz. U holda

$$x=\sqrt{t^2-1},\ dx=\frac{tdt}{\sqrt{t^2-1}},\ \left(\begin{matrix} x=0\ \ da\ t=1, \\ x=1\ \ dat=\sqrt{2}\end{matrix}\right).$$

$[1;\sqrt{2}]$kesmada $\sqrt{t^2-1}$ funksiya monoton o‘sadi. Shu sababli (7.5) formulani qo‘llaymiz:

$$\int_0^1 x\sqrt{1+x^2}dx=\int_1^{\sqrt{2}}\sqrt{t^2-1}\cdot t\cdot\frac{tdt}{\sqrt{t^2-1}}=\int_1^{\sqrt{2}}t^2dt=\frac{t^3}{3}\Bigg|_1^{\sqrt{2}}=\frac{2\sqrt{2}-1}{3}.$$

3-teorema. Agar $u(x)$ va $v(x)$ funksiyalar $u'(x)$va $v'(x)$ hosilalari bilan$[a;b]$ kesmada uzluksiz bo‘lsa, u holda

$$\int_a^b udv=uv\Big|_a^b-\int_a^b vdu \qquad (7.6)$$

bo‘ladi.

(7.6) formula *aniq integralni bo'laklab integrallash formulasi* deb ataladi.

7 – misol. $\int_0^\pi x\sin x dx$ integralni hisoblang.

$$\int_0^\pi x\sin x dx = \left| \begin{array}{c} x=u,\ dv=\sin x dx \\ du=dx,\ v=-\cos x \end{array} \right| = -x\cos x\Big|_0^\pi + \int_0^\pi \cos x dx =$$

$$= -\pi\cos\pi + 0\cdot\cos 0 + \sin x\Big|_0^\pi = \pi + 0 + \sin\pi - \sin 0 = \pi.$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.7.1. Integrallarni integral yig'indining limiti sifatida hisoblang:

1) $\int_a^b x dx$; 2) $\int_0^b x^2 dx$.

7.7.2. Integrallarni aniq integralning geometrik ma'nosiga tayanib hisoblang:

1) $\int_0^\pi \cos x dx$; 2) $\int_0^2 (3+x)dx$;

3) $\int_0^4 \sqrt{16-x^2}dx$; 4) $\int_{-2}^2 f(x)dx,\ f(x)=\begin{cases} -x, agar\ -2\le x\le 0, \\ x, agar\ 0\le x\le 2. \end{cases}$

7.7.3. Integrallarni taqqoslang:

1) $I_1=\int_0^{\frac{\pi}{4}} \cos x dx,\quad I_2=\int_0^{\frac{\pi}{4}} \sin x dx$; 2) $I_1=\int_{-1}^1 \sqrt{2-x^2}dx,\quad I_2=\int_{-1}^1 x^2 dx.$

3) $I_1=\int_{-2}^0 \sqrt{1-x^3}dx,\ I_2=\int_{-2}^0 (1-x)dx$; 4) $I_1=\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}} x\cos x dx,\quad I_2=\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}} x\sin x dx$.

7.7.4. Integrallarni baholang:

1) $I_1=\int_0^\pi \frac{dx}{3-2\cos x}$; 2) $I_2=\int_1^3 \sqrt{1+3x^2}dx$;

3) $I_3=\int_0^2 \sqrt{1+x^3}dx$; 4) $I_4=\int_0^2 \frac{dx}{4-2x-x^2}$.

7.7.5. Funksiyalarning berilgan kesmalardagi o‘rta qiymatini toping:

1) $y=\sqrt{4-x^2}$, $[-2;2]$;
2) $y=|x|$, $[-1;1]$;
3) $y=3x+2$, $[1;3]$;
4) $y=x^2e^x$, $[0;1]$.

7.7.6. Berilgan integrallarni hisoblang:

1) $\int_{-1}^{2}(x^2+2x+1)dx$;
2) $\int_{0}^{\frac{\pi}{4}}\sin 4xdx$;
3) $\int_{\frac{\pi}{6}}^{\frac{\pi}{2}}\cos xdx$;
4) $\int_{1}^{e}\frac{dx}{x}$;
5) $\int_{0}^{\frac{\pi}{2}}\cos^2 xdx$;
6) $\int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{3}}\frac{dx}{\sin^2 x}$;
7) $\int_{1}^{2}\frac{dx}{x+x^2}$;
8) $\int_{0}^{1}(2x^3+1)x^2dx$;
9) $\int_{0}^{1}x\sqrt{1+x^2}dx$;
10) $\int_{0}^{\frac{\pi}{2}}\cos x\sin^3 xdx$;
11) $\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}}\frac{\sin xdx}{1+\cos x}$;
12) $\int_{\frac{\sqrt{2}}{3}}^{\frac{\sqrt{3}}{3}}\frac{dx}{\sqrt{4-9x^2}}$;
13) $\int_{\frac{1}{2}}^{\frac{3}{2}}\frac{dx}{3+4x^2}$;
14) $\int_{0}^{\frac{\pi}{4}}\sin^3 xdx$;
15) $\int_{0}^{\frac{\pi}{2}}\frac{\cos xdx}{6-5\sin x+\sin^2 x}$;
16) $\int_{\frac{\sqrt{2}}{2}}^{1}\frac{\sqrt{1-x^2}}{x^2}dx$;
17) $\int_{0}^{1}\arcsin xdx$;
18) $\int_{1}^{e}\ln^2 xdx$;
19) $\int_{0}^{\pi}x\sin\frac{x}{2}dx$;
20) $\int_{0}^{\frac{\pi}{4}}e^x\sin 2xdx$;
21) $\int_{0}^{1}x^2e^{3x}dx$;
22) $\int_{1}^{\sqrt{e}}x\ln xdx$;
23) $\int_{0}^{\frac{\pi^2}{4}}\sin\sqrt{x}dx$;
24) $\int_{0}^{e^{\frac{\pi}{2}}}\cos(\ln x)dx$.

7.8. XOSMAS INTEGRALLAR

Cheksiz chegarali xosmas integrallar. Chegaralanmagan funksiyalardan olingan xosmas integrallar. Xosmas integrallarning yaqinlashish alomatlari

7.8.1. Cheksiz chegarali integrallarga va chegaralanmagan funksiyalardan olingan integrallarga *xosmas integrallar* deyiladi.

$f(x)$ funksiya $[a;+\infty)$ oraliqda uzluksiz bo‘lsin. Agar $\lim\limits_{b\to+\infty}\int\limits_a^b f(x)dx$ chekli limit mavjud bo‘lsa, bu limitga *yuqori chegarasi cheksiz xosmas integral* (*I tur xosmas integral*) deyiladi va $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ kabi belgilanadi:

$$\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx = \lim_{b\to+\infty}\int\limits_a^b f(x)dx. \qquad (8.1)$$

Bu holda $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ integral *yaqinlashuvchi* deyiladi.

Agar $\lim\limits_{b\to+\infty}\int\limits_a^b f(x)dx$ limit mavjud bo‘lmasa yoki cheksiz bo‘lsa, u holda $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ integral *uzoqlashuvchi* deb yuritiladi.

Quyi chegarasi cheksiz va har ikkala chegarasi cheksiz xosmas integrallar shu kabi aniqlanadi:

$$\int\limits_{-\infty}^{b} f(x)dx = \lim_{a\to-\infty}\int\limits_a^b f(x)dx, \qquad (8.2)$$

$$\int\limits_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx = \lim_{a\to-\infty}\int\limits_a^c f(x)dx + \lim_{b\to+\infty}\int\limits_c^b f(x)dx, \qquad (8.3)$$

bu yerda $c - Ox$ o‘qning istalgan fiksirlangan nuqtasi.

$1-$misol. Integrallarni yaqinlashishga tekshiring:

1) $\int\limits_0^{+\infty} e^{-\alpha x}dx$; 2) $\int\limits_{-\infty}^{0} x\sin x dx$; 3) $\int\limits_{-\infty}^{+\infty}\frac{arctgxdx}{1+x^2}$.

1) $\alpha \neq 0$ bo‘lsin.

U holda

$$\int\limits_0^{+\infty} e^{-\alpha x}dx = \lim_{b\to+\infty}\int\limits_0^b e^{-\alpha x}dx = -\frac{1}{\alpha}\lim_{b\to+\infty}(e^{-bx}-1).$$

Bunda

$$\alpha > 0 \text{ bo‘lganda } \int_0^{+\infty} e^{-\alpha x} dx = -\frac{1}{\alpha} \lim_{b\to+\infty} \frac{1}{e^{bx}} + \frac{1}{\alpha} = -0 + \frac{1}{\alpha} = \frac{1}{\alpha},$$

$$\alpha < 0 \text{ bo‘lganda } \int_1^{+\infty} e^{-\alpha x} dx = -\frac{1}{\alpha} \lim_{b\to+\infty} e^{-\alpha x} + \frac{1}{\alpha} = +\infty.$$

$$\alpha = 0 \text{ bo‘lganda } \int_0^{+\infty} e^{-0x} dx = \int_0^{+\infty} dx = \lim_{b\to+\infty} b = +\infty.$$

Demak, $\int_0^{+\infty} e^{-\alpha x} dx$ xosmas integral $\alpha > 0$ da yaqinlashadi va $\alpha \le 0$ da uzoqlashadi.

$$2) \int_{-\infty}^{0} x\sin x dx = \lim_{a\to-\infty} \int_a^0 x\sin x dx = \lim_{a\to-\infty} \left(-x\cos x \Big|_a^0 + \int_a^0 \cos x dx \right) = \lim_{a\to-\infty} (a\cos a - \sin a).$$

Bu limit mavjud emas. Shu sababli $\int_{-\infty}^{0} x\sin x dx$ integral uzoqlashadi.

3) (8.3) tenglikda $c = 0$ deb, topamiz:

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{arctgxdx}{1+x^2} = \int_{-\infty}^{0} \frac{arctgxdx}{1+x^2} + \int_{0}^{+\infty} \frac{arctgxdx}{1+x^2}.$$

Bundan

$$\int_{-\infty}^{0} \frac{arctgxdx}{1+x^2} = \lim_{a\to-\infty} \int_a^0 \frac{arctgxdx}{1+x^2} = \frac{1}{2} \lim_{a\to-\infty} arctg^2 x \Big|_a^0 = -\frac{1}{2} \lim_{a\to-\infty} arctg^2 a = -\frac{\pi^2}{8},$$

$$\int_{0}^{+\infty} \frac{arctgxdx}{1+x^2} = \lim_{b\to+\infty} \int_0^b \frac{arctgxdx}{1+x^2} = \frac{1}{2} \lim_{b\to+\infty} arctg^2 x \Big|_0^b = \frac{1}{2} \lim_{b\to+\infty} arctg^2 b = \frac{\pi^2}{8},$$

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{arctgxdx}{1+x^2} = \frac{\pi^2}{8} - \frac{\pi^2}{8} = 0.$$

Demak, xosmas integral yaqinlashadi.

7.8.2. $f(x)$ funksiya $[a;b)$ oraliqda aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, $x = b$ da aniqlanmagan yoki uzilishga ega bo‘lsin. Agar $\lim_{\varepsilon\to0} \int_a^{b-\varepsilon} f(x)dx$ chekli limit mavjud bo‘lsa, u holda bu limitga *chegaralanmagan funksiyadan olingan xosmas integral* (*II tur xosmas integral*) deyiladi va $\int_a^b f(x)dx$ kabi belgilanadi:

$$\int_a^b f(x)dx = \lim_{\varepsilon\to0} \int_a^{b-\varepsilon} f(x)dx. \qquad (8.4)$$

$f(x)$ funksiya x ning a ga o'ngdan yaqinlashishida uzilishga ega bo'lganda

$$\int_a^b f(x)dx = \lim_{\varepsilon\to 0}\int_{a+\varepsilon}^b f(x)dx \tag{8.5}$$

bo'ladi.

$f(x)$ funksiya $c\in[a;b]$ da uzilishga ega bo'lganda

$$\int_a^b f(x)dx = \lim_{\varepsilon\to 0}\int_a^{c-\varepsilon} f(x)dx + \lim_{\varepsilon\to 0}\int_{c+\varepsilon}^b f(x)dx \tag{8.6}$$

bo'ladi.

$2-$misol. $\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}}$ integralni yaqinlashishga tekshiring.

⊖ $x=1$ da integral ostidagi funksiya ikkinchi tur uzilishga ega.

U holda (8.4) tenglikka ko'ra

$$\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \lim_{\varepsilon\to 0}\int_0^{1-\varepsilon}\frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \lim_{\varepsilon\to 0}\arcsin x\Big|_0^{1-\varepsilon} = \lim_{\varepsilon\to 0}(\arcsin(1-\varepsilon)-0) = \arcsin 1 = \frac{\pi}{2}.$$

Demak, xosmas integral yaqinlashadi. ⊖

7.8.3. Xosmas integralning yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi bo'lishini yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchiligi oldindan ma'lum bo'lgan boshqa xosmas integral bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

1-teorema (*I tur xosmas integralning yaqinlashish alomati*). $[a;+\infty)$ oraliqda $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar uzluksiz bo'lsin va $0\le f(x)\le\varphi(x)$ tengsizlikni qanoatlantirsin. U holda:

a) agar $\int_a^{+\infty}\varphi(x)dx$ integral yaqinlashsa, $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ integral ham yaqinlashadi;

b) agar $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ integral uzoqlashsa, $\int_a^{+\infty}\varphi(x)dx$ integral ham uzoqlashadi.

$3-$misol. $\int_0^{+\infty} e^{-x^2}dx$ integralni yaqinlashishga tekshiring.

⊖ Puasson integrali deb ataluvchi bu integral boshlang'ich funksiyaga ega emas. Bunda

$$\int_0^{+\infty} e^{-x^2}dx = \int_0^1 e^{-x^2}dx + \int_1^{+\infty} e^{-x^2}dx.$$

$\int_0^1 e^{-x^2}dx$ integral xosmas integral emas va u chekli son qiymatiga ega.

$\int_1^{+\infty} e^{-x^2}dx$ integralni qaraymiz. $[1;+\infty)$ oraliqda $0 < e^{-x^2} \le e^{-x}$ hamda e^{-x^2} va e^{-x} funksiyalar uzluksiz. U holda

$$\int_1^{+\infty} e^{-x}dx = \lim_{b\to+\infty}\int_1^b e^{-x}dx = \lim_{b\to+\infty}(-e^{-x})\Big|_1^b = \frac{1}{e} - \lim_{b\to+\infty}\frac{1}{e^b} = \frac{1}{e}.$$

Demak, bu integral yaqinlashuvchi va 1-teoremaning a) bandiga binoan Puasson integrali ham yaqinlashadi.

2-teorema (*II tur xosmas integralning yaqinlashish alomati*). $[a;b)$ oraliqda $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar uzluksiz bo‘lsin va $0 \le f(x) \le \varphi(x)$ tengsizlikni qanoatlantirsin, $x = b$ da $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar aniqlanmagan yoki uzilishga ega bo‘lsin. U holda:

a) agar $\int_a^b \varphi(x)dx$ integral yaqinlashsa, $\int_a^b f(x)dx$ integral ham yaqinlashadi;

b) agar $\int_a^b f(x)dx$ integral uzoqlashsa, $\int_a^b \varphi(x)dx$ integral ham uzoqlashadi.

$4-$misol. $\int_0^1 \frac{\cos^2 x dx}{\sqrt[3]{1-x^2}}$ integralni yaqinlashishga tekshiring.

Integral ostidagi funksiya $x = 1$ da II tur uzilishga ega.

$x \in (0;1]$ da $\frac{\cos^2 x}{\sqrt[3]{1-x^2}} = \frac{\cos^2 x}{\sqrt[3]{1+x}} \cdot \frac{1}{\sqrt[3]{1-x}} \le \frac{1}{\sqrt[3]{1-x}}$.

$\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt[3]{1-x}}$ xosmas integralni yaqinlashishga tekshiramiz:

$$\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt[3]{1-x}} = \lim_{\varepsilon\to0}\int_0^{1-\varepsilon}\frac{dx}{\sqrt[3]{1-x}} = -\frac{3}{2}\lim_{\varepsilon\to0}(1-x)^{\frac{2}{3}}\Big|_0^{1-\varepsilon} = -\frac{3}{2}\left(\lim_{\varepsilon\to0}\varepsilon - 1\right) = \frac{3}{2}.$$

Demak, $\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt[3]{1-x}}$ integral yaqinlashadi va 2-teoremaning a) bandiga binoan berilgan integral ham yaqinlashadi.

3-teorema. Agar $\int_a^{+\infty} |f(x)|dx$ $\left(\int_a^b |f(x)|dx\right)$ integral yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ $\left(\int_a^b f(x)dx\right)$ integral ham yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Agar $\int_a^{+\infty} |f(x)|dx \left(\int_a^b |f(x)|dx\right)$ integral yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\int_a^{+\infty} f(x)dx \left(\int_a^b f(x)dx\right)$ integralga *absolut yaqinlashuvchi xosmas integral* deyiladi.

Agar $\int_a^{+\infty} f(x)dx \left(\int_a^b f(x)dx\right)$ integral yaqinlashuvchi bo‘lib, $\int_a^{+\infty} |f(x)|dx \left(\int_a^b |f(x)|dx\right)$ integral uzoqlashuvchi bo‘lsa, u holda $\int_a^{+\infty} f(x)dx \left(\int_a^b f(x)dx\right)$ integralga *shartli yaqinlashuvchi xosmas integral* deyiladi.

5 – misol. $\int_0^{+\infty} \frac{\sin x}{e^{2x}}dx$ integralni yaqinlashishga tekshiring.

Integral ostidagi funksiya $[0;+\infty)$ oraliqda ishorasini almashtiradi. Ma’lumki $\left|\frac{\sin x}{e^{2x}}\right| \le \frac{1}{e^{2x}}$. 1-misolga ko‘ra $\int_0^{+\infty} e^{-2x}dx$ integral yaqinlashuvchi.

U holda 1-teoremaga binoan $\int_1^{+\infty}\left|\frac{\sin x}{x^2}\right| \cdot dx$ integral yaqinlashuvchi va 3-teorema va 3-ta’rifga asosan $\int_0^{+\infty} \frac{\sin x}{e^{2x}}dx$ integral absolut yaqinlashadi.

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.8.1. Berilgan integrallarni hisoblang yoki uzoqlashuvchi ekanini ko‘rsating:

1) $\int_1^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2}$; 2) $\int_0^{+\infty} xe^{-\frac{x}{2}}dx$;

3) $\int_{-\infty}^{0} x\cos x dx$; 4) $\int_2^{+\infty} \frac{\ln x dx}{x}$;

5) $\int_2^{+\infty} \frac{dx}{x\sqrt{x^2-1}}$; 6) $\int_1^{+\infty} \frac{arctgx dx}{x^2}$;

7) $\int_0^{+\infty} e^{-x}\sin x dx$; 8) $\int_1^{e} \frac{dx}{x\sqrt{\ln x}}$;

9) $\int_{0}^{1}\frac{dx}{\sqrt{1-x^2}}$;

10) $\int_{1}^{3}\frac{xdx}{\sqrt{(x-1)}}$;

1) $\int_{-1}^{1}\frac{3x^2+2}{\sqrt[3]{x^2}}dx$;

12) $\int_{0}^{2}\frac{dx}{x^2-4x+3}$;

13) $\int_{-1}^{1}\frac{dx}{x\sqrt[3]{x}}$;

14) $\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{dx}{x^2+6x+10}$.

7.8.2. Integrallarni yaqinlashishga tekshiring:

1) $\int_{1}^{+\infty}\frac{dx}{x^{\alpha}}$;

2) $\int_{0}^{+\infty}\frac{dx}{\sqrt{1+x^3}}$;

3) $\int_{0}^{+\infty}\sqrt{x}e^{-x}dx$;

4) $\int_{1}^{+\infty}\frac{\sin xdx}{x^2}$;

5) $\int_{1}^{+\infty}\frac{x^3+1}{x^4}dx$;

6) $\int_{0}^{1}\frac{dx}{e^{\sqrt{x}}-1}$;

7) $\int_{0}^{1}\frac{e^x dx}{\sqrt{1-\cos x}}$;

8) $\int_{0}^{1}\frac{dx}{e^x-\cos x}$;

9) $\int_{1}^{2}\frac{3+\sin x}{(x-1)^3}dx$;

10) $\int_{0}^{1}\frac{\sqrt{x}dx}{\sqrt{1-x^4}}$;

11) $\int_{1}^{+\infty}\frac{\cos x}{x^2}dx$;

12) $\int_{0}^{+\infty}e^{-x}\sin xdx$.

7.9. ANIQ INTEGRALLARNING TATBIQLARI

Yassi figuraning yuzasini hisoblash. Tekis egri chiziq yoyi uzunligini topish. Aylanish sirti yuzasini hosoblash. Hajmni hisoblash. Momentlar va og‘irlik markazini hisoblash. Kuchning bajargan ishini hisoblash

7.9.1. Yuqoridan $y_2=f_2(x)$ funksiya grafigi bilan, quyidan $y_1=f_1(x)$ funksiya grafigi bilan, yon tomonlaridan $x=a$ va $x=b$ kesmalar bilan (kesmalardan biri yoki har ikkalasi nuqtadan iborat bo‘lishi mumkin) chegaralangan yassi figura yuzasi

$$S=\int_{a}^{b}(f_2(x)-f_1(x))dx \tag{9.1}$$

formula bilan hisoblanadi (1-shakl).

Funksiyalardan biri nolga teng bo‘lganda, ya’ni yuqori yoki quyi chegaralardan biri Ox o‘qdan iborat bo‘lgan egri chiziqli trapetsiyaning yuzasi quyidagi integral bilan hisoblanadi:

$$S = \int_a^b |f(x)|\,dx \tag{9.2}$$

Agar $y = f(x)$ funksiya $x = \varphi(t)$, $y = \psi(t)$, $\alpha \le t \le \beta$ parametrik tenglamalar bilan berilgan bo‘lsa

$$S = \int_\alpha^\beta \psi(t)\varphi'(t)\,dt \tag{9.3}$$

bo‘ladi, bu yerda, $a = \varphi(\alpha)$ va $b = \varphi(\beta)$.

Qutbdan chiquvchi $\varphi = \alpha$ va $\varphi = \beta$ nurlar bilan hamda tenglamalari $r = r_1(\varphi)$ va $r = r_2(\varphi)$ $(r_1(\varphi) \le r_2(\varphi))$ bo‘lgan egri chiziqlar bilan chegaralangan yassi figura yuzasi

$$S = \frac{1}{2}\int_\alpha^\beta (r_2^2(\varphi) - r_1^2(\varphi))\,d\varphi$$

integralga teng bo‘ladi (2-shakl), xususan $r = r(\varphi)$ $(r_1(\varphi) = 0)$ funksiya grafigi bilan chegaralangan figura uchun

$$S = \frac{1}{2}\int_\alpha^\beta r^2(\varphi)\,d\varphi. \tag{9.4}$$



1-shakl.



2-shakl.

$1-$misol. $y=x^2$, $y=0$ va $x=1$ chiziqlar bilan chegaralangan figura yuzasini hisoblang (3-shakl).

(9.2) formuladan topamiz:

$$S=\int_0^1 x^2dx=\frac{x^3}{3}\Big|_0^1=\frac{1}{3}.$$

$2-$misol. $y=\cos x$, $y=0$, $x=0$ va $x=\pi$ chiziqlar bilan chegaralangan figura yuzasini hisoblang (4-shakl).

4- shaklda berilgan figurani yuzalari S_1 va S_2 bo‘lgan kesishmaydigan qismlarga ajratamiz. U holda yuzaning additivlik xossasiga asosan berilgan figuraning yuzasi qismlar yuzalarining yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Demak,

$$S=S_1+S_2=\int_0^{\frac{\pi}{2}}\cos xdx-\int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi}\cos xdx=\sin x\Big|_0^{\frac{\pi}{2}}-\sin x\Big|_{\frac{\pi}{2}}^{\pi}=1-(-1)=2.$$



3- shakl.



4-shakl.

$3-$misol. $y^2=x+1$ va $y=x-1$ chiziqlar bilan chegaralangan figura yuzasini hisoblang.

Figura umumiy $B(0;-1)$ va $C(3;2)$ nuqtalarga ega bo‘lgan parabola va to‘g‘ri chiziq bilan chegaralangan. Shaklni uchta qismga, ya’ni yuzalari

S_1 ga teng bo‘lgan AOD va AOB parabolik sektorlarga va yuzasi S_2 ga teng bo‘lgan BCD parabolik uchburchakka ajratamiz (5-shakl).
U holda

$$S = 2S_1 + S_2 = 2\int_{-1}^{0} \sqrt{x+1}dx + \int_{0}^{3} (\sqrt{x+1} - (x-1))dx =$$

$$= \frac{4}{3}\sqrt{(x+1)^3}\Big|_{-1}^{0} + \left(\frac{2}{3}\sqrt{(x+1)^3} - \frac{x^2}{2} + x\right)\Big|_{0}^{3} = \frac{9}{2}.$$

Yuzani hisoblashga oid masalalarni yuzaning ko‘chishga nisbatan invariantlik xossasiga asosan soddalashtirish mumkin. Bunda figura yuzasi (9.1) formulada x va y o‘zgaruvchilar (Ox va Oy o‘qlar) ning o‘rnini almashtirish orqali hisoblanadi, ya’ni

$$S = \int_{a}^{b} (f_2(x) - f_1(x))dx = \int_{c}^{d} (g_2(x) - g_1(y))dy. \qquad (9.5)$$

Masalan, $3-$misolda berilgan figura yuzasi y o‘zgaruvchi bo‘yicha hisoblansa, figurani qismlarga ajratish shart bo‘lmaydi:

$$S = \int_{-1}^{2} (y + 1 - (y^2 - 1))dy = \left(\frac{y^2}{2} - \frac{y^3}{3} + 2y\right)\Big|_{-1}^{2} = \frac{9}{2}.$$



5-shakl.



6-shakl.

$4-$misol. $x = a\sin t,\quad y = b\sin 2t$ chiziqlar bilan chegaralangan figura yuzasini hisoblang.

6-shakldan ko‘rinadiki, egri chiziqning t parametr 0 dan π gacha o‘zgarishiga mos bir halqasining yuzasini hisoblash yetarli.

(9.3) formulalar bilan topamiz:

$$S = 2\int_0^{\pi} b\sin 2ta\cos t dt = 4ab\int_0^{\pi}\cos^2 t\sin t dt = -4ab\left(\frac{\cos^3 t}{3}\right)\Bigg|_0^{\pi} = \frac{8}{3}ab.$$

$5-$misol. $r = 2\cos 3\varphi$ egri chiziq bilan chegaralangan figura yuzasini hisoblang.

$r = 2\cos 3\varphi$ tenglama uch yaproqli gulni ifodalaydi (1-ilovaga qarang). Uch yaproqli gulning oltidan bir qismi yuzasini hisoblaymiz:

$$\frac{1}{6}S = \frac{1}{2}\int_0^{\frac{\pi}{6}} 4\cos^2 3\varphi d\varphi = \int_0^{\frac{\pi}{6}}(1+\cos 6\varphi)d\varphi = \left(\varphi + \frac{\sin 6\varphi}{6}\right)\Bigg|_0^{\frac{\pi}{6}} = \frac{\pi}{6}.$$

Bundan

$$S = \pi.$$

7.9.2. $[a;b]$ kesmada uzluksiz $y = f(x)$ funksiya grafigining (egri chiziq yoyining) uzunligi

$$l = \int_a^b \sqrt{1 + f'^2(x)}dx \tag{9.6}$$

formula bilan topiladi.

Agar egri chiziq $x = g(y),\ y \in [c;d]$ tenglama bilan berilgan bo‘lsa uning uzunligi

$$l = \int_c^d \sqrt{1 + g'^2(y)}dy \tag{9.7}$$

integral bilan topiladi.

Agar $y = f(x)$ funksiya $x = \varphi(t),\quad y = \psi(t),\quad \alpha \le t \le \beta$ parametrik tenglamalar bilan berilgan bo‘lsa

$$l = \int_\alpha^\beta \sqrt{\varphi'^2(t) + \psi'^2(t)}dt \tag{9.8}$$

bo‘ladi, bu yerda, $a = \varphi(\alpha)$ va $b = \varphi(\beta)$.

Qutb koordinatalar sistemasida $r = r(\varphi),\quad \alpha \le \varphi \le \beta$ tenglama bilan berilgan AB egri chiziq yoyining uzunligi

$$l = \int_\alpha^\beta \sqrt{r^2(\varphi) + r'^2(\varphi)}d\varphi \tag{9.9}$$

integral bilan topiladi, bu yerda $r(\varphi),\ r'(\varphi)$ funksiyalar $[\alpha;\beta]$ kesmada uzluksiz va A, B nuqtalar qutb koordinatalarida α, β burchaklar bilan aniqlanadi.

6 – misol. $y=\frac{3}{8}x\sqrt[3]{x}-\frac{3}{4}\sqrt[3]{x^2}$ egri chiziqning Ox o‘q bilan kesishish nuqtalari orasidagi yoyi uzunligini toping.

$y=0$ deb egri chiziqning Ox o‘q bilan kesishish nuqtalarini aniqlaymiz: $x_1=0,\ x_2=2\sqrt{2}.$

Hosilani topamiz:

$$y'=\frac{3}{8}\cdot\frac{4}{3}x^{\frac{1}{3}}-\frac{3}{4}\cdot\frac{2}{3}x^{-\frac{1}{3}}=\frac{1}{2}\left(x^{\frac{1}{3}}-x^{-\frac{1}{3}}\right).$$

Yoy uzunligini (9.6) formula bilan topamiz:

$$l=\int_0^{2\sqrt{2}}\sqrt{1+\frac{1}{4}\left(x^{\frac{1}{3}}-x^{-\frac{1}{3}}\right)^2}dx=\frac{1}{2}\int_0^{2\sqrt{2}}\sqrt{\left(x^{\frac{1}{3}}+x^{-\frac{1}{3}}\right)^2}dx=$$

$$=\frac{1}{2}\int_0^{2\sqrt{2}}\left(x^{\frac{1}{3}}+x^{-\frac{1}{3}}\right)dx=\frac{1}{2}\left(\frac{3}{4}x^{\frac{4}{3}}+\frac{3}{2}x^{\frac{2}{3}}\right)\Bigg|_0^{2\sqrt{2}}=3.$$

7 – misol. $x=\frac{1}{4}y^2-\frac{1}{2}\ln y$ egri chiziqning $y_1=1$ dan $y_2=e$ gacha yoyi uzunligini toping.

x' hosilani topamiz:

$$x'=\frac{y}{2}-\frac{1}{2y}=\frac{y^2-1}{2y}.$$

Yoy uzunligini (9.7) formula orqali topamiz:

$$l=\int_1^e\sqrt{1+\left(\frac{y^2-1}{2y}\right)^2}dy=\frac{1}{2}\int_1^e\sqrt{\left(\frac{1+y^2}{y}\right)^2}dy=\frac{1}{2}\int_1^e\frac{1+y^2}{y}dy=$$

$$=\frac{1}{2}\left(\ln y+\frac{y^2}{2}\right)\Bigg|_1^e=\frac{1}{2}\left(1+\frac{e^2-1}{2}\right)=\frac{e^2+1}{4}.$$

8 – misol. $\begin{cases}x=a\cos^3 t,\\ y=a\sin^3 t\end{cases}$ tenglama bilan berigan egri chiziq uzunligini toping.

Berilgan tenglama astroidani ifodalaydi (1-ilovaga qarang).

Astroidaning uzunligini (9.8) formula bilan topamiz:

$$l=4\int_0^{\frac{\pi}{2}}\sqrt{(-3a\cos^2 t\sin t)^2+(3a\sin^2 t\cos t)^2}\,dt=$$

$$= 4\int_0^{\frac{\pi}{2}} 3a\sqrt{\cos^2 t \sin^2 t \cdot (\cos^2 t + \sin^2 t)}dt =$$

$$= 12a\int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos t \sin t dt = 6a\sin^2 t\Big|_0^{\frac{\pi}{2}} = 6a.$$

9 – misol. $r = a(1+\cos\varphi),\ a > 0$ kardioida uzunligini toping.

Egri chiziqning simmetrikligini (1-ilovaga qarng) hisobga olib, (9.9) formula bilan topamiz:

$$l = 2l = 2\int_0^{\pi} \sqrt{a^2(1+\cos\varphi)^2 + a^2(-\sin\varphi)^2}d\varphi = 4a\int_0^{\pi}\sqrt{\frac{1+\cos\varphi}{2}}d\varphi =$$

$$= 4a\int_0^{\pi}\cos\frac{\varphi}{2}d\varphi = 8a\sin\frac{\varphi}{2}\Big|_0^{\pi} = 8a.$$

7.9.3. $[a;b]$ kesmada $f'(x)$ hosilasi bilan birga uzluksiz bo‘lgan $y = f(x)$ funksiya grafigining Ox o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jism sirti yuzasi

$$\sigma = 2\pi\int_a^b f(x)\sqrt{1+f'^2(x)}dx \qquad (9.10)$$

formula bilan hisoblanadi.

$x = g(y),\ y \in [c;d]$ funksiya grafigining Oy o‘q atrofida aylantirshdan hosil bo‘lgan jism sirtining yuzasi

$$\sigma = 2\pi\int_c^d g(y)\sqrt{1+g'^2(y)}dy \qquad (9.11)$$

integralga teng bo‘ladi.

$x = \varphi(t),\quad y = \psi(t),\quad \alpha \le t \le \beta$ parametrik tenglamalar bilan berilgan egri chiziqning $Ox(Oy)$ o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jism sirti yuzasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\sigma = 2\pi\int_{\alpha}^{\beta}\psi(t)\sqrt{\varphi'^2(t)+\psi'^2(t)}dt \quad \left(\sigma = 2\pi\int_{\alpha_1}^{\beta_1}\varphi(t)\sqrt{\psi'^2(t)+\varphi'^2(t)}dt\right), \qquad (9.12)$$

bu yerda $a = \varphi(\alpha)$ va $b = \varphi(\beta)$ $(c = \psi(\alpha_1)$ va $d = \psi(\beta_1))$.

Qutb koordinatalar sistemasida $r = r(\varphi),\quad \alpha \le \varphi \le \beta$ tenglama bilan berilgan egri chiziqning $Ox(Oy)$ o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jism sirti yuzasi

$$\sigma = 2\pi\int_{\alpha}^{\beta} r(\varphi)\sin\varphi\sqrt{r^2(\varphi)+r'^2(\varphi)}d\varphi \quad \left(\sigma = 2\pi\int_{\alpha}^{\beta} r(\varphi)\cos\varphi\sqrt{r^2(\varphi)+r'^2(\varphi)}d\varphi\right) \quad (9.13)$$

$10-$misol. Radiusi R ga teng bo‘lgan shar sirti yuzasini hisoblang.

Aylana markazi qutb qilib olingan qutb koordinatalar sistemasida aylana $r = R$ tenglama bilan aniqlanadi (1-ilovaga qarang). Bu aylana yarmining Ox o‘q atrofida aylanishidan shar hosil bo‘ladi.

Sharning koordinata o‘qlariga simmetrik bo‘lishini inobatga olib, hisoblaymiz:

$$\sigma = 2 \cdot 2\pi \int_0^{\frac{\pi}{2}} R \sin\varphi \sqrt{R^2 + 0}\, d\varphi = 4\pi R^2 (-\cos\varphi)\Big|_0^{\frac{\pi}{2}} = 4\pi R^2.$$

7.9.4. $Oxyz$ koordinatalar sistemasida qandaydir V jismning Oxy koordinata tekisligiga parallel tekislik bilan kesimi yuzasi S ma’lum bo‘lgan qandaydir D yassi figura bo‘lsin. Agar V jismning Ox o‘qqa proeksiyasi $[a;b]$ kesmadan iborat bo‘lib, V jismning Ox o‘qqa perpendikular bo‘lgan va $(x;0;0)$ nuqtadan o‘tuvchi kesimining yuzasi $S(x)$ x ning uzluksiz funksiyasi bo‘lsa, u hoda bunday jismning hajmi

$$V = \int_a^b s(x)dx \qquad (9.14)$$

formula bilan hisoblanadi.

$11-$misol. $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1$ ellipsoidning hajmini hisoblang.

Ellipsoidning koordinatalar boshidan $x\ (-a \le x \le a)$ masofada o‘tuvchi Ox o‘qqa perpendikular tekislik bilan kesamiz. Kesimda yarim o‘qlari $b(x) = b\sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}}$ va $c(x) = c\sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}}$ bo‘lgan ellips hosil bo‘ladi. Uning yuzasi

$$s(x) = \pi b(x)c(x) = \pi bc\left(1 - \frac{x^2}{a^2}\right).$$

U holda

$$V = \int_{-a}^{a} \pi bc\left(1 - \frac{x^2}{a^2}\right)dx = \pi bc\left(x - \frac{x^3}{3a^2}\right)\Bigg|_{-a}^{a} = \frac{4}{3}\pi abc.$$

$12-$misol. Balandligi H ga va asosining yuzasi S ga teng piramidaning hajmini hisoblang.

Oxy koordinatalar sistemasini koordinatalar boshi piramida uchida joylashgan va Ox o‘q balandlik bo‘ylab yo‘nalgan qilib tanlaymiz.

Piramidani uning uchidan x masofada asosga parallel kesim bilan kesamiz va kesim yuzasini $S(x)$ bilan belgilaymiz.

U holda parallel kesimlar xossasiga ko‘ra (7-shakl)

$$\frac{S(x)}{S}=\frac{x^2}{H^2} \text{ yoki } S(x)=\frac{S}{H^2}x^2.$$

(9.14) tenglikdan topamiz:

$$V=\int_0^H S(x)dx=\int_0^H \frac{S}{H^2}x^2dx=\frac{S}{H^2}\cdot\frac{x^3}{3}\bigg|_0^H=\frac{S}{H^2}\cdot\frac{H^3}{3}=\frac{1}{3}SH.$$



7-shakl.



8-shakl.

13 – misol. $x^2+y^2=9$ va $x^2+z^2=9$ silindrlar bilan chegaralangan jism hajmini hisoblang.

9-shaklda berilgan jismning I oktantda $(x\geq 0, y\geq 0, z\geq 0)$ joylashgan sakkizdan bir bo‘lagi keltirilgan. Uning Ox o‘qqa perpendikular tekislik bilan kesimi kvadratdan iborat. Kesim abssissasi $(x;0;0)$ nuqtadan o‘tganda kvadratning tomonlari $a=y=z=\sqrt{9-x^2}$ ga va yuzasi $s(x)=9-x^2$ teng bo‘ladi, bu yerda $0\leq x\leq 9$.

Jismning hajmni (9.14) formula bilan hisoblaymiz:

$$V=8\int_0^3(9-x^2)dx=8\left(9x-\frac{x^3}{3}\right)\bigg|_0^3=144.$$

Yuqoridan $y = f(x)$ uzluksiz funksiya grafigi bilan, quyidan Ox o‘q bilan, yon tomonlaridan $x = a$ va $x = b$ to‘g‘ri chiziqlar bilan chegaralangan egri chiziqli trapetsiyaning Ox o‘q atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan jism hajmi

$$V = \pi \int_a^b f^2(x)dx \tag{9.15}$$

formula bilan hisoblanadi.

Bu egri chiziqli trapetsiyani Oy o‘qi atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan jismning hajmi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$V = 2\pi \int_a^b xf(x)dx\,. \tag{9.16}$$

Agar egri chiziqli trapetsiya $x = g(y)$ uzluksiz funksiya grafigi, Oy (Ox) o‘q, $y = c$ va $y = d$ to‘g‘ri chiziqlar bilan chegaralangan bo‘lsa, u holda

$$V = \pi \int_c^d g^2(y)dy \ \ (Oy) \ \left(V = 2\pi \int_c^d yg(y)dy \ \ (Ox) \right). \tag{9.17}$$

$r = r(\varphi)$ egri chiziq va $\varphi = \alpha$, $\varphi = \beta$ nurlar bilan chegaralangan egrichiziqli sektorning qutb o’qi atrofida aylanishidan hosil bo’lgan jismning hajmi

$$V = \frac{2\pi}{3} \int_\alpha^\beta r^3 \sin\varphi d\varphi \tag{9.18}$$

formula bilan topiladi.

$14-$misol. Radiusi R ga va balandligi H ga teng bo‘lgan konusning hajmini hisoblang.

Konusni katetlari R va H bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchakning balandlik bo‘ylab yo‘nalgan Ox o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jism deyish mumkin (9-shakl). Gipotenuza tenglamasi $y = kx$ bo‘lsin deymiz.



9-shakl.

U holda

$$y = kx\,,\ k = tg\varphi = \frac{R}{H},\ \ y = \frac{R}{H}x.$$

Bundan

$$V=\pi\int_0^H y^2dx=\pi\int_0^H\frac{R^2}{H^2}x^2dx=\frac{\pi R^2}{H^2}\cdot\frac{x^3}{3}\bigg|_0^H=\frac{1}{3}\pi R^2H.$$

7.9.5. Oxy tekislikda massalari mos ravishda $m_1,m_2,...,m_n$ bo‘lgan $A_1(x_1;y_1),\ A_2(x_2;y_2),...,A_n(x_n;y_n)$ nuqtalar sistemasi berilgan bo‘lsin.

Sistemaning $Ox\ (Oy)$ o‘qqa nisbatan *statik momenti* $M_x\ (M_y)$ deb nuqtalar massalarini ularning ordinatalariga (abssissalariga) ko‘paytmalari yig‘indisiga aytiladi, ya’ni

$$M_x=\sum_{i=1}^n m_iy_i \quad \left(M_y=\sum_{i=1}^n m_ix_i\right)$$

Sistemaning $Ox\ (Oy)$ o‘qqa nisbatan *inersiya momenti* $J_x\ (J_y)$ deb nuqtalar massalarini ularning ordinatalari (abssissalari) kvadratiga ko‘paytmalari yig‘indisiga aytiladi, ya’ni

$$J_x=\sum_{i=1}^n m_iy_i^2 \quad \left(J_y=\sum_{i=1}^n m_ix_i^2\right)$$

Sistemaning *og‘irlik markazi* deb koordinatalari $\left(\frac{M_y}{m};\frac{M_x}{m}\right)$

bo‘lgan nuqtaga aytiladi, bu yerda $m=\sum_{i=1}^n m_i.$

Tekis egri chiziqning momentlari va og‘irlik markazi.

Oxy tekislikda AB egri chiziq $y=f(x)\ (a\le x\le b)$ tenglama bilan berilgan bo‘lib, egri chiziqning har bir nuqtasida $\gamma=\gamma(x)$ zichlik va $f(x)$ funksiya o‘zining $f'(x)$ hosilasi bilan birga uzluksiz bo‘lsin.

U holda AB egri chiziqning statik va inersiya momentlari hamda og‘irlik markazining koordinatalari quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$M_x=\int_a^b\gamma y\,dl,\quad M_y=\int_a^b\gamma x\,dl; \tag{9.19}$$

$$J_x=\int_a^b\gamma y^2dl,\quad J_y=\int_a^b\gamma x^2dl; \tag{9.20}$$

$$x_c=\frac{\int_a^b\gamma x\,dl}{m},\quad y_c=\frac{\int_a^b\gamma y\,dl}{m}, \tag{9.21}$$

bu yerda $y=f(x),\ \gamma=\gamma(x),\ dl=\sqrt{1+y'^2}dx,\ m=\int_a^b\gamma\cdot dl,\ a\le x\le b.$

15 – misol. Zichligi $\gamma = 1$ ga teng bo'lgan $x = 3(t - \sin t),\ y = 3(1 - \cos t),\ t \in [0;\pi]$ sikloida yarim arkasining statik va inersiya momentlarini hamda massasi va og'irlik markazining koordinatalarini toping.

⊖ $dx = 3(1 - \cos t)dt,\ dy = 3\sin t dt$ bo'lgani uchun

$$dl = \sqrt{9(1-\cos t)^2 + 9\sin^2 t}dt = 3\sqrt{2 - 2\cos t}dt = 6\sin\frac{t}{2}dt.$$

Izlanayotgan kattaliklarni (9.19) - (9.21) formulalar bilan topamiz:

$$M_x = \int_0^\pi ydl = \int_0^\pi 3(1-\cos t)6\sin\frac{t}{2}dt = 36\int_0^\pi \sin^2\frac{t}{2}\sin\frac{t}{2}dt = 36\int_0^\pi\left(1-\cos^2\frac{t}{2}\right)\sin\frac{t}{2}dt =$$

$$= 36\int_0^\pi \sin\frac{t}{2}dt + 72\int_0^\pi \cos^2\frac{t}{2}d\left(\cos\frac{t}{2}\right) = -72\cos\frac{t}{2}\Big|_0^\pi + 72\cdot\frac{1}{3}\cos^3\frac{t}{2}\Big|_0^\pi = 72 - 24 = 48;$$

$$M_y = \int_0^\pi xdl = \int_0^\pi 3(t-\sin t)6\sin\frac{t}{2}dt = 18\int_0^\pi t\sin\frac{t}{2}dt - 18\int_0^\pi \sin t\sin\frac{t}{2}dt =$$

$$= 18\left(-2t\cos\frac{t}{2}\Big|_0^\pi + 2\int_0^\pi\cos\frac{t}{2}dt\right) - 36\int_0^\pi\sin^2\frac{t}{2}\cos\frac{t}{2}dt = 36\left(0 + 2\sin\frac{t}{2}\Big|_0^\pi\right) -$$

$$- 72\int_0^\pi \sin^2\frac{t}{2}d\left(\sin\frac{t}{2}\right) = 36\cdot 2 - 72\cdot\frac{1}{3}\sin^3\frac{t}{2}\Big|_0^\pi = 72 - 24 = 48;$$

$$J_x = \int_0^\pi y^2dl = \int_0^\pi 9(1-\cos t)^2 6\sin\frac{t}{2}dt = 216\int_0^\pi \sin^4\frac{t}{2}\sin\frac{t}{2}dt =$$

$$= 216\int_0^\pi\left(1-\cos^2\frac{t}{2}\right)^2\sin\frac{t}{2}dt = 216\int_0^\pi\sin\frac{t}{2}dt + 864\int_0^\pi\cos^2\frac{t}{2}d\left(\cos\frac{t}{2}\right) -$$

$$- 432\int_0^\pi\cos^4\frac{t}{2}d\left(\cos\frac{t}{2}\right) = -432\cos\frac{t}{2}\Big|_0^\pi + 864\cdot\frac{1}{3}\cos^3\frac{t}{2}\Big|_0^\pi - 432\cdot\frac{1}{5}\cos^5\frac{t}{2}\Big|_0^\pi =$$

$$= 432 - 288 + \frac{432}{5} = \frac{1152}{5}.$$

$$J_y = \int_0^\pi x^2dl = \int_0^\pi 9(t-\sin t)^2 6\sin\frac{t}{2}dt = 54\int_0^\pi t^2\sin\frac{t}{2}dt - 108\int_0^\pi t\sin t\sin\frac{t}{2}dt +$$

$$+54\int_0^{\pi}\sin^2 t\sin\frac{t}{2}dt=54\left(-2t^2\cos\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}+4\int_0^{\pi}t\cos\frac{t}{2}dt\right)-216\int_0^{\pi}t\sin^2\frac{t}{2}\cos\frac{t}{2}dt+$$

$$-432\int_0^{\pi}\left(1-\cos^2\frac{t}{2}\right)\cos^2\frac{t}{2}d\left(\cos\frac{t}{2}\right)=216\left(2t\sin\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}-2\int_0^{\pi}\sin\frac{t}{2}dt\right)-$$

$$-144\int_0^{\pi}td\left(\sin^3\frac{t}{2}\right)-432\cdot\frac{1}{3}\cos^3\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}+432\cdot\frac{1}{5}\cos^5\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}=$$

$$=432\left(\pi+2\cos\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}\right)-144\left(t\sin^3\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}-\int_0^{\pi}\sin^3\frac{t}{2}dt\right)+144-\frac{432}{5}=$$

$$=432(\pi-2)-144\pi-288\int_0^{\pi}\left(1-\cos^2\frac{t}{2}\right)d\left(\cos\frac{t}{2}\right)+\frac{288}{5}=$$

$$=288\left(\pi-3+\frac{1}{5}-\left(\cos\frac{t}{2}-\frac{1}{3}\cos^3\frac{t}{2}\right)\Big|_0^{\pi}\right)=288\left(\pi-\frac{14}{5}+\frac{2}{3}\right)=288\left(\pi-\frac{32}{15}\right);$$

$$m=\int_0^{\pi}dl=\int_0^{\pi}6\sin\frac{t}{2}dt=-12\cos\frac{t}{2}\Big|_0^{\pi}=12;$$

$$x_c=\frac{M_y}{m}=\frac{48}{12}=4,\ y_c=\frac{M_x}{m}=\frac{48}{12}=4,\ \text{ya'ni } C(4;4).$$

Yassi figuraning momentlari va og'irlik markazi. Oxy tekislikda $[a;b]$ kesmada uzluksiz bo'lgan $y=f(x)$ funksiya grafigi , Ox o'q, $x=a$ va $x=b$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan egri chiziqli trapetsiya (yassi figura) berilgan bo'lib, yassi figuraning har bir nuqtasida $\gamma=\gamma(x)$ zichlik uzluksiz bo'lsin. U holda yassi figuraning momentlari va og'irlik markazining koordinatalari quyidagi formulalar orqali topiladi:

$$M_x=\frac{1}{2}\int_a^b\gamma y^2dx,\quad M_y=\int_a^b\gamma xydx; \tag{9.22}$$

$$J_x=\frac{1}{3}\int_a^b\gamma y^3dx,\quad J_y=\int_a^b\gamma x^2ydx; \tag{9.23}$$

$$x_c=\frac{\int_a^b\gamma xydx}{m},\quad y_c=\frac{\frac{1}{2}\int_a^b\gamma y^2dx}{m}, \tag{9.24}$$

bu yerda $y=f(x),\ \gamma=\gamma(x)$, $m=\int_a^b\gamma ydx,\ a\le x\le b.$

$16-$misol. $y=\cos x$ kosinusoida yoyi va Ox o‘qining $-\dfrac{\pi}{2}\le x\le\dfrac{\pi}{2}$ bo‘lagi bilan chegaralangan, zichligi $\gamma=1$ ga teng figuraning og‘irlik markazini toping.

Kosinusoidaning simmetrikligidan $x_c=\dfrac{\pi}{2}$ bo‘ladi.

U holda

$$M_x=\frac{1}{2}\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}} y^2dx=\frac{1}{2}\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}}\cos^2 xdx=$$

$$=\frac{1}{2}\int_0^{\pi}\frac{1+\cos 2x}{2}dx=\frac{1}{4}\left(x+\frac{\sin 2x}{2}\right)\Bigg|_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}}=\frac{\pi}{4},$$

$$m=\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}}\cos xdx=\sin x\Big|_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}}=2,\qquad y_c=\frac{\frac{\pi}{4}}{2}=\frac{\pi}{8}.$$

Demak,

$$G\left(\frac{\pi}{2};\frac{\pi}{8}\right).$$

7.9.6. Material nuqta o‘zgaruvchan $\vec{F}$ kuch ta’sirida Ox o‘qi bo‘ylab harakatlanayotgan bo‘lsin va bunda kuchning yo‘nalishi harakat yo‘nalishi bilan bir xil bo‘lsin. U holda $\vec{F}$ kuchning material nuqtani Ox o‘qi bo‘ylab $x=a$ nuqtadan $x=b\ (a<b)$ nuqtaga ko‘chirishda bajargan ishi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$A=\int_a^b F(x)dx, \qquad (9.24)$$

bu yerda $F(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz.

$18-$misol. Agar prujina $12\ H$ kuch ostida $4\ sm$ ga cho‘zilsa, uni $22\ sm$ cho‘zish uchun qancha ish bajarish kerak?

Guk qonuniga ko‘ra prujinani cho‘zuvchi kuch prujinaning cho‘zilishiga proporsional bo‘ladi, ya’ni $F=kx$.

Misolning shartiga ko‘ra: $F(0{,}04\ m)=12\ H$ yoki $12=0{,}04k$. Bundan $k=300$.

U holda

$$A=\int_0^{0,22}300xdx=150x^2\Big|_0^{0,22}=7{,}26\ (J).$$

Mustahkamlash uchun mashqlar

7.9.1 Berilgan chiziqlar bilan chegaralangan figuralar yuzalarini hisoblang:

1) $y = 9 - x^2,\ y = 0;$ 2) $y = -x,\ y = 2x - x^2;$

3) $y = \ln(x+6),\ y = 3\ln x,\ y = 0,\ x = 0;$ 4) $y = \ln x,\ y = 0,\ x = e^2;$

5) $x = y^2,\ x = |y+2|;$ 6) $xy = 4,\ x = 5 - y;$

7) $y = x^2,\ y^2 = -x;$ 8) $y = x^2,\ y = x^3,\ x = -1,\ x = 1;$

9) $x = 4\cos t,\ y = 3\sin t,\ 0 \le t \le 2\pi;$

10) $x = 3(t - \sin t),\ y = 3(1 - \cos t),$ sikloida bitta arkasi;

11) $r = 3\sqrt{\cos 2\varphi};$ 12) $r = 3\sin 2\varphi.$

13) $r = 2 + 3\cos\varphi;$ 14) $r = 2\varphi,$ bir o'rami.

7.9.2. Berilgan egri chiziqlar yoylari uzunliklarini toping:

1) $y = \dfrac{x^2}{2},\ x = 0$ dan $x = \sqrt{3}$ gacha;

2) $y = chx,\ x = 0$ dan $x = 1$ gacha;

3) $y^2 = x^3,\ x = 0$ dan $x = 5$ gacha;

4) $y = \arccos\sqrt{x} - \sqrt{x - x^2},\ x = 0$ dan $x = 1$ gacha;

5) $x = \dfrac{1}{4}y^2 - \dfrac{1}{2}\ln y,\ y = 1$ dan $y = 2$ gacha;

6) $x = 1 - \ln(y^2 - 1),\ y = 3$ dan $y = 4$ gacha;

7) $x = t^2,\ y = \dfrac{t^3}{3} - t,$ koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari orasidagi;

8) $x = t^2,\ y = t^3,\ t = 0$ dan $t = 1$ gacha;

9) $x = 2(t - \sin t),\ y = 2(1 - \cos t),$ sikloida bitta arkasi;

10) $x=3(2\cos t-\cos 2t),\ \ y=3(2\sin t-\sin 2t);$

11) $r=a(1-\cos\varphi),\ \ r\le\dfrac{a}{2}$ kardioida bo‘lagining;

12) $r=8\cos^3\dfrac{\varphi}{3},\quad \varphi=0$ dan $\varphi=\dfrac{\pi}{2}$ gacha.

7.9.3. Chiziqlarning berilgan o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan sirt yuzasini hisoblang:

1) $y^2=4x,\ \ x=0$ dan $x=3$ gacha, Ox o‘q;

2) $x^2+y^2=9,\ \ Oy$ o‘q;

3) $x=2(t-\sin t),\ \ y=2(1-\cos t),$ bitta arkasi, Ox o‘q;

4) $x=\sqrt{2}\cos t,\ \ y=\sin t,\ Ox$ o‘q;

7.9.4. R radiusli shar hajmini hisoblang.

7.9.5. Asosi $\dfrac{x^2}{16}+\dfrac{y^2}{9}=1$ ellipsdan iborat bo‘lgan va balandligi $h=3$ ga teng elliptik konusning hajmini hisoblang.

7.9.6. $x^2+y^2+z^2=16$ shar hamda $x=2$ va $x=3$ tekisliklar bilan chegaralangan jism hajmini hisoblang.

7.9.7. $\dfrac{y^2}{4}+\dfrac{z^2}{9}-x^2=1$ bir pallali giperboloid hamda $x=-1$ va $x=2$ tekisliklar bilan chegaralangan jism hajmini hisoblang.

7.9.8. Berilgan chiziqlar bilan chegaralangan figuraning berilgan o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jism hajmini hisoblang:

1) $x^2=4-y,\ \ y=0,\ Ox$ o‘qi;

2) $x^2+y^2=4$ yarim aylana $(x\ge 0)$ va $y^2=3x$ parabola, Ox o‘qi;

3) $y=\arcsin x,\ \ y=0,\ \ x=1,\ \ Oy$ o‘qi;

4) $y^2=x^3,\ \ x=1,\ \ y=0,\ \ Oy$ o‘qi;

5) $x^2=4y,\ \ x=0,\ \ y=1,\ Oy$ o‘qi;

6) $\frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{9}=1,\quad Oy$ o‘qi;

7) $x=2(t-\sin t),\ y=2(1-\cos t),$ bitta arkasi, Ox o‘qi;

8) $x=t^2,\ y=t^3,\ x=0,\ y=1, Oy$ o‘qi;

9) $r=3(1+\cos\varphi),$ qutb o‘qi;

10) $r=2R\cos\varphi,$ yarim aylana, qutb o‘qi;

7.9.9. $r=2R\sin\varphi$ bir jinsli aylananing og‘irlik markazini toping.

7.9.10. $x=a\cos^3 t,\ y=a\sin^3 t$ bir jinsli astroidaning Ox o‘qdan yuqorida yotgan yoyining og‘irlik markazini toping.

4.9.11. $4x+3y-12=0$ bir jinsli to‘g‘ri chiziqning koordinata o‘qlari orasida joylashgan kesmasining koordinata o‘qlariga nisbatan statik momentlarini toping.

4.9.12. $x=0,\ y=0,\ x+y=2$ ciziqlar bilan chegaralangan bir jinsli tekis shaklning koordinata o‘qlariga nisbatan statik va inersiya momentlarini, og’irlik markazini toping.

7.9.13. $y=4-x^2$ va $y=0$ bir jinsli chiziqlar bilan chegaralangan figuraning og‘irlik markazini toping.

7.9.14. Yarim o‘qlari $a=5$ va $b=4$ bo‘lgan bir jinsli ellipsning koordinata o‘qlariga nisbatan inersiya momentini toping.

7.9.15. $x^2+y^2=R^2$ aylananing birinchi chorakda joylashgan bo‘lagining o‘girlik markazini toping. Bunda aylananing har bir nuqtasidagi chiziqli zichligi shu nuqta koordinatalarining ko‘paytmasiga proporsional.

7.9.16. $x=8\cos^3 t,\ 8=4\sin^3 t$ astroida birinchi chorakda yotgan yoyining koordinata o‘qlariga nisbatan statik momentlarini va massasini toping. Bunda astroidaning har bir nuqtasidagi chiziqli zichligi x ga teng.

7.9.17. Prujinani $4\ sm.$ga cho‘zish uchun $24\ J$ ish bajariladi. $150\ J$ ish bajarilsa, prujinana qanday uzunlikka cho‘ziladi?

7.9.18. Agar prujinani $1\ sm.$ga siqish uchun $1\ kG$ kuch sarf qilinsa, prujinaning $8\ sm.$ga siqishda sarf bo‘ladigan F kuch bajargan ishni toping.

7-NAZORAT ISHI

1-2. Aniqmas integralni toping.

1-variant

1. $\int \frac{3x-2}{x^2-6x+10}dx$ **2.** $\int \frac{3x^2-1}{(x-1)(x^2-1)}dx.$

2-variant

1. $\int \frac{2x-5}{\sqrt{x^2-2x+2}}dx.$ **2.** $\int \frac{3x^3+1}{x^2(x+1)}dx.$

3-variant

1. $\int \frac{x+4}{\sqrt{3-x^2+2x}}dx.$ **2.** $\int \frac{2+x^2-3x}{x(x+1)^2}dx.$

4-variant

1. $\int \frac{(\arcsin x)^2-1}{\sqrt{1-x^2}}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{x^3+x^2}dx.$

5-variant

1. $\int \frac{1+\sin x}{(x-\cos x)^2}dx.$ **2.** $\int \frac{2x^2+3}{x(x+1)^2}dx.$

6-variant

1. $\int \frac{\cos x+\sin x}{(\sin x-\cos x)^2}dx.$ **2.** $\int \frac{x+2}{x(x^2-2x+1)}dx.$

7-variant

1. $\int \frac{x^3dx}{x^2-1}.$ **2.** $\int \frac{x-2}{x^3-x^2}dx.$

8-variant

1. $\int \frac{x+\cos x}{2\sin x+x^2}dx.$ **2.** $\int \frac{x^3+1}{x^3-x^2}dx.$

9-variant

1. $\int \frac{x\cos x+\sin x}{(x\sin x)^3}dx.$ **2.** $\int \frac{x^3-1}{x^3+x^2}dx.$

10-variant

1. $\int \frac{arctgx - 2x}{1+x^2}dx.$ **2.** $\int \frac{x^3+1}{x^2-x}dx.$

11-variant

1. $\int \frac{\sqrt{4-x^2}}{x^4}dx$ **2.** $\int \frac{3x^3+2}{x^2-1}dx.$

12-variant

1. $\int \frac{dx}{\sqrt{(x^2-1)^3}}.$ **2.** $\int \frac{x^3+3x-1}{x^2+x}dx.$

13-variant

1. $\int \frac{3x-1}{x^2+2x+2}dx$ **2.** $\int \frac{x^3-4}{x^2+3x+2}dx.$

14-variant

1. $\int \frac{4x+3}{x^2+10x+29}dx$ **2.** $\int \frac{2x^3+5x^2-1}{x^3+x^2}dx.$

15-variant

1. $\int \frac{5x-3}{x^2+6x+13}dx$ **2.** $\int \frac{2x+3}{x^3-x^2-x+1}dx.$

16-variant

1. $\int \frac{5x-1}{\sqrt{x^2-4x+5}}dx$ **2.** $\int \frac{x^3-2x^2+1}{x^2-7x+12}dx.$

17-variant

1. $\int \frac{3x+2}{\sqrt{3+2x-x^2}}dx$ **2.** $\int \frac{4x^3-x^2+1}{x^2-2x}dx.$

18-variant

1. $\int \frac{2x+3}{\sqrt{5+4x-x^2}}dx$ **2.** $\int \frac{2x^3-4x+3}{x^2+2x}dx.$

19-variant

1. $\int \frac{\sqrt{16-x^2}}{x^4}dx$ **2.** $\int \frac{x^3-4}{x^2-4x+3}dx.$

20-variant

1. $\int \frac{dx}{x^2\sqrt{x^2+4}}$ **2.** $\int \frac{3x^3-4}{x^3-x}dx.$

21-variant

1. $\int \frac{x^2+\ln x^2}{x}dx$ **2.** $\int \frac{x^3-3}{x^2+x-6}dx.$

22-variant

1. $\int \frac{xdx}{\sqrt{x^4+2x^2+5}}$ **2.** $\int \frac{2x^2-2x-1}{x^2-x^3}dx.$

23-variant

1. $\int ctgx\ln(\sin x)dx$ **2.** $\int \frac{x^2-3x+2}{x\left(x^2+2x+1\right)}dx.$

24-variant

1. $\int \frac{3\cos x+2\sin x}{(2\cos x-3\sin x)^2}dx.$ **2.** $\int \frac{x^3-3}{(x-1)^2(x+1)}dx.$

25-variant

1. $\int \frac{dx}{x\sqrt{x^2-1}}$ **2.** $\int \frac{x^3+3x-2}{x(x+1)^2}dx.$

26-variant

1. $\int \frac{dx}{x\sqrt{x^2+1}}$ **2.** $\int \frac{dx}{x^3-8}dx.$

27-variant

1. $\int \frac{dx}{x\sqrt{1-x^2}}$ **2.** $\int \frac{x-3}{x^4+4x^2}dx.$

28-variant

1. $\int tgx\ln(\cos x)dx$ **2.** $\int \frac{dx}{x^3-3x+2}.$

29-variant

1. $\int \frac{3+\ln 2x}{x}dx$ **2.** $\int \frac{2x-1}{x^3+x}dx.$

30-variant

1. $\int \frac{x+\ln 9x^2}{x}dx$ **2.** $\int \frac{3x^3+4}{x^2-x-2}dx.$

8-NAZORAT ISHI

1. Aniq integralni hisoblang.
2. Xosmas integralni yaqinlashishga tekshiring.

1-variant

1. $\int_0^2 \frac{x^2 dx}{\sqrt{16-x^2}}.$ **2.** $\int_0^{+\infty} \frac{5-x^2}{4+x^2} dx.$

2-variant

1. $\int_2^4 \frac{\sqrt{x^2-4}}{x^4} dx.$ **2.** $\int_0^{\frac{\pi}{2}} \frac{e^{tgx}}{\cos^2 x} dx.$

3-variant

1. $\int_{\sqrt{2}}^{2\sqrt{2}} \frac{\sqrt{x^2-2}}{x^4} dx.$ **2.** $\int_0^{\frac{\pi}{3}} \frac{dx}{(3x+1)^2}.$

4-variant

1. $\int_{\frac{\sqrt{3}}{3}}^{1} \frac{dx}{x^2\sqrt{(1+x^2)^3}}.$ **2.** $\int_0^{+\infty} \frac{xdx}{9x^4+1}.$

5-variant

1. $\int_3^6 \frac{\sqrt{x^2-9}}{x^4} dx.$ **2.** $\int_0^1 \frac{xdx}{1-x^4} dx.$

6-variant

1. $\int_0^{4\sqrt{2}} \frac{dx}{\sqrt{(64-x^2)^3}}.$ **2.** $\int_0^3 \frac{dx}{x^2-2x-3}.$

7-variant

1. $\int_{2\sqrt{3}}^{6} \frac{dx}{x^2\sqrt{x^2-9}} dx.$ **2.** $\int_0^{+\infty} \frac{dx}{x^2(x+1)}.$

8-variant

1. $\int_{\sqrt{3}}^{2} \frac{dx}{x^4\sqrt{x^2-3}}.$ **2.** $\int_1^{+\infty} \frac{\sqrt{x}}{(1+x)^2} dx.$

9-variant

1. $\int_0^{\sqrt{3}} \frac{dx}{\sqrt{(4-x^2)^3}}.$ **2.** $\int_1^2 \frac{dx}{x\ln x}.$

10-variant

1. $\int\limits_3^6 \frac{\sqrt{x^2-9}}{x^4}dx.$ **2.** $\int\limits_0^2 \frac{x^2dx}{\sqrt{64-x^6}}.$

11-variant

1. $\int\limits_{-2}^2 x^2\sqrt{4-x^2}dx.$ **2.** $\int\limits_0^{+\infty} \frac{xdx}{4x^2+4x+5}.$

12-variant

1. $\int\limits_0^1 \sqrt{\left(1-x^2\right)^3}dx.$ **2.** $\int\limits_{-1}^1 \frac{x+1}{\sqrt[5]{x^3}}dx.$

13-variant

1. $\int\limits_0^4 \frac{dx}{\sqrt{\left(16+x^2\right)^3}}.$ **2.** $\int\limits_2^{+\infty} \frac{\ln xdx}{x}.$

14-variant

1. $\int\limits_0^5 \frac{dx}{\sqrt{\left(25+x^2\right)^3}}.$ **2.** $\int\limits_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{x^2+2x+2}.$

15-variant

1. $\int\limits_0^2 \frac{x^2dx}{\sqrt{16-x^2}}.$ **2.** $\int\limits_0^{\frac{1}{3}} \frac{dx}{\sqrt[4]{1-3x}}.$

16-variant

1. $\int\limits_0^2 \frac{x^4dx}{\sqrt{\left(8-x^2\right)^3}}.$ **2.** $\int\limits_1^3 \frac{dx}{\sqrt{x^2-6x+9}};$

17-variant

1. $\int\limits_0^2 \sqrt{4-x^2}dx.$ **2.** $\int\limits_{-\infty}^{+2} \frac{dx}{x^2-4x};$

18-variant

1. $\int\limits_0^1 x^2\sqrt{1-x^2}dx.$ **2.** $\int\limits_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} \frac{\sin xdx}{\sqrt[5]{\cos^2 x}}.$

19-variant

1. $\int\limits_0^4 x^2\sqrt{16-x^2}dx.$ **2.** $\int\limits_1^2 \frac{dx}{\sqrt[3]{4x-x^2-4}}.$

20-variant

1. $\int_0^2 \sqrt{(4-x^2)^3}\,dx.$ **2.** $\int_0^{\frac{1}{\ell}} \frac{dx}{x\ln^2 x}.$

21-variant

1. $\int_0^{\frac{\sqrt{5}}{2}} \frac{dx}{\sqrt{(5-x^2)^3}}.$ **2.** $\int_1^2 \frac{dx}{x\ln x}.$

22-variant

1. $\int_0^{\frac{3}{2}} \frac{x^2dx}{\sqrt{9-x^2}}.$ **2.** $\int_0^2 \frac{dx}{x^2-4x+3}.$

23-variant

1. $\int_0^4 \sqrt{16-x^2}\,dx.$ **2.** $\int_0^{+\infty} \frac{\sqrt{arctg3x}}{1+9x^2}dx.$

24-variant

1. $\int_0^5 x^2\sqrt{25-x^2}\,dx.$ **2.** $\int_0^{+\infty} \frac{x^2dx}{\sqrt{81x^4+1}}.$

25-variant

1. $\int_0^3 x^2\sqrt{9-x^2}\,dx.$ **2.** $\int_2^3 \frac{dx}{x^2-3x+2}.$

26-variant

1. $\int_0^{\sqrt{3}} \sqrt{3+x^2}\,dx.$ **2.** $\int_0^{+\infty} \frac{x^2dx}{\sqrt[3]{(x^3+8)^4}}.$

27-variant

1. $\int_0^5 \sqrt{25-x^2}\,dx.$ **2.** $\int_{-\infty}^{\infty} \frac{dx}{x^2+16}.$

28-variant

1. $\int_0^3 \sqrt{(9-x^2)^3}\,dx.$ **2.** $\int_0^2 \frac{\sqrt{\ln(2-x)}}{2-x}dx.$

30-variant

1. $\int_0^4 \frac{dx}{\sqrt{(16+x^2)^3}}.$ **2.** $\int_{-\infty}^{-1} \frac{dx}{x^3-x^2}.$

30-variant

1. $\int_1^2 \frac{\sqrt{x^2-1}}{x^4}dx.$ **2.** $\int_0^1 \frac{x^4dx}{\sqrt[4]{1-x^5}}.$

9-NAZORAT ISHI

1.Berilgan funksiyalar grafiklari bilan chegaralangan yassi figura yuzasini hisoblang.
2. Berilgan egri chiziq yoyi uzunligini toping.

1-variant

1. $4y = x^2,\ 2y = 6x - x^2.$ **2.** $y = -\ln\cos x,\ 0 \le x \le \frac{\pi}{6}.$

2-variant

1. $y = x^2,\ y = 2x,\ y = x.$ **2.** $r = 3(1 + \sin\varphi),\ -\frac{\pi}{6} \le \varphi \le 0.$

3-variant

1. $y = \arccos x,\ y = 0,\ x = 0.$ **2.** $x = 2\cos^3 t,\ y = 2\sin^3 t,\ 0 \le t \le \frac{\pi}{4}.$

4-variant

1. $y = x^3 - 3x,\ y = x.$ **2.** $y = chx + 4,\ 0 \le x \le 1.$

5-variant

1. $y = (x-1)^2,\ y^2 = x - 1$ **2.** $x = 2(t - \sin t),\ y = 2(1 - \cos t),\ 0 \le t \le \frac{\pi}{2}.$

6-variant

1. $r = 3\cos 3\varphi.$ **2.** $r = 4(1 - \sin\varphi),\ 0 \le \varphi \le \frac{\pi}{6}.$

7-variant

1. $y = \ln\cos x + 3,\ 0 \le t \le \frac{\pi}{3};$ **2.** $y = \ln\cos x + 3,\ 0 \le t \le \frac{\pi}{3}.$

8-variant

1. $r = 3\varphi,\ 0 \le \varphi \le \frac{4}{3};$ **2.** $r = 3\varphi,\ 0 \le \varphi \le \frac{4}{3}.$

9-variant

1. $y = x\sqrt{9 - x^2},\ y = 0,\ (0 \le x \le 3).$ **2.** $y = \sqrt{1 - x^2} + \arccos x,\ 0 \le x \le \frac{8}{9}.$

10-variant

1. $x=(y-2)^3,\ x=4y-8.$ **2.** $y=\dfrac{e^x+e^{-x}}{2},\ 0\le x\le 2.$

11-variant

1. $y=3x-x^2,\ y=-x.$ **2.** $x=3(t-\sin t),\ y=3(1-\cos t),\ \pi\le t\le 2\pi.$

12-variant

1. $y^2=4x,\ x^2=4y.$ **2.** $r=2(1-\cos\varphi),\ -\pi\le\varphi\le-\dfrac{\pi}{2}.$

13-variant

1. $y=2^x,\ y=2x-x^2,\ x=0,\ x=1.$ **2.** $y=\sqrt{1-x^2}+\arcsin x,\ 0\le x\le\dfrac{7}{9}.$

14-variant

1. $x=4-y^2,\ x=y^2-2y.$ **2.** $r=3e^{\frac{3}{4}\varphi},\ -\dfrac{\pi}{2}\le\varphi\le\dfrac{\pi}{2}.$

15-variant

1. $y=\sqrt{4-x^2},\ y=0,\ x=0,\ x=1.$ **2.** $x=5\cos^2 t,\ y=5\sin^2 t,\ 0\le t\le\dfrac{\pi}{2}.$

16-variant

1. $r=\cos\varphi-\sin\varphi.$ **2.** $r=2\sin^3\dfrac{\varphi}{3},\ 0\le\varphi\le\dfrac{\pi}{2}.$

17-variant

1. $x=2(t-\sin t),\ y=2(1-\cos t).$ **2.** $y=e^x+12,\ \ln\sqrt{15}\le t\le\ln\sqrt{24}.$

18-variant

1. $y=\sin x,\ y=\cos x,\ x=0.$ **2.** $y=\ln(1-x^2),\ 0\le t\le\dfrac{1}{4}.$

19-variant

1. $y=-x^2,\ x+y+2=0.$ **2.** $y=\ln\sin x+3,\ \dfrac{\pi}{3}\le t\le\dfrac{\pi}{2}.$

20-variant

1. $x=4\cos^3 t,\ y=4\sin^3 t.$ **2.** $r=2e^{\frac{4}{3}\varphi},\ -\frac{\pi}{2}\le\varphi\le\frac{\pi}{2}.$

21-variant

1. $x^2=9y,\ x=3y.$ **2.** $x=4\cos^3 t,\ y=4\sin^3 t,\ 0\le t\le\frac{\pi}{2}.$

22-variant

1. $y^2=2-x,\ y=\sqrt{x}.$ **2.** $y=2-e^x,\ \ln\sqrt{5}\le t\le\ln\sqrt{8}.$

23-variant

1. $y=x^2\sqrt{4-x^2},\ \ y=0\ \ (0\le x\le 2).$ **2.** $x=5(t-\sin t),\ y=5(1-\cos t),\ 0\le t\le\pi.$

24-variant

1. $r=4(1-\cos\varphi).$ **2.** $r=4\varphi,\ 0\le\varphi\le\frac{3}{4}.$

25-variant

1. $y=xarctgx,\ y=0,\ x=\sqrt{3}.$ **2.** $r=\cos^3\frac{\varphi}{3},\ 0\le\varphi\le\frac{3\pi}{2}.$

26-variant

1. $y=x^2-6,\ y=-x^2+5x-6.$ **2.** $y=\ln\frac{5}{2x},\ \sqrt{3}\le x\le 8.$

27-variant

1. $y=(x+2)^2,\ y=4-x,\ y=0.$ **2.** $y=\frac{x^2}{4}-\frac{\ln x}{2},\ 1\le x\le 2.$

28-variant

1. $xy=4,\ x+y=5$ **2.** $r=1-\sin\varphi,\ -\frac{\pi}{2}\le\varphi\le-\frac{\pi}{6}.$

29-variant

1. $x=3\cos t,\ y=2\sin t.$ **2.** $x=8\cos^2 t,\ y=8\sin^2 t,\ 0\le t\le\frac{\pi}{6}.$

30-variant

1. $y=x^2-2x+3,\ y=3x-1.$ **2.** $y=3+e^{\frac{x}{2}}+e^{-\frac{x}{2}},\ 0\le x\le 2.$

6-MUSTAQIL ISH

1 - 4. Aniqmas integralni toping.
5 - 7. Aniq integralni hisoblang.
8. Berilgan l egri chiziqning ko'rsatilgan o'q atrofida aylanishidan hosil bo'lgan sirt yuzasini hisoblang.
9. Berilgan egri chiziqlar bilan chegaralangan figuraning ko'rsatilgan o'q atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jism hajmini hisoblang.
10 (10.1-10.15). Bir jinsli l egri chiziq og'irlik markazining koordinatalarini toping.
10 (10.16- 10.30). Berilgan chiziqlar bilan chegaralangan bir jinsli D yassi figura og'irlik markazining koordinatalarini toping.

1-variant

1. $\int \frac{7x-7}{(x+1)(x^2-4x+13)}dx.$

2. $\int \frac{dx}{2+4\sin x+3\cos x}.$

3. $\int \frac{x+\sqrt[3]{x^2}+\sqrt[6]{x}}{x(1+\sqrt[3]{x})}dx.$

4. $\int \frac{\sqrt{1+\sqrt[3]{x^2}}}{x^2}dx.$

5. $\int\limits_{-2}^{0}(x+2)^2\cos 3x dx.$

6. $\int\limits_{0}^{\pi} 2^4\cos^8 x dx.$

7. $\int\limits_{0}^{2}\frac{x-1}{\sqrt{3x^2-x+5}}dx.$

8. $l:\ x=e^t\sin t,\ y=e^t\cos t$ egri chiziq yoyining $t=0$ dan $t=\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, Ox.

9. $y=xe^x,\ x=-2,\ y=0,\ Ox.$

10. $l:\ x=2\cos^3\frac{t}{4},\ y=2\sin^3\frac{t}{4}$ astroidaning birinchi kvadrantdagi qismi.

2-variant

1. $\int \frac{x^2+3x-6}{(x+1)(x^2+6x+13)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{4\cos x+3\sin x}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x+3}}{1+\sqrt[3]{x+3}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[5]{x}}}{x\cdot\sqrt[15]{x^4}}dx.$

5. $\int_1^{e^2}\sqrt{x}\ln^2 x dx.$ **6.** $\int_0^{\pi}2^4\sin^6 x\cos^2 x dx.$

7. $\int_{-2}^{0}\frac{x+5}{\sqrt{3-6x-x^2}}dx.$

8. $l:\ x=2\cos^3 t,\ y=2\sin^3 t$ astroida, Oy.

9. $y^2=3x,\ x^2=3y,\ Oy.$

10. $l:\ r=2\sin\varphi$ egri chiziqning $\varphi=0$ dan $\varphi=\pi$ gacha qismi.

3-variant

1. $\int \frac{x^2-3x+1}{(x+2)(x^2+4)}dx.$ **2.** $\int \frac{\sin x dx}{5+3\sin x}.$

3. $\int \frac{\sqrt{1+x}}{x^2\sqrt{x}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[3]{x}}}{x\cdot\sqrt[9]{x^4}}dx.$

5. $\int_0^3(x^2-3x)\sin x dx.$ **6.** $\int_0^{2\pi}2^4\sin^4 x\cos^4 x dx.$

7. $\int_{\frac{1}{2}}^{\frac{3}{2}}\frac{2x-10}{\sqrt{1+x-x^2}}dx.$

8. $l:\ x=3(t-\sin t),\ y=3(1-\cos t)$ sikloidaning bir arkasi, Ox.

9. $r^2=a\cos 2\varphi,$ qutb o’qi.

10. $l:\ y=3ch(x-3)$ zanjir chiziq yoyining $x=-3$ dan $x=3$ gacha qismi.

4-variant

1. $\int \frac{x^2-4x+12}{x^3+8}dx.$

2. $\int \frac{\cos x dx}{1+\sin x+\cos x}.$

3. $\int \frac{1+\sqrt[3]{x^2}}{\sqrt{x}+\sqrt[3]{x}}dx.$

4. $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[5]{x^4}}}{x^2\cdot\sqrt[15]{x}}dx.$

5. $\int_1^2 x\ln(3x+2)dx.$

6. $\int_0^{\pi} 2^4\sin^8 x dx.$

7. $\int_{\frac{3}{2}}^{\frac{5}{2}} \frac{5x+2}{\sqrt{x^2+3x+4}}dx.$

8. $l:\ r=4\sin\varphi$ aylananing $\varphi=0$ dan $\varphi=\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, *Ox.*

9. $y^2=(x+1)^3,\ x=0,\ Oy.$

10. $l:\ x=5\cos^3 t,\ y=5\sin^3 t$ astroidaning Oy o‘qdan chapda yotgan qismi.

5-variant

1. $\int \frac{3x+13}{(x-1)(x^2+2x+5)}dx.$

2. $\int \frac{6\sin x-5\cos x+7}{1+\cos x}dx.$

3. $\int \frac{\sqrt{x-1}}{\sqrt[3]{x-1}+1}dx.$

4. $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[3]{x^2}}}{x\cdot\sqrt[9]{x^8}}dx.$

5. $\int_1^2 x^2\ln x dx.$

6. $\int_0^{2\pi} \sin^4\frac{x}{4}\cos^4\frac{x}{4}dx.$

7. $\int_{-2}^{0} \frac{7x-2}{\sqrt{x^2-5x+1}}dx.$

8. $l:\ x=\frac{t^3}{24},\ y=4-\frac{t^2}{16}$ egri chiziq yoyining $t=0$ dan $t=2\sqrt{2}$ gacha qismi, *Ox.*

9. $x=a(t-\sin t),\ y=a(1-\cos t),$ b.a., *Ox.*

10. $l:\ x^2+y^2=9$ aylananing $\varphi=60^o$ li markaziy burchagi orasidagi qismi.

6-variant

1. $\int \frac{3x^2+5x-1}{(x+1)(x^2+2)}.$ **2.** $\int \frac{dx}{3\cos x-5}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x}dx}{3x+\sqrt[3]{x^2}}.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[4]{(1+\sqrt{x})^3}}{x\cdot\sqrt[8]{x^7}}dx.$

5. $\int_0^{\frac{\pi}{2}}(x^2+1)\cos x dx.$ **6.** $\int_0^{2\pi}\sin^2\frac{x}{4}\cos^6\frac{x}{4}dx.$

7. $\int_{-1}^{3}\frac{x-9}{\sqrt{4+2x-x^2}}dx.$

8. l: $y=\frac{x^2}{4}-\frac{\ln x}{2}$ egri chiziq yoyining $x=1$ dan $x=e$ gacha qismi, $Ox.$

9. $x^2+(y-2)^2=1,\ Oy.$

10. l: $r=2(1-\cos\varphi)$ kardioidaning $\varphi=-\pi$ dan $\varphi=-\frac{\pi}{2}$ gacha qismi.

7-variant

1. $\int \frac{2x^3+1}{(x+2)(x^2+2x+3)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{5\cos x+3}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x+1}+\sqrt[3]{x+1}}{\sqrt{x+1}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[3]{x}}}{x\cdot\sqrt[9]{x^4}}dx.$

5. $\int_{-1}^{1}x^2e^{-\frac{x}{2}}dx.$ **6.** $\int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi}2^8\sin^2 x\cos^6 x dx.$

7. $\int_{-2}^{0}\frac{6x-1}{\sqrt{2-3x-x^2}}dx.$

8. l: $y=\sin x$ sinusoidaning $x=0$ dan $x=\pi$ gacha qismi, $Ox.$

9. $y=e^{-x},\ x=0,\ y=0,\ (x\geq 0),\ Oy.$

10. l: $x=\sqrt{3}t^2,\ y=t-t^3$ egri chiziq yoyining $t=0$ dan $t=1$ gacha qismi.

8-variant

1. $\int \frac{3x-5}{(x+1)(x^2+1)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{\sin x+\cos x+3}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x}+\sqrt[3]{x}}{\sqrt{x}+\sqrt[6]{x}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[5]{(1+\sqrt[4]{x^3})^4}}{x^2\cdot\sqrt[20]{x^7}}dx.$

5. $\int_0^1 xarctgxdx;$ **6.** $\int_{-\frac{\pi}{2}}^{0} 2^8\sin^8 xdx.$

7. $\int_0^2 \frac{4x+3}{\sqrt{2x^2-x+5}}dx.$

8. $l:\ \frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{16}=1$ ellipsning $x=0$ dan $x=5$ gacha qismi, $Ox.$

9. $x^2=(y+4)^3,\ y=0,\ Ox.$

10. $l:\ x=3(\cos t+t\sin t),\ y=3(\sin t-t\cos t)\ (0\le t\le\pi)$ egri chiziq yoyi.

9-variant

1. $\int \frac{5x+6}{(x-2)(x^2-x+1)}dx.$ **2.** $\int \frac{1+\sin x}{\sin x+\cos x+1}dx.$

3. $\int \frac{\sqrt{x}}{x-4\sqrt[3]{x^2}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[4]{1+\sqrt[3]{x}}}{x\cdot\sqrt[12]{x^5}}dx.$

5. $\int_{-2}^{0}(x-1)e^{-\frac{x}{2}}dx;$ **6.** $\int_0^{2\pi}\sin^4 3x\cos^4 3xdx.$

7. $\int_0^{\frac{1}{2}} \frac{2x+3}{\sqrt{2x^2-x+6}}dx.$

8. $l:\ y=2ch\frac{x}{2}$ zanjir chiziq yoyining $x=0$ dan $x=2$ gacha qismi, $Ox.$

9. $y=\sin x,\ y=\cos x,\ 0\le x\le\frac{\pi}{2},\ Ox.$

10. $l:\ r=a\sin^3\frac{\varphi}{3}$ egri chiziq yoyi.

10-variant

1. $\int \frac{x^2+2x-1}{(x+2)(x^2+x+1)}dx.$

2. $\int \frac{dx}{\cos x(1+\cos x)}.$

3. $\int \frac{x+\sqrt{x}+\sqrt[3]{x^2}}{x(1+\sqrt[3]{x})}dx.$

4. $\int \frac{\sqrt[3]{(1+\sqrt[5]{x^4})^2}}{x^2\cdot\sqrt[3]{x}}dx.$

5. $\int_1^e x\ln^2 x dx.$

6. $\int_0^{\pi} 2^4\sin^2 x\cos^6 x dx.$

7. $\int_1^{\frac{3}{2}} \frac{2x+7}{\sqrt{x^2+5x-4}}dx.$

8. $l:\ x^2=2y$ parabolaning $y=0$ dan $y=\frac{3}{2}$ gacha qismi, Oy.

9. $r=a\cos^2\varphi$, qutb o'qi.

10. $l:\ x^2+y^2=25$ aylananing Ox o'qdan yuqori yarim qismi.

11-variant

1. $\int \frac{x^2+3x+2}{x^3-1}dx.$

2. $\int \frac{dx}{\sin x+3\cos x+5}.$

3. $\int \frac{(\sqrt[3]{x}+1)(\sqrt{x}+1)}{\sqrt[6]{x^5}}dx.$

4. $\int \frac{\sqrt[5]{1+\sqrt[3]{x}}}{x\cdot\sqrt[5]{x^2}}dx.$

5. $\int_0^1 x^2e^{3x}dx.$

6. $\int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} 2^8\cos^8 x dx.$

7. $\int_{-\frac{1}{3}}^{\frac{1}{3}} \frac{x-7}{\sqrt{3x^2-2x+1}}dx.$

8. $l:\ r=\frac{1}{\cos^2\frac{\varphi}{2}}$ egri chiziq yoyining $\varphi=0$ dan $\varphi=\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, Ox.

9. $y=\frac{2}{1+x^2},\ x=0,\ y=0,\ x=1,\ Ox.$

10. $l:\ r=4(1+\cos\varphi)$ kardioidaning $\varphi=0$ dan $\varphi=\pi$ gacha qismi.

12-variant

1. $\int \frac{36dx}{(x+2)(x^2-2x+10)}.$

2. $\int \frac{dx}{2\cos x - \sin x + 3}.$

3. $\int \frac{\sqrt[6]{x}dx}{1+\sqrt[3]{x}}.$

4. $\int \frac{\sqrt[3]{(1+\sqrt{x})^2}}{x \cdot \sqrt[6]{x^5}} dx.$

5. $\int_0^{e-1} \ln^2(x+1)dx.$

6. $\int_{-\frac{\pi}{2}}^{0} 2^8 \sin^2 x \cos^6 x dx.$

7. $\int_{-2}^{-1} \frac{x-3}{\sqrt{2x^2-4x-1}} dx.$

8. l: $y^2 = 2x+1$ parabolaning $x=0$ dan $x=7$ gacha qismi, Ox.

9. $x = a(t-\sin t),\ y = a(1-\cos t)$, b.a., Oy.

10. l: $y = ach\frac{x}{a}$ zanjir chiziq yoyining $x=-a$ dan $x=a$ gacha qismi.

13-variant

1. $\int \frac{x^2+3x+1}{(x+1)(x^2-x+1)} dx.$

2. $\int \frac{dx}{2\sin x + \cos x}.$

3. $\int \frac{dx}{\sqrt[3]{x}+\sqrt{x}}.$

4. $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt[4]{x}}}{x \cdot \sqrt[3]{x}} dx.$

5. $\int_0^{\frac{\pi}{2}} x^2 \sin\frac{x}{2} dx.$

6. $\int_0^{2\pi} \sin^2 x \cos^6 x dx.$

7. $\int_0^{\frac{1}{2}} \frac{2x+1}{\sqrt{1+x-3x^2}} dx.$

8. l: $r^2 = 9\cos 2\varphi$ limniskataniing $\varphi = 0$ dan $\varphi = \frac{\pi}{4}$ gacha qismi, Ox.

9. $xy = 6,\ x=1,\ x=4,\ y=0,\ Ox$.

10. l: $x^2+y^2=16$ aylananing Oy o‘qdan o‘nq tomonda yotgan yarim qismi.

14-variant

1. $\int \frac{3x+2}{(x+1)(x^2+2x+2)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{\cos x - 3\sin x}.$

3. $\int \frac{1+\sqrt[3]{x-1}}{\sqrt{x-1}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[4]{1+\sqrt[3]{x^2}}}{x\cdot\sqrt[6]{x^5}}dx.$

5. $\int\limits_0^{\frac{\pi}{3}} \frac{xdx}{\cos^2 x}.$ **6.** $\int\limits_0^{\pi} 2^4 \sin^4 x \cos^4 x dx.$

7. $\int\limits_0^{\frac{1}{2}} \frac{4x+1}{\sqrt{2+x-x^2}}dx.$

8. l: $r = 4\cos\varphi$ egri chiziq yoyi, $Ox.$

9. $y = ach\frac{x}{a}$, $-a \le x \le a$, $Ox.$

10. l: $x = 3\cos^3\frac{t}{2}$, $y = 3\sin^3\frac{t}{2}$ astroidaning uchinchi kvadrantdagi qismi.

15-variant

1. $\int \frac{5x+2}{(x+3)(x^2+2x+2)}dx.$ **2.** $\int \frac{\sin x dx}{1+\sin x+\cos x}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x+1}-1}{\sqrt[3]{x+1}+1}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[5]{1+\sqrt[5]{x^6}}}{x^2\cdot\sqrt[25]{x^{11}}}dx.$

5. $\int\limits_0^{\sqrt{e}} x^2 \ln x dx.$ **6.** $\int\limits_0^{2\pi} \cos^8 \frac{x}{4}dx.$

7. $\int\limits_{-\frac{1}{2}}^{\frac{3}{2}} \frac{4x-1}{\sqrt{4x^2+4x+17}}dx.$

8. l: $r = 2(1-\cos\varphi)$ kardioidaning $\varphi = -\pi$ dan $\varphi = -\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, $Ox.$

9. $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$, $Oy.$

10. l: $r = 2\cos\varphi$ egri chiziq yoyining $\varphi = -\frac{\pi}{4}$ dan $\varphi = \frac{\pi}{4}$ gacha qismi.

16-variant

1. $\int \frac{5x-3}{(x+1)(x^2+1)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{3\sin x-\cos x};$

3. $\int \frac{1+\sqrt[3]{x}}{x(\sqrt{x}+\sqrt[6]{x})}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt{1+\sqrt[3]{x}}}{x\cdot\sqrt{x}}dx.$

5. $\int_1^e \ln^3 x dx.$ **6.** $\int_0^{\pi} 2^4\sin^2\frac{x}{2}\cos^6\frac{x}{2}dx.$

7. $\int_0^{\frac{3}{2}} \frac{2x-8}{\sqrt{1-x+x^2}}dx.$

8. $l:\ x=e^t\sin t,\ y=e^t\cos t$ egri chiziq yoyining $t=0$ dan $t=\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, Oy.

9. $r=a(1-\cos\varphi),$ qutb o‘qi.

10. $D:\ r^2=9\cos 2\varphi$ limniskataning birinchi halqasi bilan chegaralangan.

17-variant

1. $\int \frac{12-6x}{(x+2)(x^2-4x+13)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{3\cos x+5}.$

3. $\int \frac{1+\sqrt{x}}{x(1+\sqrt[3]{x})}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[3]{(1+\sqrt[3]{x})^2}}{x\cdot\sqrt[9]{x^5}}dx.$

5. $\int_0^{\pi} x^3\sin x dx.$ **6.** $\int_0^{2\pi}\sin^6 x\cos^2 x dx.$

7. $\int_0^2 \frac{2x-1}{\sqrt{x^2-3x+4}}dx.$

8. $l:\ x=\frac{y^2}{4}-\frac{\ln y}{2}$ egri chiziq yoyining $y=1$ dan $y=e$ gacha qismi, Oy.

9. $y=(x-2)^2,\ x=4,\ y=0,\ Oy.$

10. $D:\ y=\sin x$ sinusoida va Ox o‘qining $[0;\pi]$ kesmasi bilan chegaralangan.

18-variant

1. $\int \frac{2x^2+2x+10}{(x-1)(x^2+2x+5)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{3\sin x - 4\cos x}.$

3. $\int \frac{\sqrt[6]{x}dx}{\sqrt{x}+\sqrt[3]{x}}.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[4]{(1+\sqrt[5]{x^4})^3}}{x^2\cdot\sqrt[5]{x^2}}dx.$

5. $\int_{-2}^{0}(x^2-4)\cos 3x dx.$ **6.** $\int_{-\pi}^{0} 2^8\sin^6 x\cos^2 x dx.$

7. $\int_{0}^{2}\frac{x-4}{\sqrt{2x^2-x+7}}dx.$

8. $l:\ x=\cos t,\ y=1+\sin t$ egri chiziq yoyi, $Ox.$

9. $x=a\cos^3 t,\ y=a\sin^3 t,\ Oy.$

10. $D:\ y^2=3x$ va $x^2=3y$ egri chiziqlar bilan chegaralangan.

19-variant

1. $\int \frac{3x+7}{(x+2)(x^2+2x+3)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{8+4\cos x}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x}}{1-\sqrt[4]{x}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[5]{(1+\sqrt[3]{x^2})^4}}{x^2\cdot\sqrt[5]{x}}dx.$

5. $\int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{3}}\frac{xdx}{\sin^2 x}.$ **6.** $\int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} 2^8\sin^8 x dx.$

7. $\int_{1}^{5}\frac{2x+3}{\sqrt{x^2-2x+10}}dx.$

8. $l:\ x=4-\frac{t^2}{2},\ y=\frac{t^3}{3}$ egri chiziq yoyining $t=0$ dan $t=2\sqrt{2}$ gacha qismi, $Oy.$

9. $y=\arcsin x,\ y=\arccos x,\ y=0,\ Oy.$

10. $D:\ x=4\cos^3 t,\ y=4\sin^3 t\ \left(0\le t\le\frac{\pi}{2}\right)$ astroida yoyi bilan chegaralangan.

20-variant

1. $\int \frac{4x+3}{(x-2)(x^2+x+1)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{3\cos x - 4\sin x + 4}.$

3. $\int \frac{\sqrt[3]{x}}{1+\sqrt{x}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt{1+\sqrt[4]{x^3}}}{x^2 \cdot \sqrt[8]{x}}dx.$

5. $\int\limits_{\frac{\pi}{4}}^{3}(3x-x^2)\sin 2x dx.$ **6.** $\int\limits_{\frac{\pi}{2}}^{\pi}2^8\sin^4 x\cos^4 x dx.$

7. $\int\limits_{-2}^{0}\frac{2x+5}{\sqrt{4x^2+8x+9}}dx.$

8. $l:\ \frac{x^2}{9}+\frac{y^2}{25}=1$ ellipsning $y=0$ dan $y=5$ gacha qismi, Oy.

9. $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1,\ Ox.$

10. $D:\ r=2(1-\cos\varphi)$ kardioida bilan chegaralangan.

21-variant

1. $\int \frac{5x^2+17x+36}{(x+1)(x^2+6x+13)}dx.$ **2.** $\int \frac{\cos dx}{2+\cos x}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x}dx}{1+\sqrt[3]{x^2}}.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[3]{1+\sqrt{x}}}{x\cdot\sqrt[3]{x^2}}dx.$

5. $\int\limits_{-1}^{0}x^2\ln(1-x)dx.$ **6.** $\int\limits_{0}^{\pi}2^4\sin^4\frac{x}{2}\cos^4\frac{x}{2}dx.$

7. $\int\limits_{2}^{3}\frac{x+6}{\sqrt{4x-3-x^2}}dx.$

8. $l:\ r=\frac{1}{\sin^2\frac{\varphi}{2}}$ egri chiziq yoyining $\varphi=0$ dan $\varphi=\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, Ox.

9. $2x+2y-3=0,\ y=\frac{x^2}{2},\ Ox.$

10. $D:\ \frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{16}=1$ ellips va koordinata o‘qlari $(y\ge 0,\ x\ge 0)$ bilan chegaralangan.

22-variant

1. $\int \frac{2x+22}{(x+2)(x^2-2x+10)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{\sin x - 3\cos x + 2}.$

3. $\int \frac{\sqrt[6]{x+3}}{\sqrt{x+3}+\sqrt[3]{x+3}}dx.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[4]{(1+\sqrt[3]{x})^3}}{x\cdot\sqrt[12]{x^7}}dx.$

5. $\int_0^{\pi}(x+1)^2\cos\frac{x}{2}dx.$ **6.** $\int_0^{2\pi}\sin^8\frac{x}{4}dx.$

7. $\int_{\frac{1}{3}}^{\frac{4}{3}}\frac{2x+3}{\sqrt{8+6x-9x^2}}dx.$

8. $l:\ x=2(t-\sin t),\ y=2(1-\cos t)$ sikloidaning bir arkasi, Oy.

9. $x=t^2,\ y=1-\frac{1}{3}t^3,$ b.h., Ox.

10. $D:\ y=(x-2)^2,\ x=0,\ y=0$ chiziqlar bilan chegaralangan.

23-variant

1. $\int \frac{2x^2+7x+7}{(x-1)(x^2+2x+5)}dx.$ **2.** $\int \frac{dx}{2\sin x - 3\cos x}.$

3. $\int \frac{dx}{x(\sqrt[3]{x}+\sqrt{x})}.$ **4.** $\int \frac{\sqrt[5]{(1+\sqrt{x})^4}}{x\cdot\sqrt[10]{x^9}}dx.$

5. $\int_1^{e}\frac{3\ln x}{x^2}dx.$ **6.** $\int_{-\frac{\pi}{2}}^{0}2^8\cos^8 x dx.$

7. $\int_{-\frac{1}{3}}^{0}\frac{4x-3}{\sqrt{2-6x-9x^2}}dx.$

8. $l:\ r=5(1+\cos\varphi)$ kardioidaning $\varphi=0$ dan $\varphi=\frac{\pi}{2}$ gacha qismi, Oy.

9. $x=a\cos t,\ y=b\sin t,\ -\frac{\pi}{2}\le x\le\frac{\pi}{2},\ Oy.$

10. $D:\ x^2+y^2=16$ aylananing $\varphi=60^o$ li markaziy burchagi bilan chegaralangan.

24-variant

1. $\int \frac{x^2+3x+1}{(x-1)(x^2-6x+13)}dx.$

2. $\int \frac{dx}{2\cos x-4\sin x+5}.$

3. $\int \frac{\sqrt{x+1}+1}{\sqrt{x+1}-1}dx.$

4. $\int \frac{\sqrt[3]{(1+\sqrt[4]{x^3})^2}}{x^2\cdot\sqrt[4]{x}}dx.$

